ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

4-son
(Iyul-Avgust)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Milliy qadriyatlar asosidagi t'alim - tarbiya – kelajak avlodning raqobatbardoshligini ta'minlaydi
		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
R. Fayzullayev	6	Oliy ta'lim muassasalari talabalari fanlarni mustaqil o'zlashtirishida bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish
I. Matyakubov	10	Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli
L. To'raqulov	14	Oilaviy "mehribonlik uy"larini tashkil etilishi va yetim bolalarga g'amxo'rlik qilishning ijtimoiy psixologik omillari
R. Rashidova	18	Bo'lajak pedagoglar kommunikativ kompetensiyalarining tarkibiy qismlari va ularni shakllantirish
O. G'aniyev	22	Bo'lajak o'qituvchilar metametodik kompetensiyasining mazmuni va mohiyati
O'. Yo'ldoshev	26	Pedagogika metodologiyasi o'qituvchi metodologik madaniyatini shakllantirishning asosi sifatida
M. Begmatov	31	O'rta maktablarda xorijiy tillarni intensiv o'rgatishda vujudga keladigan muammolar va ularning yechimi
K. Abrorxonova, M. G'ofurova	38	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ tafakkurlarini rivojlantirishning nazariy asoslari
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
M. Kuchkarov	41	Maktab laboratoriysida ammiak olish tajribasini kimyo sanoat texnologiyalariga muvofiq tashkil etishning uslubiy masalalari
E. Jabborov	47	Tasviriy san'atdagi shakl va mazmun birligining shaxs ma'naviyatiga ta'siri
M. Xalimov	51	Chizmachilik darslarida talabalar fazoviy tasavvurini oshirishga mo'ljallangan ijodiy vazifalarni ishlab chiqish metodikasi
G. Eshqulova	58	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishning tashkiliy-metodik jihatlarini takomillashtirish
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
D. Saidova	62	Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining qadriyatlar orientatsiyasini shakllantirish omillari – aksiologik muammo sifatida
		MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT
U. Uktamova	67	Talaba-qizlarda tazyiq va tajovuzga qarshi dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy asoslari
F. Ro'ziyeva	71	Shaxs ma'naviyatini tarbiyalashda Alisher Navoiy ijodining o'rni
		TA'LIMDA MENEJMENT
T. Kulniyazov	74	Talabalar muhitini uyg'unlashtirish tyutorning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini optimillashtirish va takomillashtirish mezoni sifatida
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT

B. Ma’murov	80	Jismoniy tarbiya va sport sohasida oliy ta’lim dasturlarini takomillashtirish imkoniyatlari
E. O‘rinboyev	84	Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning sport mashg‘ulotlarining o‘ziga xos xususiyatlari
TA’LIMDA IQTISODIYOT VA MOLIYALASHTIRISH		
S. Sharipov	90	Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari
KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH		
G. Ergasheva, M. Usmonova	93	Respublikamizda kasbga yo‘naltirish ishlarini uzviy tashkil etishning pedagogik-psixologik aspektlari
MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH		
Sh. Nurullayeva	97	O‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi uzluksiz kasbiy rivojlantirishning asosi sifatida
Sh. Meliboyeva	102	Malaka oshirish kurslarida pedagog-tarbiyachilar kompetentligini takomillashtirish
MADANIYAT, SAN’AT VA MUSIQA TA’LIMI		
X. Mamajonova	107	Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zbek xalq cholg‘u asboblari vositasida musiqiy ijodkorlikni shakllantirish
MAKTABGACHA TA’LIM		
M. Rizayeva	113	"Muloqot" – maktabgacha ta’lim tashlilotida asosiy ta’lim-tarbiya vositasi sifatida
Sh. Karimova	116	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilari malakasini oshirishning samarali metod, shakl va vositalari
TA’LIMDA SIHAT-SALOMATLIK VA HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI		
Sh. Xolliyeva	120	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari sinf xonasiga qo‘yiladigan gigiyenik talablar
ILM MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR		
N. Botirova	124	Axborot ta’lim muhitini takomillashtirishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish
ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ		
Ё. Турганов	129	Совершенствование оценочной компетентности как фактор повышения качества подготовки будущих учителей начальных классов
МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ		
С. Хамидова	134	Приемы активизации художественного восприятия
G. Nabiyev	139	Developing entrepreneurial competence among students

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDAGI TA'LIM-TARBIYA – KELAJAK AVLODNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLAYDI

Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq, avvalo, ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega.

Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar milliy tarbiya tufayli. Milliy tarbiya – inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Milliy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni ham anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradilar.

Hozirgi globallashuv sharoitida aholining keng qatlamlarida, ayniqsa yoshlarda milliy g'oyaga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg'ularini, yuksak ma'naviy-axloqiy qarashlarni tarbiyalashning, ularda mafkuraviy-ma'naviy immunitetni shakllantirishning dolzarbligi yanada oshmoqda. Milliy tarbiya, milliy ma'naviyat mamlakatimiz va yoshlarimizga qarshi qaratilgan mafkuraviy-ma'naviy xurujlar hamda yovuz kuchlardan himoya qilishda qudratli ekanligi shubhasiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan".

Yoshlarimizni yuksak ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash, ularda ma'naviy jasorat tuyg'usini shakllantirish turli mafkuraviy-ma'naviy tahdidlardan himoya qilishning muhim omilidir.

Tarbiya masalasi ona qornidan boshlanishi, oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida davom ettirilib, umumta'lim maktablarida izchil amalga oshirilishi jamiyatda buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar yetishib chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Ana shu sababdan ham ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar. Bunda eng muhimi, ta'lim-tarbiya tizimida xalqimizga xos milliy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga hamohang usullarni topish va amaliyotga joriy etish lozim.

Yoshlarimiz qalbiga tarixni anglash va qadrlash, o'tmishga hurmat bilan yondashish, ularni asrab-avaylash, shu xalqqa mansubligi bilan g'ururlanish tuyg'ulari singdirish ulkan ahamiyatga ega.

Kelajak yoshlarining qiyofasi millatning bugungi milliy tarbiyasi, mentaliteti, madaniyatining o‘zaro dialektik munosabati vositasida shakllanadi. Ma’naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o‘z aqli, o‘z tafakkuri, o‘z mehnati, o‘z mas’uliyati bilan ozod inson bo‘lib yashaydi.

Uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta’limdan bo‘sh vaqtida amalga oshiriladigan qo‘shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo‘lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta’lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermay qoldi. Tarbiyada yo‘l qo‘yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Davlatimiz hamisha demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini o‘zining asosiy ustuvor yo‘nalishlari qatoriga qo‘yib kelgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va qonunchilik jarayoni o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismonan va ma’nan yetuk insonlar qilib tarbiyalashga, ularning jamiyatda o‘z o‘rniga ega va albatta biror kasb yoki hunar egasi bo‘lib yetishishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Dunyoda ma’naviy tahdidlar xavfi ortib borayotgan bir davrda mustaqil va sog‘lom fikrlaydigan, ajdodlarga yuksak hurmat ruhida ularga munosib bo‘lishga intiladigan avlodni tarbiyalash respublikamizda davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan ekan, bu jarayonda faol ishtirok etish har birimizning muqaddas burchimizdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, yoshlarimiz qalbi va ongini milliy tarbiya asosida olib borilishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy davlatchilik asoslari milliy o‘zlikni anglash tamoyili bilan tobora mustahkamlanmoqda. Milliy-ma’naviy yangilanish, qadriyatlar qayta tiklanishi, iqtisodiy yuksalish taraqqiyot omiliga aylandi.

Yoshlarimizni har kuni, har onda fidoyi bo‘lishi, o‘zining tomchi va tomchi, zarrama-zarra o‘z oldiga qo‘ygan buyuk bunyodkorlik, yaratuvchanlik maqsadlar sari charchamay, toliqmay safarbar etib borishi, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirib borishi bu ulardagi milliy tarbiya, milliy ma’naviyat ifodasidir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ham aynan tarbiya bilan bog‘liq. Darhaqiqat, buyuk faylasuf Aflotun “Yaxshilar mas’uliyat bilan ish qilishlari uchun qonunlarga muhtoj bo‘lmaydilar. Yomonlar qonunlarga chap berish uchun yo‘l topadilar” deya bejiz aytmagan. Milliy tarbiyaga ega bo‘lmagan, milliy ma’naviyat qadrlanmagan jamiyatda na qonunlar ishlaydi, na mehr-oqibat g‘alaba qozonadi.

Rustam FAYZULLAYEV,
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Milliy tadqiqot universiteti, "Professional ta'lim va jismoniy madaniyat" kafedrasi v.b., dotsenti

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI FANLARNI MUSTAQIL O'ZLASHTIRISHIDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada Oliy ta'lim muassasalari talabalari fanlarni mustaqil o'zlashtirishida bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, talabalarning mustaqil bilim olishlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga doir tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Mustaqil bilim, mustaqil o'qish, ta'lim, didaktik jarayon, o'zlashtirish, didaktik vositalar.

Статья содержит рекомендации по формированию знаний, умений и навыков студентов высших учебных заведений при самостоятельном изучении предметов, развитию самостоятельных знаний и умений студентов.

Ключевые слова. Самостоятельное получение знаний, самостоятельное чтение, обучение, дидактический процесс, овладение, дидактические средства.

The article contains recommendations for the formation of knowledge, skills and abilities of students of higher education institutions in the independent study of subjects, the development of independent knowledge and skills of students.

Key words. Independent acquistion of knowledge, independent reading, education, didactic process, mastery, didactic tools.

Mustaqil faoliyat muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni amalga oshirishga xizmat qiladi, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib, mustaqil ish turlari bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqiladi. Mustaqil ishlarni bajarish va mustaqil ta'limning ijobiy xususiyatlari olimlardan V. I. Andriyanovaning o'zbek maktablarining 5-6-sinflarida rus tili darsida mustaqil ish bajarishni o'rgatish, O. B. Berdiyevaning geometriya ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish metodikasi, E. I. Zakinovning 6-8-sinflarda mustaqil ishlarni tashkil qilishning pedagogik asoslari, O'. N. Sultonovaning fizikadan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasi, Sh. Yunusovaning o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish, Z. Nishonova, J. Tolipova va N. Xalilovlarning mustaqil ta'lim shakllari haqidagi tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Pedagog olim S. Matjonovning tadqiqot ishi o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishga bag'ishlangan bo'lib, unda darslarda o'quvchilarning og'zaki va yozma ijodiy ishlarini tashkil etish masalalari tadqiq qilingan. Zero, ma'naviy barkamol avlodni shakllantirishda ijodiy ishlar

va mustaqil faoliyat yuritish o‘z-o‘zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil tafakkur, o‘z nuqtayi nazariga ega bo‘lmagan o‘quvchi ijodkor bo‘la olmaydi, mustaqil faoliyat yurita olmaydi. Oliy ta’lim tizimida T. R. Niyazmetovaning “O‘zbek tili va adabiyoti darslarida mustaqil ish bajarish uslubiyati” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida umumiy o‘rta ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish yo‘llari va uning o‘quvchini faollashtirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. O. Qo‘ysinov “Kasb ta’limi” yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan bo‘lajak bakalavr o‘qituvchilarda mustaqil bilim olishga qiziqish va qobiliyatni pedagogik madaniyatni takomillashtirishga oid ilmiy ishlarida mustaqil bilim olish usullariga to‘xtalib o‘tgan. Bizning tadqiqot ishimiz oliy ta’lim tizimidagi barcha yo‘nalishlardagi talablarning ta’lim jarayonida mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishga oid bo‘lib, talabalar tomonidan mustaqil ravishda javob yozishni (referat yoki hisobot shaklida) talab etuvchi savollar, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqilishi haqida. Biz shartli ravishda tajribamizdan kelib chiqib, mustaqil ishlarni uch turga ajratishni tavsiya qilamiz:

1. Yozma mustaqil topshiriqlarga quyidagilar kiradi: hisoblash uchun berilgan vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to‘ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish, laboratoriya, amaliy ishlar to‘g‘risida hisobotlar tuzish, turli organayzerlar asosida talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqalar.

2. Grafik mustaqil topshiriqlarga quyidagilarni kiritish mumkin: turli loyihalarni tayyorlash, chizmachilik ishlarini eskizlashtirish, kesmalar va kesishmalarni tasvirlash (ayrim detal va tugunlarni chizib ko‘rsatish va hokazo), chizmalar, grafiklar, diagrammalarni tuzish, kuzatish natijalarini tasvirlash va shunga o‘xshash vazifalarni o‘z ichiga oladi.

3. Amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriqlarga quyidagi vazifalarni kiritish mumkin: talabalar o‘qituvchining topshirig‘i asosida mustaqil ishni bajarish jarayonida buyum va mahsulotlarni tayyorlash, jihoz va asbob-uskunalarni ta’mirlash, mahsulotga ishlov berish, hisoblash, yangi moslamalarni loyihalash, maket va modellar, namunalar tayyorlash kabi ishlarni amalga oshiradilar. Mustaqil ishlar individual-didaktik maqsadlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan ham 4 guruhga bo‘linadi: bilimlarni dastlabki shakllanishiga, idrok qilishga undaydigan vazifalar. Bunda talabalar maqsadga erishishi uchun nima talab qilinishini bilishi lozim. Vazifalar – axborotlar, ma’lumotlarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘ladi; o‘zlashtirishga axborot, ma’lumotlarni xotirada saqlash va qayta jonlantirish, qayta ishlashga qaratilgan topshiriqlar. Bunda avval egallangan bilimlarni to‘g‘ri jalb qilish, faollashtirish asosida bajariladigan hamda aniq sharoitda tatbiq etish talab qilinadigan vazifalar beriladi; avval o‘zlashtirilgan, qolipga tushgan, tajriba to‘planishi natijasidagi bilim, malaka, ko‘nikmalarga yangicha nuqtayi nazardan yondashishni talab qiluvchi topshiriqlar. Ularda masalaning mohiyatini izlash, yangicha yechimlar topish, yangicha g‘oya, fikrlar bilan ifodalashni talab etiladigan vazifalar beriladi; ijodiy faoliyatga undovchi topshiriqlar. Bunda yangi yoki oldindan ma’lum bo‘lsa-da, ungacha boshqacha nuqtayi nazardan qaralgan g‘oya, fikrlarni tadqiq qilish, ya’ni axborotlar to‘plash, ular ustida ishlash, o‘z fikrini bildirishga undaydigan topshiriqlar, vazifalar beriladi. Bugungi kunda malakali mutaxassis tayyorlash jarayonini mustaqil ishlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki, aynan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlash reflekslari rivojlantiriladi. Ammo mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonida ma’lum qiyinchiliklar va muammolar ham mavjud: tarqatma materiallarni tayyorlash masalasidan iborat. Pedagog tomonidan tayyorlangan tarqatma materiallar har bir talaba uchun ko‘paytirilishi lozim. Talabalar soni o‘rtacha 20

nafar bo‘lishi mumkin. Har bir tarqatma materialni 20 tadan ko‘paytirish uchun ma’lum mablag‘ talab etiladi. Pedagog har gal o‘z hisobidan mablag‘ ajratish imkoniga ega emas; dars jarayonida tashkil etiluvchi mustaqil ishlarni ba’zan kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish usulidan foydalangan holda o‘tkazish talab etiladi. Buning uchun kichik guruhlarda ishlashga qulay auditoriyalar talab etiladi, ammo bunday imkoniyatlar ayrim oliygohlarda hozircha yo‘q; ko‘pchilik pedagoglar mustaqil ishlarni tashkil etish mahoratiga ega emas; mustaqil ishlarni bajarish uchun talabalar talab etiluvchi bilimlar bilan yaxshi qurollangan, mavzuni chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishlari lozim. Agar ma’ruza darsida talaba yetarli tushunchaga ega bo‘lmagan bo‘lsa, u topshiriqni ijobiy hal etish imkoniga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun mustaqil ishlarni tashkil etishda avvalambor bilimlarni faollashtirish, eslash, korrektirovka qilish va yagona xulosaga kelish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda fan-ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonini ham alohida e’tiborga olib, bitiruv malakaviy ish mavzularini buyurtmachilar bilan maslahatlashgan holda tanlash maqsadga muvofiqdir. Bitiruv malakaviy ishlarning natijalari buyurtmachilar tomonidan baholanadi va real vaziyatlarda ulardan foydalaniladi. Auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlar loyiha va keys-stadi usulidan foydalangan holda o‘tkazilishi talabalarda ijodiy ko‘nikmalarning rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Mustaqil faoliyatni tashkil etish jarayonida o‘qituvchi ko‘proq didaktik materiallardan foydalanadi. Didaktik materiallarga o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash hamda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan muammoli, qiziqarli savollar, ijodiy topshiriqlar, loyihalar o‘yinlar, krossvordlar kabi materiallar kiradi. Didaktik topshiriqlar va materiallarni ishlab chiqishda quyidagilarga e’tibor berishni mutaxassislar tavsiya qilishgan:

1. Muammolarni hal qilishga yo‘naltirish.
2. Tadqiqotlar olib borishga yo‘naltirish.
3. Turli vaziyatlar va holatlar tahliliga qaratish.
4. Tajribalar va mashqlar o‘tkazishga mo‘ljallash.
5. Yangiliklarni izlash va topishga yo‘naltirish.
6. Mustaqil ishlarni tashkil etishda “oddiydan-murakkabga” hamda “umumiydan-xususiyga”, “mavhumdan-aniqlikka” qarab harakatlanishni ta’minlash lozim. Auditoriyada mustaqil faoliyatni tashkil etishga oid yuqoridagi talablar tizimi bilan tanishib chiqqach, o‘qituvchi auditoriyada olib borish mumkin bo‘lgan didaktik o‘yinlar bilan talabalarni tanishtiradi (organayzerlar, interfaol metodlar, mustaqil topshiriqlar). Talabalarni bir necha guruhga bo‘ladi va har bir guruhga alohida vazifa topshiradi. Har bir guruh o‘ziga topshirilgan vazifa bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi. Talabalar faoliyati individual holda tashkil etilib, ularning o‘zlariga o‘tilayotgan kurs bo‘yicha auditoriyadan tashqarida mustaqil faoliyatni tashkil etish jadvalini to‘ldirish taklif etiladi.

Ushbu faoliyat natijalarini tahlil etish uchun ekspertlar guruhi tayinlanadi. Ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta’lim olishiga alohida e’tibor qaratilishi, ta’lim oluvchilarda mustaqil fikr va ijodiy fikrni rivojlantirish masalasi ta’limning dolzarb vazifalaridan biridir. Talabalarning mustaqil tahsili ularni o‘z bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko‘nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishidir. Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirishda o‘z ustida ishlash ustunligidir. Mustaqil tahsilning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng zarur axborotni topish, unga baho berish, ushbu axborotdan o‘zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Talabalar

mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlari, shuningdek, har bir talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi mexanizmlardan foydalaniladi:

– ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;

– siyosiy-madaniy ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni tadqiq qilishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarni konspekt qilish;

– seminar va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;

– berilgan mavzular bo‘yicha referat axborot tayyorlash;

– o‘rganilayotgan fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi referatlar yozish;

– muammoli vaziyatlarning yechimini topish;

– keys-stadi asosida mustaqil faoliyatni tashkil etish;

– kasbga oid bo‘lgan loyihalarni tayyorlash.

O‘quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o‘zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko‘rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ishlar auditoriyadan tashqarida amalga oshirilgan mustaqil ishlar qatoriga kiradi. Birinchi turdagi ishlar – talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o‘zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg‘ulotlarga (amaliyot, laboratoriya, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suhbat, munozara, amaliy topshiriqlarni bajartirib ko‘rish va hokazo. Ikkinchi turdagi ishlar fanning ishchi o‘quv dasturida auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishi belgilangan mavzu bo‘yicha ma’lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o‘zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o‘zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgilangan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi. Kurs ishi va loyihasi hamda bitiruv ishlarini tashkil qilish bo‘yicha olib boriladigan faoliyat ham auditoriyadan tashqarida olib boriladigan mustaqil ishlar qatoriga kiradi. Mustaqil ishlar joriy o‘quv jarayoni bilan birgalikda va uzviy bog‘liqlikda olib boriladi. Mustaqil ravishda bilish doirasini kengaytirish hamda qo‘shimcha nazariy va amaliy materialni egallash talaba egallayotgan kasbiy malaka va ishlab chiqarishda mustaqil ishlay bilish ko‘nikmasini orttirish bilan chambarchas bog‘langan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyev J., To‘raqulov X. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiyalar, 2009. – 355-b.

2. Mavlonova R., Raxmankulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Xafizov S. Pedagogika. Darslik. –T.: Fan va texnologiyalar.

3. Yarmatov R. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish. – T.: Fan va texnologiya, 2009.

4. Boltaboyev S. A. Bo‘lg‘usi kasb ta’lim talablarida axborotdan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – T.: Nizomiy TDPU, 2016.

5. Muslimov N. A., Qo‘ysinov O. A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. –T.: Fan, 2009.

Izzat MATYAKUBOV,
O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi maktabgacha ta’lim tashkilolari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, “Musiqa ta’limi” kafedrasi PhD, dotsent v.v.b

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINI AMALIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Annotatsiya

Ushbu maqolada musiqa dasrlarining to‘g‘ri olib borilishi va musiqiy tarbiyaning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish asosi bo‘lishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Musiqa, o‘quvchi, kompetensiya, ovoz, xor, cholg‘u asboblari, xotira.

В данной статье речь идет о правильном проведении уроков музыки и правильной организации музыкального образования, которая станет основой для развития практических компетенций будущих учителей музыки.

Ключевые слова. Музыка, ученик, компетенция, голос, хор, музыкальные инструменты, память.

This article is about the proper conduct of music lessons and the proper organization of music education, which will be the basis for the development of practical competencies of future music teachers.

Key words. Music, reader, competence, sound, chorus, musical instruments, memory.

XX asrning buyuk kompozitori D. Shostakovich musiqiy tarbiyaning juda muhim ahamiyati haqida gapirib, qiz va yigitlarga yuzlanib, shunday degan edi: – “Musiqadek buyuk san’atni seving va o‘rganing”. U sizga bir olam yuksak tuyg‘ular, g‘oyalar, zavq, havaslar olamini ochib beradi. U sizni ma’naviy jihatdan sofroq, boyroq va barkamolroq qiladi, musiqa tufayli siz o‘zingizda yangi, avvallari o‘zingizga sezilmagan kuchlarni topasiz. Siz hayotni yangi rang va bo‘yoqlarda ko‘rasiz. Musiqa sizni jamiyatimizning muddoasi bo‘lgan eng barkamol inson idealiga yaqinlashtiradi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari albatta, o‘zlari ham musiqa bilan shug‘ullangan bo‘lishlari, musiqa borasida ta’lim olgan bo‘lishlari kerak. Boshlang‘ich sinflarda musiqa ta’limining poydevori shakllanadi. Shuning uchun bog‘cha yoshidan e’tiboran, bolalarda musiqiy taassurotlarini tarkib toptirish, ularni musiqaga qiziqtirish hamda zarur musiqiy ko‘nikma va malakalarini hosil qilish asosiy vazifa qilib qo‘yiladi. Musiqa madaniyati darslarida, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari o‘zlari sevgan qo‘shiqlar, musiqali o‘yinlar va raqslar bilan yaqindan do‘stlashib, chiroyli va yoqimli qo‘shiq kuylashni o‘rganadi va musiqa tinglash madaniyati bilan tanishadilar.

Mustaqillik yillarida uzluksiz ta’lim tizimi muassasalarida o‘qitiladigan barcha musiqa fanlari mazmuni ham milliy istiqlol g‘oyasi asoslari negizida qaytadan shakllantirildi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘zbek xalqining boy musiqiy merosini, asrlar osha sayqal topib kelgan mumtoz asarlarni izchillik bilan o‘rganish va ularning badiiy ruhiyatidan foydalangan holda yuksak badiiy didni shakllantirish muhim

ahamiyatga molik masaladir. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari o‘sib kelayotgan yosh avlodni o‘zbek mumtoz musiqasi bilan tanishtirish, ularda ilgari surilgan g‘oyalar bilan tanishtirish asosida ularning nafosat hissi va badiiy-musiqiy tushunchalarga ega bo‘lishida muhim rol o‘ynovchi shaxslar sanaladi. Shu sababli oliy ta’lim jarayonida ularning chuqur musiqiy bilimlarga ega bo‘lishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish talab etiladi. Ta’lim jarayonida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining o‘zbek mumtoz musiqasi namunalari – maqomlar va mumtoz ashulalar bilan yaqindan tanishishlari, shuningdek, milliy cholg‘u sozlari (xususan, g‘ijjak va rubob) da ijro eta olish ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirishlari ularda badiiy didni boyitishga imkon beradi.

Birinchi sinf o‘quvchilari, psixologik-fiziologik xarakterga ko‘ra, ma’lum darajada, diqqat-e’tibori, nutqi, xotirasi to‘liq rivojlanmagan bo‘ladi. Shu bois, serharakat va o‘yinga moyil bo‘ladilar. Ovoz apparatlari to‘liq shakllanmagani sababli, zaif va nozik, ovoz pardalari esa kuchsiz bo‘ladi. Ovoz kuchi va tembri bo‘yicha o‘g‘il va qizlar deyarli farq sezilmaydi. Shu sababli, ularda tovush falset tipida hosil bo‘ladi. 1-sinf o‘quvchilarining ovoz diapozoni – do – lya; do – do. Ayrim o‘quvchilarning ovozlari normal holatda bo‘lsa-da, ular sozga tusholmaydilar. Bunga sabab, ularda musiqa eshitish a’zosi bilan tovush hosil qilish apparati o‘rtasida baland-pastlikni sezish bo‘yicha umumiy muvozanat hali shakllanmagan bo‘ladi. Shu bois, bo‘lajak o‘quvchilarning musiqiy o‘quv qobiliyatlari har xil bo‘ladi. Shularni hisobga olgan holda, o‘quvchilarining musiqiy qobiliyatlarini sinchiklab o‘rganib, ularni differensial guruhlarga bo‘lib, joylariga o‘tkazish lozim. Sababi, har bir musiqa darslarida ta’lim oluvchilarning qo‘shiq o‘rganish bilan birga, ijodiy fikrlash qobiliyati, badiiy zavq olish, musiqiy o‘quvi, nutqi rivojlana boradi.

1-sinf o‘quvchilari ruhiy-fiziologik tavsifiga ko‘ra, ma’lum darajada xotirasi to‘liq rivojlanmagan, diqqat e’tibori, ovoz apparatlari to‘la shakllanmagani uchun, ovoz pardalari kuchsiz va nozik bo‘ladi. Bu yoshdagi o‘quvchilar san’atdan radio, televideniye, bog‘cha, qo‘g‘irchoq teatri va multiplikatsion filmlar orqali tanish bo‘ladi. Repertuarga kiritilgan musiqiy asarlar ana shu xususiyatlarini inobatga olgan holda, mavzusi va mazmuni jihatidan xilma-xil bo‘lishi lozim. Ushbu asarlar ularning hissiyotlarini ifodalash bilan birga tabiatni va kundalik turmushni aks ettirmog‘i kerak. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi o‘quvchilarni hayotiy tajribalariga asoslangan holda har bir musiqa zamirida ma’lum his-tuyg‘u va fikrlar aks ettirilishi haqida tushuntirishi kerak. Birinchi darslardanoq musiqa asarlarining o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmasligi, uni kimdir katta ijodiy mehnat asosida yaratishi haqida suhbat o‘tkazadi. Buning uchun “Musiqani kim yaratadi?”, “Kim tinglaydi?”, “Kim ijro etadi?” degan savollarni o‘rtaga tashlaydi. O‘rganiladigan asarning xarakterini obrazli qilib ifodalasa, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari uni tushunib mazmunini aniq qilib ochib bera oladilar[1]. Ma’lumki, 1-sinf o‘quvchilari musiqa haqida turli darajada umumiy bilimga ega bo‘lishadi. Ammo ularning musiqiy hayotdan olayotgan taassurotlari va musiqiy tajribalari bir-biriga yaqin turadi. O‘qituvchi sinf jamoasini birlashtirishda aynan shunday metodan foydalanishi kerak. Dars mazmunini hayot bilan bog‘lashda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarning tajribalari va taassurotlarining boyitib borilishi asosida musiqaning eng oddiy qonuniyatlari haqida bilim doiralari kengaytirib boriladi. 1-sinf o‘quvchilari musiqa haqida quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarilarning diqqat e’tibori musiqaning ifoda vositalari – kuy, registri temp, janr, ladlarga jalb etiladi. Ashula aytish qoidalariga doir bilimlar chapak va cholg‘u asboblarida chalish qoidalari, musiqaga mos harakatlar qo‘shiqlar janri xarakteri va tuzilishiga doir bilimlar haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari kerak.

[1] Matyakubov I. Bolalar musiqiy asarlarini akkompanementlashtirish va aranjirovkasi. 2022-y.

Musiqa ijodkori-kompozitor, ijrochi, tinglovchi haqida qisqacha tanishishlari kerak. Keyingi sinflarda mazkur bilimlar nisbiy tushunchadan aniq tushunchaga aylanadi. Shunday qilib 1-sinf bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari musiqaning xarakteri va obrazlari haqida umumlashma bilim va nisbiy tushunchalarga ega bo‘ladilar. Musiqa darslari beshta faoliyat asosida o‘tiladi: 1. Xor bo‘lib kuylash. 2. Musiqa savodi. 3. Musiqa tinglash. 4. Musiqa xarakteriga mos harakatlarni bajarish. 5. Ta’lim oluvchilar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish. Musiqa darsi dastur asosida rejalashtirilib, ko‘rgazmali qurollar bilan musiqa o‘qitishning og‘zaki amaliy, taqqoslash, uslublaridan foydalangan holda, darsda o‘quvchilarning e’tiborini o‘ziga jalb qilib, raqs elementlari, musiqali o‘yinlar o‘ynab, musiqaga mos qadam tashlash, chapak chalish, mayin ifodali qilib kuylash bilan metodik talablar asosida olib boriladi.

Ikkinchi sinf o‘quvchilari o‘zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko‘ra 1-sinf o‘quvchilariga o‘xshash bo‘ladi. Ularning diqqat e’tibori turg‘unligi ham yaxshi shakllanmagan bo‘ladi. Chunki ular o‘yin bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarga ko‘proq qiziqadi. Ovoz apparatlarining nozik, mo‘rtligi, to‘la shakllanmaganligi sababli ovozlari falset tipida yangraydi. Ovoz diapazoni Do 1 dan – Do 2 gacha bo‘ladi. Vokal-xor ishiga e’tibor kuchayadi. Musiqa ritmi, nutqi, kuy, temp, dinamika, o‘lchov haqidagi ma’lumotlar, ko‘nikma va malakalar aniq nazariy bilimga aylanadi. Musiqa darsini mustahkam o‘zlashtirishda 1-sinfda olingan bilimlarga tayanish zarur. Shuning uchun musiqa o‘qitishda uzviylik-sistemalik tamoyiliga amal qilish zarur. Musiqa tinglash musiqa faoliyatlarining yetakchisi hisoblanadi. Zero, darsda qo‘llaniladigan barcha musiqa materiallari asosan eshitib o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. 2-sinf tematikasida darsning badiiy kompozitsiyasi vujudga keladi. Darsning kulminatsion nuqtasi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida aktiv qiziqish uyg‘otadi. Badiiy emotsional kechinmalarni paydo qiladi. Shu orqali darsning emotsional dramaturgiyasiga erishish mumkin. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchi darsni ishonchli dalillar yordamida, ko‘rgazmali qurollar, texnika vositalari yordamida o‘tishi kerak. Dars rejasini tuzganda ijodiy yondashmog‘i, yaxshi tayyorgarlik ko‘rib puxta ishlab chiqishi zarur. 2-sinf o‘quvchilari musiqani chuqur idrok etishi uchun quyidagi faoliyat turlaridan, foydalaniladi: 1) xor bulib ashula aytish; 2) chapak va urma cholg‘u asboblarida musiqaga ritmik jo‘r bulish; 3) musiqa xarakteri va obrazlarini harakatlarda ifodalash.

O‘quvchilarni muttasil qo‘l harakatlariga o‘rgatib borish zarur: “diqqat”, “auf”, “ijroni boshlash”, “ijroni tugatish” kabi zarur dirijyorlik choralariga amal qilib kuylash kerak[2].

Kuylash vaqtida o‘zini tuta bilishni eslatib o‘tish kerak. 2-sinfda o‘quvchilar malakalarining oshib borishi fiziologik o‘sish munosabati bilan ovoz kuchi, diapazoni tembri o‘zgarib borishi ma’lum tizim asosida olib borishni talab etadi. Musiqa savodida navbatdagi malaka va bilimlar shakllanib, amalda bajarilishi kerak:

1) kuylarni ritmik sxemalarini bo‘g‘inli so‘zlar bilan kuylash (lya, do, mi, mi);
2) kuchli va kuchsiz hissalarni aniqlash va ularni his etib kuylash;
3) chapak va cholg‘u asboblarida chalib kuyga ritmik jo‘r bo‘lishi;
4) marsh va raqs xarakterini harakatlarda ifodalash;
5) lad haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

2-sinfda lad hissi tarbiyasi ancha oydinlashadi. Asar xarakterini belgilash bilan birga qo‘shiq, marsh va kuylarning minor hamda major uch tovushliklarini aniq bilib olish bilan belgilanadi. 2-sinf o‘quvchilarini ovoziga ham e’tibor berish kerak. Baqirib, kuchanib ashula aytishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Ovozlarida kamchilik sezilishi bilanoq,

[2] Matyakubov I. Xor va xorshunoslik. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2019.

shifokorga borishni uqirish kerak. Shunday qilib, 2-sinf o‘quvchilari musiqani tuzilishi va nota savodiga doir mazkur boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar hamda xor bo‘lib kuylashda o‘zini tutish, tinglangan asarlar yuzasidan suhbatlarda qatnashish, qo‘shiq mazmuniga mos emotsional kechinmalarni his etish, musiqa ohangiga mos harakatlar bajarish, musiqa ritmiga cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish, hikoya tuzish kabi malaka va ko‘nikmalarni shakllantiradilar. Har bir qo‘shiq ma'lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zda tutib tanlanadi. Qo‘shiqlarni tanlashda davomiylik, izchillik, ilmiylik va oddiydan murakkabga qarab borish tamoyiliga rioya qilinadi. Unda har bir yangi qo‘shiq oldingisidan hosil etilgan vokal-xor malakalarini mustahkamlaydi va ularni rivojlantiradi. Qo‘shiq diapazoni o‘quvchilar ovoziga mosligi, badiiy g‘oyaviy mazmuni yil, chorak mavzulari, yil fasllari, bayramlari, o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi kerak. Qo‘shiqlarni quyidagi talablarga ko‘ra tanlash tavsiya etiladi: qo‘shiqlarning siyosiy-g‘oyaviy mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati, musiqiy tuzilishi va xarakterining o‘quvchilar yoshiga mosligi; qo‘shiq ohangi, uning xarakteri (xushchaqchaq, quvnoq, marsh, mungli), ovoz diapazoni o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi; qo‘shiq matnining osonligi, badiiy yuksakligi, o‘quvchilarning lug‘at boyligiga mosligi va ularning nutqini o‘stirish uchun xizmat qilishi; qo‘shiqning badiiy xususiyati va ifodaviyligi, idrokiga mosligi, garmonik tuzilishi va ohangdoshligi; qo‘shiqning shakli, necha qismdan iboratliligi (1, 2 qismli yoki naqorat shaklida tuzilganligi), naqoratning mavjudligi.

Qo‘shiqni tanishtirishda o‘qituvchi qisqa, mazmunli, obrazli, qiziqarli hikoya qilib beradi. Qo‘shiq mazmunidagi axloq-odob, tabiat, ona Vatan, mehr-muhabbat haqidagi g‘oyalarni o‘quvchilar ongiga singdirib, ularda qiziqish uyg‘otadi. So‘ngra, qo‘shiqni ifodali qilib, mayin ovozda ijro etib beradi. Qo‘shiq mazmuniga mos tasviriy san’at suratlaridan yoki biror ko‘rgazmali vositadan foydalanish kerak.

Qo‘shiqni vaqti-vaqti bilan takrorlab kuylab turish lozim, aks holda uning matni o‘quvchilar xotirasidan ko‘tariladi va unga nisbatan qiziqish susayadi. Har bir darsda, ayniqsa, yangi qo‘shiqni o‘rgatishdan oldin, ilgari o‘rgatilgan qo‘shiqni takrorlab turish, o‘quvchilar ijrosidagi ayrim nuqsonlarni tuzatib borishga yordam beradi. O‘quvchilar toliqmasligi uchun qo‘shiq o‘rgatish shakllari o‘zgartirib turiladi. Masalan: guruhlarga bo‘lib o‘rgatish, yakkaxon va xor jo‘rligida yoki musiqiy harakatlar yordamida amalga oshirilib, o‘quvchilar ovoziga dam beriladi. Qo‘shiq mukammal o‘rgatilgandan so‘ng, ularning qiziqishi yanada ortadi. Shuningdek, dars shakllarini (noan’anaviy darslar) o‘zgartirib turish ham o‘quvchilar zerikishining oldini olib, qiziqishini kuchaytiradi. O‘quv yili davomida o‘quvchilarga 12-14 ta qo‘shiq o‘rgatiladi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning dastlabki, ya’ni maktab davridagi olgan musiqiy ta’limi, musiqiy didi, musiqiy tarbiyasi hamda musiqiy dunyoqarashi muhim o‘rinda turadi. Bu jarayonning yillar davomida to‘g‘ri olib borilishi va musiqiy tarbiyaning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matyakubov I. Xor va xorshunoslik. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2019.

2. Matyakubov I. Bolalar musiqiy asarlarini akkompanementlashtirish va aranjirovkasi. 2022-y.

3. Igamova D. N., Mamatova N. A. Games in the education // Проблемы педагогики. – № 2 (41). – 2019.

Laziz TO‘RAQULOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Pedagogika ta’limi nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

OILAVIY “MEHRIBONLIK UY”LARINI TASHKIL ETILISHI VA YETIM BOLALARGA G‘AMXO‘RLIK QILISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuv jarayonlari, bolalar salbiy ijtimoiy hodisalarning jabrdiydasiga aylanib qolish sabablari, islom dinidagi rivoyatlar jamlangan.

Kalit so‘zlar. Mehribonlik uyi, mehr-meruvvat, xayr-sahovat, insonparvarlik, oilalarning mustahkamligi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiylashuvi, pedagogika-psixologiya, rivoyatlar, etnop-sixologiya, yetimlik va ijtimoiy yetimlik va shu kabi tushunchalar o‘rin olgan.

В данной статье рассматривается вопрос о процессе социолизации воспитанников Домов милосердия, причины негативных черт характера, а также собраны предания исламской религии.

Ключевые слова. Дом милосердия, гуманнизм, семейное благополучие, социолизации воспитанников, исторические заповеди, педагогика-психология, этнопсихология, сирота, социальная сирота.

This article discusses the issue of the process of sociolization of the pupils of the Orphanage, the reasons for the negative characteristics, and also the narration of the Islamic religion are collected.

Key words. Orphanage, humanism, family well-being, socialization of pupils, historical precepts, pedagogy-psychology, ethnopsychology, orphan, social orphan.

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgan kundan boshlab hukumatimiz kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qila boshladi. Bu g‘amxo‘rlik, albatta, Mehribonlik uylariga e’tibor bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 11-fevral kuni “yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining quyidagi ba’zi bo‘limlariga to‘xtalsak o‘rinli bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda “Mehribonlik uy”lari, bolalar shaharchalari va bolalar uylariga 1 ta psixolog shtat birligini tashkil qilish agar tarbiyalanuvchilari soni 200 nafardan ortiq bo‘lgan “Mehribonlik uy”lari, bolalar shaharchalari va bolalar uylarida 2 ta psixolog shtat birliklarini tashkil qilish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan: Mehribonlik uylari va bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilarini dasturlash ko‘nikmalariga o‘rgatish hamda axborot texnologiyalari sohasida yosh mutaxassislarni

tayyorlash maqsadida ularning internet tarmog‘iga ulanishi va kompyuterlar bilan jihozlanishini, bunda 10-11-sinf o‘quvchilariga “axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” yo‘nalishida yetakchi tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o‘tashi uchun sharoitlar yaratilishini kerakligi belgilab qo‘yilgan.Yuqoridagi qarorlar mehribonlik uylari rahbar xodimlari va tarbiyachilari uchun mas’uliyat yuklaydi va shu bilan birga jamiyatning barcha qatlamdagi kishilarini diqqat e’tiborida bo‘lishi kerak.

Mehribonlik uylari yetim-yesir bolalar va ota-onasi qarovidan hamda oila muhitidan mahrum bo‘lgan bolalar uchun davlat internati tamoyilidagi ta’lim-tarbiya muassasasiga aylantirildi va davlat tasarrufiga o‘tkazildi.

Bola dunyoga keldimi ota-onalik bo‘lish, ota-onasi bilan birga yashash, oilada erkin muloqot qilish, opa-singil, aka-uka va boshqa yaqin qarindoshlari bilan birga yashash huquqiga ega. Bolaning bolaligini o‘g‘irlashga hech kimning haqqi yo‘q. Yurtboshimiz ‘‘O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari’’ degan asarida shunday yozadi: ‘‘G‘animlar nimalar deb safsata sotmasin, O‘zbekiston rahbariyati va xalqining tutgan yo‘li qat’iy va mustahkam: biz doimo mehr-muruvvat, mehr-oqibat, yurtimizda tinchlik-totuvlik, xotirjamlikni saqlashga sodiq bo‘lib qolaveramiz. Vatandoshlarimiz bir-birlariga yelkadosh, ahil va inoq bo‘lib yashashida, yetim-yesirlar, nogironlar, qariyalar va bolalar, qarovsiz va muhtoj kishilarimiz himoyasini tashkil qilishda o‘zimizning kuchimizni va mehnatimizni hech qachon ayamaymiz’’. Mustaqillik yillarida Mehribonlik uylari faoliyatini yaxshilashga doir maxsus qonunlar chiqdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, normativ hujjatlari e’lon qilindi. Shu hujjatlar asosida ‘‘Mehribonlik uyi to‘g‘risi’’ da Nizom qabul qilindi bu tarixiy ahamiyat kasb etadi. ‘‘Mehribonlik uylari to‘g‘risida’’gi Nizomning 1-qism, 3-moddasida shunday deyilgan: ‘‘Mehribonlik uyining asosiy vazifasi oilaviy muhitdan mahrum bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni to‘liq, ruhiy sog‘lomlashtirishga, ijtimoiy mehnat moslashuviga va ijtimoiy-huquqiy himoya qilishga ko‘maklashuvchi uy sharoitiga eng ko‘p darajada yaqinlashtirilgan muhitni yaratishdir’’.

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-son qarorining 5-bandida Vasiylik va homiylik organlarining vakolatlari, ularning vazifalari belgilab qo‘yilgan, masalan: yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlaydi va ularning hisobini yuritadilar, yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar haqidagi ma’lumotlarning axborot bazasini yuritadi va ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining ma’lumotlar bazasiga kiritish uchun taqdim etadi, shuningdek, davlat statistika hisobotini tegishli davlat statistika organiga qonun hujjatlarida belgilangan shaklda va muddatlarda taqdim etishlari belgilab qo‘yilgan.

Afsuski, XXI-asrga kelib ba’zi qo‘shtirnoq ichidagi kimsalar, xalqimiz o‘zining tarixida va tanasida bo‘lmagan o‘ziga yarashmagan ishlarni qilmoqda. Bolalarni tug‘ruqxonalarga tashlab ketish biroz ko‘proq ko‘zga tashlanmoqda. Elimizga xos bo‘lmagan bolani tug‘ruqxonalarga tashlab ketish yoki pulga sotish, o‘z farzandini vaxshiylarcha qiynoqqa solish, bolani uydan bezdirish uni o‘g‘ir yoshiga va jinsiga to‘g‘ri kelmaydigan mehnatga jalb qilish, uning mehnatidan majburiy foydalanish bir so‘z bilan aytganda bolaning bolaligini o‘g‘irlash holatlari ko‘payib borayotgani hech kimga sir emas. Ayni shunday vaziyatda bolaparvarlikni boshlashga xalqimizni da’vat etayotgan yurtboshimizga rahmat. Masalan, Prezidentimiz 2020-yil 28-iyul kuni Yunusobod tumanidagi 21-sonli Mehribonlik uyiga tashriflari hamda shu kunning o‘zidayoq nogironligi bo‘lgan, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yetim bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni

kuchaytirish, ijtimoiy nafaqalar tizimini takomillashtirish masalalariga qaratilgan video-selektor yig‘ilishi o‘tkazgani so‘zimizning birgina isboti desak xato bo‘lmaydi. Ana shunday tashabbusga yana bir misol keltiramiz, Vazirlar Mahkamasi, Xalq ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Milliy gvardiyaning “Mehribonlik uy’’lari, Bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari va Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimining Bolalar uylarini (keyingi o‘rinlarda – o‘quv-tarbiya muassasalari) Milliy gvardiyaga biriktirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Milliy gvardiya “SOS – O‘zbekiston bolalar mahallalari” uyushmasining bolalar mahallalari bilan hamkorlik o‘rnatsin. Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi 5- va Kitob tumanidagi 4-mehribonlik uylari tugatildi. Birgina Qamashi tumanidagi 5-mehribonlik uyida 120 nafarga yaqin tarbiyalanuvchilar to‘liq davlat tomonidan tarbiyalanar edilar, 2022-yilning 1-choragiga kelib Qamashi tumanidagi 5-mehribonlik uyida 120 nafar tarbiyalanuvchilar oilalarga “Oilaviy mehribonlik uylariga” olindi vaholangki, bunday tarbiya muassasalari Pespublikamizda o‘ttizga yaqin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 09.08.2021-yil. PQ-5215-son qarori yani “Mehribonlik uy”larini milliy gvardiyaga briktirish haqidagi qarorlari hayotda o‘z isbotini topmoqda. Xalqimiz yana qayta o‘zini anglamoqda, ota-bobolarimizdan qolgan bir naql bor – ‘‘Bolaning begonasi bo‘lmaydi’’.

Yetimlik – Insoniyat paydo bo‘lganidan buyon mavjud, afsuski hayot-hayotligini qiladi.

Yetimlik – insoniyat, jamiyat va uning taraqqiyotida mavjud bo‘lgan hodisa hisoblanadi.

Afsuski butun dunyoda yetim va ijtimoiy yetim bolalar mavjud:

Yetimlik-sabablari turlicha bo‘lishi mumkin, yetimlik turli adabiyotlarda turlicha talqin qilingan tushuncha hisoblanadi, masalan:

1. Ota-onasining vafot etganligi sababli.
2. Ota-onaning ikkisidan biri vafot etganligi sababli.
3. Ota-onalik huquqidan mahrum etilganlik sababli.
4. Jazoni ijro etish kaloniyasida (qamoqda) saqlanayotganligi sababli.
5. Boshqa Respublikalarga (xorijga) ishlash uchun ketib qaytib kelmaganligi sababli.
6. Ijtimoiy omillar ta’sirida (avtohalokat, yong‘in, is gazi) va boshqalar sababli nogiron bo‘lish.

Afsuski, bunday sabablarni ko‘plab ko‘rsatishimiz mumkin, lekin eng achinarlisi shundaki, ota-onasi tirik bo‘la turib yetimlikni boshidan kechirayotgan bolalar butun dunyoda mavjud.

Yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar sonini ortib borishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun quyidigi holatlarga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

1. Oilaning mustahkamligi, uning moddiy va ma’naviy to‘la to‘kisligini ta’minlash.
2. Yangi hayotga qadam qo‘ygan yosh oilalarni eng kamida besh yil ota-onasi bilan yashashini ta’minlash.
3. Jamiyatda yuqori darajali mustahkam oilalar sonini ko‘paytirish.
4. Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohni qoralash, chunki bu holat yaxshi natija bermasligi barchamizga ma’lum bu holat sotsiologik, tibbiy, psixologik va boshqa tadqiqotlarda isbotlangan.
5. Ishsizlar sonini kamaytirish. Chunki oilaning mustahkamligi ko‘proq moddiyatga ham bog‘liq.
6. Erta nikohdan o‘tishga yo‘l qo‘ymaslik.

Har bir inson hurmat-ehtiromga loyiq. Mehr-muruvvatga tashna, moddiy-ma’naviy

ko‘makka muhtoj, ota-onasidan ayrilgan yetimlarga ikki kara ko‘proq mehr ulashish dinimizning asosiy ko‘rsatmalaridan ekanligi barchamizga ma’lum. Bejiz Sahl roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisi sharifda Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam:

« اَنَا وَكَافِلُ الْيَتِيمِ فِي الْجَنَّةِ هَكَذَا وَأَشَارَ بِالسَّبَّابَةِ وَالْوُسْطَى وَفَرَّجَ بَيْنَهُمَا شَيْئًا »

“Men va yetimni kafilligiga olgan kishi jannatda mana shunday bo‘ladi”, dedilar va ko‘rsatkich hamda o‘rta barmoqlariga ishora qilib, bu barmoqlari orasini bir-biriga yaqin tutdilar” (Imom Buxoriy rivoyati).

Bugun juda xunuk eshitiladigan ibora – “tirik yetimlar” quloqqa bot-bot chalinyapti. “Tirik yetim” deganda, ota-onasi tirik bo‘la turib, farzandlarini tashlab ketgan, ularni nafaqasiz, tarbiyasiz, qiyin sharoitda yashashga majbur qilgani insofsiz, vijdonsiz ota-onalarning farzandlari tushuniladi. Ular o‘zining rohatini ko‘zlab, oilasini va sag‘ir-sag‘ira farzandlarini qarovsiz qoldirib ketayotgani nsonlarni komil musulmon deb bo‘ladimi!?

Vaholanki, Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Payg‘ambarimiz alayhissalom aytdilar:

“ خَيْرُ بُيُوتِ الْمُسْلِمِينَ بَيْتٌ فِيهِ يَتِيمٌ يُحْسَنُ إِلَيْهِ وَشَرُّ بُيُوتِ الْمُسْلِمِينَ بَيْتٌ فِيهِ يَتِيمٌ يُسَاءُ إِلَيْهِ ”

“Musulmonlarning uyi ichida eng yaxshisi yetimga yaxshi munosabatda bo‘lingan uydir. Musulmonlarning uyi ichida eng yomoni yetimga yomon munosabatda bo‘lingan uydir” deya rivoyat qilingan (Imom Ibn Moja rivoyati):

Bolalik – shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanish davri. Bolaning kerakli holatlarda o‘zini tuta bilish, atrofdagilar bilan erkin munosabatda bo‘lish usullarni o‘rganganligi uning bolalikdagi ilk mavaffaqiyatlaridan biridir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, mehribonlik uyining pedagogik jamoasi tarbiyalanuvchilar bilan do‘stona aloqa o‘rnatish va bolalarning tabiatiga mos munosabatda bo‘lish, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlariga mehr bilan astoydil, chin dildan yondashsalar mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvini ta’minlagan bo‘lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Yetim bolalarga oid muhim qarori. Jamiyat. 2019-yil 11-fevral kuni.

2. Karimov I. A. O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlari. –T., O‘zbekiston, 1993.

3. Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 18-fevraldagi 59-sonli Qaroriga 3-ilova, ‘‘Mehribonlik uyi to‘g‘risida’’gi Nizom, ‘‘Ma’rifat’’ gazetasi, 1995-yil, 29-mart.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., O‘zbekiston, 1993.

5. O‘zbekiston Respublikasining ‘‘Ta’lim to‘g‘risida’’gi Qonuni.

Ra’no RASHIDOVA,
Qarshi davlat universiteti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK PEDAGOGLAR KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING TARKIBIY QISMLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘qituvchi faoliyatini tashkil etishda kommunikativ kompetensiyalarning o‘rni, uning tarkibiy qismlari, subkompetensiyalar haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, sotsiomadaniy kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, strategik kompetensiya va diskursiv kompetensiyalar mazmuni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qituvchi, kompetensiya, subkompetensiya, kommunikativ kompetensiya, sotsiomadaniy kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, strategik kompetensiya, diskursiv kompetensiya.

В данной статье представлена информация о роли коммуникативных компетенций в организации деятельности учителя, о ее компонентах, о субкомпетенциях. Также раскрывается содержание социокультурной компетенции, социолингвистической компетенции, стратегической компетенции и дискурсивной компетенции.

Ключевые слова. Педагог, компетентность, субкомпетенция, коммуникативная компетенция, социокультурная компетенция, социолингвистическая компетенция, стратегическая компетенция, дискурсивная компетенция.

This article provides information about the role of communicative competencies in the organization of the teacher's activities, about its components, about subcompetencies. The content of sociocultural competence, sociolinguistic competence, strategic competence and discursive competence is also revealed.

Key words. Teacher, competence, subcompetence, communicative competence, sociocultural competence, sociolinguistic competence, strategic competence, discursive competence.

Pedagogik kompetentlik o‘z ichiga o‘qituvchiga pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur bo‘lgan kasbiy va shaxsiy sifatlar yig‘indisini qamrab oladi. Kompetentlik atamasi umumiy ma’noda yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, bilimdon, xabardor, omilkorlikni anglatadi. Pedagogik faoliyatini, pedagogik muloqotni yuqori darajada amalga oshiradigan, talabalarning ta’lim-tarbiyasi sohasida yuqori darajadagi stabil natijalarga erisha oladigan pedagogni professional kompetentli pedagog deyish mumkin.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi – bu kreativlikning rivojlanishi, pedagogik innovatsiyalarga qiziqishning shakllanishi, pedagogik muhitning o‘zgaruvchanligiga moslashuvchanlik qobiliyatidir. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi pedagogning kasbiy darajasiga bevosita bog‘liq. Shuning uchun ham oliy o‘quv yurtidayoq bo‘lajak pedagoglarni kasbiy kompetentlikka tayyorlash zarur. Pedagogik ta’lim jarayoni oldiga qo‘yilayotgan zamonaviy ijtimoiy talablar jarayonga kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Ya’ni bugungi kunda pedagog kadrlar tayyorlash

tizimiga malakali, izlanuvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, yuksak ma'naviyatli mutaxassislarni tayyorlash talabini qo'ymoqda.

Pedagogik kompetentlik pedagoglarning sohaga oid bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdangina iborat bo'lib qolmasdan, balki turli sohalar bo'yicha integrativ bilimlar va tajribalarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassisning doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, tajribasini doimo boyitib borishni, zamonaviy bilimlarni va axborotlarni o'zlashtirishni, jamiyat talablariga moslashib borishni va yangiliklarni amalda foydalana bilishni nazarda tutadi.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

– o'z ustida tinimsiz ishlaydi va zamonaviy bilimlar bilan boyitib boradi;

– dolzarb muammolarga doir ma'lumotlarni o'zlashtirib boradi;

– jamiyat talablariga moslashadi;

– mutaxassislikka aloqador tajribalari ntegrasiyasi bilan shug'ullanadi;

– o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llay oladi.

Ayrim tadqiqotlarda professionallik va kompetentlik tushunchalarini ta'riflashda o'xshatishlar uchraydi. Bu ikki tushuncha bir-biriga o'xshash bo'lsada, turli ma'nolarni ifodalaydi. Professionallik zaruriy bilimlar bilan bir qatorda, mutaxassisning mehnat faoliyatiga bo'lgan munosabati, o'ziga xos xususiyatlarini to'g'ri anglashi va o'zlashtirishi tushuniladi. Kompetentlik esa professionallikka nisbatan murakkab mazmunga ega bo'lib, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda ularni hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlikni aniqlash uchun mutaxassislar faoliyatini har tomonlama baholash va kuzatish talab etiladi.

Pedagogning ijtimoiy kompetensiyalari tarkibiga kiruvchi kommunikativ kompetensiyalar pedagogik faoliyatni tashkil etishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u insonlar bilan muloqot o'rnatish, munosabatlarga kirishuvchanlik, fikrlarni to'g'ri ifodalay olish hamda o'zgalar fikrini to'g'ri anglash bilan tavsiflanadi.

Kommunikativ kompetensiya tarkibiga kiruvchi bir qancha kompetensiyalar uning umumiy tavsifini belgilashga xizmat qiladi. Jumladan, lingvistik kompetensiyalar, sotsiolingvistik kompetensiyalar, sotsiomadaniy kompetensiyalar, diskursiv kompetensiyalar, strategik kompetensiyalar, madaniyatlararo kompetensiyalardir. Ushbu kompetensiyalar tizimi nafaqat pedagogik jarayonda yoki shaxslararo muloqotda, balki til o'rganish va turli millatlararo muloqotda ham muhim o'rin tutadi.

Kommunikativ kompetensiya o'z tarkibida bir qancha subkompetensiyalarni qamrab olgan bo'lib, ular xususida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Sotsiomadaniy kompetensiya kommunikativ jarayonga amalga oshayotgan jarayondagi ijtimoiy va madaniy muhit bilan tanish bo'lish, uni anglash va to'g'ri talqin eta olish qobiliyatini ifodalaydi. Sotsiomadaniy konsept madaniyatlararo kommunikatsiyada markaziy o'rinni egallaydi. Ta'lim jarayonida vatani tarixini, ona tilini o'rganish hamda xorijiy tajribalarni, xususan, xorijiy tillarni o'rganish davomida milliy madaniyatini o'rganish va targ'ib qila olishda, o'zga madaniyatlarni o'rganish davomida sotsiomadaniy kompetensiya muhim o'rin tutadi.

Sotsiomadaniy kompetensiya o'z tarkibiga o'lkashunoslik, lingvomadaniy, ijtimoiy-psixologik va madaniy bilimlar doirasini qamrab oladi.

O'lkashunoslikka doir bilimlar ta'lim jarayonida vatan tarixi, tabiati, urf-odatlari va an'analari, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Lingvomadaniy bilimlar esa ijtimoiy-madaniy hayotga doir leksik birliklarni

o‘zlashtirish, ulardan kommunikativ jarayonda samarali foydalanishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy-psixologik bilimlar shaxsning yangi ijtimoiy muhitga yoki mavjud muhitga ijtimoiy moslashuvni, psixologik jihatdan kirishuvi uchun zaruriy bilimlar doirasini qamrab oladi.

Madaniyatga doir bilimlar madaniyatshunoslik sohasidagi, madaniyatlar xilma-xilligi, ularning tarixi va bugungi kuni, ular o‘rtasidagi aloqalar, xalqlaro madaniy hamkorlikka doir ma’lumotlardan iboratdir.

Sotsiolingvistik kompetensiya leksik birliklardan foydalanishning ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarini qamrab oladi. Ushbu kompetensiya shaxslararo (turli sohaga, turli millatga, turli yoshga yoki turli ijtimoiy guruhga mansub bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi) nutqiy muloqot jarayonini tartibga solishga xizmat qiladi. Ya’ni til birliklari va shakllaridan turli vaziyatlarga mos holda foydalanishga yordam beradi.

Sotsiolingvistik kompetensiya so‘zlarning semantik xususiyatlaridan, iboralar, jumlalardan suhbatdoshiga kuchli ta’sir ko‘rsatish vositalari asosida samarali foydalanish malakalarini qamrab oladi.

Sotsiolingvistik kompetensiya tarkibiga pedagogik muloqotni tashkil etish, pedagogik vaziyatni inobatga olgan holda turli nutq samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan (gradatsiya, intonatsiya kabilardan) samarali foydalanish, ijtimoiy vaziyatni to‘g‘ri baholay olish, ayni ijtimoiy muhitga mos leksik birliklarni tanlay olish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan interaktiv axborotlar almashinuvini amalga oshirish, ijtimoiy me’yorlar asosida muloqot shakllarini, nutq toni, ritmi, uslubini tanlash kabi malakalar tizimi kiradi.

Diskursiv kompetensiya turli tipdagi diskursni aniqlay olish, muloqotning kommunikativ vazifalarini to‘g‘ri talqin qila olish, nutq mazmunini to‘g‘ri tanlash kabi malakalarni o‘z ichiga oladi.

Strategik kompetensiya muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli muammoli vaziyatlardagi uzilishlarni kompensatsiya qilishning turli verbal va noverbal vositalaridan iborat bo‘lib, suhbatdoshiga ma’lumotlarni to‘g‘ri va tushunarli yetkazishda bilimlaridagi yetishmovchiliklar o‘rnini to‘ldirishga yordam beradi. Ushbu kompetensiya vaziyatni to‘g‘ri baholash, rejalashtirish, to‘ldirish va amalga oshirish kabi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Strategik kompetensiyalar affektiv elementlar (empatiya, bag‘rikenglik), madaniy bilimlar (milliy va suhbatdoshining madaniyatiga doir bilimlari), kommunikativ birliklarga doir bilimlar kabi tarkibiy qismlari to‘liq bo‘lgan jarayonda muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Ya’ni suhbatdoshlar o‘rtasida o‘zaro psixologik yaqinlik bo‘lsa, ularning madaniy va kommunikativ bilimlar mutanosib bo‘lgan taqdirda strategik kompetensiyalar to‘liq namoyon bo‘ladi.

Kommunikativ kompetensiya komponentlari va subkompetensiyalar o‘zaro uzviy aloqadorlikda bo‘lib, kommunikativ kompetensiya samaradorligini oshirishdagi muhim shart hisoblanadi. Shuningdek, kommunikativ kompetensiya samaradorligini oshirishga muloqot vaziyati kontekstidagi psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar ham ta’sir etadi.

Real hayotiy vaziyatda kommunikatsiya jarayonida ishtirokchilarning ijtimoiy o‘rni muhim ahamiyatga ega. Ya’ni muloqot subyekti aloqaga kirishishda ayni vaziyatdagi o‘zining ijtimoiy vazifasini (rahbar, xodim, tasodifiy ishtirokchi, hamkasb va hokazo), ijtimoiy darajasi – statusini (suhbatdoshi bilan teng darajada, yuqori pog‘onada yoki quyiroq darajada kabi) hamda muloqot vaziyati, o‘rni, muloqot maqsadi va mavzusini

(ishontirish, axborot yetkazish, tasdiqlash, rad etish va hokazo) aniqlashtirishi lozim. Vaziyatlarga kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda qabul qilingan qarorning aniq va to‘g‘riligi maqsadning aniqligi bilan belgilanadi. Pedagogik vaziyatlarga kompetensiyaviy yondashuv quyidagi bir qancha maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin: ta’lim jarayoni ishtirokchilarining mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish; jamiyatning ijtimoiy talablariga javob bera oladigan mutaxassisni zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish; mustaqil izlanishlar asosida axborotlar to‘plashga o‘rgatish; liderlik sifatlarini shakllantirish va hokazo.

Pedagogik ta’lim jarayoniga bunday yondashuv bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda faqat pedagogik bilim berish, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishni nazarda tutuvchi an’anaviy ta’lim turidan, bo‘lajak mutaxassislarni kelajakdagi pedagogik faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil vaziyatlar yechimini mustaqil topa bilishga, zamon talablari asosida kompetensiyalarini takomillashtirib borishga tayyorlovchi kompetensiyaviy pedagogik ta’lim turiga o‘tishni ta’minlaydi. Ya’ni bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash samaradorligi ularda lingvistik, madaniy, ijtimoiy-madaniy va madaniy bilimlarni qamrab olgan kompetensiyalar shakllanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Pedagogik kompetensiya o‘z navbatida, bir qancha komponentlardan iborat bo‘lib, ushbu tarkibiy qismlarning o‘zaro aloqadorligi, yaxlitligi uning pedagog faoliyatida qo‘llaniluvchanligi va samarasini oshiradi:

Pedagoglarning olib borayotgan faoliyatiga nisbatan kompetentlik darajasi quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

– pedagogning zaruriy malakalarni egallaganlik darajasi;
– pedagogik faoliyati natijasi – pedagoglarning o‘zlashtirish darajasi;
– shaxsiy psixologik sifatlarning pedagogik faoliyatga moslik darajasi;
– pedagogik faoliyatni davom ettirishga moyilligi;
– pedagogik faoliyati va tajribasini oshirishga bo‘lgan intilishning mavjudligi.

Ushbu mezonlar asosida pedagoglar pedagogik kompetentligini baholashda har bir mezon bo‘yicha qo‘shimcha ko‘rsatkichlar hamda ularni baholash darajalari ishlab chiqilishi pedagoglar pedagogik kompetentligini aniqlash jarayoni shaffofligi va obyektivligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тожибоева Г. Р. (2020). Психолого-педагогическая компетентность учителя начальных классов. Scienceand World, 1(77), 32-33.

2. Сайдахметова Д. Х. (2020). Международные оценочные программы (PISA, TIMSS, PIRLS) и подготовка учеников. Science and Education, 1(Special Issue 2). – С.112-120.

Orif G‘ANIYEV,
Jizzax davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR METAMETODIK KOMPETENSIYASINING MAZMUNI VA MOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning metametodik kompetensiyasining mazmun-mohiyati, tamoyillari va tadqiqod vazifalarini qiyosiy tahlil qilish orqali pedagogik faoliyatni amalga oshirishning shart-sharoitlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Pedagogik faoliyat, ta’lim-tarbiya, metod, metodika, integratsiya, kompetensiya, metametodik kompetensiya, tamoyil.

В статье рассматривается сравнительный анализ содержания, принципов и задач исследования метаметодической компетентности будущих учителей представлены условия педагогической деятельности.

Ключевые слова. Педагогическая деятельность, образование, метод, методика, интеграция, компетентность, метаметодическая компетентность, принцип.

The article replaces the comparative analysis of the content, tasks and objectives of the study of the metamethodological competence of the future conditions of pedagogical activity.

Key words. Pedagogical activity, education, method, methodology, integration, competence, metamethodic competence, principle.

Bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodni jahon hamjamiyatida rivojlanib borayotgan dunyoviy va kasbiy bilimlarni to‘laqonli o‘zlashtirishi uchun ta’lim tizimida yetarli shart-sharoitlar yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623 sonli qarorida pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy qilishda bir qator vazifalar, xususan, sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish belgilab qo‘yilgan[1].

Shu ma’noda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosati, pedagogik tizimni yanada takomillashtirishga hamda kadrlarni xalqaro standartlar asosida kasbiy shakllantirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘grisida”gi Qonunida “Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadi, o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro‘sini oshirish uchun tash-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi PQ-4623 sonli qarori. 2020-yil 27-fevral.

kiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek, o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi…” deb belgilab qo‘yilgan. Bundan ko‘rinadiki, respublikamizda ta’limni sifatli tashkil etish, o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarini yuqori darajada shakllantirish, amaliy faoliyatda qo‘llay olishga o‘rgatish uchun soha mutaxassislariga ijtimoiy-huquqiy imkoniyatlar berilgan.

Hozirgi texnika va texnologiya rivojlangan davrda ta’lim-tarbiya berish, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda o‘qituvchidan kommunikativ bilimdonlikni, ta’limga psixologik yondashuvni shu bilan bir qatorda fanlar integratsiyasini amalga oshirishni talab etmoqda.

Integratsiya – tiklash, to‘ldirish kabi ma’nolarni anglatib pedagog olimlarimizning ilmiy izlanishlari va ilmiy asarlaridan bizga ma’lumki, fanlararo aloqadorlik ya’ni bir fanga oid tushunchalarning mohiyatini anglashda boshqa fanga oid ma’lumotlarga tayanish tushuniladi. Boshqacha aytganda, boshlang‘ich sinflarda fanga oid (ona tili va o‘qish savodxonligi, tabiiy fan, tarbiya,…) tushunchalarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilar oson tushunishini ta’minlash maqsadida bir fanni o‘qitishda boshqa fanlarni o‘qitish usullarini qo‘llash, o‘yinlar va rebuslardan foydalanish nazarda tutiladi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda talabalarning fanni o‘qitishda metodik tayyorgarligi yuzasidan amaliy faoliyatga tayyorlash kabi maqsadga qaratilgan qobiliyatlar shakllantiriladi. Albatta, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi pedagogik faoliyatni amalga oshirishda yetakchi omil hisoblanadi.

Metod – umumiy ma’noda – maqsadga erishish usuli, ma’lum tarzda tartibga solingan faoliyat deganidir[2]. Tushunishimizcha, metodik tayyorgarlik mavzu doirasidagi tushunchalarni o‘rgatishga, mavzu yuzasidan qo‘yilgan ta’limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu degani bir darsga mo‘ljallangan materialni o‘quvchilarga tushunarli yetkazib bera olishda qo‘llaniladigan bir qancha usullar yig‘indisini anglatadi. Metodika esa ana shunday usullar, metodlar va vositalar haqidagi fan hisoblanadi. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik yuzasidan har bir fan uchun metodik fanlarni o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Uning negizida pedagogik faoliyatni amalga oshirishda metodik kompetentlik shakllantiriladi.

Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash qobiliyatining shakllanganligidir.

Ta’limda sinf-dars tizimi davom etayotgan sharoitda o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning yagona, tashkiliy va faoliyat strategiyasini yaratish murakkab vazifa bo‘lib, keng doiradagi mutaxassislarni jalb qilishni talab qiladi. Metametodik kompetensiyasni shakllantirish, oliy ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim muhiti sharoitida talabalarda metametodik kompetensiyani rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning amaliy-texnologik tizimi va didaktik ta’minoti, metametodik kompetensiyasini takomillashtirish tamoyillarini ishlab chiqish bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik faoliyatining samaradorligi ortishiga xizmat qiladi.

Metametodika – sifat jihatidan yangi ta’lim natijasini olishga qaratilgan bo‘lib, umuminsoniy bilim va ko‘nikmalarning ichki variantlarini ajratib ko‘rsatish orqali ta’lim mazmunini optimallashtirish uchun imkoniyatlar va vositalarni taqdim etadi, ta’lim faoliyati-

[2] Muslimov N. A., Usmonboyeva M. H., Sayfurov D. M., To‘rayev A. B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. 2015-y. 6-b.

ning davomiyligida yangi ma’lumotlarni qayta ishlash va yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun samarali qo‘llaniladi. Bilimli odam deganda, dunyo haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lgan va uning tarkibidagi o‘rnini tushunadigan, madaniyatda ongli va maqsadga muvofiq harakat qila oladigan kishini tushunishimiz kerak. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, jamiyatimizda shaxslar o‘rtasida noaniqliklar yuzaga kelganida o‘qituvchiga bilimli shaxs sifatida qaraladi. O‘qituvchi bu mening soham emas deyishga haqli emas albatta. O‘qituvchi o‘z o‘rnida ta’limiy bilimlarni va ajdodlar tajribasini avlodlar tajribasida uning qadriyatlarini saqlash, va keng ko‘lamli yetkazishni ta’minlashi lozim.

Ta’lim-tarbiyada o‘quv jarayoniga metametodik yondashish shaxsning rivojlanishi jarayonida har bir o‘quv fanining vazifalarini aniq taqsimlashga asoslangan, ta’limda yaxlit rivojlanish muhitini yaratishni o‘z ichiga oladi. Bundan kelib chiqadiki, metametodika har bir tushunchaning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’kidlash uchun mavzuni o‘qitish usullarini integratsiyalash asosida birlashtirishga asoslangan. I. M. Titovaning nazariy yondashuviga ko‘ra quyidagi asosiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi:

Butunlik – butun ta’lim jarayonini nazariy-amaliy bilimlar beradigan o‘quv akademik fanlar tarkibini o‘zaro bog‘lash orqali, turli mavzular bo‘yicha ma’lumotni o‘zlashtirish va qayta ishlash usullarini birlashtirish, o‘quv dasturlarining uzluksizligi, g‘oyalar va tushunchalarni shakllantirishda yaxlit yondashuvni o‘z ichiga olgan uslubiy tizim doirasida ko‘rish.

Gumanistik yo‘naltirish – o‘quv jarayonida ta’limning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan ta’limning tabiat bilan uyg‘unligi tamoyilini, o‘quv jarayonida subyektiv munosabatlarning amalga oshirilishini, bo‘lajak o‘qituvchini jismoniy, ijtimoiy va ma’naviy tamoyillarni o‘zida mujassamlashtiradigan mutaxassis sifatida tushunish, unga nafaqat ishtirokchi, balki ta’lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchi sifatida qarash.

Qimmatli bilimlar – bolaning psixofizik, ma’naviy-ijodiy kuchlarining faol va maqsadli rivojlanishi tizimi sifatida badiiy va estetik siklning tarkibi va mazmuni yuzasidan bilimlarni o‘zaro birlashtirib, o‘quv fanlari materiallarini tanlash va qiymatini aniqlash.

Ochiqlik va o‘z-o‘zini rivojlantirish – ma’lumotlarning doimiy yangilanishi, innovatsion usullardan foydalanish, ta’lim-tarbiya maskanini madaniyat, fan markazlari bilan doimiy bog‘lash, maktab jamoasining imkoniyatlari va xususiyatlariga mos keladigan maqsadlarni belgilash va ularga erishish, o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy ehtiyojlarini oshirish jarayonlari.

I. M. Titovaning ushbu nazariy yondashuvi bo‘lajak o‘qituvchining metametodik kompetensiyasining bir tomonlama mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Shuni aytish kerakki, bugungi kunda zamonaviy qarashga ega bo‘lgan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, ularni dunyoviy bilimlar doirasida keng ko‘lamli qurollantirish uchun barcha tushunchalarni mukammal o‘rgatish emas balki ularning mohiyatini o‘quv rejasida kiritilgan fanlar doirasida o‘zaro integratsiyalash asosida o‘quvchilar ongida shakllantirish kerak.

N. S. Podxodovaning va metametodikani alohida soha sifatida quyidagi istiqbolli tadqiqot vazifalari keltirib o‘tgan:

1. Umumta’lim maktablarini modernizatsiyalash va unda beriladigan bilimlarning ilmiy asoslanganligini ta’minlash uchun asos sifatida maktabning o‘qitish uslublarini maqsadli, mazmunli va tashkiliy-faoliyat integratsiyasini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash.

2. Zamonaviy qayta tiklanadigan umumiy ta’lim maqsadlariga erishishda har bir

o‘quv fanining vazifalari, ularni qisman qayta taqsimlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda tushuntirish. Fan loyihalari o‘rtasida o‘zaro integratsiyaning umumiy g‘oyasi asosida ushbu funksiyalarni amalga oshirish uchun uslubiy vositalarni yaratish.

3. Umumta’lim maktablari mazmunini umumlashtirish va minimallashtirish muammolarini maqsadli, mazmunli amalga oshirishni ta’minlash hamda tashkiliy-faoliyatni sohalararo integratsiyalash asosida hal qilish metodologiyasini asoslash va ishlab chiqish.

4. Bo‘lajak o‘qituvchining umumiy ta’lim qobiliyatini rivojlantirish uchun aniq metametodik dasturlarni (ya’ni ko‘p bosqichli tarmoqlararo integratsiyaga asoslangan) ishlab chiqish.

5. Loyihalararo integratsiya sharoitida bo‘lajak o‘qituvchi atrofida dunyo to‘g‘risida yaxlit tasavvurni shakllantirish uchun metametodik dasturning shaxsiy loyihasini ishlab chiqish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish samaradorligini ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida, eng avvalo, professor-o‘qituvchi mashg‘ulot loyihasini ishlab chiqishda, asosiy maqsadni aniqlashda, pedagogik vazifalarni belgilashda mavjud shart-sharoitni, talabalarning bilim darajasini, ularning qiziqishlarini hisobga olishi, shuningdek, qo‘yilgan maqsadga erishishning eng samarali yo‘llari, usullarini tanlay bilishi va o‘qitish jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini o‘rganishda, eng avvalo, kommunikativ (muloqot) kompetentligiga e’tibor qaratilgani maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, pedagogik faoliyatni amalga oshirish, ta’lim tarbiya jarayonida o‘quvchilarga bilimlarni o‘zlashtirishida eng qulay va to‘g‘ri bo‘lgan yondashuvni amalga oshirish uchun bo‘lajak o‘qituvchining metametodik kompetensiyasini ya’ni universal bilimlarini shakllantirish zarurati har qanday fanga oid tushunchalarni o‘rgatishda amaliy kuchga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘grisida”gi qonuni. 2020-yil 23-sentabr. 25-b. 45-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi PQ-4623 sonli qarori. 2020-yil 27-fevral.

3. Karimova N. R. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. 2020-y. 11-b.

4. Muslimov N. A., Usmonboyeva M. H., Sayfurov D.M. To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. 2015-y. 6-b.

O‘tkir YO‘LDOSHEV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, “Pedagogika” kafedrasi dotsenti v.b.

PEDAGOGIKA METODOLOGIYASI O‘QITUVCHI METODOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada metodologiya, uning mohiyati, pedagogika metodologiyasi va uning darajalari hamda metodologik nazariyalar mohiyati, metodologik bilimlar tizimi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Metodologiya, pedagogika metodologiyasi, metodologiya darajasi, metodologik bilim.

В статье расматривается вопросы методология, ее сущность, педагогическая методология и ее уровни, а также сущность методологических теорий, система методологических знаний.

Ключевые слова. Методология, педагогическая методология, уровень методологии, методологические знания.

The article describes the methodology, its essence, pedagogical methodology and its levels, as well as the essence of methodological theories, the system of methodological knowledge.

Key words. Methodology, pedagogical methodology, level of methodology, methodological knowledge.

Har qanday fanning metodologik asoslarini o‘zlashtirmasdan turib, ushbu fanni ilmiy bilimlar sohasini, uni amaliyotda qo‘llanilishi mohiyatini tushunish mumkin emas. Fan metodologiyasining umumiy holatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Lug‘atlarda metodologiya bilishning ilmiy metodi to‘g‘risidagi ta’limot sifatida, nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish prinsiplari va yo‘llari to‘g‘risidagi ta’limot sifatida, u yoki bu fandagi qo‘llaniladigan metodlar yig‘indisi sifatida izohlanadi.

Metodologiyaning falsafiy va maxsus ilmiy darajasi mavjud bo‘lib, fan metodologiyasining yuqori darajasi falsafa hisoblanadi. Bizga ma’lumki, sobiq sho‘ro tuzumi davrida fanlarni o‘qitishning falsafiy asosi sifatida dialektik materializm qabul qilingan. Shuning uchun ko‘plab mutaxassislar ijtimoiy, gumanitar va tabiiy fanlarning falsafiy asosini dialektika tashkil qiladi deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, dialektika qoidalari butun bir pedagogik tizimdagi ta’lim va tarbiya jarayonlari uchun umumiydir. Shuning uchun zarur falsafiy nazariyalar har qanday fan bilan o‘zaro aloqadordir.

Falsafada fanni tarkibiy qismlari sifatida g‘oya va tamoyillar, qonun va qonuniyatlar, tushuncha va kategoriyalar qabul qilingan.

Dialektik materializm g‘oyalari orasidan determinizm prinsiplarini, ya’ni hodisalarni o‘zaro aloqadorligi va rivojlanishini ko‘rib chiqamiz. Pedagogikada rivojlanish prinsipi pedagogik jarayon ta’lim va tarbiya jarayonlaridan tashkil topgan ijtimoiy va murakkab hodisa ekanligini ifodalaydi.

Unda barcha komponentlar: jamiyat ehtiyoji va ta’lim-tarbiya maqsadi, pedagog va o‘quvchilar, o‘zlashtiriladigan material va uni uzatish yo‘llari, o‘qituvchi rahbarligidagi mashg‘ulot va o‘quvchilarni mustaqil ishi, o‘quv va tarbiyaviy ishlar orasida o‘zaro aloqadorlik mavjud.

Fanlarni o‘qitishda hamisha qarama-qarshiliklar kurashi va birligi qonuni o‘zini namoyon qiladi. Ta’lim jarayonida qarama-qarshiliklar kurashi va birligi qonunini rus didakshunosi M. A. Danilov tomonidan 1969-yilda isbot qilingan. Shundan buyon didaktikada ta’limni harakatga keltiruvchi kuch sifatida ziddiyatlar, ya’ni qarama-qarshilik qabul qilingan. Demak, ziddiyatlar nafaqat didaktikada, balki xususiy ta’lim nazariyasida ham ta’limni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

Masalan, o‘quvchining o‘quv predmeti mazmunini o‘zlashtirish xohishi va uning tayyorgarlik darajasi o‘rtasidagi, pedagog faoliyati maqsadi va natijasi orasidagi ziddiyatlar. Pedagogni vazifasi ushbu ziddiyatlarni ko‘rish va uni hal etish yo‘llarini topish hisoblanadi.

Endi ta’limda miqdor o‘zgarishlari sifat o‘zgarishlariga olib kelish qonunini ko‘rib chiqamiz. Masalan, bir xil tipdagi pedagogik vazifalarni hal etishda ko‘p marotaba mashq qilish, bundan tashqari o‘qituvchidagi analitik, diagnostik, konstruktiv ko‘nikma va malakalar ko‘p marotaba takrorlashlar va maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar natijasi hisoblanadi.

Navbatdagi inkorni inkor qonuni o‘zini nazariya va amaliyotda namoyon qiladi. Buning falsafiy ma’nosi shuki, rivojlanish bu qarama-qarshiliklar natijasi hisoblanadi. Rivojlanish jarayonida miqdorning sifatga aylanishi kuzatiladi, ya’ni eski sifatlar o‘rniga yangilari hosil bo‘ladi.

Masalan, har qanday fanni o‘qitish jarayoni o‘quvchilarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan, uning natijasi o‘quvchi shaxsini shakllantirishga teng bo‘ladi.

Maxsus ilmiy metodologiyaning umumilmiy, aniq ilmiy va texnologik darajalari mavjud. Umumilmiy metodologiya ilmiy bilishning universal tamoyillari, vositalari, shakllari bilan xarakterlanadi. Umumiy va xususiy ta’lim nazariyasi metodologiyasining umumilmiy darajasi umumilmiy metodlar orqali ochib beriladi. Bulardan ayrimlari xususiy ta’lim nazariyasida asoslangan. Masalan, modellashtirish, formalizatsiyalash, ayrimlari endi qo‘llanilmoqda, bulardan evristika, shu bilan birga umumilmiy metodlarga mantiqiy metodlar ham kiradi. Bular solishtirish va taqqoslash, analiz va sintez, klassifikatsiyalash va tizimlashtirish, umumlashtirish va abstraksiyalash. Bulardan tashqari aniq pedagogik metodlar, so‘rov, eksperiment, tajriba o‘rganish. Barcha metodlar tadqiqot jarayonida o‘zaro aloqadorlikda qo‘llaniladi.

Aniq ilmiy metodologiya aniq bir fan doirasida bilishning maxsus tamoyillarini, vositalarini va shakllarini ifodalaydi.

Shunday qilib, aniq ilmiy daraja pedagogik metodologiyani ifodalaydi. V. V. Krayevskiy pedagogik metodologiya – bu aniq o‘quv predmetiga o‘tuvchi dastlabki, fundamental, umumilmiy va pedagogik nazariyalar, konsepsiyalar deb ta’rif beradi.

Texnologik metodologiya tadqiqot texnikasi va metodikasidan iborat bo‘lib, empirik materiallarni ishonchliligini va qayta ishlanishini ta’minlaydi. Ushbu darajaga barcha turdagi eksperimentlar va sotsiologik va matematik statistika metodlari taalluqlidir. Shu bilan birga texnologik darajadagi metodologiyada bilish, mantiqiy va sotsiologik metodlar qo‘llaniladi. Masalan, ta’lim nazariyasining ayrim masalalarini; ta’lim jarayoni, ta’lim mazmuni, ta’lim shakli va metodlari, ta’lim texnologiyasi kabi mavzularni mantiqsiz ko‘rib bo‘lmaydi.

Sotsiologik metodlar shaxs tarbiyasi, shakllanishi, jamoaning rivojlanishi va shakllanishi kabi masalalarni o‘rganishda qo‘llaniladi.

Shunday qilib, pedagogika metodologiyasi fanni falsafiy va maxsus ilmiy metodologik darajalariga asoslanadi. Metodologiyani barcha darajalari o‘zaro aloqadorlikda va bir-

biriga bo‘ysungan holda tizimni shakllantiradi.

Pedagog uchun pedagogika fani metodologiyasi mohiyatini bilishligi ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishda zarur bo‘ladi. Har qanday fan yangi bilimlar bilan to‘ldirilsagina rivojlanishi mumkin. Bilimlarni olish obyektivligi tadqiqot metodologiyasini tanlashga bog‘liq.

Metodologiya (yunoncha. methodos — nazariya, ta’limot, bilish yoki tadqiqot yo‘li va logos — so‘z, tushuncha): 1) amaliy va nazariy faoliyatni qurish va tashkil etish yo‘llari va tamoyillar tizimi; 2) bilishning ilmiy metodi to‘g‘risidagi ta’limot; 3) u yoki bu fanda qo‘llaniladigan metodlar yig‘indisi ma’nolarini anglatadi.

Pedagogika fanining metodologiyasi — bu pedagogik borliqni o‘zgartirish va bilish jarayonlarini shakllari, metodlari va tamoyillari to‘g‘risidagi ta’limot.

Fan metodologiyasi tadqiqot komponentlarini tavsiflab, tadqiqot vazifalarini hal etish jarayonida harakatlar ketma-ketligi va bosqichlari to‘g‘risidagi tasavvurlarni shakllantirib, tadqiqotning metod hamda vositalari yig‘indisini, vazifalarini, tadqiqot obyekti va predmetini tavsiflaydi.

Metodologik bilimlar tizimining to‘rt darajasi: falsafiy, umumilmiy, aniq ilmiy, texnologik darajasi mavjud. Metodologiyaning barcha darajalari bir-biriga bog‘liq bo‘lib, murakkab tizimni shakllantiradi. Ushbu darajalarni ko‘rib chiqamiz.

Metodologiyaning falsafiy darajasi fanni kategorial apparatini va bilishning umumiy tamoyillarini tashkil etadi. Falsafiy daraja metodologik bilimlarni mazmuniy asosi sifatida namoyon bo‘lib, borliqni o‘zgartirishni va bilish jarayoniga dunyoqarash yondashuvini aniqlaydi. Hozirgi paytda turli fanlarda jumladan, pedagogikada ham metodologiya sifatida turli falsafiy ta’limotlar: ekzistensializm, neotomizm, neopozitivizm, pragmatizm, dialektik materializm va boshqalar mavjud.

Ekzistensializm yoki mavjudlik falsafasi, insonni o‘z hayotidan qayg‘urishi. Ekzistensializmning asosiy tushuchasi – mavjudlik (ekzistensiya) – insonni individual hayotida o‘z menini anglashidir. Ekzistensialistlar obyektiv bilim va haqiqatni mavjudligini inkor etadi. Ularning ta’kidlashicha, obyektiv borliq subyektning mavjudligi sababli mavjud.

Ekzistensialistlarning fikricha, hozirgi paytda deformatsiya, ya’ni shaxsni begonalashuvi, o‘zligini yo‘qotishi bo‘lib o‘tmoqda. Bu holatdan shaxs agar o‘zini ijod qila olishni o‘rgansagina chiqishi mumkin. Shuning uchun ta’limni maqsadi o‘quvchilarni shaxs sifatida ijod qilishga o‘rgatish, ularni shunday o‘qitish kerakki, ular o‘zlarini yarata olsinlar. Bu yerda asosiy rolni ong emas, hissiyot, orzu, ishonch o‘ynaydi. Ekzistensializm individual ta’limning falsafiy asosi hisoblanadi.

Neotomizm – dunyoning ma’naviy va moddiy tomonlari to‘g‘risidagi ta’limot. Ma’naviy dunyo boy va yuqori qadriyatga ega. Moddiy dunyo – past darajadagi dunyo bo‘lib, maqsad va mohiyatga ega emas, uni o‘rganish bilan fan shug‘ullanadi. Fan empirik ma’lumotlarni to‘playdi.

Neotomistlar yosh avlod tarbiyasida dinning rolini isbotlab, tarbiyaning buzilishida maktabni aybdor deb hisoblaydilar.

Pozitivizm – tabiiy fanlar va miqdoriy metodlar yordamida olingan bilimlarni haqqoniy va ishonchliligi to‘g‘risidagi ta’limot. Ular tabiiy fanlarni va unda qo‘llaniladigan metodlarni absolyutlashtiradi. Pozitivistlar jamiyat rivojlanishi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq muammolarni ilmiy muammo deb e’lon qiladi. Ular faqat matematika va tabiiy fanlarni fan sifatida tan olib, jamiyatshunoslikni mifalogiyaga tegishli deb hisoblaydilar.

Pragmatizm – fan, texnika, ishlab chiqarishni tez sur’atlarda rivojlanishi natijasida hosil bo‘lgan falsafaning yangi yo‘nalishi. Ushbu yo‘nalish tarafdorlarining ta’kidlashicha,

pragmatizm – idealizm va materializmdan tashqarida turuvchi yangi falsafa. Ularning fikricha, asosiysi – bu ‘‘tajriba’’, ‘‘ish’’ yunoncha pragma). Pragmatistlar borliqni bilishni insonni individual tajribasi bilan bog‘laydilar. Ular obyektiv ilmiy bilimlar bo‘lmaydi, har qanday bilim, agar inson uchun foydali bo‘lsa va insonni amaliy faoliyatida tan olinsa, haqqoniy bo‘ladi deb hisoblaydilar.

Pragmatistlar bolaning individual tajribasi o‘quv jarayonining asosi deb hisoblab, ta’lim va tarbiya bolalarni rivojlanishiga, ularda o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerakligini ilgari suradilar.

Dialektik materializm – tabiat, jamiyat va tafakkur rivojlanishi va harakatlanishining umumiy qonunlari to‘g‘risidagi falsafiy ta’limot. Dialektik materializm tarafdorlari materia birlamchi, ong ikkilamchi deb hisoblaydilar. Ong materianing rivojlanishi natijasida paydo bo‘lib, uning mahsuloti hisoblanadi. Hodisa va predmetlar hamisha harakatda bo‘lib, rivojlanadi, o‘zgaradi. Dialektik materializm ta’limoti, tarbiyani jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy taraqqiyoti natijasida paydo bo‘ladigan obyektiv jarayon deb tushuntiradi.

Dialektik materializm falsafasida dialektika qonunlari miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi, qarama-qarshiliklar kurashi va birligi, inkorni inkor qonunlari asosiy o‘rinni egallaydi deb hisoblaydilar.

Dialektik materializm nazariyasiga asosan pedagogikada shaxs ijtimoiy munosabatning obyekti va subyekti sifatida tan olinadi. Uning rivojlanishi insonning tabiati va tashqi holatlariga bog‘liq. Shaxsni rivojlanishida asosiy rolni tarbiya bajaradi. Shaxs faoliyatda shakllanadi. Inson shaxsi va faoliyati bir butunlikda mavjud.

Biz metodologik bilimlarni falsafiy darajasini ko‘rib chiqdik. Navbatdagi – umumilmiy daraja hisoblanadi. Uning asosida ko‘p fanlarda qo‘llaniladigan konsepsiyalar, ilmiy yondashuvlar yotadi.

Metodologiyaning umumilmiy darajasi tadqiqotchini hodisa va jarayonlarni tizim sifatida o‘rganishga yo‘naltiradi.

Tizimli yondashuvning mohiyati shundaki, har qanday tizimni, hodisa va jarayonni mustaqil komponentlarni alohida emas, o‘zaro aloqadorlikda, rivojlanishda, harakatda o‘rganishni taqozo etadi. Tizimning bir komponenti o‘zgarsa boshqasi ham o‘zgaradi.

Shaxs rivojlanishining hal qiluvchi sharoitlaridan va asosiy vositasi faoliyat hisoblanadi. Ushbu holat pedagogik tadqiqotlarda va amaliyotda shaxsiy hamda faoliyatli yondashuvga asoslanishni taqozo etadi.

Bu inson faoliyatidan ko‘ra inson mohiyati boy, murakkab jarayonligidan dalolat berib, dialogik yondashuvni talab etadi. Dialogik yondashuv insonni imkoniyatlariga, uning chegara bilmas ijodiy imkoniyatlariga, hamisha rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishiga asoslanadi. Bu yerda asosiysi shaxsni faolligi, uning o‘z-o‘zini shakllantirishga bo‘lgan ehtiyojlari hisoblanadi. Ular faqat boshqalar bilan o‘zaro aloqa qilganlaridagina rivojlanadi. Dialogik yondashuvni shaxsiy va faoliyatli yondashuv bilan birligi insonparvar pedagogikaning metodologik mohiyatini tashkil etadi.

Yuqorida qayd etilgan metodologik prinsiplar madaniyatli yondashuv bilan o‘zaro aloqadorlikda qo‘llaniladi. Madaniyat bu yerda inson faoliyatining maxsus yo‘li sifatida tushuniladi. Shunday qilib, shaxsni madaniyatini shakllanishi uning ijodiy faoliyat yo‘llarini o‘zlashtirilishini ifodalaydi.

Inson yoki bola biror bir millatga, xalqqa tegishli aniq ijtimoy madaniy muhitda ta’lim oladi hamda yashaydi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan metodologik tamoyillar ta’lim muammolarini va ularning

rivojlanishini bir butunlikda hal etishni taqozo etadi.

Metodologiyaning uchinchi darajasi – aniq-ilmiy u yoki bu maxsus ilmiy yo‘nalishda qo‘llaniladigan tadqiqot tamoyillari, metodlari yig‘indisini ifodalaydi.

Metodologiyaning texnologik darajasi tadqiqot texnikasi va metodikasidan tashkil topib, ishonchli amaliy ma’lumotlarni olishni ta’minlovchi va uni dastlabki qayta ishlovini o‘tkazib, ilmiy bilimlar sinfiga qo‘shuvchi bajariladigan ishlar ketma-ketligi hisoblanadi. Ushbu darajada metodologik bilimlar me’yoriy xarakterni ifodalaydi.

Ba’zi tadqiqotchilar metodologiyani struktura, mantiqiy tashkil etish, usul va vositalar to‘g‘risidagi ta’limot deb hisoblashadi. Gumanitar bilimlarning bir tarmog’i sifatida ish jarayonida ta’kidlangan pedagogikaning metodologik tamoyillari (yondoshuvlari), birinchi navbatda, xayoliy emas, balki dolzarb muammolarni ajratib olishga va shu bilan ularni hal qilish strategiyasi va asosiy yo‘llarini aniqlashga imkon beradi. Ikkinchidan, bu eng muhim ta’lim muammolarining umumiyligini tahlil qilish va ularning ierarxiyasini o‘rnatish uchun yaxlit va dialektik birlashishga imkon beradi. Va nihoyat, uchinchidan, ushbu uslubiy prinsiplar obyektiv bilimlarni olishga va ilgari mavjud bo‘lgan pedagogik stereotiplardan uzoqlashishga imkon beradi. Ilmiy bilish uslubi va dunyoni o‘zgartirish haqidagi ta’limot sifatida metodologiyaning boshqa ta’riflari ham mavjud.

Zamonaviy adabiyotda metodologiya ostida birinchi navbatda ilmiy bilish metodologiyasi tushuniladi, ya’ni qurilish tamoyillari, ilmiy va kognitiv faoliyatning shakllari va usullari to‘g‘risidagi ta’limot tushuniladi.

Umuman olganda, metodologiya ilmiy tadqiqot va amaliy faoliyatni qanday olib borish kerakligini ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Данилов М.А., Скаткин М. Н. Дидактика средней школы. – М.: Просвещение, 1975. – С. 301.

2. Краевский В. В. Методология педагогического исследования. – Самара: Изд-во Сам ГПИ, 1994.

3. Краевский В. В. Общие основы педагогики: Уч. для студ. высш. пед. уч. зав. – М.: Издательский центр Академия, 2008. – С. 256.

4. Yo‘ldashev O‘ va boshqalar. Umumiy pedagogika – T.: Fan va texnologiya, 2018, 376-b.

5. Yo‘ldashev O‘. Didaktik prinsiplar tizimida tarixiylik – T.: Fan, 2005, 70-b

Mansur BEGMATOV,
Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

O‘RTA MAKTABLARDA XORIJIY TILLARNI INTENSIV O‘RGATISHDA VUJUDGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada, o‘rta maktablarda xorijiy tillarni intensiv o‘rgatishda vujudga keladigan muammolar va ularning yechimi hamda o‘rta maktablarda xorij tillarida dars berayotgan o‘qituvchilar faoliyati tahliliy bayon etilgan. Shuningdek, maqolada o‘rta maktablarda xorij tillarini o‘qitish usullari va zamonaviy pedagogik texnikalar imkoniyati, zamonaviy usullarsiz xorij tilni o‘rgatish mumkin emasligi, ularni shu pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasidagi muallifning izlanishlari natijasi bilan tanishasiz.

Kalit so‘zlar. O‘rta maktab, xorijiy til, intensiv, muammo, metodlar, o‘rgatish, ta’lim, fan, o‘qituvchi, o‘quvchi, mahorat, kelajak, individual shaxs, test, nazariya, saboq, an’anaviy, manba.

В данной статье анализируются проблемы, возникающие при интенсивном обучении иностранным языкам в общеобразовательных школах и пути их решения, а также деятельность учителей, преподающих иностранные языки в общеобразовательных школах. В статье вы также узнаете о методах обучения иностранным языкам в общеобразовательных школах и возможности современных педагогических методик, о невозможности обучения иностранному языку без современных методик, о результатах авторских исследований по использованию этих педагогических технологии.

Ключевые слова. ВУЗ, школа, иностранный язык, интенсив, проблема, методика, обучение, образование, наука, учитель, ученик, умение, будущее, личность, тест, теория, урок, традиционный, ресурс.

This article analyzes the problems that arise in the intensive teaching of foreign languages in secondary schools and their solutions, as well as the activities of teachers who teach foreign languages in secondary schools. In the article you will also learn about the methods of teaching foreign languages in secondary schools and the possibility of modern pedagogical techniques, the impossibility of teaching a foreign language without modern methods, the results of the author's research on the use of these pedagogical technologies.


Key words. High school, school, foreign language, intensive, problem, methods, teaching, education, science, teacher, student, skill, future, individual, test, theory, lesson, traditional, resource.

Hozirgi kunda mamalakatimizda ta’lim sohasi rivoji yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu borada ta’limni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muammolarini tizimli-innovatsion yondashuv bilan hal etishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizning rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab olgan Taraqqiyot strategiyasida ham xalqaro standartlar talablariga mos keladigan ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar qilinayotganligi alohida e’tirofga loyiq.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712 farmoni ta’lim tizimini yanada rivojlantirishda dasturi amal bo‘lib xizmat qiladi[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–1875-sonli qarori ijrosiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartlari 2013-yilda hukumat qarori bilan tasdiqlanib, chet tillari bo‘yicha ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar belgilab qo‘yildi. Unga ko‘ra umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf (4-sinf) bitiruvchilari chet tilini A 1 darajada ya’ni “Chet tilini egallashning boshlang‘ich darajasi”da, 9-sinf bitiruvchilari esa A 2 “Chet tilini egallashning tayanch darajasi”da bilishi lozimligi ko‘rsatib o‘tild. Demak, o‘quvchilarning chet tilini o‘rganishlarini leksik birliklarga bog‘lab o‘lchaydigan bo‘lsak, I–IV sinflarda o‘rganiladigan 500 ta aktiv (produktiv) leksik birlik va V–IX sinflarda esa 500 ta aktiv va yana 500 ta passiv (retseptiv) leksika ham o‘rganilishi lozim deganidir. Chet tili o‘quv fanining bugungi kundagi maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, o‘quvchilar yoki til o‘rganuvchilarda chet tili kommunikativ kompetensiyasi ya’ni chet tili bo‘yicha egallagan bilim, malaka va ko‘nikmalarni muloqot jarayonida qo‘llay olish qobiliyatlarini shakllantirish ustida chet tili o‘qituvchilari, til o‘rganuvchilarning o‘zlari, metodistlar va barcha mutasaddilar ishlashi kerak.

Bizning nazarimizda, o‘rta maktablarda xorijiy tillarni intensiv o‘rgatishda vujudga keladigan muammolarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 05.09.2018 yildagi PF-5538 Farmonida jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab” Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori fikrimizning yorqin isbotidir. Bunda xorijiy tillarni o‘rta maktablarda o‘qitishda keng qo‘llanilayotgan metodlardan foydalangan holda ishlab chiqib zamonaviy darsliklar ishlab chiqilganligi, maktablarda ingliz tilidagi o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlanganligi, o‘quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion shu jumladan, xorijiy tillarni masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish va qayta ko‘rib chiqilishi, belgilangan[2].



[1] O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi Prezident Shavkat Mirziyoyev farmoni (29.04.2019 -yildagi PF-5712-son Farmon). www.lex.uz.sayti

[2] O‘zbekiston Pespublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo‘yicha yig‘ilishi 2013-yil. 3-aprel.

O‘rta maktablarda xorijiy tillarni intensiv o‘rgatishda vujudga keladigan muammolarni bartaraf etishda intensiv metod Stream texnologiyalari, maktab o‘quvchilarini yangi o‘qitish metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi. U bolalarni bir vaqtning o‘zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san’at) va Mathematics (matematika) bo‘yicha o‘qitish tizimiga asoslangan, bunda o‘quvchilar amaliy va ko‘ngilochar loyihalar mashg‘ulotlari yordamida saboq olish tizimi katta natija beradi. Shu o‘rinda Stream atamasi haqida to‘xtatilib o‘tsak. Bu atama ilk bor AQShda maktab dasturiga kiritilgan bo‘lib, o‘quvchilarning ilmiy texnika yo‘nalishlarida kompitensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Keyinchalik bu yo‘nalish kengaytirilib, atamaga qo‘shimcha harflar kiritildi. Jumladan: “R”– robotic-robototexnikani qo‘shib, Stream – deb ataldi. Mamlakatimiz o‘rta maktablarida xorijiy tillarni intensiv o‘rgatishda vujudga keladigan muammolarni bartaraf etish davr talabidir.

Bugun yangilanib borayotgan axborotlar bilan uyg‘un holda faol ishlaydigan kasb egalari timsolini bugungi o‘quvchi yoshlarda shakllantirishda o‘rta maktablarda xorijiy tillarni chuqur o‘rgatish lozim. O‘rta maktablarda xorijiy tillarni intensiv o‘rgatishda vujudga keladigan muammolarni bartaraf etishda Stream ta’limi dasturining asosini tashkil etadi. Intensiv Stream ta’limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish orqali katta natijalarga erishish mumkin. Bu metod Stream ta’lim jarayonida bilimlarni olish, so‘ngra ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya’ni o‘yinlarda konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo‘llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi. Stream ta’limi o‘quvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog‘laydi. Ma’lumki, xorijiy tillar bugungi kunda keng qo‘llaniladi. Hech kimga sir emaski, qaysi soha xodimi bo‘lishidan qat’i nazar shubhasiz xorijiy tillar bilan bevosita bog‘langandir[3].

Stream ta’limi asosida yondashuv o‘quvchi yoshlarga dunyoni tizimli ravishda o‘rganishga, atrofda ro‘y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o‘zaro aloqani anglab yetishga o‘zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o‘quvchi yoshlarda qiziquvchanlikni rivojlantiradi, o‘zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, yechimini topishning algoritimini ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashni, fikrlashning muhandislik jihatlarini shakllantirishga olib keladi.

O‘rta maktablarda xorijiy tillarni intensiv o‘rgatishda vujudga keladigan muammolarni bartaraf etishda Stream ta’limining afzalliklari: 1. Ta’lim berishni o‘quv fanlari bo‘yicha emas, balki xorijiy tillar bo‘yicha integratsiyalab olish kerak. Bu intensiv metodda fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo‘lib, uning asosida xorijiy tillarni integratsiya qilish yotadi. Bunda tillarni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan tayyorgarlik masalalarini amalga oshirish mumkin bo‘ladi. 2. Bu metodni tillarni o‘rganishga oid ilmiy bilimlarni real hayotda qo‘llash orqali bolalarga xorijiy tillarni o‘rgatishga oid bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o‘quvchilar xorijiy tillarni o‘rganish borasida zamonaviy modullar o‘rganadi va o‘zlarining til bilish darajasini rivojlantiradi. Stream ta’limida xorijiy tillarni o‘rganish orqali yaratadilar. 3. Xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganishda tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda muammolarni yechish orqali muvaffaqiyatga erishadilar. Stream dasturini qo‘llash orqali, maktab o‘quvchilarini kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishga zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko‘nikmalarni

[3] Школа дружелюбного отношения к ребенку: Основные аспекты индикаторы результатов, критерии оценки. – Т., ЮНИСЕФ, 2015.

rivojlantiradi. Masalan o‘quvchilar lug‘at yodlab, uni tatbiq etib amaldan o‘tkazishadi. 4. Stream metodini o‘rganish orqali o‘z kuchiga ishonish hissining ortishiga xizmat qiladi. Oxirida barcha muammolarni o‘z kuchlari bilan yengib, maqsadga erishadi. 5. Xorijiy tillarni o‘rganish orqali o‘quvchilar ongida faol kommunikatsiya va jamoada birgalikda ishlash takomillashadi. Muloqot davrida o‘z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot o‘tkazishga o‘rganishadi. Bolalar doimo o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqotda bo‘lishadi. Bolalar jarayonda faol qatnashsalar mashg‘ulotni yaxshi eslab qoladilar. 6. Intensiv Stream metodi orqali xorijiy tillarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish. O‘rta maktablarda xorijiy tillarni o‘rganishda Stream ta’limining vazifasi, o‘quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. 7. O‘rta maktablarda xorijiy tillarni kreativ va innovatsion yondashuv innovatsion Stream ta’limi metodini qo‘llash oltita bosqichda amalga oshiriladi: savol (vazifa), muhokama, guruh, amaliyot, sinovdan o‘tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar Stream metodi yondashuvining asosi hisoblanadi. Turli imkoniyatlarning birgalikda mavjud bo‘lishi yoki birgalikda ishlatilishi o‘z navbatida kreativlik va innovatsiyaning asosi bo‘lib hisoblanadi. Shunday qilib, fan va texnologiyaning birgalikda o‘rganilishi ko‘pgina yangi innovatsion loyihalarni yaratishga olib keladi. 8. O‘rta maktablarda xorijiy tillarni intensiv o‘rgatish orqali ta’lim va karyera orasidagi ko‘prik. Turli xil baholanishlarga ko‘ra, hozirgi kunda talabgor eng ko‘p bo‘lgan 10 mutaxassisdan 9 tasida aynan Stream metodi orqali bilimlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega[4].

O‘rta maktablarda xorijiy tillarni o‘rgatishda eskirgan usullar mexanizmi samara bermaydi. O‘rta maktablarning xorijiy tillar bo‘yicha darslik majmualarining tarkibiy qismi hisoblangan “O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma” larni ham xorij tajribasi asosida qo‘llashni davrning o‘zi taqozo qilmoqda. O‘rta maktablarda xorijiy tillarda dars berayotgan o‘qituvchilarning sifatli dars o‘tishlari uchun metodik qo‘llanmadan foydalanmaslikning iloji yo‘qligini ularga anglatib, bu muammoni bartaraf etishimiz lozim. Ularning o‘zlarini qiynab bo‘lsa-da, ushbu metodik qo‘llanmadan samarali foydalanishga erishishlari maqsadga muvofiqligini uqtirishimiz kerak.



Mamlakatimizda o‘rta maktablarda xorijiy tillarni o‘rgatishda keng qo‘llanilishi borasida olib borilayotgan islohotlar samarasida o‘rta maktablarda xorijiy tillarni o‘rgatishda

[4] Иович Ч. English for the youngest: First book with illustrations. – Бишкек, 2020.

darsga oid ko‘rsatmalarni, o‘qituvchi nutqini, kichik hajmdagi ertaklarni, tengdoshlarining tasmaga yozilgan nutqlari, dialog va she’rlarini tinglab tushunishlari, o‘rganayotgan chet tilida salomlasha olishlari, o‘zini tanishtirishlari, taklif etishi, so‘rashi, sodda savollarga javob bera olishlari va yoshiga mos o‘rganilgan mavzularda gapira olishlari kutilmoqda.

Shu o‘rinda, professor K. Xanazarovning “Xorijiy tillarni yaxshi o‘rganishda tilni yoqtirishi yoki yoqtirmasligi bilan emas, balki bozor iqtisodiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan uning yuqori ‘‘mahsuldorligi’’ bilan belgilanadi[5] degan fikrlarini bugungi holatga javob tariqasida keltirish mumkin deb hisoblaymiz. O‘rta maktablarda xorijiy tillardan dars berayotgan aksariyat til o‘qituvchilari xorijiy mutaxassislari bilan ro‘baro‘ kelganda muloqotga kirisha olmasdan qiynalishadi. Buning ham obyektiv va subyekiv sabablari bor.

O‘rta maktablarda xorijiy tilllarni o‘rgatishda muloqot uchun kerak bo‘ladigan jihatlarni emas, balki turli qo‘shimcha qoidalarni yodlatish, faqat yozdirish va o‘qitish orqali xorij tilini nomiga, tashqi dunyodan ajralgan holdagi siyosatga bog‘liq o‘rgatish amal qilgan. Oqibatda, nafaqat nofilologik yo‘nalishda xorij tilini o‘rganganlar, balki chet tili mutaxassisi ham xorijlik bilan uchrashganda muloqotga kirisha olmagan. Bugungi kunda mamlakatimizda xorij tillarini o‘rgatishda umumyevropa kompetensiyalariga asoslangan O‘zbekistonning DTS talablarida O‘zbekiston Respublikasida ta’limning barcha bosqichlarida xorij tilini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘rganuvchilarning ko‘p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun xorij tillarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iboratdir.

Bizning nazarimizda o‘rta maktablarda xorij tillarini o‘qitish uchun yaratilayotgan darslik-majmualarida ham nutq faoliyatining “Tinglab tushunish” va “Gapirish” kompetensiyalari birinchi planga chiqarishni va barcha o‘qituvchilar ham shunga amal qilishini davrning o‘zi talab etiladi. Umumta’lim maktablarida xorij tili o‘qituvchisi boshlang‘ich sinflarda ham yuqori sinflarda ham dars beradi, bu esa boshlang‘ich sinf chet tili o‘qituvchisi uchun alohida tilni bilish darajasi uchun me’yor belgilab bera olmaslikka olib keladi. Misol tariqasida shuni aytishimiz xorij mamlakatlaridan Fransiyaning umumta’lim maktablarida, xorij tillarining o‘qitilish xususan, Vezine shaharidagi Merlet umumta’lim maktabida ingliz tili o‘qituvchisi asosan bolalar bilan “Tana a’zolari” mavzusida olib borilib qo‘shimcha adabiyotlar, ertak kitoblar va texnik vositalar bor, ularda ham kitoblarning to‘liq bepul ekanligi soha rivojida katta hissa qo‘shgan.

Bizning nazarimizda, xorij tillarini o‘zi o‘qitadigan o‘rta maktab o‘qituvchilari haqida gap ketar ekan, yana bir farqli jihatni ko‘rdik. Tahlillarimizni Fransiya o‘rta maktablarida xorij tillari o‘qitiladigan sinf jurnallarining shakli ham O‘zbekistondagidan farq qilgan holda, chet tillaridan o‘quvchilar bilimini baholashda nutq faoliyati turlariga ajratgan holda yondashiladi, ya’ni: “Listening – tinglab tushunish”, Speaking – gapirish”, “Writing – yozish” va “Reading – o‘qish” uchun alohida o‘z davlatida qabul qilingan baholash mezonlariga mos ravishda baho qo‘yiladi. Shu o‘rinda mamlakatimizda o‘rta maktab xorij tillarini bilish darajasini baholash yo‘nalishida ahvol qanday degan savol tug‘iladi. Yevropa hamjamiyatiga a’zo davlatlarda xorij tillarini o‘rgatishda amalda foydalanib kelinayotgan “CEFR — Chet tilini bilishning umumevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘rgatish, baholash”[6] asosida “O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining chet tili bo‘yicha davlat ta’lim standarti”ni yaratishda mamlakatimizda o‘rganish va o‘rgatish qismlari olingan va baholash qismi jarayondan chetda qolgan.

[5] Zamonaviy ta’lim jurnali / Современное образование 2014-yil, 9-aprel soni.

[6] https://www.gazeta.uz/ru/2018/09/01/schools/

O‘rta maktablarda 2013-yildan 1-sinfdan boshlab, bosqichma-bosqich joriy etib kelinayotgan islohotlar natijasida farzandlarimizning xorij tillarini qay darajada egallayotganliklarini aniqlash uchun endi baholash (assessment) mezonlarini ishlab chiqish navbati keldi. Uni barcha ta’lim bosqichlari uchun yagonalikka keltirish ustida mutaxassislar birgalikda ishlashi bugungi kun ehtiyoji va talabiga aylanmoqda. Ayni paytda o‘rta maktabda xorij tillarini o‘rganayotgan o‘quvchilar bilimini barcha fanlardan baholash, ta’limning 3 ta bosqichida (5 ballik tizim) olib borilishini bir muammo sifatida jiddiy e’tibor qaratishimiz kerak. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, “Baholash ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, uning qanday tashkil etilishi nafaqat xorijiy tillarni o‘qitish samaradorligini oshiradi, balki o‘rganuvchilarning motivatsiyasini oshirishga ham xizmat qiladi”[7]. Agar ushbu muammoni o‘rta maktablarning xorij tillarini o‘zlashtirganlik darajasini yagona talab darajasida baholash mezonlarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilinsa, so‘ngra boshqa fanlar uchun ham tajribadan o‘tkazilsa, bir qator muammolar o‘z yechimini topgan bo‘lar edi.

O‘rta maktablarda xorij tillarini o‘qitishning sifatini yanada oshirish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 25-martdagi 67-qarori asosida ingliz tili o‘qituvchilari uchun amaldagi malaka oshirish jarayoniga qo‘shimcha ravishda (haftada bir marta 6 soatlik) xorij tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishga mo‘ljallangan uzluksiz malaka oshirish kurslari tashkil etish orqali biz muammoga yechib topishimizda dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda[8].

Mazkur metodikalar ham o‘rta maktablarda xorij tillarni o‘qitishni jadallashtirish metodikalaridan biri hisoblanadi. Xorij tillari o‘qituvchilari, jumladan, boshlang‘ich sinflarda ham dars berayotgan chet tili o‘qituvchilarining quyidagi 3 ta modul yo‘nalishida 1-modul. Kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratni oshirish hamda chet tilini o‘rgatishda kommunikativ yondashuv; so‘z va iboralarni (leksika) tushuntirish texnologiyasi, talaffuzni o‘rgatishning samarali metodlari, til va nutq birliklarini o‘rgatish metodikasi, tinglab tushunish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish metodlari, chet tilida o‘qishni o‘rgatish metodikasi, gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi, ingliz tili darslarida yozish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish metodikasi 2-modul. O‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish metodikasi yo‘nalishini, xorij tilidagi darslarini tashkil etishning zamonaviy metodlari, darsning tarkibiy qismlari va ularni taqdim etish metodikasi, chet tili darslarida didaktik materiallardan samarali foydalanish, chet tilini o‘rgatishda ona tilining o‘rni (interferensiya), tilni o‘rganishda “xato” va uni tuzatishning samarali yo‘llari. 3-modul. Xorij tillarini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha test tizimi, chet tillari bo‘yicha Xalqaro test tizimi, O‘zbekiston Respublikasining Chet tillarini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha milliy test tizimi yo‘nalishida o‘quvlar olib borishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda.

Har qanday mutaxassis uchun, agar u o‘z sohasida muvaffaqiyatga erishmoqchi bo‘lsa, chet tilini bilish juda muhimdir. Shuning uchun uni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya keskin oshdi. Afsuski, deyarli barcha chet tili darsliklari o‘rtacha o‘quvchini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Ushbu kamchilik ularni o‘rganish va amaliyotda qo‘llashni o‘qitish metodologiyasida ishlab chiqilgan usullar, yondashuvlar va texnologiyalar bilan qoplanishi mumkin va kerak. Xorijiy tillarni an’anaviy o‘qitish jarayonida qo‘llanilib kelinayotgan darsliklarning asosiy kamchiliklaridan biri ularga kiritilgan nutq mavzularining o‘zgaruvchilarning nutqiy ehtiyojlariga, kommunikativ mos keluvchi kom-

7. https://yuz.uz/–internet sayti

8. https://www.uzanalytics.com/ internet sayti

munikativ topshiriqlar orqali o‘quvchilarning nutqiy ehtiyojlariga va ularga asoslangan kommunikativ faoliyat orqali tashkil qilishning metodik, psixolingvistik, lingvo-didaktik asoslari o‘tilishi lozim. Natijada, o‘quv materiali muloqot, o’zaro erkin fikr almashuv, munosabat bildirish darajasida o‘zlashtirilmaydi.

Qo‘llanmada xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy metodikasining eng dolzarb muammolari, o‘qitishga innovatsion yondashuvlar, yangi innovatsion g‘oyalar, jumladan, hal etilmagan, munozarali masalalar yoritilgan. Kitobda o‘qitish amaliyotida zarur bo‘lgan keng ko‘lamli dolzarb uslubiy muammolar keltirilgan. Kitobda xorijiy tillarni o‘rgatishning yangi ilg‘or tendensiyalari tavsifi zamon talablariga zamonaviy javobdir. Ushbu kitob mulohaza yuritish, muhokama qilish, tadqiq qilish, mavjud va paydo bo‘lgan metodologik muammolarning mumkin bo‘lgan yechimlarini izlash uchun imkoniyatdir.

Zamonaviy jamiyatda ta’limning ijtimoiy roli oshdi, chunki insoniyatning rivojlanish istiqbollari uning samaradorligi va sifatiga bog‘liq. Ta’lim orqali insoniyat tomonidan to‘plangan tajriba maxsus tayyorlangan o‘quv nashrlari yordamida yosh avlodga yetkaziladi.

Darslik har doim juda keng qo‘llaniladigan, eng tartibli ilmiy bilim manbai bo‘lib, u eng samarali, asosiy o‘qitish vositasidir, u inson tajribasini uzatish usuli va darslik vaqtida o‘qitiladigan fan darajasini aks ettirishning o‘ziga xos shaklidir. Darslik hali ham asosiy va eng keng qamrovli o‘qitish vositasidir.

Xulosa qilib aytganda, o‘rta maktablarda xorij tillarini o‘qitishda jiddiy muammolar va kamchiliklarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni davrni o‘zi taqozo qilmoqda. Mamlakatimizda bu borada yevropa tizimini o‘rgatishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda va ularni an’anaviy intensiv ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashtirishga e’tibor qaratish lozim. O‘rta maktablarda xorij tillarini o‘rgatishda xorij tillarini o‘zlashtirishda xorij tajribasini qo‘llash va xorij mutaxassislarini jalb etish o‘ta muhim. O‘rta maktablarda xorij tillarini o‘rganishda pedagoglar tomonidan xorij tillarini o‘rganilishi, ularning lug‘atlashtirilishi, xorij matbuotida nashr ettirilishi kabi holatlar bugungi davr rivojiga munosib hissa qo‘shadigan usullar muhim ahamiyatga egaligi yana bir bor o‘z isbotini topdi. Ayni paytda Yangi O‘zbekistonimizda ushbu sohada olib borilayotgan keng islohotlar xorij tillarini o‘qitishda milliy o‘qitish an’analarini saqlab qolish uchun zaruriy chora-tadbirlarning olib borilishi o‘quvchilarning xorij tillarini o‘zlashtirib mamlakatimiz salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi Prezident Shavkat Mirziyoyev farmoni (29.04.2019-yildagi PF-5712-son Farmon). www.lex.uz.sayti.

2. O‘zbekiston Pespublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo‘yicha yig‘ilishi 2019-yil 3-aprel.

3. Школа дружелюбного отношения к ребенку: Основные аспекты индикаторы результатов, критерии оценки. – Т., ЮНИСЕФ, 2015.

4. Иович Ч. English for the youngest: First book with illustrations. – Бишкек, 2020.

Kamolaxon ABRORXONOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrasi mudiri PhD
Mohidil G‘OFUROVA,
Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ishi (boshlang‘ich ta’lim) talabasi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI KREATIV TAFAKKURLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kreativlik tushunchasi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ tafakkurlarini rivojlantirish, kreativ qobiliyatlarini kamol toptirishning nazariy asoslari, istiqbolli yo‘llari yoritilgan. O‘zlashtirish jarayonida tashkil etiladigan darslarning yangicha texnologiyalar asosida, kreativ yondashgan holda tashkil etish, qay darajada samarali ekanligi ifodalangan.

Kalit so‘zlar. Kreativlik, ijodiy qobiliyat, kreativ fikrlash, moslashuvchanlik, yaratuvchanlik, zamonaviy ta’lim.

В данной статье освещены понятие творчества, теоретические основы и перспективные пути развития творческого мышления учащихся начальной школы, совершенствования их творческих способностей. Высказывается насколько эффективно организовывать занятия, организованные в процессе освоения на основе новых технологий, с творческим подходом.

Ключевые слова. Креативность, творческие способности, творческое мышление, гибкость, креативность, современное образование.

In this article, the concept of creativity, the theoretical foundations and prospective ways of developing creative thinking of elementary school students, perfecting their creative abilities are highlighted. It is expressed how effective it is to organize the lessons organized in the process of mastering based on new technologies, with a creative approach.

Key words. Creativity, creative ability, creative thinking, flexibility, creativity, modern education.

Bugungi globallashuv zamonida yangidan-yangi ta’lim texnologiyalari, yangidan-yangi bilimlar samarasining guvohi bo‘lmoqdamiz. Biz yashayotgan axborot asrida ilm-fanning jadal rivojlanishi biz yashayotgan jamiyat muhitini sezilarli ravishda o‘zgartirib yubormoqda. Shu sababli, bugungi kunda bizning jamiyatimizga ilg‘or va kreativ fikrlarga ega, jamiyat ishlariga ijodiy moslashuvchan, muammolarga yangi va to‘g‘ri yechim topa oladigan, erkin harakatlanuvchi shaxslarni tarbiyalash talablari qo‘yilmoqda. Yangilik yaratish qobiliyatiga ega, muammolarni samarali hal qila oladigan shaxslarga bo‘lgan talab juda kuchaygan. Shunday ekan, zamonaviy ta’limimizning dolzarb vazifalaridan biri ham shaxsning faolligi, kreativ tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan.

“Kreativlik” tushunchasiga to‘xtalamiz. Kreativlik (ijodkorlik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, yangicha fikrlash, original g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon deb tavsiflanadi. Tushunchaga berilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki,

kreativlik ham xuddi tashabbuskorlik, ishga ijodiy yondashuv xislatlari singari albatta, tug‘ma, ilohiy tuhfa bo‘lishi aslo shart emas. Modomiki, kreativlik – aqliy jarayon ekan, albatta, odam aqlini yuksaltirishning, rivojlantirishning, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishning bitmas-tuganmas yo‘llari va usullari topiladi. Kreativlik yuqumli xususiyatga egadir; kreativ bo‘lish uchun kishi ko‘proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo‘lishi lozim. Har qanday ko‘nikmani shakllantirish mumkin bo‘lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko‘nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu pedagoglarga nihoyatda taalluqli bo‘lib, kreativlik ustida ishlash pedagoglarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi.

Ma’lumki, mamlakat taraqqiyotida texnologiya, yosh avlodni kreativ qobiliyatini rivojlantirish, kreativ tafakkurlarini shakllantirish dars jarayonida ijodiy yondashish borasida o‘zgarishlar borgan sari globallashib, uning boshqaruvchisidan yuksak mahorat egasi bo‘lishni talab etmoqda. Shu sababli ko‘pgina davlat hujjatlarida, shuningdek, bosh qomusimiz hisoblangan Qonunning 2-bo‘lim, XI bob, 42-moddasida ham ijod erkinligi xususida shunday imkoniyatlar keltirilgan: “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”. Ta’lim tizimida ham uning dasturlari, mazmuni, standartlari takomillashib bormoqda. Bunday tezkor o‘zgarishlar bilim olishning yangi texnologiyalari, masofaviy, loyihalangan ta’lim, zamonaviy ta’limda kredit tizimi, media ta’limini, yani shaxsiy ijodkorlikka asoslangan ta’limni joriy qilish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. Umuman inson faoliyatida yaratuvchanlik, kreativ fikrlash har qanday muammoni, vazifani, loyihani yechishda sermahsul jarayon hisoblanadi. O‘quv jarayonida o‘quvchi mustaqil ravishda masalaning kreativ yechimiga intilsa, o‘qituvchi muammoli vaziyatni o‘z vaqtida tashkil etsa, o‘quvchi uchun sekin-asta ko‘nikma va malakaga aylanib boradi, o‘quvchilarda kreativ tafakkur chegaralari kamol topa boshlaydi.

Y.Torrensning fikricha, “kreativlik bu – chuqurroq qidirish, e’tiborliroq qarash, xatolarni to‘g‘irlash, mushuklar bilan suhbatlashish, chuqurlikka sho‘ng‘ish, devorlar ichra o‘tish, quyoshni yoqish, qumdan qasrlar qurish, kelajakka sayohat qilish”dir. O‘qituvchi-pedagog boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ tafakkurlarini rivojlantirishda turli xil yangicha, interfaol ta’lim taktikalarini dars jarayonlarida, to‘garak, treninglarda qo‘llashi mumkin. Masalan, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda bir-birini tanishtirish, ularda do‘stlik, mehr-oqibat tushunchalarini uyg‘otishda bir necha usullarni ko‘rib chiqishimiz mumkin. Bu trening mashg‘ulotlar bolalarda kreativ tafakkurlarni shakklanishida ma’lum ma’noda yordamchi bo‘ladi. “Ismdan tashqari barchasi” nomli tanishuv-birlashtiruv texnikasida ishtirokchi bolalar juftliklarda tanishadilar. Tanishuv shakliy ixtiyoriy bo‘lib, 2-3 daqiqa vaqt ichida o‘z sherigini qolganlarga tanishtirishadi. Ismning haqiqiysi ya’ni rosti aytilib, qolgan aytilgan ma’lumotlarning barchasi yolg‘ondan to‘qib chiqariladi. Bularning barchasi bolalarda xotira mashqlarini rivojlanishida xizmat qiladi, ya’ni o‘quvchilar qolgan ma’lumotlarni ham eslab qolishga urinishadi. Yoki yana bir shunga o‘xshash “Uch fakt” mashg‘ulotida har bir bola o‘zi haqida uchta fakt aytadi, ulardan biri haqiqiy va ikkitasi yolg‘on bo‘ladi. Qolgan ishtirokchilarning vazifasi qaysi bir fakt rost ekanligini aniqlashdan iborat. Oxirida o‘zini tanishtirgan ishtirokchi haqiqatni oshkor etib, faktlarning qaysi biri rost ekanligini ma’lum qiladi.

Maktabda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ tafakkurlarini rivojlantirish hozirgi kunda katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib qolganligini ko‘rishimiz mumkin. Umuman inson faoliyatida yaratuvchanlik, kreativ fikrlash har qanday muammoni, vazifani, loyihani yechishda sermahsul jarayon hisoblanadi. O‘quv jarayonida o‘quvchi

mustaqil ravishda masalaning kreativ yechimiga intilsa, o‘qituvchi muammoli vaziyatni o‘z vaqtida tashkil etsa, o‘quvchi uchun sekin-asta ko‘nikma va malakaga aylanib boradi.

Inson o‘zidagi imkoniyatlar doirasidan chetga chiqib, o‘z ustida ishlab aqliy qobiliyatini rivojlantirsa, u o‘zida yangidan yangi g‘oyalar tizimini ishlab chiqadi. Boshlang‘ich sinflardanoq kreativ qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish bu inson o‘z ongi bilan belgilangan chegaralarni hatlab o‘tishi, to‘siqlarni hech kimning aqliga kelmaydigan yangicha usullar bilan bartaraf etishi demakdir.

Xulosa qilib aytganda, zamon talablariga mos keluvchi, ma’nan yetuk, intellektual rivojlangan kadrlarni tayyorlash uchun o‘qituvchi muammoning yechimiga, o‘quv materialini o‘rgatishga ijodiy yondashishi shart. Ularga mashg‘ulotlar mazmuni, o‘ziga xosligi, elastikligi, innovatsion mohiyatga egaligi, shaxsga yo‘naltirilganligi, ijodiy potensiali, shaxsning kreativ rivojlanishi uchun istiqbolni belgilashi kabilarni singdirish lozim. Buning uchun mashg‘ulotlar mazmuni chuqur, jozibador, esda qoladigan, o‘quvchilarning idrok qilish faoliyati esa rang-barang, ijodiy va reproduktiv bo‘lishi kerak. O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘ladi. O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qonunchilik hujjatlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, –T., 2010.
2. Deyl Karnegi. Qanday qilib do‘st orttirish va odamlarga ta’sir ko‘rsatish mumkin. “Namangan” 2007-y, 128-b, 40-b.
3. Arapbayeva D.K., Norqulova N.T., Rustamova M. M. “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari”. –T.: Navro‘z, 2017-y.
4. Ochilova G. Pedagogik mahorat asoslari. Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2012.
5. Sayidahmedov N. ‘‘Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – T., 2003.

Mehriddin KUCHKAROV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

MAKTAB LABORATORIYASIDA AMMIAK OLISH TAJRIBASINI KIMYO SANOAT TEXNOLOGIYALARIGA MUVOFIQ TASHKIL ETISHNING USLUBIY MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqola umumiy o‘rta ta’lim tizimida kimyoviy eksperimentni tashkil etishni, xususan, “Ammiak olish” laboratoriya ishini kimyo sanoati texnologiyalariga muvofiqlashtirgan holda tashkil etishga bag‘ishlangan. Kimyo eksperimentini tashkil etishga bunday yondashuv, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish bilan birga, sanoat ishlab chiqarish jarayonlari haqida aniq tasavvur hosil bo‘lishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar. Kimyoviy tajriba, katalizator, imitatsiya, xomashyo, elektrolizyor, ammiak olish.

Данная статья посвящена организации химического эксперимента в системе общего среднего образования, в частности организации лабораторной работы “получение аммиака” в соответствии с технологиями химической промышленности. Такой подход к организации химического эксперимента, сочетающий теоретические знания учащихся с практикой, способствует формированию четкого представления о процессах промышленного производства.

Ключевые слова. Химический эксперимент, катализатор, имитация, сырье, электролизер, получение аммиака.

This article is devoted to the organization of a chemical experiment in the system of general secondary education, in particular, the organization of laboratory work “obtaining ammonia” in accordance with the technologies of the chemical industry. This approach to the organization of a chemical experiment, which combines the theoretical knowledge of students with practice, contributes to the formation of a clear understanding of the processes of industrial production.

Key words. Chemical experiment, catalyst, imitation, raw materials, electrolyzer, ammonia production.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini oshirish va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan, ta’lim tizimida “kimyo” va “biologiya” yo‘nalishlarida ta’limning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida amaliy mashg‘ulotlarga alohida e’tibor berish kerakligi ta’kidlab o‘tilgan.

Kimyo eksperimentini tashkil etishga bunday yondashuv, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish bilan birga, sanoat ishlab chiqarish jarayonlari haqida aniq tasavvur hosil bo‘lishiga yordam beradi. O‘quvchilar aynan ishlab chiqarish jarayonlari asosida eksperiment o‘tkazishlari, ularning bilim va tushunchalarini shakllanishida, ijodkorlik qobilyatlarini rivojlanishida juda muhim omil hisoblanadi. Shuni nazarda tutgan holatda o‘quv laboratoriyalarini, imkon qadar sanoat ishlab chiqarish jarayonlariga, ham xomashyo jihatidan, ham qurilmalar jihatidan yaqin ko‘rinishda tashkil etish maqsadga muvofiq.

Kimyoviy eksperimentni tashkil etishda muhim yo‘nalishi: o‘quv eksperimenti motivatsion ta’lim hodisasi emas, balki uning zarurligiga ishonch hosil qilish va hayotiylik his etgan holda amalga oshirishdir. Agar tajriba ijtimoiy, ko‘pincha ekologik bo‘lsa va ishlab chiqilayotgan loyihaning bir qismi bo‘lsa, o‘quvchilar uni istalgan bo‘sh vaqtlarida katta ishtiyoq bilan o‘tkazishga tayyor bo‘ladi.

Amaldagi o‘quv dasturi va darslikka ko‘ra, “Azotning vodorodli birikmalari” mavzusiga doir “Ammiak olish va u bilan tajribalar o‘tkazish” (3-amaliy mashg‘ulot) amaliy mashg‘uloti hamda “Ammoniy tuzlariga so‘ndirilgan ohak ta’sir ettirib ammiak olish va uning xossalarini o‘rganish” (9-laboratoriya ishi) mavzusidagi laboratoriya ishi berilgan. Har ikkala eksperiment ham bir xil an’anaviy usul – ammoniy tuzlari va asoslar orasidagi reaksiyaga asoslangan. Maktab laboratoriyasida ham ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyolardan, vazifasiga ko‘ra imitatsiya qilingan qurilmalardan foydalanish o‘quvchilarning dunyo qarashlarini kengaytiradi hamda bilimlarini amaliyotga qo‘llay olish xususiyatini oshiradi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, laboratoriyada bu usullar bilan olingan mahsulotlarda qo‘shimchalarning bo‘lishi, mahsulot unumining pastligi kabi holatlar bo‘lishi mumkin (kelajakda o‘quv laboratoriyasining reaktivlar ta’minotiga qo‘shimcha katalizatorlar, reaktivlar, moslashtirilgan qurilmalar, hatto, sanoatdagi qurilmalarning mahsulot chiqaruvchi kichik modellari kiritilishi, bu muammolarni ham bartaraf etishi mumkin). Eng muhimi, oz miqdorda bo‘lsada, haqiqiy sanoat texnologiyalari bo‘yicha mahsulot olinishi, o‘quvchilarda o‘zlariga ishonch, bilimlarini amaliyotga qo‘llay olish, ijodkorlik xususiyatlarini shakllanishiga olib keladi.

Shu maqsadda maktab laboratoriya mashg‘ulotlari uchun mazmunan o‘zgartirilgan qo‘shimcha uslubiy tavsiyalar tayyorlandi.

Tajriba. 8-sinf. VI BOB. Azot guruhchasi. 37-§. Azotning vodorodli birikmalari. 3-Amaliy ish. “Ammiak olish va u bilan tajribalar o‘tkazish”. 9-laboratoriya ishi “Ammoniy tuzlariga so‘ndirilgan ohak ta’sir ettirib ammiak olish va uning xossalarini o‘rganish”.

Laboratoriya ishi mavzusi: Ammiak olish

Ishning maqsadi: Sanoat usulida (havo va suv xomashyolaridan) ammiak olish.

Kerakli jihozlar: Probirkalar, shisha nay, rezina nay, spirt lampasi, rezina tiqin, qisqich, elektrolizyor, shtativ.

Kerakli reaktivlar: Fe kukuni, Al kukuni, suv (distillangan), NaOH eritmasi, lakmus qog‘ozi, fenolftaliyen.

Nazariy qism. Ammiak olish uchta bosqichda amalga oshiriladi: 1) suvni elektroliz qilib vodorod olish 2) suyuqlantirilgan havodan azot ajratib olish 3) katalizator ishtirokida (Al_2O_3, K_2O va Fe)

Havo P→ suyuq havo → N_2

Suv elektroliz→ H_2 (- katodda) Al_2O_3, Fe→ NH_3

Laboratoriya sharoitida katta bosimda suyuq havo hosil qilish imkoni bo‘lmaganligi uchun, havoni qizigan mis ustidan o‘tkazib kislorodni sarflab yuborish usulidan foydalaniladi. Shunda sxema quyidagi ko‘rinishga keladi.

Havo Cu, t → N_2

Suv elektroliz → H_2 (- katodda) Al_2O_3, Fe→ NH_3

Quyidagi reaksiyalar amalga oshadi.

1) $O_2 + 2Cu = 2CuO$

2) $2H_2O$ elektroliz → $2H_2 + O_2$

3) $N_2 + 3H_2$ Al_2O_3, Fe→ $2NH_3$ (P, 300-500 ºC)

Ishning bajarilish tartibi.

(Eslatma: jarayonlarni mo‘rili shkafda olib boring).


1. Havodan azotni ajratib olish bosqichi. Probirka tubiga temir va alyuminiy kukunlari aralashmasidan soling va rezina nay o‘rnatilgan tiqin bilan berkiting (alyuminiy oksidlanib, probirka ichidagi kislorodni sarflaydi, qolgan Fe va Al2O3 keyingi jarayon uchun katalizatorlik qiladi). Rezina nayni gaz o‘tmaydigan qilib qisqich bilan siqib qo‘ying. Probirkani kukun aralashma turgan joyini spirt lampasida qizdiring. Kukun rangi o‘zgarishiga e’tibor bering. Probirkadagi kislorod sarflanib, havo tarkibida asosan azot qolganligini nazarda tuting (1-rasm).

2. Suvni elektroliz qilib vodorod olish bosqichi. Elektrolizyorga suv solib, uni elektr o‘tkazuvchanligini oshirish uchun natriy gidroksid eritmasidan qo‘shing. Stakanga ikkita grafit elektrod o‘rnatib, ularni ustiga probirkalarni to‘nkarib, elektrolizyor yig‘ishingiz mumkin. Elektrodlarni o‘zgarmas tok manbaiga ulang (0,5 – 1 A, 6-12 V). Katodda (-) (H2) probirkadagi suvni siqib chiqarish bilan anoddagidan (+) (O2) ikki barobar ko‘p hajmli gaz chiqishiga e’tibor bering. Katodda yig‘ilgan vodorodni probirka og‘zini tiqin bilan berkitib, keyingi jarayon uchun qoldiring (2-rasm).


3. Azot va vodoroddan ammiak olish bosqichi. Azot va vodorod yig‘ilgan probirkalarni rezina nay bilan o‘zaro tutashtiring. So‘ngra oradagi qisqichni bo‘shatib, gazlarni o‘zaro aralashishiga imkon bering. Azotli probirkada bosim pastligi (chunki havoning 1/5 qismini tashkil etuvchi kislorod sarflanib ketgan) va vodorodning diffuziya tezligi kattaligi sababli, vodorod azotli probirkaga tezroq o‘tishini nazarda tuting. Azotli probirka ostidagi Fe va Al2O3 aralashmasini asta qizdiring. 3-4 daqiqadan so‘ng qizdirishni to‘xtating (3-rasm).

4. Ammiak hosil bo‘lganligini tekshirib ko‘rish bosqichi. Probirkani sovigach, tashqariga chiqaruvchi nayning qisqichini bo‘shatib, yelpish orqali ammiakni kuchli hidini darrov payqash mukin. Namlangan lakmus qog‘ozni nay uchiga qo‘ying (4-rasm). Lakmus qog‘ozini ko‘karishi ammiak hosil bo‘lganligini tasdiqlaydi. Shu jarayonni fenolftaliyen shimdirilgan qog‘oz bilan amalga oshiring. Fenolftaliyenni qizil rangga kirishi ishqoriy muhit, ya’ni ammiak hosil bo‘lganligini anglatadi. Chunki reaksiya uchun olingan moddalar (N2, H2) bunday muhit hosil qilmaydi.


Kerakli qurilmalarning tasviri.




1-rasm. Havodan azotni ajratib olish bosqichi



2-rasm. Suvni elektroliz qilib vodorod olish bosqichi



3-rasm. Azot va vodoroddan ammiak olish bosqichi



4-rasm. Ammiak hosil bo‘lganligini tekshirib ko‘rish bosqichi

Aynan mana shu jarayonni bitta umumlashgan bitta qurilmada ham amalga oshirish mumkin.

Laboratoriya ishi mavzusi: Ammiak olish


Ishning maqsadi: Sanoat usulida (havo va suv xomashyolaridan) ammiak olish.

Kerakli jihozlar: Probirkalar, o‘tkazuvchi shisha nay, rezina nay, spirt lampasi, rezina tiqin, qisqich, elektrolizyor, yumaloq tubli kolba, katta diametrli shisha nay.


Kerakli reaktivlar: Fe kukuni, suv (dist), NaOH eritmasi, fenolftaliyen.

Ishning bajarilish tartibi. Elektrolizyor katodidan hosil bo‘layotgan vodorod bir oz yig‘ilgandan so‘ng, rezina naydagi qisqichni bo‘shating. Vodorodni yondiring va shu holatda rezina tiqin bilan to‘nkarilgan kolbaga mahkamlang. Rasmda ko‘rsatilgan tartibda qurilma yig‘ing. Katta diametli shisha nay ichiga joylashtirilgan temir kukunlarini spirt lampasi yordamida qizdiring. Oxirgi chiqish nayiga probirka to‘nkarib, unga fenolftaliyen shimdirilgan qog‘oz kiritib qo‘ying. Qog‘ozning qizarishi ammiak gazi hosil bo‘lganligini anglatadi. Qoidaga rioya qilgan holda hidlab ko‘rish ham mumkin.

Kerakli qurilmalarning tasviri.





Laboratoriyada ammiakning olinishi




Sanoatda ammiakning olinishi

Laboratoriya va sanoatda ammiak olish qurilmalarini taqqoslash







Suvni elektroliz qilib vodorod va kislorod olish



Suyuq havodan azot va kislorod ajratib olish





Sanoatda azot va vodoroddan ammiak olinish jarayoni

Shu tariqa har bir bosqichda sodir bo‘layotgan jarayonlarni va qurilma qismlarining vazifalarini birma bir taqqoslab tahlil qilinishi, o‘quvchilar bilimlarni mustahkamlash bilan birga, ularni ishlab chiqarish sohasida mavjud muammolarni bartaraf etish borasida fikrlashga o‘rgatadi.

Sanoatda ammiak ishlab chiqarish katalizator, yuqori harorat va bosim yordamida vodorod va azotdan uning sinteziga asoslangan oddiy, vaqt talab qiluvchi va qimmat jarayon emas. Oksidlar bilan faollashtirilgan katalizator sifatida kaliy va alyuminiy shimgichli temir ishlatiladi. Ammiakni sintez qilish uchun sanoat korxonalari gazlarning aylanishiga asoslangan. Bu shunday ko‘rinadi: ammiakni o‘z ichiga olgan reaksiyaga

kirgan gazlar aralashmasi sovutiladi va ammiakning kondensatsiyasi va ajralishi sodir bo‘ladi va reaksiyaga kirishmagan azot va vodorod gazlarning yangi qismi bilan aralashtiriladi va katalizatorga qayta beriladi.

Keling, bir necha bosqichda sodir bo‘ladigan ammiakning sanoat sintezining ushbu jarayonini batafsil ko‘rib chiqaylik. Birinchi bosqichda oltingugurtdan tozalovchi texnik qurilma yordamida tabiiy gazdan chiqariladi. Ikkinchi bosqichda metanni konversiyalash jarayoni nikel katalizatorida 800 daraja selsiy haroratda amalga oshiriladi: vodorod reaksiyasi mos keladi ammiak sintezi uchun va azotli havo reaktorga beriladi. Ushbu bosqichda uglerodning qisman yonishi uning havoda ham bo‘lgan kislorod bilan o‘zaro ta’siridan keyin ham sodir bo‘ladi: 2 H2O + O2-> H2O (bug‘).

Ushbu bosqichning natijasi ishlab chiqarish suv bug‘lari va uglerod (ikkilamchi) va azot oksidi aralashmasini olishdan iborat. Uchinchi bosqich ikki jarayondan iborat. Ikkita “shift” reaktorida “shift” deb ataladigan jarayon sodir bo‘ladi. Birinchisida, Fe3O4 katalizatoridan foydalaniladi va reaksiya yuqori haroratlarda quyidagi tartibda davom etadi. 400 daraja selsiy. Ikkinchi reaktor samaraliroq mis katalizatoridan foydalanadi va pastroq haroratda ishlaydi. To‘rtinchi bosqich gaz aralashmasini uglerod oksidi (IV) dan tozalashni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, maktab laboratoriyasida ammiak olish jarayonini kimyo sanoatidagi texnologiyalariga muvofiq tajriba o‘tkazish o‘quvchilarning o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda kimyoviy eksperiment juda keng imkoniyatlarga ega vosita hisoblanadi. Faqat undan o‘quv maqsadiga muvofiq omilkorlik bilan foydalanish taqozo etiladi. Zero, kimyo eksperimentini tashkil etishga bunday yondashuv, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish bilan birga, sanoat ishlab chiqarish jarayonlari haqida aniq tasavvur hosil bo‘lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini oshirish va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805 son qarori.

2. Сурин Ю. В. Методика проведения проблемных опытов по химии. Развивающий эксперимент. – М.: Изд-во Школа – Пресс, 1998. – С.144.

3. Asqarov I. P., G‘opirov K., To‘xtaboyev N. X.. Kimyo. 8-sinflar uchun darslik. 2019. – T.: O‘zbekiston NMIU.

Erkin JABBOROV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti

TASVIRIY SAN'ATDAGI SHAKL VA MAZMUN BIRLIGINING SHAXS MA'NAVIYATIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada tasviriy san'at janrlarida insoniyat tarixiy taraqqiyotining o'z ifodasini topishi o'rganilgan. Jumladan, insonlar turmush tarzi, mehnat vositalari, tarixiy voqealar, tabiat haqidagi tarixiy ma'lumotlarni o'rganish mumkin. O'z navbatida maqolada tasviriy san'at asarlarining inson ma'naviyatining shakllanishidagi o'rni ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. San'at, tasviriy san'at, realizm, kompozitsiya, shakl, mazmun, ma'naviyat, dunyoqarash.

В статье рассматривается историческое развитие человечества в жанрах изобразительного искусства. В частности, можно узнать исторические сведения об образе жизни людей, рабочих инструментах, исторических событиях и о природе. В свою очередь, в статье анализируется роль изобразительного искусства в формировании духовности человека.

Ключевые слова. Искусство, изобразительное искусство, реализм, композиция, форма, содержание, духовность, мировоззрение.

The article deals with the expression of the historical development of mankind in the genres of fine arts. In particular, you can learn historical information about the lifestyle of people, working tools, historical events and nature. In turn, the article analyzes the role of fine arts in the formation of human spirituality.

Key words. Art, fine art, realism, composition, form, content, spirituality, worldview.

San'at – ijtimoiy ong shakllaridan biri, borliqni, atrof-muhitni bilishning alohida vositasi hisoblanadi.

Inson san'at bilan juda qadim zamonlardan shug'ullana boshlagan. San'at kishilarning mehnat jarayonining ajralmas qismi edi. Inson o'z badiiy asarlarida hayotda muhim, zarur deb bilgan narsalarini aks ettirishga uringan.

Mehnat jarayonini, ov paytlarini idrok etgan dastlabki sodda obrazlari, insonning turli vaziyatlari, yovvoyi hayvonlar obrazi gavdalanib tasvirlangan.

San'at inson ijtimoiy hayotining ajralmas bir qismi va ehtiyojiga aylangach, u o'z asarlarida jamoa, jamiyat intilishlarini ifodalaydigan, aks ettiradigan bo'ldi. San'at hayotni bilish, uni alohida vositalar yordamida aks ettirish va jamoaga muayyan ta'sir ko'rsatish orqali ijtimoiy ong shakllaridan biriga aylandi, unga faqat borliqni o'zlashtiruvchigina emas, balki insonni yangi bilim va obrazli tasavvurlar bilan boyituvchi qudratli bir kuch deb qaraldi.

San'atning, shu jumladan, tasviriy san'atning (rangtavsir, haykaltaroshlik, miniatyura, grafika) eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u hayotni aks ettiradi, dunyoni bilishda insonga yordam beradi, uni g'oyaviy va estetik jihatdan tarbiyalaydi.

Tasviriy san'at asarlari inson uchun bitmas-tuganmas ma'naviy boylikdir.

Qadimiy jamoa hayotini arxeologik qazilmalardan topilgan narsalar va o'sha davr

odamlarining qo‘li bilan yaratilgan tasvirlarni ko‘rib, ular hayoti to‘g‘risida to‘la tasavvur hosil qilishimiz mumkin.

Bu jihatdan o‘n ming yillar burun yashagan, noma’lum rassomlar tomonidan ishlangan ov manzaralari alohida ahamiyatga ega. Ibtidoiy odamning qanday ov qilgani, ovchilarning o‘zlarini qanday pana qilganliklarini, o‘sha vaqtlardagi yovvoyi hayvonlarning turlarini biz O‘zbekistonning Termiz shahri yaqinidagi Zaravutsoy darasidagi toshga o‘yib ishlangan rasmlar yordamida tasavvur etishimiz mumkin.

Bu tasvirlar uzoq o‘tmishdagi tasvirning ahvoli haqidagina emas, shuningdek, ovchilarning ov usullari, hayvonlarning harakatlari va hokazolar haqida ham hikoya qiladi. Rassomning tabiat farzandi ekanligi va bu farzand tabiatning rang-barang qirralarini aks ettirishga bo‘lgan intilishi ana shu qadimgi davrlardan boshlandi va turli rassomlar ijodida davom etdi. Masalan, Sibir yoki Rossiyaning o‘rta mintaqasi tabiatining go‘zalligini I. Shishkin, I. Levitan kabi rassomlar asarlaridan bilib olishimiz mumkin.

O‘zbek rassomlaridan O‘.Tansiqboyev, N. Qo‘ziboyevning manzara asarlari, yurtimizning go‘zalligi haqidagi go‘zal polotnolar tomoshabinni tabiat quchog‘iga chorlashi, tabiiy.

Rus rassomi V. G. Perovning “Uchovlon” suratidagi uch bolaga qaraylik. Ularning juldur kiyimlari, holatlari, boshlarining mayus egilganligi, horg‘in ko‘zlari, kuchanishdan yarim ochilgan lo‘ppi lablari butun bir hayot haqida hikoya qiladi. Xo‘rlangan bolalar hayoti haqida hikoya qiluvchi bu asar bizning tuyg‘u va ongimizga ta’sir etadi.

Dunyoni badiiy idrok etishning o‘ziga xos belgilari bor, lekin u dunyoni ilmiy bilishdan keskin farq qilmaydi. Voqelikni bilish his etishdan boshlanadi. His etish borliqni badiiy idrok etishning manbaidir. O‘zimizni manzarachi rassom deb faraz qilaylik. Siz polotnoda bahorning uyg‘onishini tasvirlamoqchisiz, deylik. Sizda turli hislar ta’sirida bahor tushunchasi paydo bo‘ladi. Bu gul-u lolalarga burkangan bahor ko‘rinishi uzoqda tog‘ning qorli cho‘qqilari, ariqlarning sharqirab oqishi, o‘rmonlarning shovullashi, qushlarning sayrashi, endi sabza urib kelayotgan maysalarning yam-yashil rangi ko‘zingiz oldiga keladi, buni ichki ruh bilan his qilasiz.

Manzara chizmoqchi bo‘lgan rassom uchun faqat his etishning o‘zigina kifoya qilmaydi, albatta. Tabiatdagi muhim hodisa va detallarni oqilona ravishda tanlash lozim, chunki bu hodisa va detallar tabiat voqeligini to‘la-to‘kis ta’riflab beradi.

Rassom o‘z asariga ma’lum bir g‘oyani singdiradi va uning haqqoniyligini tomoshabin bilan birga tekshirib ko‘radi. Tomoshabin uning his-hayajoni va fikr-o‘yini qabul qiladi yoki inkor etadi, qahramonlarini sevib qoladi yoki inkor etadi.

Agar rassom tajribasi, o‘y-xayollari, his-tuyg‘ulari tomoshabin o‘y-xayollariga to‘g‘ri kelmasa, rassom tomoshabin his etayotgan narsalarni aks ettirmasa, hayotning tomoshabin bilmagan, lekin bilgisi kelgan jihatlarini ochib bermasa, bunday asar rassomning tor subyektiv qarashlarinigina aks ettirgan bo‘ladi. Binobarin, bunday asar keng tomoshabinlarga hech qanday foyda keltirmaydi, unga tushunarli bo‘lmaydi.

Biz suratlarni shunchaki tomosha qilgimiz kelgani uchun tomosha qilmasligimizni bilamiz. Axir kitob o‘qishdan maqsad o‘qishni mashq qilish emasku. Tomoshabin biror surat yoki tasviriy san’at asari orqali biror yangilikni bilib olish, biror narsani o‘rganish, hayotiy tajribasini orttirish uchun tomosha qiladi.

Haqiqatan ham badiiy ko‘rgazmalarda ko‘pdan-ko‘p asarlarni tomosha qilar ekanmiz, unda rassomning uslubinigina o‘rganmay, ularning kompozitsion talqiniga ham e’tibor beramiz. Binobarin bundan estetik zavq olamiz, qo‘shimcha bilim, tasavvurlar hosil qilamiz.

Biz rassomning tasviriy san’at asarlariga qarab, ko‘pchilik bormagan va ko‘rmagan shimolning shafqatsiz tabiati, uzoq mamlakat kishilarining tashqi qiyofasi va xarakterlari haqida tasavvurga ega bo‘lamiz.

Ko‘rgazmaga qo‘yilgan ko‘pgina badiiy asarlar tomoshabinlarni ma’naviy, estetik jihatdan boyitadi, turli xalqlarning madaniyati va turmushi bilan tanishtiradi, shuningdek, mehnat va qahramonlikka ilhomlantiradi. Shuni ham aytib o‘tmoq lozimki, tomoshabin odatda tashqi ko‘rinishi bilan emas, balki chuqur mazmuni bilan jalb etuvchi, fikr-mulohaza qo‘zg‘atuvchi, bilmagan narsasini o‘rgatuvchi go‘zal mahorat bilan ishlangan asarlar oldida to‘xtaydi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, ilg‘or dunyoqarash pozitsiyasida turuvchi rassomlar yaratgan asar inson hayotiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu ma’noda, san’at borliqni, inson mehnati va turmushini aks ettiribgina qolmay, ularning tarkib topishiga ham ta’sir etadi, qahramonlikka undaydi, kishilarni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi. Madaniy, ma’naviy va estetik jihatdan insonni tarbiyalaydi.

Rassom asar yaratar ekan, u bo‘yoq va maxsus usullar, syujetlar izlaydi. Kompozitsiya, kolorit, yorug‘lik masalalarini hal qiladi, ya’ni o‘ziga xos vositalar bilan voqealikni umumlashtiradi va tipiklashtiradi, tasvirlagan obrazlari orqali hayotda sodir bo‘lgan voqeani faqat tushunishgagina emas, his etishga ham yordam beradi. Bunday emotsional shaklda ifodalangan g‘oyaning insonlarga ta’siri kuchli bo‘ladi.

Shunday qilib, san’at, jumladan, tasviriy san’at hayotni ko‘rish orqali obrazli idrok etishdir. Demak, hayotni bilish va umumlashtirishning san’atdagi asosiy shakli badiiy obrazdir.

Rassom biror voqelikni aks ettirar ekan, unga o‘z munosabatini bildiradi, baho beradi va u haqida fikr yuritib o‘z hukmini chiqaradi.

Realizm deganda, san’at asaridan muhim hayotiy voqealarni g‘oya va mazmun jihatdan haqqoniy va xalqchil, badiiy yuksak va ravon shaklda ko‘rsatishni talab qiluvchi ijod tushuniladi. Realizm-detallarning haqqoniyligidan tashqari, tipik xarakterlarni, tipik sharoitda tasvirlashni ham ko‘zda tutadi.

San’atdagi realizm tarixiy tushunchadir. U jamiyat taraqqiyotining ma’lum tarixiy shart-sharoitlariga qarab shaklan o‘zgarib turadi.

Tarixiy shart-sharoitlar antik san’at realizmini, Uyg‘onish davri realizmini, XIX asr va boshqa davr realizmlarining o‘ziga xosligini belgilab berdi. San’at taraqqiyoti davrida bir realizm shaklining boshqasi bilan almashinib turganini ko‘rish mumkin.

Uyg‘onish davri realizmi ma’lum tarixiy shart-sharoitga mos ravishda gumanistik xarakterda edi. Rassomlar o‘z davrining gumanistik g‘oyalarini ifodaladilar. Shu bilan bir qatorda, bu davrdagi realizm shakli o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. San’at asarlarida ma’lum hayotiy muammolar ko‘pincha shartli poetik va diniy niqobda berilar edi. Jumladan, Leonardo da Vinchi, Rafael madonnalarida birinchi galda onalik ulug‘vorligi ifodalangan. Lekin onalik ideali rassom tomonidan tavrotdagi Momo Havo obrazi orqali beriladi. (Rafaelning “Sikistin madonnasi”, Leonardo da Vinchining “Madonna Benua” asarlarida).

Yuqorida eslatib o‘tgan asarlarda voqealigikdagi hodisalarning rassom idealiga mos tasviri badiiy asar mazmunini tashkil etadi. L. Abdullayevning ‘‘Cho‘lni o‘zlashtiruvchilar’’ asarining mazmuni – Mirzacho‘lni o‘zlashtirishga bel bog‘lagan yoshlar mehnatiga bag‘ishlangandir. Bunda mazmunni ifodalash usuli badiiy asarning shaklini yaratadi. Shuningdek, rassomlarimiz tomonidan yaratilgan asarlar ham o‘z qimmatiga egadir. Z. Inog‘omovning “Choyxonachi”, “Choyga” kabi kartinalari; P. Benkovning “Dutorchi

qiz”, “Dugonalar”, “Registonda erta bahor”, “Uzum terayotgan qizlar” kabi asarlar orqali o‘tmishda onalarimiz va bobolarimizning hayot turmushi, mehnat faoliyati, ularning chehralari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz, ulardan zavqlanamiz. Ularni bugungi rivojlangan kun bilan taqqoslab o‘zimizga xulosa chiqaramiz va erishgan yutuqlarimizga baho beramiz.

Tasviriy san’atda shaklning muhim elementlaridan biri kompozitsiyadir. Ya’ni badiiy asar g‘oyasiga uyg‘un ravishda ayrim qismlarining joylanishi, asarning umumiy tuzilishi kompozitsiyani tashkil etadi. Bir mazmunning o‘zi turli syujet va shakllarda ifodalanishi mumkin. Mavzuni ifodalaydigan asosiy voqea-syujet ham badiiy shakl elementlaridan biri hisoblanadi.

Tasvir koloriti, uning keng jihatdan hal qilinishi asar mag‘zini tashkil etuvchi rasmlarning aniq ishlanishi kabilar shaklga, rassomning o‘ziga xos uslubiga aloqadordir.

Shakl ham, g‘oya ham bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydi, ular har doim o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqdir. Bu ikki element bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli ikkalasi bir-biriga mos tushgandagina rassom g‘oyasi to‘g‘ri tushuniladi va tomoshabinga yetib boradi. Masalan, rassom quvnoq bir surat yaratmoqchi bo‘ldi deylik. Ammo unda ma’lum bir g‘oyani ifodalashi lozim bo‘lgan, lekin rassom kompozitsiyani ifodasiz, tushunarsiz tarzda hal qildi. Undan tashqari, ayrim personajlar rasmini shunchalik noaniq, pala-partish chizdiki, natijada surat qahramonlari bedavo, xunuk bo‘lib chiqdi. Rassom quyosh nuri, bo‘yoqlarning yoqimli gammasi o‘rniga o‘rinsiz, qoramtir koloritni tanladi. Tabiiyki, bu nomunosiblikda asar rassom o‘ylaganining aksi bo‘lib chiqadi. Demak, asar shakli qanchalik pishiq, mukammal bo‘lsa, badiiy asar tomoshabinlarga shunchalik kuchliroq ta’sir etadi. Ammo aksincha ham bo‘lishi mumkin: rassom o‘z asari uchun mutlaqo tasodifiy, ahamiyatsiz mavzuni tanlab oladi-yu, lekin personajlarni bo‘rttirib, yorqin tasvirlaydi, suratdagi har bir rasm detalini erinmay puxta ishlaydi. Shunga qaramay, asar tomoshabinni hayajonlantirmaydi, uni maftun etmaydi. Bunda ham shakl bilan mazmun o‘rtasida uzilish mavjud, hatto shakl mazmundan yuqori qo‘yiladi, aslida esa san’atda mazmun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmog‘i lozim.

Badiiy asardagi asosiy narsa mazmun bo‘lib, shaklni yaratadi. Badiiy tasviriy san’at rassomi uchun inson chehrasi, qalbi, hayotiy drama, tabiat taassuroti uning hayoti va g‘oyasi, tarix ruhi mavzuga aylanishi lozim.

I. Repinning fikricha: bo‘yoqlar rassom uchun o‘z fikrini ifodalovchi quroldir. I. Repin quruq san’atning san’at uchun xizmat qilishiga qarshi chiqib, san’atda birinchi o‘rinda mazmun turishi kerakligini alohida ta’kidlaydi. Repinning bu aytganlari shunchalik quruq gap emas. Uning butun ijodi bunga jonli guvohdir.

Xulosa qilib aytganda, realizm metodi san’atda shaklni kamsitmaydi, aksincha mahoratini o‘stirishga, san’at asarining g‘oyaviy va badiiy darajasini tinmay oshirishga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonov G‘. M. Kompozitsiya asoslari. – T.: Iqtisod-moliya, 2010.
2. Jabborov E. “Kompozitsiya”. – Qarshi, 2019.
3. Xudayberganov R. A. “Kompozitsiya”. – T., 2008.

Moxir XALIMOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALAR FAZOVIY TASAVVURINI OSHIRISHGA MO‘LJALLANGAN IJODIY VAZIFALARNI ISHLAB CHIQISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada chizmachilik darslarida talabalar fazoviy tasavvurini oshirishga mo‘ljallangan ijodiy vazifalarni ishlab chiqish metodikasi hamda unga doir metodik tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Bilim, ko‘nikma, malaka, fazoviy tasavvur, pedagogika, ijodkorlik, loyihalash, ijodiy vazifa, savodxonlik.

В статье описана методика разработки творческих заданий на повышение пространственного воображения учащихся на уроках рисования, а также методические рекомендации к ней.

Ключевые слова. Знания, умения, компетенции, пространственное воображение, педагогика, творчество, дизайн, творческое задание, грамотность.

The article describes a methodology for the development of creative tasks to increase the spatial imagination of students in drawing lessons, as well as guidelines for it.

Key words. Knowledge, skills, competencies, spatial imagination, pedagogy, creativity, design, creative task, literacy.

Ma’lumki har qanday ongli mehnat faoliyatida insonga bilim, zukkolik va topqirlik kerak bo‘ladi, buni insonlar “zukkolik” so‘zi bilan to‘g‘ri belgilagan. Zukkolikni chizmachilik darslarida tizimli mashqlar, turli xil muammolarni, xususan, jumboqlarni hal qilish orqali rivojlantirish mumkin.

Kuzatishlar, amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, barcha fanlar qatorida chizmachilik fanida ham ma’lum bir grafik topshiriqni ishlash yoki undagi topshiriqlarni chizish orqali yechish talabalarda fanga katta qiziqish uyg‘otadi. Shu bilan birga bunday masalalarni yechish malakasiga ega bo‘lgan talabalar esa minimal tasvirlar sonidan foydalangan holda obyektlar shaklini yaxshiroq ifodalaydi, ishchi chizmalarni tez va to‘g‘ri o‘qiydi.

Har bir konstruktor u yoki bu buyumni loyihalash jarayonida o‘zining eng yuqori darajasi-ijodiy faoliyatini ishga solib, avval geometriyadan olgan bilimlarini hisobga olgan holda eng optimal qaror qabul qiladi. Sababi, har bir loyihalanayotgan buyumda texnik, texnologik va iqtisodiy masalalar shartlarini hisobga olishga to‘g‘ri keladi. Chunki, har qanday ixtiro qilinayotgan buyumning avval turli chizmalari chiziladi, mustahkamligi va chidamliligi faqat uning geometriyasi orqali matematik modellash yo‘li bilan aniqlanib sinovdan o‘tkaziladi. Shunday qilib, chizmachilik va geometriya fanlari bir-biri bilan chambarchas bog‘langanligi sababli, oldin talabalarga geometriya fanini puxta o‘zlashtirib olishlarini so‘ngra, chizmachilik fanini yuqori saviyada o‘zlashtirishlariga imkon tug‘ilishi mumkinligi tushuntirilishi lozim.

Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarda ham o‘quvchilar birinchi sinfdanoq o‘qish jarayonida barcha fanlardan turli ko‘rinishlardagi chizmalar, grafik tasvirlardan foydalanib bilim olishadi. Ayniqsa, texnologiya darslarida o‘quvchilarning o‘zlari ham bajaradigan buyumlarning chizmalarini chizishadi. Nafaqat maktab, balki, kasb-hunar

maktablari, oliy o‘quv yurtlarida chizmachilik grafik ta’lim beruvchi fan hisoblanadi. Xullas, har bir kishi o‘zining hayotida turli ko‘rinishdagi chizmalarga duch keladi va ulardan foydalanish odat bo‘lib qolgan. Masalan, inson biror maishiy ro‘zg‘or buyumini ta’mirlash uchun ehtiyot qismlar, uyda qurilish ishlari qiladigan bo‘lsa xomaki uylarning plani va boshqalarni o‘zi qilishga harakat qiladi. Chizilayotgan chizmalar turli loyihalash, tuzatishlar kiritish yo‘li bilan bajariladi. Buning zamirida esa fazoviy tasavvur qilish yotadi, natijasida ijodiy loyihalash ishlari kelib chiqadi. Loyihalash ishlarini konstruksiyalash ham deyish mumkin. Loyihalash ishlarida vazifani qo‘yilishi va yechim imkoniyatlari yagona bo‘lmaydi. Loyihalash ishlari amalda grafik savodxonlik, texnologik bilimlar, konstruksiyalash va texnik fantaziya qilish malakasiga hamda tajribasiga tayanadi. Texnologiya fani darslarida talabalar texnikaga oid murakkab bo‘lmagan modellarni yasash bilan shug‘ullanishadi, ularni namunasi yoki chizmalari bo‘yicha tayyorlashadi. Bunday buyumlarni tayyorlash jarayonida ta’lim muassasalarining ustaxonalaridagi shart-sharoit hisobga olinadi. Mashinasozlik chizmachiligi orqali o‘quv loyihalashda ijod elementi qatnashishi uncha murakkab bo‘lmagan konstruktorlik masalalar yechiladi, biz buni ko‘p hollarda ijodkorlik deb ham ataymiz.

Ijodkorlik insonning borliqni bilish va o‘zgartirishga qaratilgan ongli, maqsadga yo‘natilgan faoliyati bo‘lib, uning natijasida yangi, o‘ziga xos, ilgari mavjud bo‘lmagan moddiy va ma’naviy ne‘matlar yaratiladi[1].

Chizmachilikdan ijodiy vazifalarni ishlab chiqishda biz talabalarga ularni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradigan sharoitlarni taklif qilishimiz kerak. Har bir aniq holatda, ular ijodiy fikrlashning turli tomonlarini rivojlantiruvchi turli kombinatsiyalar va nisbatlarda paydo bo‘ladi, ammo barcha vazifalar umumiy xususiyatga ega, lekin garchi buning uchun barcha kerakli ma’lumotlar mavjud bo‘lsa ham uni hal qilish algoritmi noma’lum bo‘ladi. Chizmachilikdan ijodiy vazifalar bilimlarni o‘zlashtirishning eng yuqori darajasiga to‘g‘ri keladi va shuning uchun, qoida tariqasida, kursning u yoki bu bo‘limini o‘rganishni yakunlashda, garchi talabalarning ijodiy faoliyatining ayrim elementlari o‘rganishning oldingi bosqichlarida mavjud bo‘lishi mumkin. Xususan, 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishida loyihalash ishlariga umumiy 6 soat ajratilgan. Mazkur ajratilgan soatda talabalarga loyihalashning dastlabki bosqichi modelning fazoviy holatini o‘zgartirib, ya’ni burib tasvirlash, modelning chegaralangan qismini o‘yib olish orqali detal hosil qilish, tarqoq elementlardan model hosil qilish va boshqalar o‘rgatiladi.

Talabalar tomonidan loyihalash elementlari bilan ijodiy muammolarni hal qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

1. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining ijodiy loyihalash ishlaridagi qiyinchiliklari muammoning dastlabki ma’lumotlarini tahlil qila olmaslikdan boshlanadi. Bunda loyihalanayotgan buyumning dizayndagi asosiy qarama-qarshiliklarni topish, yetishmayotgan qism qanday talablarga javob berishini tushunish kerak.

2. Konstruktiv shartni grafik ko‘rsatishda talabalar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan qiyinchilik va xatoliklar, asosan, avvaldan shakllangan grafik bilimlarni yangi vaziyatda ishlata olmaslik bilan bog‘liq bo‘ladi.

Bu esa quyida ifodalangan:

a) loyihalanayotgan buyumning dizayni xususiyatlarini kerakli to‘liqlik va ravshanlik

[1] Safarov Sh.S. Kasb-hunar ta’limi tizimida o‘quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uzluksizligi. Monografiya. – T., 2005-y. Fan. – 129-b.

bilan ochib beradigan optimal tasvir sonini tanlay olmaslikda;

b) masshtabni to‘g‘ri tanlay olmaslik;

c) loyihalanayotgan buyumning dizaynidagi asosiy narsani ta’kidlash imkonini beruvchi tasvirlar;


d) chizmadagi tasvirlarni joylashtirishdagi qiyinchilik;

e) umumiy chizmachilik qoidalarini buzish bilan bog‘liq xatolarda va b.


Loyihalanayotgan buyumning grafik yechimining o‘ziga xos bosqichi bu talabalar tomonidan an’anaviy ravishda tasvirlarni bajarish bo‘lib, unda talaba dastlabki fikrlagan yoki tasavvur qilgan jarayon tasvirlanadi.

Shularni inobatga olib chizmachilik fanini barcha bo‘limlariga tegishli loyihalashga oid quyidagi vazifalar ishlanmasini tuzish mumkin:

Chizmachilik fanining geometrik chizmachilik bo‘limiga oid ijodiy vazifa:




Berilishi:
Tutashma chizmasi berilgan. Chizmada belgilangan qismlarda tutashma elementlari bajarilishi kerak.




Natijasi:
Talaba chizmada belgilangan qismlarga tutashma elementlaridan foydalanib tutashma bajaradi.

Chizmachilik fanining proyeksion chizmachilik bo‘limiga oid ijodiy vazifa:





Berilishi:
Modelning berilgan yaqqol tasviri asosida uning belgilangan qismlarini o‘yib olish orqali model hosil qilishi kerak.



Natijasi:
Talaba modelning belgilangan qismlarini o‘yib olish orqali hosil bo‘lgan modelning ko‘rinishlarini bajaradi.

Chizmachilik fanining mashinasozlik chizmachilik bo‘limiga oid ijodiy vazifa:







Berilishi:
Buyumning yaqqol tasvirida berilgan tarqoq qismlari asosida uning yig‘ish chizmasi bajarilishi kerak.

Natijasi:
Buyumning yaqqol tasvirida berilgan tarqoq qismlari asosida uning yig‘ish chizmasining ortogonal proyeksiyasi bajariladi.

Chizmachilik fanining qurilish chizmachiligi bo‘limiga oid ijodiy vazifa:





Berilishi:
Binoning berilgan plani va uning anturaji berilgan. Shu asosida ko‘rsatkich bo‘yicha uning fasadi bajarilishi kerak.

Natijasi:
Binoning berilgan plani va uning anturaji asosida ko‘rsatkich bo‘yicha uning fasadi bajariladi.

Yuqoridagi vazifalar bo‘yicha shartlar matniga turli xil murakkablikdagi ishlarni bajarishni ta’minlaydigan bir nechta fikrlarni kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ularni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llash va talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlarni bajarish imkonini beradi.

Ma’lumki yaqin vaqtgacha texnik dizayn elementlari bo‘lgan ijodiy topshiriqlar chiz-

machilik kursida kam kiritilgan va bunday loyihalash vazifalari talabalar uchun odatiy bo‘lmagan. Shuning uchun talabalarning bunday topshiriqlarni muvafaqqiyatli, sifatli va ko‘p variantlilik qilib bajarishlari ko‘p jihatdan fanning o‘qitish metodikasiga bog‘liq. O‘qituvchi darsni boshlashdan oldin talabalarga har qanday mavzuni takomillashtirish, eng avvalo, uni loyihalashdagi qarama-qarshiliklarni aniqlash bilan bog‘liqligini aytib berish maqsadga muvofiqdir. Qoida tariqasida, ular obyektning har qanday xususiyatlarini yaxshilash uning boshqa xususiyatlariga mos kelmasligi, ular bilan ziddiyatga kirishishi sababli paydo bo‘ladi. Bu hodisani to‘liq bartaraf etib bo‘lmaydi, chunki ba’zi kamchiliklar muqarrar ravishda kamroq ahamiyatga ega bo‘lsada, boshqalar bilan almashtiriladi. Talaba loyihalayotgan moslamani dizaynini hisobga olgan holda moslamaga turli burchaklardan qarashi kerak.

Mantiqni hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqilgan ijodiy dizayn faoliyatiga taqlid qiluvchi ijodiy jarayonning sxemasi quyidagicha ko‘rinadi:

a) tahliliy, analitik bosqich;

b) operatsion bosqich;

c) sintetik bosqich.

Analitik bosqich quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Grafik topshiriqning umumiy mazmuni bilan tanishish.

2. Berilgan moslamani loyihalash va uning tarkibiy tuzilishi bilan tanishish.

3. Loyihalashning maqsadi, moslama elementlarini bog‘lash usullari va o‘zaro ta’sir qilish tamoyillarini oydinlashtirish.

4. Loyihalanayotgan moslamaning dizayndagi qarama-qarshiliklarni aniqlash.

5. Loyihalash jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish.

6. Talaba tomonidan ishning aniq maqsadini aniqlash va shakllantirish.

Operatsion bosqich quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Talabalarga hayotdan tanish bo‘lgan strukturaviy muammoni hal qilishning standart usullarini, shuningdek, chizmachilikni o‘rganish jarayonida olingan grafik bilimlarni izlash.

2. G‘oyalarni ishlab chiqish va o‘qituvchi bilan kelishish, loyihalash jarayonida ko‘p variantlilikning dastlabki bosqichlarini grafik ko‘rsatish.

3. Loyihalashtirilgan yig‘ma birliklarining detallari va ularni biriktirish usullarini aniqlashtirish (turli xil grafik tasvirlar asosida).

Sintetik bosqich quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Moslamani loyihalash jarayonida ishlab chiqilgan yig‘ma birligi, uning bo‘lagi yoki qismining chizmasini (eskizini) bajarish (muammoni shakllantirishga qarab).

2. Loyihalanayotgan moslamaning nostandart detallarining chizmalarini bajarish (yig‘ma birligini loyihalashda).


Moslamani ijodiy loyihalash jarayonida topshiriq turiga, talablarning murakkabligi va tayyorgarlik darajasiga qarab, talabalar eskiz va texnik rasmlarni chizishlari, tafsilotlarni alohida va kombinatsiyalangan holda ko‘rsatishlari, ularning shakllarining estetik ifodaliligiga erishishlari va tuzilmalarga qo‘yiladigan boshqa talablarga rioya qilishlari kerak. O‘qituvchi ularga birinchi eskiz bilan cheklanib qolmaslikni, balki u asosida o‘z g‘oyalarini takomillashtirish va loyihalash uchun bir necha eskiz va texnik rasmlar chizishni va eng yaxshisini tanlashni maslahat berishi kerak. Detallarni tatbiq qilinishi joyiga qarab loyihalashda, ularning moslama yoki mexanizmlarda me’yorida ishlashi ta’minlanishi hisobga olinadi[2].

[2] Rahmonov I. Valiyev A. Chizmachilik, Voris-nashriyot –T., 2011.113-b.

Quyidagi berilgan moslamani qayta loyihalash uchun topshiriqlar berilgan.
Chizmachilik fanidan ijodiy vazifa-1:




Berilishi:
Berilgan raqamni eshikka mahkamlash kerak.




Natijasi:
Berilgan raqamni eshikka mahkamlashning sxema chizmasi asosida eskiz va texnik rasmi bajariladi. Shu asosida yig‘ish chizmasi bajariladi.

Chizmachilik fanidan ijodiy vazifa-2:



Berilishi:
Shpindelni ventilga mustahkamlash kerak.



Natijasi:
Berilgan shpindel ventilga mustahkamlangan holatdagi chizmasi bajariladi.

Bugungi kunda bu kabi maxsus tanlangan va shakllantirilgan vazifalar yosh avlodni o‘qitishning faol vositasiga aylandi. O‘quv, ijodiy, texnik, shuningdek, ixtirochilik muammosini hal qilishda unga xos bo‘lgan qarama-qarshilik talabada qiziqish uyg‘otadi. Yechimni izlashda talabalar mavjud bilimlar bilan ishlaydilar, yangilarini o‘zlashtiradilar, fikrlash operatsiyalari, xotira imkoniyatlari va usullaridan foydalanadilar, bu nafaqat muammoni hal qilish, balki ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Ijodiy vazifalarning sharti muammoli vaziyatning paydo bo‘lishini oldindan belgilashi kerak va uni hal qilish nostandart vaziyatlarda mavjud bilimlardan foydalanishni va bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishni rag‘batlantirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гервер В.А. Творческая работа по черчению. – М. Просвещение. 1996 г. –С.76.
2. Safarov Sh. S. Kasb-hunar ta’limi tizimida o‘quvchilar ijodkorlik qobilyatlarini rivojlantirish uzluksizligi. Monografiya. – T., 2005-y. Fan. 129-bet.
1. Rahmonov I., Valiyev A. Chizmachilik. ‘‘Voris-nashriyot’’ T., 2011.113-bet.

Go‘zal ESHQULOVA,
Toshkent shahar, Olmazor tumani, 28-sonli IDUMning
matematika fani o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHNING TASHKILIY-METODIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika o‘qitishning tashkiliy-metodik jihatlarini takomillashtirish, matematika mashg‘ulotlarini o‘tkazishda zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash, matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Innovatsiya, sintez, umumlashtirish, abstraktsiya, metodika, arifmetika, miqdor, pedagogika, mantiqiy fikrlash, sistemalilik, matematik savodxonlik, kompetensiya.

В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования организационно-методических аспектов преподавания математики в общеобразовательных школах, применения современных педагогических методов обучения математике, приоритетные направления повышения качества образования в области математики.

Ключевые слова. Новаторство, синтез, обобщение, абстракция, методика, арифметика, количество, педагогика, логическое мышление, систематичность, математическая грамотность, компетентность.

This article discusses the issues of improving the organizational and methodological aspects of teaching mathematics in secondary schools, the use of modern pedagogical methods of teaching mathematics, priority areas for improving the quality of education in the field of mathematics.

Key words. Innovation, synthesis, generalization, abstraction, methodology, arithmetic, quantity, pedagogy, logical thinking, systematicity, mathematical literacy, competence.

Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni ilmga keng jalb qilish va intellektual salohiyatini oshirish, matematika fani uchun bo‘lg‘usi kadrlar tayyorlash ishlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish, Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan barkamol yosh avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazish, ta’lim samaradorligini yanada oshirish, o‘quvchi yoshlarda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek singari ulug‘ ajdodlarimiz tamal toshini qo‘ygan matematika fani ilm-fan va texnikaning zamonaviy tarmoqlari jadal rivojlanishi munosabati bilan hozirgi kunda yanada katta ahamiyat kasb etmoqda.

Yurtimizda matematika ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, matematika ilm-fani va ta’limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Xususan:

– ilg‘or ilmiy markazlarda faoliyat yuritayotgan vatandosh matematik olimlarning taklif qilinishi va xalqaro ilmiy-tadqiqotlar olib borilishi uchun zarur shart-sharoit yaratildi;

– xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan yoshlarimiz va ularning murabbiy ustozlari mehnatini rag‘batlantirish tizimi joriy etildi va boshqalar.

Birgina O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti matematika fanini rivojlantirishga, respublika uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashga sezilarli hissa qo‘shdi va matematik tadqiqotlarning jahon darajasida e’tirof etilgan markazlaridan biriga aylandi.

Shu bois, umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan boshlab matematika fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni yanada kengroq joriy etish, matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirish ta’limdagi bugungi dolzarb taktik va strategik maqsadlarimizdan biridir.

Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida, hukumat tomonidan quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi:

– Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun;

– Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

– The Programme for International Student Assessment (PISA) – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

– The Teaching and Learning International Survey (TALIS) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish uchun .

Maktabda matematika fanini o‘qitishda ko‘zda tutiladigan umumiy masalalarni hisobga olish va bu masalalarni hal etishda boshlang‘ich ta’limning ahamiyati katta.

Maktabning boshlang‘ich sinflarida bolalar matematika sohasida dasturda nazarda tutilgan bilimlar, o‘quvlar va ko‘nikmalarning ma’lum hajmini ongli ravishda va mustahkam egallab olishlari zarur. Boshlang‘ich maktabdayoq bolalarda kuzatish va taqqoslash, solishtirilayotgan hodisalardagi o‘xshashlik va farq qiladigan belgilarni ajratish, tahlil, sintez, umumlashtirish, abstraktsiyalash, aniqlashtirish kabi amallarni bajarish uchun ko‘p ish qilingan bo‘lishi kerak.

Hozirgi kunda barcha fanlar qatori matematika fanini o‘qitish metodikasini ham zamon talabiga moslashtirish zarurati mavjud. Bunda o‘quvchilarda elementar matematikaning boshlang‘ich qoidalari, arifmetika asoslari, miqdor, makon va zamonga oid tasavvurlarni rivojlantirish asosiy masaladir.

Bir qancha pedagogik olimlar fikrlari va amaliy ish tajribasidan kelib chiqqan holda matematikani o‘qitishda muammoli ta’lim metodidan foydalanish yaxshi samara beradi.

Bu metodda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning intellektual imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish quyidagi umumiy

omillarga bog‘liq bo‘ladi:

– o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan muammoli savollar tizimi tuzish;

– qo‘yilgan muammoli savollar tizimi asosida suhbat metodi orqali tushuntiriladigan mavzu materiallarini o‘rgatish va uning tub mohiyatini ochib berish;

– muammoli savol asosida izlanish xarakteridagi o‘quv vazifalarini qo‘yish .

Yuqoridagi bosqichlar asosida o‘quv materiali tushuntirilganda o‘quvchilar o‘zlari darrov tushunib yetmaydigan fakt va tushunchalarga duch keladilar. Natijada o‘rganilayotgan mavzu materiali bilan o‘quvchilar orasida muammoli vaziyat hosil bo‘ladi. Muammoli vaziyatning roli va ahamiyatini aniqlash o‘quvchilarning aktiv fikrlash faoliyatini psixologik, pedagogik qonuniyatlarini hisobga olish asosida o‘quv jarayonini qayta qurish muammoli ta’limning asosiy g‘oyasini belgilab beradi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish asosida hosil qilingan dars jarayoni muammoli ta’lim deyiladi. Muammoli ta’limda o‘qituvchi faoliyati shundan iboratki, u zarur hollarda eng murakkab tushunchalar mazmunni tushuntira borib o‘rganilayotgan mavzu materiali bilan o‘quvchilar orasidagi muntazam ravishda muammoli vaziyatlar vujudga keltiriladi, o‘quvchilarni faktlardan xabardor qiladi, natijada o‘quvchilar bu faktlarni analiz qilish asosida mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar va umumlashtiradi.

Matematika o‘qitish metodikasi o‘zining tuzilish xususiyatiga ko‘ra, shartli ravishda uchta bo‘limga bo‘linadi.

1. Matematika o‘qitishning umumiy metodikasi.
2. Matematika o‘qitishning maxsus metodikasi.
3. Matematika o‘qitishning konkret metodikasi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi butun pedagogik tadqiqotlarda pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari yutuqlarida qo‘llaniladigan metodlarda foydalanadi .

Matematika fanini o‘qitishdan ko‘zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

– o‘quvchilarda kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta’limolishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

– jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

– milliy, ma’naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat .

Mazkur vazifalarni bajarish va ko‘zlangan maqsadga erishish uchun matematika fani o‘qituvchisi o‘z kasbiy mahoratini quyidagi yo‘nalishlarda muntazam oshirib borishi zarur:

– matematik bilim, ko‘nikma va mahoratni yangilab borish;

– o‘qitishning an’anaviy, masofaviy va aralash shakllardan fodalanish ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni olib borish;

– mustaqil ravishda ilmiy va ijodiy fikrlash, pedagogik kompetentlikni rivojlantirib borish;

– o‘zining shaxsiy va kasbiy axborot maydonini yaratish;

– o‘z pedagogik faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, onlayn va oflayn, video va televizion darslarni tayyorlash va o‘tkazish ko‘nikmalarini takomillashtirib borish;

– dars jarayonida ilg‘or ta’lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasidan foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

Psixologlarning ta’kidlashicha o‘quvchilarga matematikani o‘qitishda ularning masalaga ijodiy yondashishlarini o‘stirish kerak, chunki busiz unda kelajakda fanning o‘rganilmagan qirralariga mustaqil kirib borish imkoniyatini beradigan bilim tizimini shaklllantirish mumkin emas. Ijodiy fikrlash shaxsning individual xususiyati sifatida subyektning atrof-muhitdagi voqea va hodisalarga bo‘lgan munosabatida, turli muammolarni betakror usullar yordamida hal qila olishida namoyon bo‘ladi.

Bu fiklarga qo‘shilgan holda ta’kidlaymizki, matematika o‘qitishning metodik jihatlarini takomillashtirishga qaratilgan dastaklardan biri matematika darslarida o‘quvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini darajasini aniq aniqlash va rivojlantirishning pedagogik yo‘llari va choralarini izlab topishdir.

Aynan matematika darslarini o‘tishda interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Maktablarda matematika fanini o‘qitish metodikasini yanada takomillashtirish, matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish lozim:

– o‘quvchilarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribaning ijobiy yutuqlariga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish;

– matematika fanlarini o‘qitish sifatini oshirish, matematika faniga ixtisoslashtirilgan “maxsus matematika sinflari”ni tashkil etish;

– matematika fani bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish;

– matematika fanini bilish darajasini baholash bo‘yicha umumiy o‘rta, o‘rta-maxsus, oliy ta’lim miqyosida milliy sertifikatlashtirish tizimini joriy qilish;

– amaliy matematikani rivojlantirish orqali iqtisodiyot tarmoqlaridagi muammolarni matematik yechimlarni ishlab chiqish mexanizmini yaratish;

– matematika sohasida iqtidorli maktab o‘quvchilarini rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish;

– matematikani o‘qitishda ta’lim olish bosqichlari o‘rtasidagi uzviylik va mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlaydigan darsliklar guruhini tayyorlash;

– umumta’lim maktablarida matematika darsliklaridagi masalalarni boshqa fanlarda o‘tiladigan mavzular bilan uyg‘unlashtirish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur muamolarni hal etish uchun matematika o‘qituvchisi fanni o‘qitishning mavjud metodlaridan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bikbayeva N.U., Sidelnikova R.I., Adambekova G.A. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O‘rta maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma) –T.: O‘qituvchi. 1996-yil.

2. Bikboyeva N.U., Yangiboeva E.Ya. Ikkinchi sinf matematika darsligi. –T.: O‘qituvchi, 2005-yil.

3. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘Yu uchun darslik) –T.: Fan va texnologiya, 2005-yil.

4. Jumayev M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. (OO‘Yu uchun) –T.: O‘qituvchi, 2004-yil.

Dilobar SAIDOVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARINING QADRIYATLAR ORIENTATSIYASINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI – AKSIOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining qadriyatlar orientatsiyasini shakllantirish omillari aksiologik muammo sifatida ko'rib chiqilgan. Omillar turiga ko'ra makroomillar, mezoomillar va mikroomillarga tavsiflandi. Qadriyatlarni shakllantirish omillari aksiologik dunyoqarash komponentlariga muvofiq ravishda yoritilgan.

Kalit so'zlar. Qadriyatlar orientatsiyasi, aksiologik dunyoqarash, aksiologik muammo, mezoomillar, makroomillar, mikroomillar, submadaniyat, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya.

В данной статье рассмотрены вопросы ценностной ориентации воспитанников домов милосердия как аксиологическая проблема. Факторы ценностной ориентации классифицированы по видам на макрофакторы, мезофакторы и микрофакторы. Факторы формирования ценностей характеризованы в соответствии с компонентами аксиологического мировоззрения.

Ключевые слова. Ценностная ориентация, аксиологическое мировозрение, мезо факторы, макрофакторы, микрофакторы, субкультура, интериоризация, экстериоризация.

This article deals with the questions of the value orientation of the pupils of the houses of mercy as an axiological problem. Value orientation factors are classified by type into macro factors, mesofactors and micro factors. The factors of value formation are characterized in accordance with the components of the axiological worldview.

Key words. Value orientation, axiological worldview, meso factors, macrofactors, microfactors, subculture, interiorization, extriorization.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining qadriyatlar orientatsiyasining o'ziga xosligi shundan iboratki, bu jarayon jamiyatda ijtimoiylashuv sharoitida amalga oshib boradi. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida hayotiy faoliyatga doir qadriyatlar tizimini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, ko'p jihatdan mazkur muassasadagi yashash sharoiti hamda ijtimoiy qadriyat va me'yorlarni o'zlashtirish bilan bog'liqdir. Bundan tashqari Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari doimiy ravishda bolalar jamoasida yashaganligi uchun yaxlitlikda bola shaxsining shakllanishida muhim o'rin tutadigan alohida e'tibor va g'amxo'rlikdan bebahra qolishadi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari ijtimoiylashtirishning sotsiologik, pedagogik-psixologik jihatlari hamda milliy-axloqiy tarbiyalash, milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyati M. Bekmurodov, E. G'oziyev, D. Isayeva, A. Mudrik, Sh. Mardonov, O. Musurmonova, D. Ro'ziyeva, B. Xodjayev, Y. Chicherina, G'. Shoumarov, Sh. Sharipov, Sh.

Shodmonova, N. Egamberdiyeva, M. Quronov, M. Qahhorova va boshqalar, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan I. Dubrovina, V. Kondrashin, I. Korobeynikov, V. Muxina, A. Ruzskaya, V. Chumakov, I. Shevchenko, T. Shulga kabilar tomonidan bolalar uylari tarbiyalanuvchilarining psixik rivojlanishi, yetimlik muammolari, psixologik yordam ko‘rsatish, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti, ularning ijtimoiy moslashuvi masalalari tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan J. Ballantine, K. Veger, K. Wegar, K. Browne, C. Nelson, R. Carterlar bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash, oila va mehribonlik uylari faoliyatini integratsiyalash, tarbiyalanuvchilarda qadriyatli yo‘nalganligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

Eng avvalo, Mehribonlik uylari tarbiyalanayotgan bolalarning shaxsiy muammosi erta bolalikdan ona mehridan bebahra qolishi, ya’ni deprivatsiya holati bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur jihat shaxs va intellektning rivojlanishida turli-tuman ko‘rinishdagi kamchiliklarni yuzaga keltiradi. Mehribonlik uylarida bolalar tug‘ilganidan yoki oila muhitida yashash haqidagi salbiy tasavvurlarga ega holda to‘liq Davlat qaramog‘ida bo‘ladi, mazkur yopiq turdagi muassasada uzoq muddat yashab, o‘smirlik yoshida uni tark etadi.

Mehribonlik uylari sharoitida qadriyatlar tizimining to‘liq shakllanmasligi bolaning mustaqil hayotga tayyorligi, ijtimoiy moslashuvi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishida ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, o‘smir yoshidagi tarbiyalanuvchilarda o‘z-o‘zini anglash tashqi jihatlar bilan bog‘liq bo‘lib, doimiy hamfikr tengdoshlar va Mehribonlik uyidagi katta yoshli kishilar hisobiga amalga oshadi. Mazkur holat muassasadagi qat’iy kun tartibi bilan bog‘liqlikda tarbiyalanuvchilarda salbiy axloqiy, ma’naviy xulq-atvor me’yorlarini shakllantirishga sabab bo‘ladigan xodimlarda o‘z-o‘zidan agressiv xulq-atvorni keltirib chiqaradi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarda “Biz” va “Men” hissining kuchayishiga sabab bo‘ladigan “Biz – ular”, “O‘zimiznikilar – begonalar” nuqtayi nazarlan atrof-muhit bilan qat’iy chegaralar yuzaga keladi. Ana shu tarzda tarbiyalanuvchilarda yon atrofdagi kishilar va sotsiumdan alamzadalik hamda ularga nisbatan ochiq va yopiq ko‘rinishdagi qarshilik shakllanadi.

Xorij va respublikamizda amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bolaning oila muhitidan tashqarida rivojlanishi odatdagi holatdan farq qilib, unda maxsus xarakter xususiyatlari, xulq-atvor ko‘rinishlari, shaxslilik sifatlari shakllanadi. Shuningdek, tadqiqot va kuzatishlar asosida Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarda nafaqat shaxsiy yuksalishdan ortda qolish yoki rivojlanmaslik, balki mazkur muassasalardagi turmush tarziga moslashishga xos qat’iy boshqa mexanizmlarning jadal shakllanishi aniqlandi.

Ma’lumki, o‘smirlik yoshida shaxsda o‘z-o‘zini anglash va refleksiyaga qobiliyatlilik tarkib topib, qadriyatlar tizimining shakllanishi jadal kechadi. Mehribonlik uylarining o‘smir yoshidagi tarbiyalanuvchilari bilan oilada tarbiyalanayotgan maktab o‘quvchilarining qadriyatlar tizimini o‘rganish va tahlil etish asosida quyidagi xulosaga kelindi:

1) shahar va qishloq maktablarida tahsil olayotgan o‘quvchilarning qadriyatlar tizimi tuzilmasida bir xil tarzda oilaviy hayot (85 foiz), salomatlik (72 foiz), moddiy ta’minlanganlik (67 foiz) yuqori ahamiyat kasb etadi;

2) Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining aksariyat ko‘pchiligida hayotiy maqsad va ideallar (67,8 foiz), istiqbolga yo‘naltirilgan motivlar (59,4 foiz) shakllanmagan;

3) ko‘pchilik tarbiyalanuvchilar o‘z-o‘ziga past baho berishadi (78,1 foiz), o‘z-o‘ziga tanqidiy munosabat darajasi yetarli emas (72,7 foiz), o‘z-o‘ziga salbiy munosabat (78,5) yorqin namoyon bo‘ladi;

4) oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar bilan taqqoslaganda (19,2 foiz) tarbiyalanuvchilarda egoistik yo‘nalganlik yorqin namoyon bo‘ladi (59,6 foiz);

5) aksariyat tarbiyalanuvchilarda (74,7 foiz) ijtimoiy va jamoatchilik vazifalarini bajarishga doir aksiologik yo‘nalganlik mavjud emas;

6) tarbiyalanuvchilar ijtimoiy kompetentlikning past darajasiga egalik bilan ajralib turishadi (82,8 foiz).

Tadqiqot doirasida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirish quyidagi omillar bilan bog‘liqligi aniqlandi:

1) yetimlikning kelib chiqish sabab-oqibatlari bilan aloqador (psixik buzilish, asotsial xulq-atvor, somatik kasalliklar);

2) Mehribonlik uylaridagi turmush tarzi bilan aloqador (muassasaning yopiq tizim tavsifiga egaligi; ijtimoiy-psixologik muhitning chegaralanganligi; ijtimoiy xulq-atvor timsollarining bir xilligi; tashqi muhit bilan o‘zaro aloqalarning qat’iy reglamentga egaligi; katta avlod vakillarining mavjud emasligi, tarbiyachilarning tez-tez o‘zgarishi, ijtimoiy aloqalarning cheklanganligi va bir xilligi, oila va qarindoshlar bilan aloqalarning mavjud emasligi);

3) tarbiyalanuvchilarning shaxsiy o‘ziga xosliklari bilan aloqador (axloqiy-estetik ideallarning shakllanmaganligi, ijtimoiy kompetentlik, “Biz” tuyg‘usining shakllanganlik darajasining pastligi, hamkorlikning noaniqligi, o‘z-o‘zini ichki qabul qilmaslik, yetuklashmaganlik (infantilizm), befarqlik, beg‘amlik, odamlar bilan shaxsiy manfaatlari nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘lish, boshqa kishilarga ishonmaslik, agressiya, kayfiyatning tez o‘zgarishi, asabiylik, o‘quv-tarbiya jarayonidagi topshiriqlarni bajarishdagi sustkashlik);

4) muassasadagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bilan aloqador (tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy sifatlari, pedagogik ta’sir ko‘rsatish vositalari, bolalar faoliyatining mazmuni va xarakteri);

5) ijtimoiy omillar (ijtimoiy-siyosiy tizim, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, muassasaning maqomi va h.k.). Mazkur omillarni o‘z navbatida shartli ravishda uchta katta guruhga ajratish mumkin: makro, mezo va mikromillar (1.3.1-jadval).

1.3.1-jadval

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirish omillari

Omillar	Omillar guruhi
Makroomillar	Qonunchilik normalari; moliyalashtirish tizimi; jamoatchilik fikri, ommaviy axborot vositalari.
Mezoomillar	Submadaniyat; muassasa turi, hududiy shart-sharoitlar
Mikroomillar	Irsiyat, shaxsiy xususiyatlar, pedagogik jamoa, referent guruh, tengdoshlar jamoasi

Mazkur omillarning barchasi o‘zaro aloqador va bog‘liq bo‘lib, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida aksiologik dunyoqarashni tarkib toptirish komponentlarini takomillashtirishni talab etdi. Tarbiyalanuvchilarda aksiologik dunyoqarashni tarkib toptirish qadriyatga yo‘naltirilgan ong, munosabat, ustanovka va orientatsiyaning birligini va aloqadorligini ta’minlashni taqozo etadi (1.3.1-rasm).

1.3.1-rasm. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida aksiologik dunyoqarashni

tarkib toptirish tizimi.

Aksiologik ong – axloqiy-ma'naviy tarzda o'z hayotiy faoliyati sohasi subyektlarini aniqlashga imkon beruvchi obyektiv borliqni aks ettirish shakli; ma'naviy qadriyatlar dunyosi sifatida borliqni aks ettirish asosida insonda dunyoni va o'zining shaxsiy dunyosini anglashida faol ishtirok etuvchi psixik jarayonlar birligi. Aksiologik ong ijtimoiy ongning maxsus shakli bo'lib, pedagogik voqelik va hayotni qadrlash tuyg'usi asosida o'ziga xos tarzda aks etadi. Unga asoslangan munosabat, yondashuv, amaliyot va faoliyat ham boshqalardan farq qiladi.

Aksiologik ong o'z navbatida aksiologik hissiyot, idrok, qadrlash tuyg'usi, aksiologik kechinmalar, qadriyat mazmunini ifodalaydigan tushuncha, xulq-atvor va tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. Aksiologik bilishda qadrlash tuyg'usi va aksiologik idrok muhim ahamiyat kasb etadi. "Qadrlash tuyg'usi" aksiologik ongning eng asosiy komponentlaridan biri bo'lib, tabiiy va ijtimoiy hodisalarning qadrini anglash, zavq olish, lazzatlanish, mas'uliyat hissini sezish kabilarda namoyon bo'ladigan tushunchadir. Atrof-olamdagidagi ijobiy tavsifga ega voqea, hodisa va jarayonlar tarbiyalanuvchilar uchun qadrlash tuyg'usini uyg'otuvchi asosdir.

Shu ma'noda, obyektiv voqelikka, uning namoyon bo'lish shakllari, ko'rinishlariga bevosita va bilvosita bog'liq bo'lmagan qadrlash tuyg'usi hamda uning mutlaq subyektiv xususiyat ekanini e'tirof etish qiyin. Zero, qadrlash uchun qadrlanadigan "nimadir", ya'ni moddiylik yoki ma'naviylik bo'lmog'i, qadrlash tuyg'usini uyg'otish uchun esa ana shu tuyg'uning vujudga kelishi uchun sabab bo'ladigai "obyekt" bo'lmog'i lozim. Shu ma'noda, olam, odam va hayot deb atalmish serqirra ma'nolar qadrlash tuyg'usini shakllantiradigan asosiy mezonlardir.

Aksiologik munosabat shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatlilikning o'zaro aloqadorligini aks ettiruvchi tarbiyalanuvchi shaxsining ichki nuqtayi nazarini ifoda etadi. Insonlarga, hayotga va jamiyatga aksiologik munosabat shakllantirish tarbiyalanuvchilarning hayotni qadriga yetadigan shaxs sifatida voyaga yetishi jarayonining muhim komponenti deb aytish mumkin. Aksiologik munosabat alohida shaxsgagina tegishli hodisa bo'lib qolmasdan, balki u ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, jamiyat bilan aloqadorlik kasb etadi. Voqelikka, undagi narsa va hodisalarga nisbatan qadriyatli munosabat hamda ularni qadrlash tuyg'usi asosida shakllangan hukm va xulosalar aksiologik bahoda aks etadi.

Aksiologik baho iqtisodiy qiymatdan farq qiladi, unda qadrlash tuyg'usi asosiy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan olganda, aksiologik baholash narsa, hodisa yoki jarayonning iqtisodiy qiymatini, foydaliligini belgilash orqali emas, balki uning subyekt ma'naviy olami uchun qanday ahamiyat kasb etishini aniqlash orqali amalga oshadi.

Attitude (ustanovka, munosabat) atamasi aynan inson faoliyatining yo'nalganligi ma'nosida birinchi marotaba U. Tomas va F. Znanetskiy tomonidan qo'llanilgan. Ustanovka shaxsning aniq faoliyatga tayyorlik holatini aks ettiruvchi yo'naltirilganlik tavsifini egallaydi. Unda kognitiv (bilim, axborot) va affektiv (emotsiya, hissiyot) tarkibiy qismlar namoyon bo'ladi. Aksiologik ustanovka – tarbiyalanuvchining o'zining aniq nuqtayi nazariga egaligi va qadriyat shakllari bilan bog'liqlikda faoliyatga tayyorlik darajasini aks ettiradi. Aksiologik yo'nalganlik u yoki bu qadriyatlarni hayotiy zaruriyat sifatida qabul qilish bilan tavsiflanadi. Aksiologik yo'nalganlik quyidagi bir-biri bilan bog'liq bosqichlarda amalga oshadi: shaxsiy qadriyatlarni o'zlashtirish; o'zlashtirilgan qadriyatlar asosida shaxsning o'z o'zini o'zgartirishi; istibolli maqsadni aniqlashtirish hamda o'z kuch va imkoniyatlarini baxtli hayot sari yo'naltirish.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish omillari va

aksiologik dunyoqarashni tarkib toptirish komponentlariga asoslangan holda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirildi:

1) tarbiyalanuvchilarning axloqiy tanlov erkinligi, uni asoslash, mustaqil qaror qabul qilish vaziyatini taqdim etishga asoslangan ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega faoliyatni tashkil etish;

2) salbiy xulq-atvorni korreksiyalashga yo‘naltirilgan o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholashni rivojlantirishga doir lokal-modulli texnologiyani ishlab chiqish;

3) qulay ta’lim muhiti (o‘quv, bo‘sh vaqtni tashkil etish, kasbga yo‘naltirish, valeologik) ni yaratish, ijtimoiy institutlar bilan tarbiyalanuvchilarning samarali hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, bolalarning atrof-muhit, mehnat, oilaviy hayot, axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirishiga imkon beruvchi real hayot va muloqot jarayoniga jalb etish;

4) jinsiy-rolli xulq-avtor namunalarini o‘zlashtirish, oilaviy ideal va qadriyatlarni tushunishga imkon beruvchi oila muhitiga maksimal darajada tenglashtiriladigan turmush tarzi va hayotiy faoliyat zarur shart-sharoitlar yaratish;

5) hamkorlik, o‘zaro hurmat va ishonch asosida kattalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarda qadriyatlar tizimining shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning o‘zaro aloqador va bog‘liq bo‘lib, aksiologik dunyoqarashni tarkib toptirish komponentlarini takomillashtirishni talab etdi. Tarbiyalanuvchilarda aksiologik dunyoqarashni tarkib toptirish qadriyatga yo‘naltirilgan ong, munosabat va orientatsiyaning birligi va aloqadorligini ta'minlashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. – М., 2001, – С. 9630.

2. Божович Л. И. Проблемы формирования личности: Избр. психол. тр. Под ред. Д. И. Фельдштейна; Рос. акад. образования, Моск. психол.– соц. инт. – 3-е изд. –М.: МПСИ; Воронеж: МОДЭК, 2001. – С. 349.

3. Дорогонько З.В. Социально-культурные условия адаптации детей сирот в детском доме семейного типа: Дис. канд. пед. наук. – М., 2004.

4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari /O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.

5. Kaldibekova A., Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 80-b.

Umida UKTAMOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

TALABA-QIZLARDA TAZYIQ VA TAJOVUZGA QARSHI DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada talaba qizlarning erta turmush qurish sabab va oqibatlarini o'rganish, mazmun mohiyatni ochib berish, oilaviy muammolar yechimi, oiladagi sog'lom psixologik muhit yaratilishiga, oilaviy zo'ravonlik va uning kelib chiqish sabablari va oilaviy muhitda ijtimoiy yetishmovchilik oqibatlari, erta ajrimlarni oldini olish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Erta turmush, ijtimoiy-moddiy yetishmovchilik, tazyiq va tajovuz, mehr-oqibat, oilaviy zo'ravonlik, g'amxo'rlik, ruhiy zo'ravonlik, iqtisodiy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik.

В статье выяснены радости и переживания раннего замужества девушек-студенток, решение семейных проблем, создание здоровой психологической среды в семье, насилие в семье и его причины. Разъясняются последствия социального дефицита в семейной среде и вопросы профилактики преждевременных решений.

Ключевые слова. Ранний брак, социально-материальная депривация, давление и агрессия, последствия любви, насилие в семье, забота, психическое насилие, экономическое насилие, сексуальное насилие.

The article clarifies the joys and experiences of the early marriage of a female students and its content, solving family problems, creating a healthy psychological environment in the family, domestic violence and its causes. Explains the consequences of social deficit in the family environment and issues of preventing premature decisions .

Key words. Early marriage, social and material deprivation, pressure and aggression, the consequences of love, domestic violence, care, mental abuse, economic abuse, sexual abuse.

Xotin-qizlar qo'mitasi ayollarni turmushda, ish joylarida va ta'lim muassasalarida tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan qonun loyihasini taqdim etdi.

Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risidagi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilindi. Hujjat O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan ishlab chiqildi. Qonun loyihasini ishlab chiqish to'g'risidagi topshiriq Prezidentimizning 7-martdagi qaroridan o'rin olgan edi.

Qonun loyihasi ayollarni turmushda, ish joylarida, ta'lim muassasalarida tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga, shuningdek, tazyiq va zo'ravonlik qurbonlarini huquqiy hamda ijtimoiy himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu qonun maqsadlari uchun 18 yoshga to'lmagan ayol jinsiga mansub shaxslar ham ayol deb e'tirof etilishi keltirib o'tilgan.

Hujjatda zo'ravonlik turlari (ruhiy, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy) aniqlab olinib, g'ayriijtimoiy xulq-atvor, ''qurbon'', ''tazyiq'' tushunchalariga izoh berilgan.

Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosati quyi-

dagilardan iborat ekani sanab o‘tilgan:

- ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta’minlash;
- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish, oilaviy-maishiy munosabatlar sohasidagi qonuniylikni, shuningdek, ish joylari va ta’lim muassasalaridagi munosabatlarni mustahkamlash;
- turmushda, ish joylarida va ta’lim muassasalarida ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilishiga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish va ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;
- turmushda, ish joylarida va ta’lim muassasalarida ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikni aniqlash, ularga chek qo‘yish va ularning oldini olish uchun samarali qonunchilik mexanizmlarini yaratish;
- turmushda, ish joylarida va ta’lim muassasalarida tazyiq o‘tkazish va zo‘ravonlik sodir etishga moyil shaxslarning, shuningdek, ayollarga hamda talaba qizlarga tazyiq o‘tkazadigan va zo‘ravonlik sodir etadigan shaxslarning xulq-atvorini tuzatish yuzasidan tadbirlar amalga oshirish;
- tazyiq va zo‘ravonlik qurbonlari bo‘lgan ayollarni himoya qilish, ularga yordam ko‘rsatish, reabilitatsiya qilish uchun asoslar yaratish hamda ayollar tazyiq va zo‘ravonlik qurbonlariga aylanish xavfini kamaytirish;
- ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish maqsadida turli institutlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash.

Qurbonga yoki tazyiq o‘tkazish va zo‘ravonlik sodir etish xavfi ostidagi shaxsga ichki ishlar organlari tomonidan himoya orderi beriladi, zarurat tug‘ilgan taqdirda, ular maxsus markazlarga joylashtiriladi.

Hozirgi kunda oila ijtimoiy tashkilot sifatida jamiyatga va uning negizlari, turmush tarzining qaror topishiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi, chunki bo‘lg‘usi ona aynan shu oilada kamolga yetkaziladi, talaba qizlarning dunyoqarashiga oid asoslari, ruhiy ma’naviy fazilatlari shakllanadi. Otasining uyida o‘tgan hayoti qiz bola uchun kelin (qaynonasi uchun), xotin (eri uchun) va ona (farzandlari uchun) bo‘lishiga tayyorgarlikdir. Xalq maqolida “Qiz bola birovning xasmidir” deydi. Chaqqon va kamgap qizning nikohga tayyorlanishi zamonaviy ayol andozasidir. Ayolning oiladagi roli ikkinchi darajali. Shunga qaramay, u xonadon fayz-u tarovati hisoblanadi. Odatda o‘zbek xonadonlarida qiz bola ota-onasining xohishini hurmat qilib, sovchilik orqali turmushga chiqishni ma’qul ko‘rishadi. Kattalar roziligi bilan uchrashuvga chiqib undan keyin esa bu tanlovga rozi yoki norozi ekanligini bildirishadi. Ko‘pchilik hollarda ota-onaning tanlovi hal qiluvchi qaror bo‘layotgan holatlar ko‘paymoqda. Ota-onalar orasida tahsil olayotgan talaba qizlarining fikrlarini inobatga olmay sovchilarga rozilik berayotgan vaziyatlar hali ham mavjudligi dilni xira qiladi. Afsuski, ayrim oilalar “qizim o‘qish bilan bo‘lib, yoshi o‘tib boryapti” degan fikrda qotib qolishadi. Yosh oilalar o‘rtasida ajralishlarning ko‘pligiga turlicha sabablar ko‘rsatilsa-da, aksariyat oilalardagi nochorlik va yetishmovchilik shu oilaning barbod bo‘lishiga olib kelmoqda. Yosh talaba kelinning shartnoma to‘lovini o‘z vaqtida to‘lov amalga oshirilmaganligi sababli talaba kelinga moddiy hamda ma’naviy zarar yetkazilmoqda. O‘zbeklarda farzandni uylantirish yoki turmushga uzatish ota-ona burchi hisoblanadi. Biroq bu burchni tezroq ado etishga shoshayotgan ba’zi ota-onalar to‘y-marosimlarini juda erta ado etishga urinmoqda. “Oxirgi paytlarda bir holat mavjud: qiz bola maktabni tugatar-tugatmasdan uning uyiga sovchi serqatnov bo‘lsa va u barvaqt turmush qursa, shu xonadon shu qadar fayzli ekanligidan go‘yo dalolat bergandek. Mahalla-ko‘ylarda, o‘zbek oilalari orasida hattoki qizini tezroq turmushga

berish norasmiy poygasi ham vujudga kelgan. Tibbiyot olimlari 18 yoshga yetgan qizlar turmush qurishga tayyor, uning hayz ko‘rayotgani uning albatta tug‘a olish qobiliyatidan dalolat bermayotganligini, uning boshqa jinsiy a’zolari, bachadon va boshqa tug‘ruq yo‘llarining hali to‘liq bog‘liq bo‘lmagani, ichki sekretsiya bezlari yetarlicha rivoj topmaganligini aniqlashgan. Yoshlar 17-18 yoshdagi yigit-qizlarning oila qurishayotganligi boisini turlicha izohlashadi. Qiz bola jismoniy tayyor bo‘lishdan tashqari, ruhan yetuk bo‘lishi ham oila qurishda muhim masala hisoblanadi. Yangi oila bilan murosa qilishda ma’naviy yetuklik, bilim va go‘zal muomala ustundir. Hozirgi vaqtda erta turmush qurgan oilalarda erta ajralish holatlari kuzatilmoqda. O‘zbek to‘ylarining benihoya dabdabali va serxarj o‘tishi natijasida, to‘y qilgan oilaning bir necha yillik qarzdorlik botqog‘iga botishi-yu, shu bois chiqqan janjallar ham yosh oilalar buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi kunda oilalarning mol-mulkka qarab qiz uzatishi judayam ko‘payib bormoqda. Sababi ayrim talaba qizlar shartnoma asosida tahsil olishadi.

Hayotning past balandini hali to‘liq anglab yetmagan qizlarimizga albatta oilada ona chiroyli o‘rnak bo‘la oladi. Onalar faqatgina qimmatbaho sarpolar yig‘ibgina qolmay qiz farzandini tarbiyasi, odob axloqi, pazanda va shirinsuxan bo‘lishiga jiddiy e‘tibor qaratmog‘i lozim. Yangi oilaning turmushiga to‘la ko‘nikib olguniga qadar qaynona bo‘lmish ham yosh kelinchakka yo‘l yo‘riq ko‘rsatishi ayni maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bo‘lajak kuyovlar ham albatta hayotda mustaqil fikrg ega, mustaqil daromad topib, oiladek muqaddas dargohni ko‘zqorachig‘idek asray olishi kerak. 18-19 yoshli yigitlar orasida o‘z mustaqil daromadiga ega bo‘lganlar kamchilikni tashkil etadi. Oila qurishda va uni boshqarishda esa budjet masalasi katta ahamiyatga ega. Yosh kelin kuyov o‘rtasidagi kelishmovchiliklarning yana bir sababi ham aynan shu masala deb ayta olamiz. Oila, ro‘zg‘or yukini yelkasiga olishga tayyor yigit albatta mustaqil daromad topa oladigan, ota-onasiga qaram bo‘lmagan bo‘lishi kerak. Sababi oila mas’uliyati yengil yelpi qaraladigan masala emas, balki ayol va farzandlar suyansa bo‘ladigan qo‘rg‘ondir. Bu qo‘rg‘on egasi esa mustaqil va teran fikrli, erkin daromad topa oladigan, qat’iyatli bo‘lishga majbur.

Masalaning yana bir tomoni shundaki, o‘smir qizlar, talaba qizlar hamda balog‘at yoshiga yetmagan qizlarni jismoniy, ham jinsiy balog‘atga yetishida anchagina salbiy nuqsonlar bor, bu esa ularda o‘tayotgan ko‘pgina kasalliklar fiziologik jihatdan nimjon bo‘lgan organizmda yuzaga kelayotganligini bildiradi. Bizning sharoitda yosh qizlarning to‘liq balog‘atga yetishi 19-20 yoshlarga to‘g‘ri keladi deyish mumkin. Qizlarning oilaviy hayotga jismonan, ma’nan va ruhan, reproduktiv va jinsiy hayot madaniyatiga tayyor bo‘lmagan holda erta turmushga chiqishlari quyidagi oqibatlarga olib kelmoqda:

1. Yosh oilalar orasida ajralishlarning ko‘payishi ajralishlar dastlabki besh yil davomida ro‘y beradi.

2. Tug‘ish vaqtidagi murakkabliklar; tug‘ish va homiladorlik o‘rtasidagi oraliq muddatining qisqarishi.

3. Birinchi bor tug‘ayotgan va 20 yoshgacha bo‘lgan yosh ayollar o‘rtasida o‘limning ko‘payishi.

O‘zgarishlar davrida ta’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta’lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan yangi avlod shakllantiriladi.

Zamonaviy mehnat bozorining raqobatbardoshligi har bir shaxsning ta’lim sifatini oshirish va o‘z bilimlaridan kundalik hayotda foydalanish qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy maktablar oldida turgan dolzarb muammo hisoblanadi. Yangi jamiyatda yosh

avlodga yangicha bilim berish yo‘lida tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ma’lumki, XXI asr fan va ta’limning rifojlangan asri deb nomlanadi.

Shuni inobatga olgan holda umumta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Shuning uchun hozirgi o‘qituvchi o‘quvchiga nafaqat ilm asoslaridan axborot beradi, balki uni dunyoda bilim, axborot, raqobat sharoitiga moslashib yangi davr kashfiyotlari bilan tanishib borishida qo‘llab-quvvatlashi kerak. Ushbu maqsadga erishish uchun o‘qituvchining yangi tafakkur, har tomonlama bilim va yaxlit dunyoqarash tizimini o‘zlashtirgan holda, jamiyatdagi jadal o‘zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik o‘zgarishlarga tezkor yondashish va har tomonlama dunyoqarashga ega bo‘lishi zarur. Shubhasiz, o‘z fani doirasida qolgan o‘qituvchi ta’lim va tarbiyada yuqori maqsadlarga erisha olmaydi.

Bu holatlarni tahlil qilish uchun raqamlarga murojaat qilamiz. Respublikamizda o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarga ko‘ra 45,1 foiz qizlar 20 yoshgacha turmushga chiqishadi. Turmushga chiqqan ayollarning 37,4 foizi 20 yoshgacha farzand ko‘rishadi. Ulardan 20 foizi 20 yoshgacha farzand ko‘rsa, 15 foizi ikkitadan, 1,4 foizi uchtadan farzandli bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Enikolopov S. N. Oilaviy zo‘ravonlik muammolari // Amaliy psixologiya. – 2002. – № 5/6. – 7-bet.

2. Perttu S. Zo‘ravonlikka duch kelgan ayollar uchun qo‘llanma /. – Jivaskila: Gummerus, 2010. – 6-7-betlar .

3. Asanova M. Oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar / Ed. N. K.: Vlados, 2007. – 218-b.

Fotimaxon RO‘ZIYEVA,
Xorazm viloyati, Xonqa tumani 13-son umumta’lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

SHAXS MA’NAVIYATINI TARBIYALASHDA ALISHER NAVOIY IJODINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada hozirgi kunda har tomonlama kamol topgan bilimli, ziyoli, tarbiyali, shaxsni voyaga yetkazish g‘oyasi yuqori o‘rinda turganligi yoritilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda ma’naviy merosimizning, ayniqsa, Navoiy ijodining ahamiyati, asar qahramonlari orqali yoshlar tarbiyasi va kamoloti yuksalishi izchil bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, tarbiya, ijodiy meros, jahon madaniyati, ommaviy madaniyat.

В статье поясняется, что в настоящее время на первом месте стоит идея воспитать образованного, интеллигентного, образованного, созревшего во всех отношениях человека. В реализации этих задач последовательно констатируется важность нашего духовного наследия, особенно творчества Навои, рост воспитанности и зрелости молодежи через героев произведения.

Ключевые слова. Образование, обучение, творческое наследие, мировая культура, массовая культура.

The article explains that at present, the idea of educating an educated, intelligent, educated person who has matured in all respects is in a high place. In the implementation of these tasks, the importance of our spiritual heritage, especially the work of Navoi, the growth of upbringing and maturity of young people through the heroes of the work is consistently stated.

Key words. Education, training, creative heritage, world culture, popular culture.

Alisher Navoiy birgina ‘‘Hayratul-abror’’ asari inson uchun ham qarz, ham farz bo‘lgan barcha insoniy fazilatlar haqida so‘z yuritadi. Ayniqsa yoshlarimizda ma’lum bir ma’noda yetishmayotgan chin ma’nodagi qalb go‘zalligi, jismoniy kamolot bilan ruhiy barkamollikning uyg‘unligi, xushmuomalalik, mehr-muhabbatli bo‘lish, go‘zal xulq sanalmish saxovatlilik, saxiylik, mehnatsevarlik, o‘zini tuta bilish, birovlarning gapini tinglay olish, zarur paytda qay holatda yoki qanday ko‘rinishda achinish, achchiqlanish kabi holatlarning ham o‘ta darajada go‘zal va me’yorda bo‘lishning yetishmasligi shundan dalolat beradi. Odobsizlikning birinchi belgisi behuda kulgidir. Haddan ziyod, me’yordan ortiqcha kulgandan ko‘ra, yig‘lash afzalroqdir, deydi[1].

Navoiy inson ko‘nglining shisha kabi nozikligini, uni sindirish katta gunoh ekanligini, birovning ko‘nglini olish, ko‘tarish katta savob ekanligini ham uqtiradi. Birovning g‘amini yeyish insoniylikning eng yuksak martabasi deb biladi. Inson ko‘nglini muqaddas Ka’baga tenglashtiradi, ko‘ngilning siniqligini, ya’ni birovning ko‘nglini sindirishni Ka’bani vayron qilish bilan teng ko‘rsatadi. Bitta noto‘g‘ri yo‘ldan ketayotgan kishini to‘g‘ri yo‘lga solish, kishidagi yomon fazilatlarni yo‘qotishga sabab bo‘lish, xatosini anglatish va u xatodan qaytarish ham vayron bo‘lgan Ka’bani tiklash bilan barobar deydi:

[1] Shodiyev E. Alisher Navoiyningfors-tojik tilidagi asarlari. – T.: Fan, 2010.– B. 69-77.

Navoiy inson Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borki, Ka’ba vayron bo‘lsa obod aylagay.

‘‘Hayratul-abror’’ning 13-maqolatida el-u yurtga foyda keltiruvchilarni bulutga o‘xshatadi. Xalqqa foyda keltirmoqni, birovlarga yaxshilik qilmoqni boshqalarga emas, balki o‘ziga foyda keltirish va yaxshilik qilishdir deb uqtiradi:

Na’fing agar xalqqa beshak durur,
Balki bu na’f o‘zinga kuprak durur.

Navoiy bu g‘oyasini barcha asarlarida davom ettiradi va to‘ldirib boradi. Suyukli qahramoni Farhod mehnatsevarlikni sharaflaydi, mehnatga ijodiy yondashadi. Shirinni izlab Armanistonga borarkan, tog‘da kanal qazish uchun nihoyatda qiynalib ishlayotgan kishilarni ko‘rib[2]:

Hunrni asrabon netgumdir oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdir oxir,

deya ularga chin ma’noda yordam beradi. Hunari, mahoratini ishga solib minglarcha kishilarning mehnati va mashaqqatini yengillashtiradi.

Alisher Navoiyning g‘azallarini, ruboiylarini maktab darsliklari hamda badiiy kitoblardan o‘qib o‘rganish mumkin. Bugungi kunda buyuk bobokalonlarimizning tavallud ayyomlari mamlakatimiz bo‘ylab keng nishonlanmoqda. Har yili Navoiy tavalludiga atab tadbirlar va g‘azalxonliklar o‘tkazilmoqda. Bu ham bo‘lsa Navoiy bobomizning sermahsul ijodini alohida hurmat bilan e’tirof etishimizdandir. Alisher Navoiyning ijodi o‘quvchilarimiz uchun juda ham qiziqarlidir. Navoiy bobomizning bizgacha yetib kelgan meroslarini saqlab qolish, bizdan keyingi yosh avlodga ham qoldirish bizning burchimizdir.

Navoiy asarlarining umuminsoniy g‘oyasi – insonparvarlik, xalqparvarlik, do‘stlik, mehr, va sadoqat, pok sevgi va ma’rifatlilik kabi go‘zal tuyg‘ularning yuksak badiiy shaklida, ifodalashi orqali o‘zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasidan bir butun asar yaratmagan bo‘lsa ham o‘zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o‘zining umuminsoniy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo‘li bilan bayon etdi[3].

Navoiyning har bitta asari chuqur ta’limiy o‘gitlarga, boy tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Ular aqlni toblaydi, inson qalbining go‘zallashishiga sabab bo‘ladi. Uning asarlari bilan yaqinlashish kitobxonga ulkan ta’limiy axborotlarni beradi, uning ma’naviyatini o‘tmishning nurli mash’allari bilan nurlantiradi, insondagi mudrab yotgan ko‘plab ezgu tuyg‘ularning yangicha bir jilva bilan uyg‘onishiga sabab bo‘ladi. Ularda Vatan va vatanparvarlik, qahramonlik, mardlik, matonat, bag‘rikenglik, insoniylik, insonparvarlik, mehr va muhabbat, milliy ma’naviy qadriyatlar ardog‘i mutlaqo takrorlanmas qirralari bilan namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy o‘zining o‘lmas asarlari bilan o‘zbek xalq klassik adabiyotini jahon adabiyoti va umumbashar madaniyati miqyosiga olib chiqqan buyuk shoirdir. Navoiyning “Hamsa”si uning ijodidagi yana bir porloq cho‘qqidirki, u yolg‘iz o‘zbek adabiyotini emas, balki butun Sharq adabiyotining bebaho bezagidir. Shoir bu besh dostonini ikki yilcha qisqa vaqt mobaynida yaratadi.

Alisher Navoiyning ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g‘oyalari bosh o‘rinda turadi. Alisher navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o‘z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo‘lgan umuminsoniy axloq qoidalarini

[2] Sirojiddinov Shuhrat. Alisher Navoiy: manbalarningqiyosiy- tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr, 2011.
[3] Qayumov A. Nodir sahifa, Navoiyning kam o‘rganilgan ba’ziasarlarito‘g‘risida. – T.: Fan, 2011.– 144-b.

o‘rgandi, asar qahramonlari obrazida o‘z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiy o‘z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo‘lgan umuminsoniy axloq qoidalarini o‘rgandi, asar qahramonlari obrazida o‘z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boyliklardan afzaldir. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so‘z bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. U xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi:

Odami ersang demagil odami, Onikim yo‘ xalq g‘amidin g‘ami.

Xalqqa yordam berishni istamaydigan, xudbin, qora ko‘ngil odamlarni Alisher Navoiy eng yomon odam, xalqqa zarar yetkazadi deb ta’riflaydi.

Alisher Navoiy o‘zining gumanistik qarashlari, yaxshi orzu-istaklarini ‘‘Xamsa’’ dagi boshqa ijobiy qahramolarida bo‘lganidek, Layli obrazida ham turli voqealar, masalalar munosabati bilan bayon etadi. Layli odamlarni cheksiz hurmat qiladi. Ularning baxtini, xursandchiligini ko‘rib quvonsa, qiyin ahvolga tushganlarini , baxtsizliklarini ko‘rib, cheksiz qayg‘uradi. Layli obrazidagi bu yaxshi fazilat uning Majnun boshiga tushgan musibat (ota-onasining o‘limi)ni bilgach, yanada namoyon bo‘ladi.

Navoiy dostonida tasvirlangan Layli obrazining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning odobli va iboli ekanligidir. U ota-onasini qattiq sevadi, ularning aytganlarini, iloji boricha bajarishga harakat qiladi[4].

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Navoiy asarlarining bosh qahramonlari hamda kichik qahramonlari orqali shaxsni tarbiyadash, o‘rnak qilib ko‘rsatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Hozirgi sharoitda bu obrazlarning ayrim ‘‘zamonaviy’’ yoshlarimizni tarbiyalashga, ota-onaga hurmat ko‘rsatishga, har sohada ilm va hunar o‘rganishga, qisqacha qilib aytganda, komil insonni tarbiyalashga xizmat qiladi desak ayni muddao bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodiyev E. Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi asarlari. – T.: Fan, 2010.– 69-77-betlar.

2. Qayumova. Nodir sahifa, Navoiyning kam o‘rganilgan ba’zi asarlari to‘g‘risida. – T.: Fan, 2011.– 144-bet.

3. Sirojiddinov Shuhrat. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy- tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr, 2011.

4. Oybek. Navoiyning “Majolis un-nafois” asari haqida // Navoiy gulshani. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. – 143-149-betlar.

5. Mallayev N.M. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1974-y.

[4] Mallayev N.M. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1974-y.

Temur KULNIYAZOV,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

TALABALAR MUHITINI UYG'UNLASHTIRISH TYUTORNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYATINI OPTIMILLASHTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH MEZONI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar muhitini uyg'unlashtirish jarayonida tyutorlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish, talabalarning kasbiy o'zini anglashining shakllanish jarayoni, har bir talaba shaxsining psixologik o'zgarishlari va xususiyatlari bilan qisman uyg'unlashishi, talabalar OTMning polimadaniyatli muhitiga qamrab olinish zarurligi o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Talabalar muhiti, OTMning polimadaniyatli muhiti, rasmiy qiyinchiliklar, ijtimoiy qiyinchiliklar.

В статье в процессе гармонизации среды студентов в высших учебных заведениях необходимо совершенствовать социально-педагогическую деятельность тьюторов, процесс формирования профессионального самосознания студентов частично гармонизирован с психологическими изменениями и особенностями личности каждого студента, а также необходимость включения студентов в поликультурную среду вуза.

Ключевые слова. Студенческая среда, поликультурная среда ВУЗов, служебные трудности, социальные трудности.

This article deals with the need to improve the socio-pedagogical activity of tutors in the process of harmonization of the student environment in higher education, the process of formation of students' professional self-awareness, partial adaptation to the psychological changes and characteristics of each student.

Key words. Student environment, multicultural environment of higher education, formal challenges, social challenges.

Bugungi kunda tyutorlarning amaliy faoliyatini optimillashtirish va takomillashtirishda alohida roli jamiyat tomonidan e'tirof qilinishiga bog'liq holda nafaqat ularning ishlari, balki talabalar muhitidagi uyg'unlashish jarayoni ham dolzarblik kasb qilmoqda. Qolaversa, ta'lim muassasining tarbiya jarayonini va har xil tarbiya subyektlarining uyg'unlashishini ta'minlovchi asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. Uyg'unlashtirish jarayonining muhimligi ayniqsa, oliy o'quv yurti korporativ imijini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash masalalariga qiziqishning ortishi ikkilanishni keltirib chiqarmasligi so'zsiz. Shularning hammasida, aynan amaliy tyutorlik faoliyat – talabalar bilan ishlashning shakllaridan biri bo'lib, har qanday faoliyat kabi talabalarda tyutor haqida yuzaga keladigan va qo'llab-quvvatlanadigan tasavvurlarga bevosita

bog‘liq bo‘ladi.

Talabalar guruhi tyutorining vazifasi – professional muhitda muvaffaqiyatli o‘rin egallashga intiluvchi talabalarni tarbiyalashdir. Tyutor aynan oila va maktabda boshlangan shaxsni tarbiyalash jarayonini davom ettiruvchi inson hisoblanadi. Ota-ona va farzand tarbiyalanadigan muhit ta’siri uning dunyoqarashini shakllantiradi va o‘zining hayot yo‘lini tanlash imkonini beradi[1]. Ammo zamonaviy talaba ancha infaltiv, u tyutor tomonidan, ayniqsa birinchi bosqich talabalari, keng vasiylikni talab qiladi. Yosh avlod ota-ona bag‘ridan chiqa turib mustaqillikning past ko‘nikmalariga va infaltizmning yuqori darajasiga ega bo‘lgan holda oliy ta’lim muassasasida ijtimoiy yakkalanishni his qiladi. Ko‘pchilik o‘qituvchilar OTMga to‘la shakllangan shaxs keladi, deb o‘ylab xatolikka yo‘l qo‘yadi. Shundan kelib chiqib ular o‘zlarining tyutorlik rolini talabalar guruhiga tashkiliy masalalar bo‘yicha faqat maslahatchi sifatida tutish bilan kifoyalanadi, xolos. Aslida esa talaba OTM talablariga moslashishida yordam berishga tayyor, qiyin vaziyatda psixologik yordamini ayamaydigan, o‘qituvchilar bilan yaqindan tanishishida, guruhdoshlari bilan do‘stona munosabat o‘rnatishda, o‘zining bo‘lajak kasbiga mehr uyg‘otishda yordam berishga tayyor ustoz sifatida tyutorga zaruriyatni his qiladi. Shunday e’tiborning tyutor tomonidan yo‘qligi tufayli ko‘p hollarda talabalar o‘qish jarayonidan va kasbidan yuz o‘giradi, shu tarzda OTMdan chiqib ketadi, OTM esa o‘z navbatida o‘z kasbini kelajakda bajonidil bajarashi mumkin bo‘lgan talabadan mahrum bo‘ladi.

Tyutorning professional ta’limi amaliy faoliyati kasbiy standartlarida “talabalarda ularning shaxsiy va kasbiy o‘zini anglashini qo‘llab-quvvatlashiga yo‘naltirilgan o‘zining kelajak kasbi va mehnat qilishlariga barqaror, ijobiy munosabatlarini shakllantirilishini ta’minlashning” zarurli ko‘nikmalari yozib ko‘rsatilgan[2]. Bunda OTM tarbiya jarayoniga OTM an’analariga asoslangan va unda ishtirok etuvchi har bir talabaga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi, masalan, “Talabalikka qabul qilish”, ish beruvchilar bilan uchrashuvlar, “Universitet ochiq eshiklar kuni” “Bardamlik va salomatlik”, universitetning va tegishli fanlarning barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan olimlarning yubiley sanalarini bayram qilish tadbirlari tarbiya jarayoniga qamrab olinishi kerak.

Har bir tyutor bugungi kunda shuni tushunishi kerakki, talabaning professional o‘zini anglashining shakllanish jarayoni har bir talaba shaxsining psixologik o‘zgarishlari va xususiyatlari bilan qisman uyg‘unlashishi kerak. Talabalar OTMning polimadaniyatli muhitiga qamrab olinishi zarurligini unutmaslik kerak, aynan “ta’limning polimadaniyatli tashkil qiluvchisi tavsiya qilinayotgan modelga mos holda talabaning ichki dunyosi chegaralarini kengaytiradi”. Bizning barcha g‘oyaviy harakatimizning maqsadi: professional o‘qitish jarayonida vatanga sodiqlik hissining shakllanishini yo‘nalishidan og‘ishmaslik juda muhim, chunki, aynan shu tashkil qiluvchi oliy maktab hayotida muhim me’yor hisoblanadi. Hozirgi zamon yoshlari professional va mansab rejalarining ba’zi tadqiqotlari shundan guvohlik beradi. Ko‘pchilik yoshlar uchun diplomi qo‘lga tegishi bilan o‘zini kasbida namoyon qilish emas, balki eng quyi mansab pozitsiyasidan boshlab darhol katta daromad beradigan iqtisodiy tomonga chiqib olishga intiladi. Tyutorning ushbu o‘zgarishlar jarayoniga aralashishi “tobora kamayib boruvchi yordam”’ tamoyili, ya’ni birinchi kursdagi “vasiy” rolidan yuqori kurslardagi “maslahatchi”

[1]Малиева З. К. Организационно-педагогические условия пропедевтики и снятия морально отчуждения студентов // Вестник Воронежского государственного университета. Серия “Проблемы высшего образования”. – 2012. – №1. – С. 95-99.

[2]Беркутова Д.И., Громова Е. М., Горшкова Т. А. Становление профессиональной идентичности как фактор проектирования карьерной стратегии современного студента вуза // Самарский научный вестник. 2018. Т. 7. № 4 (25). – С. 299-304.

roli bilan aniqlanadi.

Ta’kidlab o‘tilganlarga bog‘liq holda, tyutor tomonidan semestrlar bo‘yicha OTMda talabalar muhitida uyg‘un ishlash maqsadida quyidagi hal qilinadigan masalalarni taqdim qilish o‘rinli bo‘ladi:

– 1 va 2 semestrda – bu kontingentti saqlab qolishga, guruhdagi shaxslararo munosabatlarni shakllantirishga, psixik va jismoniy salomatlikni saqlashga yo‘naltirilgan;

– 3 semestrda – mustaqil ishlashni belgilashda o‘zini namoyon qilgan talabalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashishi, o‘qish faoliyati sifatini orttirish;

– 4 semestrda – professional motivatsiya, milliy qadriyatlar yo‘nalishi, professional muhim sifatlarning rivojlanishida ifodalanadigan o‘zini-o‘zi boshqarish va professionalizatsiya;

– 5 semestrda va undan keyin – professionalizatsiya ya’ni professionalizatsiya shakllanishining bir bosqichidan boshqasiga o‘tish, barqaror professional qadriyatlar, yo‘nalishlar, motivlarni shakllantirish. Beshinchi va undan keyingi semestrlarda professionalizatsiya jarayoni amalga oshirilishini ta’kidlash muhim. Ushbu bosqichda talabalarning professional shakllanishining bir bosqichidan boshqasiga o‘tishi amalga oshadi, bu esa shaxs rivojining ijtimoiy vaziyatining almashinishida, ijtimoiy statusini bosqichma-bosqish anglashda, shuningdek, umuman tanlagan kasbida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, birinchi kurs talablarining OTMga ko‘nikishiga, OTMning ijtimoiy-pedagogik muhitdagi o‘rni va rolini anglashiga yo‘naltirilgan tyutorning amaliy ishlari hozirgi sharoitlarda bakalavrlarning professional tayyorligi darajasini orttirishni ta’minlashi kerak. Talabalarni o‘qishning birinchi yilida ko‘nikish davrida professional qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda tyutor ham talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda faol ishtirok etishi kerak. Ko‘pchilik talabalar konspektlash, referat yozish va boshqa mustaqil vazifalarni bajarishda qiyinchiliklarga duch keladi. Birinchi kurs talabalarida mustaqil ishlarni tashkil qilishda o‘zlarining individual fiziologik xususiyatlarini hisobga olish ko‘nikmalari yetarli bo‘lmaydi. Shunisi ma’lumki, aslida tyutorning asosiy vazifalaridan biri – talabalarga ularning mustaqil ishlarini tashkil qilishida, ularning o‘zini-o‘zi boshqarishga tayyorlik darajasini orttirish, shunigdek, o‘qishga mas’uliyatliligini shakllantirishda yordam berishi lozim.

Biz shunday angladikki, talabalar OTMda ko‘nikish jarayonida, ayniqsa, quyi kurslarda doimo qiyinchiliklarga, aynan quyidagilarga duch kelishadi:

– rasmiy qiyinchiliklar – pedagogik jarayonni tashkil qilish metodikasi bilan bog‘liq. Bunday pedagogik jarayonni OTMda tashkil qilish o‘z xususiyatiga ega. OTMga qabul qilingan talaba yangi majburiyatlar va yangi rolga ega bo‘ladi. Quyi kurs talabalarida ko‘p hollarda shunga bog‘liq nizolar yuzaga keladi;

– rasmiy qiyinchiliklar bilan didaktik turlari chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Birinchi kurs talabalari shu qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz keladi, chunki, o‘quv faoliyati mazmuni ham, shakli ham o‘quv yuklamalari maktab sharoitidigidan farq qiladi;

– ijtimoiy qiyinchiliklarga ijtimoiy ko‘nikish muammolari: yangi jamoatdagi o‘zaro munosabatlar, boshqa shaharliklarning ijtimoiylashuvi va boshqalar kiradi. Talabalarning quyi kurslarda duch keladigan qiyinchiliklari ko‘pincha shaxsiy muammolarga aylanadi, shu sababli talabalarning ijtimoy ko‘nikish muammosiga boshlang‘ich davrda alohida e’tibor berish zarur. Bu bilimlar o‘qituvchilar, tyutorlikni endigina boshlaganlarga o‘zlarining ijtimoiy-pedagogik faoliyat maydonini to‘laligicha tasavvur qilish imkonini beradi.

Bularning hammasida har bir tyutor o‘zlarining ijtimoiy-pedagogik amaliy majburiyatlarini yaxshi bilishlari kerak, jumladan:

– talabalarga OTM o‘quv tizimiga va o‘zlarini tutish normalariga ko‘nikishda, huquq va majburiyat yo‘nalishida, o‘qituvchilar va talabalar orasida, shuningdek, talabalarning o‘zlari bilan guruh orasida munosabatlarni yo‘lga quyishda yordam berishi;

– talabalarni OTM o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilinishi bilan asosiy ichki OTM mahalliy qoidalari bilan tanishtirish;

– darslarga davomatlarini nazorat qilish, guruh talabalarning joriy va semestrlik o‘zlashtirishlarini kuzatish va ularni bartaraf etilishini ta’minlash;

– nizoli vaziyatlarni hal qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;

– talabalar bilan ularning intilishlarini jipslashgan jamoat tuzishga yo‘naltirgan holda tarbiya ishlarini yo‘lga quyish;

– talabalarning o‘zgargan xulq-atvorini oldindan sezish, ko‘ngilsiz voqealarni oldini olish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazish;

– tyutorlik soatlarini tashkil qilish;

– talabalarning o‘quv ishlari bilan ota-onalarni xabardor qilish.

Shunday qilib, amaliy faoliyatni optimillashtirish va takomilashtirish muammosi shuni ko‘rsatadiki, tyutor guruh bilan o‘quvdan tashqari ishlashi jarayonida talabalar muhitida ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga: nizolarsiz muloqot malakasiga, guruhda, jamoada ishlashiga, o‘zini namoyon qilishiga va boshqalarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tyutor ta’kidlab o‘tilgan ko‘nikmalar, malakalar va sifatlarni muvaffaqiyatli shakllantirishi uchun faoliyatning har xil zamonaviy metodlari va shakllari: trening, loyihalash metodi, roli o‘yinlar va boshqalarni qo‘llaydi. Masalan, tyutor birinchi kurs talabalar bilan ishni boshlay turib, talabalarni o‘quv, professional faoliyatga yo‘naltirish, ularda maqsadni belgilab olish va unga savodli erishish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirish vazifalarini o‘ziga belgilab oladi, eng asosiysi esa – u jamoani jipslashishida, talabalarni jamoada birgalikda harakat qilishga va ishlashga o‘rgatishda yordam bergan bo‘ladi.

Jamoaning jipslashishining dastlabki bosqichlarda loyihalash faoliyati, shuningdek, mashg‘ulot metodini qo‘llash samarali bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, tyutorga talabalar–birinchi kurslarning ota-onalari bilan ishlashga, talabalar muhitida ijobiy psixologik iqlimni vujudga keltirish va qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratish tavsiya qilinadi.

Shunday qilib, tyutorning ishi intellektual, emotsional kuch sarflashlarni, katta intilishlarni, albatta, takomillashishni talab qiladi. Zamonaviy tyutor befarq, passiv kuzatuvchi bo‘lishi kerak emas.

Bizning tushunishimizcha, talabalarning turmush sifatining shakllanishi – boshqa yangidan tuzish emas; u o‘zini namoyon qiladi, ammo adekvat tartiblashtirish, korreksiyani talab qiladi. Shu asnoda, biz I.S.Kon nuqtayi nazarini ma’qullaymiz, bunda pedagogik amaliyotda mavjud bo‘lgan kamchiliklarni ko‘rsata turib, o‘z vaqtida shuni ko‘rsatib berdi, “falsafada subyektiv-obyektiv munosabatlar namunasida tarbiyani modellashtirish noto‘g‘ridir”. Tarbiya jarayoni psixologik-pedagogik darajada ko‘pchilik omillarni ijobiy qo‘llanishga bog‘liq bo‘lib, biz esa ularni umuman bilmasligimiz ham mumkin. Tarbiyaning an’anaviy tizimida mazkur omillar asosan inkor qilinadi.

Shundan kelib chiqqan holda, tyutor ishi OTMdagi o‘quv-tarbiya ishining maqsadi bilan aniqlanadi. Ammo, OTM tarbiya ishlarining vazifasi faqat talaba shaxsining ijtimoiy madaniyat bilan uyg‘unlikda rivojlanishini ta’minlaydigan “tarbiya muhiti” sharoitlarnigina yaratishdan iborat bo‘lmasligi kerak. Shunday qilib, tyutorlarning tarbiya ishlarida asosiy vazifalar quyidagilar bo‘lishini biz tavsiya qilamiz:

– talabalarda ilmiy bilimni o‘zlashtirishda shaxsiy mohiyatini rivojlantirish yagona maqsad bo‘lmasligi, balki uning bazasida shaxsning dunyoqarashi shakllanadigan

motivatsion asos bo‘lishi kerak.;

– talaba shaxsining odob-ahloq asoslarini shakllantirish;

– ularning shaxsining estetik yo‘naltirilganligini rivojlantirish.

Bundan tashqari, tarbiya ishining talabalar muhitini uyg‘unlashtirish maqsadi bilan fundamental, qo‘shimcha maqsad va vazifalarining mohiyatning tahlili tarbiya ishlarini tizimli tashkil qilishning quyidagi asosiy tamoyillarini shakllantirishi mumkin:

1. Kasbiy pedagogik yo‘nalishning ustunligi tamoyili OTMda o‘quv-tarbiya jarayonini, barcha strukturalarning ishlarining barcha shakllarini “pedagogik to‘yinish” ni taqoza qiladi. Mazkur tamoyil OTM faoliyatining tarbiyaviy jihatining tyutorning amaliy faoliyatining bevosita ishtirokida quyidagi asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatishni taqoza qiladi:

– ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarning pedagogik yo‘nalishini kuchaytirish;

– ayrim ma’ruzalarni, maxsus kurslarni, maxsus seminarlarni o‘qishga eng ilg‘or o‘qituvchilar, pedagogik mehnatning mohir ustalarini tanlov orqali chaqirish;

– “Birinchi kurs talabalariga eslatma” ishlab chiqilib, unda talabalar hamjamiyatiga qabul qilinishi bilan tarbriknomadan tashqari talabaning huquq, majburiyatlari, OTMning tarixi, shakllangan an’analari, dasturlari haqida ma’lumotlar bayon qilinadi.

– fakultetning “Eng yaxshi talabalar guruhi haqida” rejasini ishlab chiqish.

2. O‘quv va o‘qishdan tashqari ilmiy ishlarning tuzilma birligini ta’minlash tamoyili “ilm ehtirom” sharoitini yaratishni va quyidagi tarbiyaviy ishlarning tyutorning ishtirokidagi yo‘nalishlarini ajratish mumkin:

– ma’ruza kurslarining ilmiy-nazariy darajasini oshirish;

– taniqli olimlarni boshqa OTMlardan talabalar bilan uchrashuvlarga, ayrim ma’ruzalarni, maxsus kurslarni o‘qishga taklif qilish;

– talabalar referati tanlovini tanlov haqida tegishli rejasini ishlab chiqqan holda o‘tkazish;

– fan olimpiadalarini tashkil qilish;

– ilmiy to‘garaklarning sonini ko‘paytirish.

3. Iqtidorli talabalarni o‘z vaqtida aniqlab qo‘llab-quvvatlash tamoyili tavsiya qiladi:

– test natijalarga ko‘ra, yuqori ball to‘plagan birinchi kurs talabalariga alohida e’tibor qaratish;

– kollejlar va litseylarni imtiyozli diplom bilan bitiruvchilarini o‘zlarining ko‘nikmalarini kelgusida yanada rivojlantirishlari uchun sharoitlar yaratish;

– talabalarning o‘z malakalarini yanada rivojlantirishlari uchun rag‘batlantirish.

4. Tarbiya ishlarini axborotlar bilan ta’minlash tamoyili uning natijalarining oydinligi bilan aniqlanadi. Shunga bog‘liq holda axborotlar bilan ta’minlash tamoyili devoriy nashrlarni yaratishdan, talabalar hayotining yangiliklarini muntazam yoritib borishdan, talabalar axborot peshtaxtasini tuzishdan tashkil topadi.

5. OTM ichki muhitini estetik to‘ldirish tamoyili taqoza qiladi:

– auditoriya intereri masalasini talabalarni ularni rasmiylashtirishga faol jalb qilgan holda muhakoma qilish;

– talabalar guruhiga biriktirilgan auditoriyani eng yaxshi rasmiylashtirish tanlovlarini o‘tkazish.

6. Faoliyat yondashishi tamoyili psixologiyaning asosiy tamoyilidan hisoblanib, unga muvofiq faoliyatda nafaqat shaxsni namoyon qilish, balki u xususiy faoliyati davomida shakllanishini ta’minlaydi. Mazkur tamoyil tarbiya ishlarini quyidagi yo‘nalishlarda tashkil qilishni taqoza qiladi:

– talabalar o‘zini-o‘zini boshqarishning (guruh sardorlari, ijtimoiy tartib-intozomni saqlashda) OTMda rolini oshirish;

– “Agar men dekan bo‘lsam, …” tavsiyalari tanlovini o‘tkazish;

– to‘liq talabalar o‘zni-o‘zi boshqarish kunlari (haftasi) o‘qituvchilar va talabalarni tegishli tarzda tayyorlagan holda o‘tkazish;

– talabalarning jamoat ishlari bilan shug‘ullanish motivatsiyasini rivojlantirish;

– talabalar faollarining shahar va boshqa darajadagi deputatlar, yuristlar bilan talabalar hayoti va kelgusi professonal faoliyatini huquqiy ta’minlash muammolari bo‘yicha uchrashuvlar tashkil qilish.

Har bir tyutor o‘ziga biriktilgan akademik guruhlarning darslarini, talaba davomatini va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish, talabalarga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish, TTJga joylashishi uchun e’lon berish va bu boradagi komissiya yig‘ilishida talabaning ishtirokini ta’minlash, talabaga tavsifnoma va akademik ta’til berish masalasini hal qilishda ishtirok etish, ularni rag‘batlantirilishi yoki jazolanishi, turli stipendiyalarga tavsiya qilishda xulosa va fikrnoma berish huquqiga ega.

Shuningdek, har bir tyutor talabalarning sha’ni va qadr-qimmatini, obro‘sini hurmat qilish, ularning jismoniy, ruhiy va psixologik holatidan muntazam xabardor bo‘lish, o‘quv, ma’naviy va ilmiy faoliyatini monitoring qilib borish, yigit-qizlarning darslarda ishtirokini nazorat qilish, yoshlarning ota-onalari va o‘zi bilan doimiy muloqot qilib borishga majburdir.

Shunday qilib, tyutorlik uzluksiz davom etadi. Bu esa birinchi kurs talabalari uchun zarurdir. Shuning uchun ushbu jarayonlarni tashkil qilish metodlari uzluksiz takomillashtirilishi kerak. Mana shunday jarayonlarda yangi g‘oyalar orqali o‘z tajriba, bilimlarini, ko‘nikmalarni jalb qilishi zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беркутова Д. И., Громова Е. М., Горшкова Т. А. Становление профессиональной идентичности как фактор проектирования карьерной стратегии современного студента вуза // Самарский научный вестник. 2018. Т. 7. № 4 (25). – С. 299-304.

2. Виноградова М. В. Вопросы воспитания молодежи в поликультурной среде аграрного вуза // В сборнике: Проблемы формирования ценностных ориентиров в воспитании сельской молодежи/ Сборник материалов Международной научно-практической конференции. 2014. – С. 16-18.

3. Кон И.С. Социологическая психология. – Воронеж: МОДЭК, 1999. – С. 36.

4. Малиева З. К. Организационно-педагогические условия пропедевтики и снятия морально отчуждения студентов // Вестник Воронежского государственного университета. Серия “Проблемы высшего образования”. – 2012. – №1. – С. 95-99.

Bahodir MA'MUROV,
Buxoro davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA OLIY TA'LIM DASTURLARINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida oliy ta'limni tashkil etishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish,kadrlar tayyorlash tuzilmasi va uning pedagogik shartlari, o'zgaruvchanligi, uzluksizligini ta'minlash hamda olingan natijalarga qo'yiladigan talablarni asoslash algoritmini ishlab chiqish vazifalari belgilandi. Oliy ta'limning ta'lim dasturlari sohani rivojlantirishning strategik vazifalari va milliy malaka tizimi bilan bog'liq holda hal qilinadi, shunga asosan jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlashning aniq tashkiliy-pedagogik vazifalari va amalga oshirish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Oliy ta'lim, jismoniy tarbiya va sport, optimallashtirish, ta'lim yo'nalishi, mutaxassislik, ta'lim dasturlari, malaka talablari, tashkiliy-pedagogik shartlar.

В статье рассмотрена задачи совершенствования современных механизмов организации высшего образования в сфере физической культуры и спорта, обеспечения структуры подготовки кадров и ее педагогических условий, вариативности, преемственности, а также разработка алгоритма обоснования определены требования к полученным результатам. Образовательные программы высшей школы решаются в связи со стратегическими задачами развития отрасли и национальной системы квалификации, исходя из этого, конкретными организационно-педагогическими задачами подготовки кадров в области физической культуры и спорта и способами реализации анализируются.

Ключевые слова: Высшее образование, физическая культура и спорт, оптимизация, образовательное направление, специальность, образовательные программы, квалификационные требования, организационно-педагогические условия.

The article considers the tasks of improving modern mechanisms for organizing higher education in the field of physical culture and sports, providing the structure of training and its pedagogical conditions, variability, continuity, as well as the development of a justification algorithm, the requirements for the results obtained are determined. Educational programs of higher education are solved in connection with the strategic objectives of the development of the industry and the national qualification system, on this basis, specific organizational and pedagogical tasks of training personnel in the field of physical culture and sports and methods of implementation are analyzed.

Key words. Higher education, physical culture and sports, optimization, educational direction, specialty, educational programs, qualification requirements, organizational and pedagogical conditions.

Oliy ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlari, malaka talablariga (kompetensiyaviy ta'lim) asoslangan ikki bosqichli ta'limga o'tish tendensiyasi jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurishiga olib keldi, bu boradagi bahs-munozaralar bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yoq.

Oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom

turmush tarzini targ‘ib qilish, imkoniyati cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash, soha yo‘nalishida oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish borasida zamonaviy ta’lim dasturlarining amaliy ijrosini ta’minlashning izchil chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog‘lig‘ini mustahkamlashga ko‘maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog‘lom shaxs tarbiyalash maqsadida quyidagilar jismoniy tarbiya va sport tizimini isloh qilishning 2025-yilgacha asosiy yo‘nalishlari etib belgilangan:

– jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanayotgan aholining umumiy sonini 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug‘ullanayotgan yoshlarning umumiy sonini 20 foizgacha oshirish;

– davlat sport ta’limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibi, xususan oliy ma’lumotli xodimlar sonini bosqichma-bosqich 80 foizgacha yetkazish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924 son Farmoniga ko‘ra – Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish, O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini 2025-yilgacha rivojlantirishda mamlakat aholisining salomatlik darajasini yaxshilashga erishish; jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholining umumiy soni 30 foizgacha, o‘quvchi va talabalarning umumiy soni 20 foizgacha oshirish; oliy ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablari sport inshootlaridan foydalanish samaradorligi 60 foizgacha oshirish; sport ta’limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibi, xususan oliy ma’lumotli xodimlar soni bosqichma-bosqich 51 foizdan 80 foizgacha yetkazish nazarda tutilgan.

Bugungi kunda yuqoridagi vazifalarni hal qilish joriy kasbiy ta’lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida bakalavriat, magistratura va doktorantura ta’lim dasturlarining yangi modellarini ishlab chiqish va amalda qo‘llash, ta’lim dasturlari mazmunini iqtisodiy rivojlanish, mehnat bozorining prognozi, ish beruvchining talablariga muvofiq qayta ko‘rib chiqish talab etiladi.

Buxoro davlat universitetning jismoniy madaniyat va sport sohasini takomillashtirish dasturida oliy ta’limning sportning bir qator yo‘nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish yo‘nalishlari va resurslarini ishlab chiqish jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Oliy ta’lim sifatiga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiq jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sohasidagi vazifalarni yuqori darajada bajarishga qodir malakali kadrlar tayyorlash, o‘quv va ilmiy loyihalarni amalga oshirish, ta’lim va ilmiy izlanishlar jarayoniga mutaxassislarni keng jalb etish maqsadida zamonaviy ta’lim texnologiyalariga asoslangan o‘quv jarayonini joriy qilish, jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimi hamda ochiq axborot-ta’lim muhitida xorijiy ilg‘or tajribalarga asoslangan zamonaviy fanlarni o‘qitishni rejalashtirish talab etiladi.

Hozirgi kunda BuxDU jismoniy madaniyat fakulteti tasarrufida 2021-2022- o‘quv yili holatida quyidagi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim dasturlari amalga oshirilmoqda: 1.Ta’lim yo‘nalishi: 60310900 – Psixologiya (sport). 2. 61010300-Sport faoliyati: (faoliyat turlari bo‘yicha).

2022-2023-o‘quv yilidan boshlab 71010303 – “Adaptiv sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport” ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha salohiyatli kadrlarni tayyorlashning ta’lim dasturlari (fan katalogi, o‘quv reja, o‘qitiladigan majburiy

va tanlov fanlari dasturi) ishlab chiqilgan. Fakultet professor o‘qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati jarayoni bilan uyg‘unlikda malakali kadrlarni zamonaviy tayyorlashning zamonaviy tashkiliy-pedagogik muhitini yaratish mumkin. Akademik erkinlikka asoslangan ta’lim va tarbiya samaradorligi, ilmiy faoliyatning sifati ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassis kadrlarni tayyorlashning zamonaviy shart-sharoitlarini tashkil etishni taqozo etadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida kutilayotgan har qanday innovatsion, ilmiy-texnologik taraqqiyot, bitiruvchi kadrlar salohiyati, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarda rejalashtirilayotgan yangi fan yo‘nalishlarining majmuaviy (diagnostik) nazorat va korreksion faoliyat mazmundorligi bilan bog‘liq. Innovatsion yo‘nalishda yaratiladigan har qanday ishlanma sohaning ilmiy-metodik, boshqaruv, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va sport trenerlar uchun faoliyat dasturi bo‘lib xizmat qiladi. Muammo shundaki, trenerlar va boshqa mutaxassislar tomonidan qaysidir ko‘rsatkichni baholashda (misol, sprinter yuguruvchilarning chidamligi, bokschilar harakatining texnik samaradorligi) bir xil yondashuvni ta’minlashdan iborat. Shu bilan birga turli sport turlari xususiyatlaridan kelib chiqib maxsus jismoniy, texnik, taktik, psixologik test nazoratlarini ishlab chiqish va sport tayyorgarligi amaliyotiga joriy etish dolzarb muammo bo‘lib hisoblanadi. Kam ishonchlikka ega diagnostik nazorat testlari – sportchining holatini noto‘g‘ri baholashga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, yuklamani rejalashtirish asosi sifatida e’tiborga olinsa, jiddiy adashishlarga yo‘l qo‘yiladi. Shu sababli, axborotligiga ko‘ra amalda qo‘llaniladigan diagnostik testlarning ishonchlilik darajasini ilmiy tekshirish bilan korreksion faoliyatni ilmiy tashkil etish jismoniy tarbiya va sport sohasida oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash siyosatining ustuvor vazifalari bo‘lib hisoblanadi.

Shu bilan birga, fakultetda ilmiy faoliyat, yangi ta’lim yo‘nalish va mutaxassislik o‘quv rejalari fanlarini o‘qitish jarayonini mazmunan (laboratoriya mashg‘ulotlari salmog‘ini oshirish) boyitish, jamiyatimizda jismoniy tarbiya va sportning xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish maqsadida fakultet huzurida “Jismoniy tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi” ilmiy markazni tashkil etish va maxsus o‘quv jihozlari bilan ta’minlash maqsadida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Jismoniy madaniyat va sport tayyorgarligi tizimini rivojlantirishga doir diagnostik texnologiyalar hamda korreksion faoliyatning ilmiy-pedagogik ishlanmalarni qo‘llash asosida sohada fundamental hamda eksperimental ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish.
2. Diagnostik va korreksion texnologiyalarni amalga oshirish doirasida hamkorlikdagi ilmiy-ta’limiy loyihalar, ilmiy tadqiqotlar hamda eksperimental ishlanmalarni tayyorlash.
3. Turdosh oliy ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun sohaning diagnostik va korreksion ta’lim jarayoniga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini yaratish va metodik asoslarini ishlab chiqish.

Fakultetda talaba yoshlar, professor-o‘qituvchilarning ilmiy faoliyat natijadorligi, yangi fanlarni rejalashtirish, zamonaviy o‘lchov vositalariga asoslangan amaliy-ko‘rgazmali o‘qitish tajribalarini qo‘llash orqali erishiladi hamda rejalashtirilayotgan ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarning malaka talablari, o‘quv rejalari, o‘qitiladigan integral fan kataloglari, ta’lim dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar, shu jumladan, audio, video va elektron darsliklar, onlayn darslar, ilmiy seminar hamda boshqa turdagi ilmiy-metodik materiallar ishlab chiqiladi.

Ilmiy faoliyatning asosiy shakllari talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari – tajribali mutaxassis rahbarligida yakka yoki ilmiy guruhlar tarkibida bajariladigan tadqiqot ishlari,

shuningdek, kafedralar tashabbusi bilan o‘tkaziladigan hududiy, Respublika va Xalqaro miqyosdagi konferensiyalarning muammo doirasida oliy kasbiy tayyogarlik tizimining erishilgan yutuqlari, mavjud muammo va yechimlarini ommalashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitasiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog‘ligini mustahkamlashga ko‘maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo‘yicha yuqori natijalarni ta’minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenerlar uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud.

Bugungi kunda eng yangi asbob-uskunalar bilan jihozlangan zamonaviy ilmiy-amaliy baza sohani rivojlantirish muammolarini samarali hal etish imkonini bermoqda jismoniy tarbiya va sport, ta’lim sifatini oshirish mumkin.

Faqat yetarli moddiy-texnik va ilmiy markaz bazasining mavjudligi ilmiy va ta’lim faoliyati integratsiyasini, tashkiliy-pedagogik imkoniyatini ta’minlash talabalarning ilmiy va amaliy mashg‘ulot mazmunini yangilash, birinchi navbatda real sharoitda, ilmiy va pedagogik xodimlar tomonidan amaliy tadqiqotlar va eksperimental asoslangan ta’lim resurslarini amalga oshirish mumkin. Shu o‘rinda aytish, joizki professor-o‘qituvchilarning kelgusi o‘quv yilida pedagogik yuklamalarning hajmini oshirish nazarda tutilishi sabab-li universitetda joriy etilgan “Uniwork” elektron tizimining reyting turlari va ballarini har o‘quv yilida, xususan kredit- modul tizimida o‘quv yuklamalarni sohani istiqbol rivojlantirish talablari va vazifalariga muvofiq qayta ko‘rib chiqish orqali kadrlar tayy-orlash tizimini modernizatsiya qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni //O‘RQ-637-son 23.09.2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yil-larga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni https://lex.uz/pdfs/5841063

3. Pedagogik texnologiya: Darslik/ O’.Q.Tolipv, M. H. Hasanov, B. B.Ma’murov, I. E. Davronov. – Buxoro. “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2021.–220-b.

Eldor O‘RINBOYEV,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti katta o‘qituvchisi

TAYANCH-HARAKAT APPARATI SHIKASTLANGAN TALABALARNING SPORT MASHG‘ULOTLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning sport mashg‘ulotlaridan nafas olish jarayonini tartibga solish orqali jismoniy rivojlanishi va harakat faolligini takomillashtirish imkoniyatlariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Asosiy harakat koordinatsiyasi, epchillik, aniqlik, muvozanat, moslashuvchanlik, harakatchanlik, sakrash qobiliyati, aniqlik, ritm, plastiklik, tasnif.

В данной статье основное внимание уделяется возможностям студентов с травмами опорно-двигательного аппарата с помощью спорта улучшить свое физическое развитие и двигательную активность за счет регуляции дыхательного процесса.

Ключевые слова. Базовые двигательныекоординации, ловкость, точность, равновесие, гибкость, подвижность, прыгучесть, меткость, ритмичность, пластичность, классификация.

This article focuses on the ability of students with injuries of the musculoskeletal system with help of sports improve their physical development and motor activity through the regulation of the respiratory process.

Key words. Basic motor coordination, dexterity, accuracy, balance, flexibility, mobility, jumping ability, accuracy, rhythm, plasticity, classification.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish va ommaviylashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Yosh avlodning ijobiy va intelektual salohiyatini oshirish va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5368-son Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarorida balgilangan vazifalarni amalga oshirishda jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shahslarga sport bilan shug‘ullanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash va davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash, mutaxassislarni oldiga yanada yangi talablar qo‘yadi.

Bugungi kungacha o‘tkazilgan tadqiqot ishlarida tayanch-harakat apparati shikastlangan sportchi talabalarning sport mashg‘ulotlarida nafas olish tizimi tartibga solish masalasi o‘rganilmaganligi va sportchilarga sport xususiyatidan kelib chiqib nafas

mashg‘ulot usullarini o‘rgatish, sportda yutuqqa erishish imkoniyatini oshirishga yordam beradi.

Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning sport mashg‘ulotlarida sporchi qanday harakat yoki harakatlar (sifatlar, ko‘nikma malakalari)ni ijro etmasin, shu harakatlarning hajmi shiddati organizmning funksional zaxirasi va bioenergetik imkoniyatlari bilan belgilanishi isbot talab qilmaydi. Shuni ham e’tirof etish joizki, sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab muntazam o‘tkaziladigan mashg‘ulot yuklamalari sekin-asta organizmning funksional ixtisoslashuviga olib keladi. Ko‘pchilik mutaxasis-olimlarning fikriga ko‘ra, sportchilarda ish qobiliyatini oshirish yurak qon tomir va nafas olish organlarining funksional imkoniyati bilan belgilanar ekan. Nafasni tutib turish sinovi organizmning kislorod bilan ta’minlanganligi hamda mashqlanganlikning umumiy darajasi haqida ma’lumot beradi. U ikki xil variantda o‘tkaziladi; nafas olgach uni tutib turish (Gench sinovi) hamda nafasni chiqargach, boshqa nafas olmay turish (Shtange sinovi). Nafasni tutib turish uchun sarflangan vaqt (sek.da) va YuQS reaksiyasining ko‘rsatkichi asosida baholanadi. YuQSni topish uchun sinov tugaganidan so‘ng aniqlangan YuQS qiymatining dastlabki yurak urishi sur’atiga nisbatini olish zarur. Nafas olgach, uni tutib turish quyidagicha bajariladi. Sinov boshlanguncha (30 sek avval) tadqiqotchi ikki marta tekshiriluvchining yurak urishini o‘lchaydi. Maksimal nafas olish chog‘ida, to‘la nafas olish chuqurligining 3/4 qismida havo almashinishi yuz bergandan so‘ng, nafas tutib turiladi. Burunga qisqich taqiladi. Tutib turish muddati sekundomer yordamida qayd etiladi. Nafas olish izga tushib ketganidan keyin yurak urishi hisoblanadi. Sinov 2 bor 3-5 daqiqalik tanaffus bilan o‘tkazilishi mumkin. Davomiyligiga qarab nafasni tutib turish quyidagicha baholanadi;

20-35 sek.dan kam – qoniqarsiz

35-40 sek. – qoniqarli

45 sek dan yuqori – yaxshi

Tadqiqotimiz tayanch – harakat apparati shikastlangan talabalarda o‘tkazildi.

Jadval

Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarda

Genche sinovi o‘tkazildi

n-16

№	Sinaluvchi t.r.	Genche sinovi nafasni saqlab turish vaqti, s	Norma, s	
Mushaklarning past tarangligi (bel-oyoq nogironlik aravachasida)				
1	E.Q	45	45	yaxshi
Qo‘l yoki oyoq bo‘g‘imlarida harakatlar hajmining cheklanishi Oyoq-qo‘l nerv nozologiyasi				
2	P.J	47	45	yaxshi
3	U.G	29	45	qoniqarsiz
4	A.N	52	45	yaxshi
Qo‘l yoki oyoqlarning kaltalanishi (Qo‘l-oyoq nozologiyasi)				
5	A.Sh	35	45	qoniqarsiz
6	A.U	35	45	qoniqarsiz

7	Yo.V	36	45	qoniqarli
8	Y.T	52	45	yaxshi
4. Oyoq uzunligidagi farq (Bir oyoq nozologiyasi)				
9	X.N	35	45	qoniqarli
10	A.U	45	45	yaxshi
11	E.M	40	45	qoniqarli
12	A.F	40	45	qoniqarli
Mushaklarning yuqori tarangligi (gipertoniya) DSP nozologiyasi				
13	O.J	52	45	yaxshi
14	I.N	38	45	qoniqarli
Ko‘z nozologiyasi				
15	T.U	30	45	qoniqarsiz
16	I.A	36	45	qoniqarli

Tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarning
Shtange sinovi o‘tkazildi
1-7 sekundni – qoniqarsiz
8-15 sekundni – qonikarli
20-30 sekundni –yaxshi
n-16

№	Sinaluvchi t.r.	Genche sinovi nafasni saqlab turish vaqti, s	Norma, s	
Mushaklarning past tarangligi (bel-oyoq nogironlik aravachasida)				
1	E.Q	10	30	yaxshi
Qo‘l yoki oyoq bo‘g‘imlarida harakatlar hajmining cheklanishi Oyoq-qo‘l nerv nozologiyasi				
2	P.J	10	30	qoniqarli
3	U.G	10	30	qoniqarli
4	A. N	18	30	yaxshi
Qo‘l yoki oyoqlarning kaltalanishi (Qo‘l-oyoq nozologiyasi)				
5	A.Sh	15	30	qoniqarli
6	A.U	14	30	qoniqarli
7	Yo.V	18	30	yaxshi
8	Y.T	18	30	yaxshi
Oyoq uzunligidagi farq (Bir oyoq nozologiyasi)				
X.N	15.8	30	yaxshi	qoniqarli
A.U	10	30	qoniqarli	yaxshi

E.M	16	30	yaxshi	qoniqarli
A.F	15	30	qoniqarli	qoniqarli
Mushaklarning yuqori tarangligi (gipertoniya) DSP nozologiyasi				
13	O.J	22	30	yaxshi
14	I.N	15	30	qoniqarli
Ko‘z nozologiyasi				
15	T.U	22	30	yaxshi
16	I.A	16	30	qoniqarli

Tadqiqot Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligida tahsil olayotgan turli xil tayanch-harakat apparati shikastlangan nozologiyasi bor guruh talabalarining 16 nafarida olib borildi. Gench testi, Shtange testi nafasni saqlab turish vaqti va nafasni chiqarib saqlab turish natijalari tahlil qilinganda sportchi talabalarning nafas harakati ulardagi mashg‘ulotlarga tez moslasha olish jarayonini yaxshilashga va ularning ish faoliyatini oshirishga yordam beradi. Biz tomonimizdan o‘tkazilgan tatqiqotda sport bilan shug‘ullantirish va harakat faollini oshirish orqali ijtimoiy muhit sharoitlariga moslashish jarayonlarini tezlashtiradi. Yuqorida ko‘rsatilgan 1-2 jadvaldagi qoniqarli hamda qoniqarsiz ko‘rsatkich bizni dastur ishlab chiqishga va mashqlar majmuasini ishlab chiqishga imkon yaratdi.

Dasturdagi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlaridagi maxsus jismoniy nafas olish mashqlari tajriba guruhi sportchilarda nafas olish tizimini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik tadqiqot davrida tajriba guruhidagi sportchilar nafas olib ushlab turish va nafas chiqarib ushlab turish statik mashqlarni bajarish faoliyati ahamiyatli darajada yaxshilandi. Nazorat sinovlarining barcha turlari bo‘yicha tajriba guruh talabalari nazorat guruh talabalariga qaraganda muhimlikning yuqoriroq darajasiga ega bo‘lgan statistik jihatdan ishonchli, yorqin ifodalangan o‘zgarishlar kuzatildi.

Jismoniy rivojlanishni baholash – tayanch-harakat apparati shikastlangan talabalarda tana vaznining ortishi, tana uzunligi hamda Genchi va Shtange ko‘rsatkichlarining o‘rtacha matematik statistik tahlil qilindi va tadqiqotdan oldin va tadqiqotdan keyingi natijalari solishtirildi bu organizmning potensial imkoniyatlari, uning moslashuvchan zaxiralari obyektiv xususiyatlarining eng muhim jihati. 3-jadvalda tajriba hamda nazorat guruhning tekshirilgan talabalarining jismoniy rivojlanishini o‘rganish natijalari keltirilgan.

(n =16)

Sinaluvchilar	Tana uzunligi, sm	Tana vazni, kg	Genche Sinovi	Shtange sinovi
Tadqiqotdan oldin	167,5 ± 9.72	62,9 ± 11.34	40,5±6.60	14.9±3.41
Tadqiqotdan keyin	168.8±9.36	64.1±10.97	48,9±9.18	17.9±3.22

Shunday qilib, talabalar o‘rtasida tana vaznining o‘rtacha ko‘rsatkichlari tadqiqotdan oldin 62,9 ± 11.34kg, tadqiqotdan keyin 64.1± 10.97 ni tashkil etdi. Tananing o‘rtacha uzunligi tadqiqotdan oldin 167.5 ± 9.72 sm ga tadqiqotdan keyin 168.8±9.36 ga nafas

holatini aniqlash Genchi va Shtange ko‘rsatkichlarining o‘rtacha matematik statistik tahlil qilindi va tadqiqotdan oldin Genchi sinovi bo‘yicha 40,5±6.60, tadqiqotdan keyingi 48,9±9.18, Shtange sinovi bo‘yicha tadqiqotdan oldin 14.9±3.41 tadqiqotdan keyingi 17.9±3.22 o‘sganini ko‘rishimiz mumkin

Antropometrik ko‘rsatkichlarni (tana uzunligi, tana vazni) o‘sishining holatiga qarab shuni ta’kidlash kerakki, tekshirilayotgan talabalarning aksariyati uchun uyg‘un maxsus jismoniy mashqlar nafas olish tizimini yaxshilash bilan birga tananing harakat faolligini oshirishga erishish imkonini yaratdi. Ushbu ko‘rsatkichlarning maqbul nisbati mushak-skelet tizimi, yurak-qon tomir, nafas olish va organizmning boshqa tizimlarining maqbul ishlashini ta’minlaydi.

Har bir talaba pedagogning topshirig‘iga muvofiq tanlagan sport turi bo‘yicha, uni yuqori darajada egallash uchun mustaqil shug‘ullanishi kerak. Bunday mashg’ulotlar talabaning jismoniy, sport tayyorgarligini va sog‘ligini hisobga olib bajariladi. Sport guruhidagi talabalar uchun mustaqil mashqlar sportda yuqori natijalarga erishishlari uchun tayyorlanish mashqlari bo‘lib qoladi. Qolgan talabalar o‘quv dasturi bo‘yicha saboq olishlari kerak. O‘qishdan tashqari vaqtda talabalar gigiyenik gimnastika va atletik mashqlar bilan shug‘ullanishsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bularga yugurish, yurish va boshqa mashqlar kiradi. Gigiyenik gimnastika bilan sutkaning istagan vaqtida, ovqatlanishdan 1-2 soatdan so‘ng va uxlashdan 2-3 soat oldin shug‘ullanish tavsiya etiladi. O‘zbekiston sharoitida gigiyenik gimnastika mashqlarni ochiq havoda o‘tkazish ijobiy natijalar beradi.

Mashg‘ulotlar o‘pkalarni rivojlanishiga, ularning hajmini tiklashga, gaz almashinuvi jarayonlarini normallashtirishga, jarohatlangan to‘qimalarni va bronxlarni tezroq davolashga imkon beradi. Nafas olish tizimining to‘g‘ri ishlashini tiklash uchun maxsus mashqlar muhimdir.

Ularning foydasi har bir keyingi mushaklarning qisqarishi bilan o‘pkada kimyoviy jarayonlar rivojlanib, ular reflekslar darajasida nafas olish funksiyasini faollashtiradi. Mushaklar faolligi o‘pka to‘qimalarida shamollatish va gaz almashinuvini kuchaytiradi. Nafas olishni davolash gimnastikasi inson tanasiga quyidagi harakatlar tufayli foydalidir:

Biz tavsiya qilgan mashqlar:

1. Jismoniy mashqlar paytida to‘qima bir necha marta kislorod bilan to‘yingan, qon aylanishi yaxshilanadi, ishlaydigan kapillyarlar soni ko‘payadi.

2. Nafas olish mashqlarini bajarish paytida nafas olish jarayonlarining aniq mexanizmi va tuzilishi hosil bo‘ladi. U normallashadi, ritmik, chuqur va to‘g‘ri bo‘ladi.

3. Nafas olish mushaklari kuchayadi.

4. Magistral mushaklari bo‘shashadi. Ular siqilganda, nafas yetishmovchiligi paydo bo‘ladi.

5. Orqa miya va ko‘krak qafasidagi kasalliklarni bartaraf etishga yordam berish.

6. Qorin mushaklarini kuchaytirish.

Pnevmoniyadan keyin odam o‘z sog‘lig‘iga ko‘proq etibor berish kerak va dastlab minimal yuklarga yo‘l qo‘yiladi. Kompleks har doim nafas olish mashqlarini o‘z ichiga oladi, bu bronxni butunlay tozalaydi va nafasni normallashtiradi.

Shifokorlar quyidagi mashqlarni bajaradilar:

• bir tomonlama pnevmoniya bo‘lsa, zararlangan tomonda yotgan holda mashg‘ulot o‘tkazish tavsiya etiladi va bu mashqlar samaradorligini oshiradi;

• agar mashqlar yotoq dam olish bosqichida o‘tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lsa, ularni faqat 5 kunlik terapiyadan so‘ng boshlash mumkin;

• trening paytida siz yurak urishingizni kuzatishingiz kerak, normadan 10 marta ko‘paygan holda, darslardan voz kecheng;

• kuniga 3 marta gimnastika bilan 15 daqiqa davomida shug‘ullaning;

• nafas olish mashqlari shifokorning ruxsatidan keyin yurish bilan to‘ldirilishi mumkin;

• yukni ko‘paytirishga faqat bir hafta mashg‘ulotdan so‘ng ruxsat beriladi;

Agar o‘zingizni yomon his qilsangiz, gimnastikadan voz kechishingiz va bu haqida doktoringizga xabar berishingiz kerak.

Pnevmoniyani davolash va oldini olish uchun bir qator maxsus nafas olish mashqlari taklif etiladi, bunda bajarilish texnikasini kuzatish muhimdir:

1. Tozalash nafasi. Chuqur nafas oling, nafasingizni ushlab turing va asta-sekin havoni lablar orasidan siqib chiqaring, naychaga o‘ralgan holda, yonoqlaringizni ochmasdan.

2. Obstruksiya va hisoblash bilan nafas olish. Havoni buruningiz bilan 3 soniya ushlab turing, so‘ngra uni siqilgan lablar orqali chiqaring. Ekshalatsiyani 6 soniya davomida cho‘zing.

3. Ovozli nafas olish. Bu ekshalatsiyani uzaytirishni o‘rgatadi, faqat nafas olish mushaklaridan foydalanish kerak. Nafas oling va tebranayotganda tebranish va hushtak tovushlarini (Z, S, F, H, F, R, M, N) talaffuz qiling. Ush bu mashq bronxospazmni engillashtiradi.

4. Tilni burishtirish. Nafas olayotganda, chuqur nafas olingandan so‘ng, tilning qisqa burilishlari talaffuz qilinishi kerak.

Ushbu mashqlarni yotish paytida bajarish mumkin. Yarim to‘shakda dam olish uchun yanada murakkab sxemalar mavjud, ular chuqur nafas olish bilan to‘g‘ri nafas olishga asoslangan, ammo jismoniy faoliyat bilan birlashtirilgan. To‘g‘ri nafas olish va muntazam mashqlar bilan bemor nafaqat o‘pkaning shamollatilishini normallashtirib, reabilitatsiya jarayonini tezlashtiradi, balki umumiy salomatlikni yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi (2015-yil yangi tarixi) Qonuni.

2. Балсевич В. А. Онтокинезология человека – Теория и практика физической культуры 2000. – С. 300.

3. Лях В. И. Координационные способности: диагностика и развитие М: ТВТ Дивизион, 2006, – С.97

4. Salomov R. S. Sport mashqlarida qo‘llaniladigan usullar. T. Uzavtotranstexnika. 1991. 34-b.

Sabriddin SHARIPOV,
Bank – moliya akademiyasi magistratura talabasi

XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI
(O'zbekistonga investitsiyalar kiritilishi tahlillari asosida)

Annotatsiya

Mazkur maqolada investitsion faoliyatni takomillashtirish, uning o'sishini ta'minlovchi mexanizmlarini ishlab chiqish, investitsiya muhitini yaxshilash sohasida asosiy qadam xususiy va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Investitsiya, tashqi savdo, iqtisodiy o'sish, ko'rsatkichlar, statistika, moliya institutlari, shartnoma.

В статье подробно освещается вопросы совершенствования инвестиционной деятельности, разработка механизмов, обеспечивающих рост и улучшения инвестиционной среды. Описываются условия для привлечения частных и прямых иностранных инвестиций.

Ключевые слова. Инвестиции, внешняя торговля, экономический рост, показатели, статистика, финансовые институты, контракт

In this article, the main step in the field of improving foreign investment activity in the state economy, developing mechanisms to ensure its growth, and improving the environment for foreign investment are the conditions for attracting private and foreign direct investment, highlighted efforts to create.

Key words. Investments, foreign trade, economic growth, indicators, statistics, financial institutions, contract.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, buning uchun esa faol investitsion siyosat yuritishning o'rni juda muhimdir. Shunga ko'ra, respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishning samarali tizimini yaratish, ularning investitsion muhit jozibadorligi, salohiyatini baholashning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda va tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada jadallashtirishda milliy va xorijiy investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Investitsiya siyosati – bu iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, investitsiya jarayoniga o'tish, ustuvor investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida Investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

• qonuniylik;
• oshkoralik va ochiqlik;
• investitsiya faoliyatini amalga oshirish erkinligi;
• adolatlilik va investitsiya faoliyati subyektlarining tengligi;
• investorlarga nisbatan kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik;
• investorlarning vijdonliligi prezumpsiyasi.

Hozirgi bozor islohotlari yangi strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni optimallashtirish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida” gi qonunning 9-moddasiga ko‘ra, tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlaridan biri respublikaga chet el investitsiyalarini jalb qilish hisoblanadi. Prezidentimizning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida “Iqtisodiy o‘sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi” [1] - deb ta’kidlaganlar.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotiga 50 dan ortiq davlat investitsiya kiritayotgan bo‘lib, xususan, Xitoy (2,2 mlrd. doll.), Rossiya (2,1 mlrd. doll.), Germaniya (800,7 mln. doll.), Turkiya (1,18 mlrd. doll.) va Janubiy Koreya (137,4 mln. doll.) asosiy investor davlatlar hisoblanadi[2].

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Strategik rivojlanish agentligi joriy yilda 9 milliard 500 million dollardan ziyod to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarni o‘zlashtirish, 282 ta yirik va 9 mingdan ortiq hududiy loyihalar ishga tushirish mo‘ljallangan. Eksport hajmini 14 milliard dollarga yetkazish hisob-kitob qilingan.

2022-yilning yanvar-may oylari yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi $20,5 mlrdga yetib, 2021-yilning shu davriga nisbatan $5,6 mlrdga (o‘sish *37,4* foiz*)* oshdi.Tashqi savdo umumiy hajmida eksport ulushi $8,4 mlrdni (2021-yil yanvar-may oylarida o‘sish 145,5 foiz), import $12,2 mlrdni (o‘sish 132,3 foiz) tashkil etdi.

Mamlakatning tashqi savdo faoliyati bo‘yicha eng yirik 20 ta hamkorlari orasida 4 ta mamlakat bilan savdoda ijobiy natija kuzatilmoqda. Bular Afg‘oniston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkiya. Qolgan 16 mamlakatlar bilan tashqi savdo aylanmasining passiv balansi saqlanib qolmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi dunyoning 167 ta davlati bilan savdo munosabatlari o‘rnatgan. Tashqi savdo aylanmasining eng katta hajmi Xitoy (18,5 foiz), Rossiya (15,8 foiz), Qozog‘iston (8,5 foiz), Turkiya (7,0 foiz), Janubiy Koreya (5,3 foiz), Germaniya (2,4 foiz) va Qirg‘iziston (2,1 foiz) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng salmoqli ulush Toshkent shahriga to‘g‘ri keldi, uning hissasi 37,4 foiz yoki $7 672,3 mln.ni, eng kam ulush esa 0,9 foiz yoki $184,7 mln darajasida Surxondaryo viloyatida qayd etildi.[3]

O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport va aloqa sohasini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo‘nalishlarga aylandi.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyet-

[1] Prezidentimizning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy majlisga murojaatnomasidan
[2] Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, “Iqtisodiy sharh” jurnali №2/2022
[3] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

lari faoliyatiga aralashuvni cheklash, davlat boshqaruvini isloh qilish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-tamoyillarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta’minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, investorlarga soliq tizimida soddalashtirish siyosatini olib borish, soliq stavkalarini kamaytirish, byurokratiyani minimum darajaga tushirilishi, sog‘lom raqobat tizmini yo‘lga qo‘yishda jadal harakatlar olib borilmoqda. Ma’lumki, har bir investor kiritgan sarmoyasini vaqti kelib daromadini olishni istaydi. Bunda bank tizimidagi shaffoflik muhimdir. Bunda tashqari mahalliy tadbirkorlar bilan hamkorlikni mustahkam yo‘lga qo‘ya olish ham investition jozibadorlikni ta’minlaydi. 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturida: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining qiymati 50 mln AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi 50 foizdan kam bo‘lmagan investitsiya loyihalari doirasida ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini budjet mablag‘lari hamda moliyalashtirishning boshqa ichki manbalari hisobidan qurish tartibini mazkur investitsiya loyihalari quyidagi talablarga mos kelgan taqdirda qo‘llash to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilishi ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyuldagi farmoniga muvofiq, Strategik rivojlanish agentligi tashkil etilgan edi. Bu Agentlikka investitsiyalarni jalb etish va loyihalarni amalga oshirishning strategik masalalarini o‘rganish, investitsiya faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash, xalqaro tajriba asosida iqtisodiyot tarmoqlarini isloh qilish va hududlarning investitsiya salohiyatini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kabi ko‘plab vazifalar yuklatilgan. Bugungi kunda Agentlik boshqarmalari shakllantirilgan, ularga yetakchi xorijiy universitetlarda o‘qigan, tashabbuskor va bilimli mutaxassislar jamlangan.

Investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag‘batlantirish, sohalarni raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to‘siqlar va cheklovlarni to‘liq bartaraf etish, shaffoflikni maksimal darajada ta’minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va so‘rovlari bilan ishlashni tashkil etish, xorijiy investitsiyalarni O‘zbekistonning istiqbolli sohalariga yo‘naltirish eng muhim omillardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezidentimizning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy majlisga murojaatnomasi.
2. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, “Iqtisodiy sharh” jurnali №2/2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlari.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 09.01.2020 yildagi PQ-4563-son.

Gulruxsor ERGASHEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Biologiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.d.
Muxayyoxon USMONOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika universiteti, “Biologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

RESPUBLIKAMIZDA KASBGA YO‘NALTIRISH ISHLARINI UZVIY TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya

Ta’lim sohasidagi zamonaviy o‘zgarishlar sharoitida maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish sohasidagi yangiliklarni bevosita o‘qitish amaliyotiga joriy etish zarurati mavjud. Mazkur maqolada o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish tizimining bugungi muammolari, pedagogik-psixologik aspektlari, ularni amaliy hal etish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kasb, kasbga yo‘naltirish, kasb tanlash, maktab, o‘quvchi, qiziqish, motivatsiya, pedagogik-psixologik aspektlar.

В условиях современных изменений в образовании возникает необходимость внедрения инновации в области профориентации школьников в практику непосредственного обучения. В данной статье описаны актуальные проблемы системы профориентаци учеников, педагогико-психологические аспекты и пути их решения на практике.

Ключевые слова. Профессия, профориентация, выбор профессии, школа, ученик, интерес, мотивация, педагогический и психологический аспекты.

In the context of modern changes in education, there is a need to introduce innovations in the field of vocational guidance for schoolchildren into the practice of direct learning. This article describes the actual problems of the career guidance system for students, pedagogical and psychological aspects and ways to solve them in practice.

Key words. Profession, career guidance, choice of profession, school, student, interest, motivation, pedagogical and psychological aspects.

Dunyoda ro‘y berayotgan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, mehnat bozorining beqaror rivojlanishi, yangi kasblar va mutaxassisliklar paydo bo‘lishi, jamiyatda kadrlar kasbiy tayyorgarligiga talablarning o‘sishi maktab bitiruvchilaridan kelajakda kasb tanlashda alohida mas’uliyat va tayyorgarlik talab etadi. Ta’lim va kasbga yo‘naltirish xalqaro assotsiatsiyasi (IAEVG)ning ta’kidlashicha, to‘g‘ri tanlangan kasbiy faoliyat sohasi shaxsni garmonik shakllantirishga hissa qo‘shadi, uning ijodiy imkoniyatini amalga oshirish, shuningdek, ijtimoiy moslashishga yordam beradi.

Jahonda o‘quvchilarda kasb tanlashga intilishni shakllantirish, kasbga yo‘naltirishga maqsadli faoliyatni tashkil etish, o‘quvchilarga kasbiy o‘z-o‘zini aniqlashda shaxsiy moyilliklari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ijtimoiy ehtiyojlariga muvofiq yordam ko‘rsatish, kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maslahat markazlari faoliyatini rivojlantirish sohasida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ammo, hozirgi vaqtda maktabda o‘qituvchilar va o‘quvchilarning haddan tashqari o‘quv yuklamalarining ko‘pligi va boshqa sabab tufayli maktablarda

kasbga yo‘naltirish ishlari talab darajasida emas, shu bois ko‘proq o‘quvchilarga fanlarni o‘qitishda kasbga yo‘naltirish metodikasini takomillashtirishni taqozo etadi.

Respublikamizda milliy ta’limni modernizasiya qilish, o‘zgargan ijtimoiy-iqtisodiy muhitning yangi raqobat sharoitida kasbga yo‘naltirish ishlarini samarali tashkil etish, uzluksiz ta’limda kasb-hunarga yo‘naltirish samaradorligini oshirish, egallanadigan kasb va mutaxassislik bo‘yicha “professional ta’lim[1]’’ darajalarini amalga oshirish, psixologik-pedagogik tashxisning ahamiyatini orttirish sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, “professional ta’lim’’ dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg‘unlashmaganligi, o‘quv jarayoniga O‘zbekistonning Milliy kvalifikasiya tizimi to‘laqonli joriy etilmaganligi, tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o‘rin egallashlariga to‘sqinlik qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirish ishlarini, samarali metodikalarini ishlab chiqish, bu jarayonda biologiya fani o‘qituvchilarini kasbga yo‘natirish sohasida metodik tayyorgarligini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda yosh avlodning har tomonlama barkamol ulg‘ayishi, zamonaviy kasbiy bilimlarni puxta egallashi, iste’dod va salohiyatini namoyon etishi uchun barcha sharoit yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ‘‘Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’ qarori bu borada muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. “Zero, o‘g‘il-qizlarimizni kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha chuqur o‘qitish hududlarda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan farmasevtika, neft, gaz, kimyo, tog‘-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turtki beradi hamda pirovardida xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi”.

Umumta’lim maktablaridan boshlab yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirishda bu muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, respublikamizda qabul qilingan “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida professional ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida 2020/2021-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston Respublikasida Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etish vazifasini qo‘ydi.

Kasbga yo‘naltirish – bu turli sohadagi bilimlarga ta’sir qiladigan murakkab muammo.

Pedagoglar kasbga yo‘naltirishni “... o‘quvchilarni kasbni erkin ongli ravishda tanlashga tayyorlashning ilmiy va amaliy tizimi” yoki ’’.. shaxsiy qobiliyatlari, jamiyat ehtiyojlari va bir biriga mosligi asosida yosh avlodda kasbiy qiziqish va moyillikni shakllantirish bilan bog‘liq maqsadli faoliyat” deb ta’riflaydi.

Psixologiyada kasbga yo‘naltirish psixologik jarayon sifatida talqin etiladi.

Sotsiologiya va iqtisodiyot nuqtai nazaridan “kasbga yo‘naltirish bu jamiyat va uning a’zolari o‘rtasidagi ixtisoslashtirilgan ishchi kuchini shakllantirish bo‘yicha undagi ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning to‘plamidir.

[1]Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni. O‘RQ-637-son 23.09.2020 y. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

Kasbga yo‘naltirish – bu yosh avlodni kasb tanlashga tayyorlash va o‘quvchilarning kasbga yo‘naltirishni shakllantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik va tibbiy-fiziologik vazifalarni hal qilish uchun mas’ul bo‘lgan davlat muassasalarining har bir shaxsning individual xususiyatlariga mos keladigan ilmiy va amaliy faoliyatining ko‘p o‘lchovli, ajralmas tizimi, jamiyatning yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini yoritadi.

Ye. Pryajnikovaning fikriga ko‘ra: “Bugungi kunda, avvalo, yoshlarning kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi belgilashini qo‘llab-quvvatlashning yaxlit, yagona psixologik-pedagogik (tashkiliy-pedagogik) dasturini yaratish zarur. Mehnat bozoridagi tendensiyalar to‘g‘risida dolzarb ma’lumotlarni olish va ushbu ma’lumotlarni maktab o‘quvchilariga yetkazish, nafaqat ta’lim berish, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatning turli sohalarida o‘zlarini sinab ko‘rish imkoniyatini yaratish uchun turli davlat idoralarini, aniq tashkilotlarni va korxonalarni o‘zaro hamkorlikka jalb qilish zarur. Shuningdek, yangi metodikalarni joriy etish kerak, masalan, kasbga yo‘naltirish ishlarida faollashtiruvchi o‘yin texnologiyalaridan foydalanish”.

O‘quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash uzoq va ko‘p qirrali jarayondir. A. E. Izmailov kasbni to‘g‘ri tanlashni axloqiy fazilatlarni shakllantirish va fan asoslari bo‘yicha o‘quvchilar bilimlarini rivojlantirish darajasini oshirishning zarur shartlaridan biri deb hisoblaydi.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish nuqtayi nazaridan tushuncha mohiyatini aniqlashda asosiy e’tibor avvalo, ta’lim berish va tarbiyalash jarayonida shaxsning muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi.

Kasbiy yo‘naltirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarni nafaqat ma’lum bir kasbiy tanlovni qo‘llab-quvvatlash sifatida, balki bir qator o‘ziga xos kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus ta’lim faoliyati sifatida ko‘rib chiqishga ham e’tibor qaratish lozim.

Zamonaviy maktabda kasbga yo‘naltirish ishlarining asosiy g‘oyasi, boshqa tomondan, shaxsiy xususiyatlar, qobiliyatlar, qadriyatlar va qiziqishlarni hisobga olgan holda, o‘quvchilarning ijtimoiy-kasbiy o‘zini o‘zi belgilashini ijtimoiy-pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlashni yaratishdir.

Bizning talqinimizcha, kasbga yo‘naltirish ishlarining maqsadi – o‘quvchiga faoliyat sohasini tanlashda, o‘sha sohada esa uning qobiliyat va imkoniyatlariga javob bera oladigan kasbni tanlashda ko‘maklashish hamda kasbga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqini oshirishida yordam ko‘rsatishdan iborat. Boshqacha so‘z bilan aytganda, kasbga yo‘naltirish – bu ma’lum bir maqsadga qaratilgan faoliyat bo‘lib, jamiyat ehtiyojlari, o‘quvchilarning ishtiyoqi, kasbiy qiziqishlarni shakllantirish bilan bog‘liqdir.

Ko‘p hollarda ma’lum bir kasbni tanlash yo‘li o‘quvchilarning o‘quv fanlariga qiziqishini rivojlantirish orqali o‘tadi. Biologiyaga qiziqish birinchi navbatda ushbu fanning amaliy ahamiyati bilan bog‘liq. Va kasbiy qiziqish uyg‘onishining asosiy usullaridan biri bu ajoyib yorqin o‘qitishdir. Biologiyani sevib qolgan o‘quvchilar uni kelajakdagi kasblarining asosiga aylantirmoqchi bo‘lib, u yerda ushbu fanlarga oid qaysi mutaxassisliklar borligini aniqlay boshlaydi va tegishli o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishga tayyorlanadi. Qoida tariqasida, bu, avvalambor, ushbu fanni katta ishtiyoq va faollik bilan o‘rganishlarida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, o‘qitish jarayonida kasbga yo‘naltirish ishining mohiyati o‘quvchilarga asosiy o‘quv materialini chuqur va qat’iy o‘zlashtirishda yordam berish, ularni mustaqil ravishda ma’lumot olishga, olingan bilimlardan turli xil amaliy muammolarni hal qilishda foydalanishga o‘rgatishdir.

Sh. S. Sharipov o‘z tadqiqotlarida talaba shaxsining kasbiy-ijodiy rivojlantirishning pedagogik sharoitlarini, kreativ ijodkorlik xususiyatlarini tadqiq etgan.

Sh. S. Sharipov, K. Davlatov, G. S. Nasriddinovalar kasbga yo‘naltirishning ilmiy-pedagogik asoslarini tadqiq etgan hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishga muvaffaqiyatli rahbarlik qilish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

I. N. Aslonov o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining hamkorligi yo‘nalishida olib borilayotgan chora-tadbirlarning pedagogik-psixologik ahamiyati, ushbu ishlarni olib borishda umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, kasb tanlash, o‘quvchi shaxsining kelajakda malakali mutaxassis bo‘lib yetishishi, undagi tegishli ijtimoiy va kasbiy sifatlarning shakllanishiga zamin yaratadigan uslublarini bayon etgan.

Lan Yang va Lawrence, P.W.Wonglar oxirgi qirq yilda Gongkongda kasbga yo‘naltirishning rivojlanganlik darajasini tizimli o‘rganish, Ya-konsepsiyasi nazariyasi va uning turli yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash hamda o‘quvchilarning o‘z karyerasini baholash bo‘yicha ko‘p o‘lchovli modelini tavsiya etadi .

Bunday vaziyatda, tabiiyki, o‘qituvchilar oldida ta’lim jarayoni bilan uzviy bog‘liq ravishda kasb-hunarga yo‘naltirishga oid materiallarini fan asoslariga organik ravishda singdirish vazifasi qo‘yiladi. O‘quv jarayoni va kasbga yo‘naltirish o‘quvchilarni nafaqat turli kasblar bilan tanishtirish, ularning e’tiborini o‘zlashtirilgan bilimlardan amaliy foydalanish, fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish va o‘qituvchi vaqtini tejashga imkon beradi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Kasbiy yo‘naltirish sohasidagi pedagogik, psixologik va metodik tadqiqotlar tahlili ushbu sohaning uzoq tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Diagnostik konsepsiyaga muvofiq kasbga yo‘naltirish ishlari maktab o‘quvchilarining qobiliyati, kasbiy moyilligi, zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari bilan bog‘liq holda shaxsiy qiziqishlarining o‘zaro moslashishini taqozo etadi.

2. Kasbni ongli ravishda tanlash – inson shaxsi rivojining muhim shartlaridan biridir. To‘g‘ri tanlangan kasb jamiyatda o‘z o‘rnini topishga imkon beradi. Hozirgi davrda o‘quvchilar o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos kasbni tanlashlarida aynan maktab ko‘makchi bo‘ladi. Shunday ekan, maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari ta’lim-tarbiyaviy jarayonning bir qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni. O‘RQ-637-son 23.09.2020-y. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi ‘‘Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PQ-4805-son qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.08.2020-y., 07/20/4805/1174-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25-yanvar 2018-yildagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-53133-son Farmoni.

4. Колбинсева А.С. Методка отценки уровня профессионального самосознания // https://йерленинка.ру/артиле/н/методй-отценки-уровня-профессионалного-самосознания.

Shaxlo NURULLAYEVA,
Qarshi davlat universiteti pedagogika fanlari doktori

O‘QITUVCHILARNING O‘Z USTIDA ISHLASHI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada shaxs ma’naviy rivojlanishida o‘z ustida ishlash jarayonining ahamiyati, o‘z-o‘zini rivojlantirish usullari, tamoyillari haqidagi falsafiy, psixologik va pedagogik qarashlar tahlil qilingan. Ushbu tahlillar asosida o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda o‘z ustida ishlash metodikalaridan foydalanishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan. O‘z ustida ishlash jarayonini harakatga keltiruvchi qarama-qarshiliklar hamda ushbu jarayonni amalga oshirish bosqichlari va o‘z ustida ishlash modellari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qituvchi, pedagogik ta’lim, uzluksiz kasbiy rivojlanish, virtual ta’lim, o‘z-o‘zini anglash, o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, qarama-qarshiliklar, o‘z ustida ishlash modeli.

В статье анализируются философские, психолого-педагогические взгляды на важность процесса работы над собой в духовном развитии человека, методы и принципы саморазвития. На основе этих анализов были разработаны рекомендации по использованию методов самообучения в непрерывном профессиональном развитии учителей. Раскрывается процесс самостоятельной работы, а также этапы реализации этого процесса и модели самостоятельной работы.

Ключевые слова. Учитель, педагогическое образование, непрерывное профессиональное развитие, виртуальное образование, самосознание, самостоятельная работа, саморазвитие, зависимость, модель самостоятельной работы.

The article analyzes philosophical, psychological and pedagogical views on the importance of the process of work on themselves in the spiritual development of man, methods and principles of self-development. Based on these analyzes, recommendations were developed on the use of self-learning methods in the continuous professional development of teachers. The process of independent work is revealed, as well as the stages of the implementation of this process and the model of independent work.

Key words. Teacher, pedagogical education, continuous professional development, virtual education, self-consciousness, independent work, self-development, dependence, model of independent work.

Shaxs shakllanishi va rivojlanishida ta’lim va tarbiyaning o‘rni qanchalik salmoqli bo‘lsa, o‘z o‘rnida aynan ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsning o‘z ustida ishlashi shunchalik samarali ahamiyatga egadir. Demak, pedagogik tadqiqotlarda o‘z ustida ishlash bu tashqi olam va ta’lim-tarbiya subyekti tomonidan berilayotgan tarbiyaviy ta’sirlar samaradorligini oshiruvchi muhim omil bo‘lish bilan bir qatorda, alohida ta’lim-tarbiya berish shakli sifatida ham o‘rganiladi.

Ushbu ta’lim shakli Qadimgi Gretsiya falsafasida ham chuqur tahlil etilgan. Jumladan, Suqrot qarashlarida yetakchilik qiluvchi “o‘z-o‘zini anglash” g‘oyasi insonning

haqiqat va ijobiy xislatlarga erishuvida asosiy yo‘l sifatida talqin etilgan. Ya’ni, uning fikricha faqatgina inson o‘z-o‘zini anglash orqaligina nimaga qodir va nimani amalga oshira olmasligini aniqlaydi va kelajakda haqiqatga erishish yo‘lini belgilaydi. Suqrot ta’limotida yetakchilik qiluvchi “suqrotcha suhbat” metod ham inson o‘z-o‘zini anglashiga va haqiqatni o‘zi aniqlashida muhim ahamiyatga ega ekanligi ma’lumdir.

Aflotun o‘z ustida ishlash jarayonini birinchilardan bo‘lib nazariy jihatdan asoslab beradi. Uning fikricha, inson qalbi aqliy, irodaviy va hissiy qismlardan iborat yaxlit substansiya va inson qalbining aqliy qismini mustahkamlashi, hissiy jarayonlarni irodasiga tayangan holda rivojlantirishi lozim. Xuddi ana shu aqliy, irodaviy va hissiy jarayonlarning o‘zaro birligi va qarama-qarshiligi o‘z ustida ishlash jarayonining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Arastuning fikricha, inson qalbi shakllanishida hech bir ne’mat tabiatan berilmaydi (inson uni hayoti davomida orttiradi), ammo tabiiy imkoniyatlardan tashqari hech bir narsa orttirilmaydi. Ushbu jarayonda shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, o‘z imkoniyatlarini aniqlashi o‘z ustida ishlashida boshlang‘ich nuqta vazifasini o‘taydi.

J. J. Russoning qarashlarida an’anaviy pedagogik qarashlarga nisbatan bahsli fikrlar mavjud. Uning fikricha, shaxs tabiiy rivojlanishi asosida amalga oshadigan tarbiya qarama-qarshiliklar asosida amalga oshishi lozim. Ya’ni, tarbiya to‘g‘ri yo‘lga boshlash yoki haqiqatga o‘rgatishdan emas, balki bolaning tabiiy ehtiyoj va intilishlarni cheklab, me’yorlarga moslashtirib borishdan iborat bo‘lishi lozim. “Dastlabki tabiiy xatti-harakatlar har doim to‘g‘ri – bu bahssiz haqiqatdir. Insonning yagona va tug‘ma hissiyoti bu uning o‘z-o‘ziga bo‘lgan muhabbatidir, ya’ni o‘z-o‘zini sevish, o‘zini yaxshi ko‘rishdir. Buning ijobiy va foydali jihatlari ko‘pdir”. Bolaning o‘z-o‘ziga bo‘lgan bunday muhabbatini egoistlik sanamasdan to‘g‘ri boshqarish va ijobiy maqsadlarda foydalanish sabrli va tajribali pedagogning vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, o‘z ustida ishlash faoliyatining asosida ham o‘z manfaatlari, o‘z ehtiyojlari, o‘z xohish-irodasi, o‘z xulq-atvori va o‘z faoliyatini samarali boshqarish yotadi.

J. J. Russoning fikricha ham tabiiy tarbiya aynan shaxsda biror-bir sifat, xulq-atvor yoki holatga nisbatan ehtiyoj paydo bo‘lib, ana shu ehtiyoj sari mustaqil faoliyat yurita boshlagandagina amalga oshadi. Ushbu jarayonda haqiqiy tarbiyachi bolaning tabiiy ehtiyojlari va yangi bir faoliyat bilan shug‘ullanish xohishi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qilishi lozim. Xuddi mana shu tabiiy muvozanatning saqlanishi nafaqat faoliyat muvaffaqiyatini balki haqiqiy baxtni ta’minlashga xizmat qiladi.

I. G. Pestalotssi qator yevropa pedagog olimlari orasida shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish konsepsiyasi bilan ajralib turadi. Jumladan, ta’limni ham shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish, faol rivojlanishdagi tabiiy ehtiyojning qondirilishi natijasi sifatida talqin etadi va shunday deb ta’kidlaydi: “Ko‘z ko‘rishni, quloq eshitishni, oyoq yurishni, qo‘l biror narsani ushlashni xohlaydi. Shuningdek, yurak ishonish va sevishni, aql esa fikrlashni xohlaydi. Insonning har bir hayotiy faoliyati zamirida jonsizlik va harakatsizlikdan chiqish, komillikka erishishga bo‘lgan moyillik mavjuddir”.

Bolaning o‘z-o‘zini rivojlantirish asosini I. G. Pestalotssi uchta muhim axloqiy, aqliy va jismoniy sohalarga ajratadi. Har bir soha bo‘linmas asoslarga ega. Axloqiy rivojlanish elementlari – elementar axloqiy his-tuyg‘ular (mehr-muhabbat, minnatdorchilik, ishonch), jismoniy rivojlanish elementlari – umuminsoniy mehnat faoliyatlari, aqliy rivojlanish elementlari – nutq malakalari, his-tuyg‘ular, tafakkur operatsiyalari kabilardir.

O‘qituvchilarning faoliyatida o‘z ustida ishlashni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Zero, pedagogik jarayon jamiyat talablari, ilm-fan rivoji ta’sirida doimiy ravishda

o‘zgarishda. O‘z navbatida, ta’lim mazmunining o‘zgarib borishi o‘qituvchidan doimiy ravishda tajribasini to‘plashni, malaka oshirishni, ilm-fan yangiliklaridan boxabarlikni taqozo etadi.

Bugungi kunda axborot kommunikatsion texnologiyalarining taraqqiyoti insonlar uchun axborot almashinuv bilan bir qatorda ta’lim olish uchun ham qo‘shimcha imkoniyatlar yaratdi. Virtual ta’lim muhitida bilim olish uchun individual xarakterga ega. Jumladan, pedagoglar uchun ham turli yo‘nalishda o‘z ustida ishlashlarida virtual ta’limning imkoniyatlari juda keng.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining virtual ta’lim muhitida o‘z ustida ishlash yo‘nalishlari ham mos ravishda pedagogik mahoratni rivojlantirish, psixologik tayyorgarlikni takomillashtirish va metodik tayyorgarlik borasida tajriba to‘plash yo‘nalishlarida amalga oshirishni nazarda tutadi.

Texnologik yutuqlar ta’lim muassasalarga masofadan o‘qitish narxini kamaytirishga, shuningdek, ta’limga keng auditoriyani taqdim etish uchun tejamkorlikka erishishga yordam berdi.

Faollik, mustaqillik, javobgarlik, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, maqsadga intilish, o‘z-o‘zini boshqarish, tashabbuskorlik kabi sifatlar shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

O‘z ustida ishlashga doir nazariy qarashlar shaxs hayotiy ehtiyojlarini qoplash, psixoemotsional xotirjamlik va shaxs kamolotining muhim omili sifatida talqin etiladi. Muammoning pedagogik aspektlari ta’lim jarayonida shaxsning o‘z ustida ishlash va shaxsiy imkoniyatlarini namoyon etish shakllarini ochib beradi. Psixologik nuqtayi nazardan esa shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish fenomeni to‘liq o‘rganilmagan. Ammo manbalarda “o‘z-o‘zini rivojlantirish” atamasi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, ammo bir-biridan farqlanuvchi uchta tushunchadan iborat ekanligi ta’kidlanadi: o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsning rivojlanishi va shaxsiy rivojlanish. Ushbu tushunchalar ko‘pincha sinonimlar sifatida ishlatilsa-da, ularning har biri o‘ziga xos ma’nolarni anglatadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish ijodkorlikka, yaratuvchanlikka moyillik sifatida talqin etiladi. Demak, psixologiyada o‘z-o‘zini rivojlantirish ikki yo‘nalishda: birinchisi, ichki imkoniyatlar, turtki asosida o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan jarayon sifatida, ikkinchisi esa, anglangan hamda maqsadga muvofiq o‘z-o‘zini o‘zgartirish jarayoni sifatidagi rivojlanish.

Shaxsning virtual ta’lim muhitida o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni bir necha bosqichli ierarxiya tarzida amalga oshadi. Bunda har bir bosqichdagi ehtiyojlar to‘liq amalga oshgandagina navbatdagi bosqichga o‘tiladi va oxir-oqibat shaxs o‘z imkoniyatlarini namoyon etishga va shaxsiy rivojlanishga erishadi. Psixolog K. Rodjersning ta’kidlashicha, “inson tabiatan mehribon va o‘z imkoniyatlarini namoyon etish yo‘lida harakat qiladi, faqatgina unga bunday imkoniyatni yaratib berish kerak xolos”. Psixolog olim sifatida K.Rodjers shaxs muammolarini bartaraf etishida o‘ziga xos yordam yo‘lini ko‘rsatib o‘tadi va o‘ziga xos metodikani ishlab chiqadi. Uning “mijozga yo‘naltirilgan yondashuv” nomini olgan metodikasiga ko‘ra har bir insonda duch kelgan muammolarini bartaraf etish imkoniyati mavjud. Psixoterapevtning vazifasi fasilitatsiya, ya’ni mijozni bu yo‘lda qo‘llab-quvvatlash va yo‘l boshlashdan iboratdir. U muammoga emas, shaxsga va uning shaxsiy imkoniyatlarini namoyon etishga imkoniyat yaratishga e’tibor qaratadi. Shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni ijobiy samara berishi uchun u tanlab olgan harakat dasturini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoit yaratish, empatiya, samimiylik, qo‘llab-quvvatlash o‘ta muhim hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi mutaxassis sifatida o‘z shaxsiy im-

koniyatlarni namoyon etish tomon harakat, pedagogik jarayon talablariga adaptatsiya, kasbiy kompetentlikni muntazam oshirib borish, ma’naviy-axloqiy sifatlarni uzluksiz rivojlantirish kabi faoliyatini amalga oshirish hamda shaxsiy tashabbuskorlik, mustaqillik, mas’uliyatlilik va irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishidir. Psixologik va pedagogik manbalar tahliliga tayangan holda ta’kidlashimiz mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlash jarayonini tartibga solib turuvchi tashqi omillarga pedagogik muhit, pedagogik muloqot, vaqtdan unumli foydalana bilish va jamoani boshqarish uslubi kabilar kiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z ustida ishlash jarayoni dinamikasini ta’minlovchi kuch sifatida qator qarama-qarshiliklarni keltirishimiz mumkin:

1. Shaxsiy imkoniyatlar va o‘z faoliyat mazmunini o‘zgartirish hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyoji o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar.

2. Pedagogik maqsad va motiv o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar. Motivning maqsad sari yaqinlashtirish pedagogga o‘z ustida ishlash ehtiyojini yuzaga keltiradi.

3. Pedagogik talab va vazifalar dinamikasi hamda ularni amalga oshirishdagi ichki imkoniyatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar.

4. Pedagogning o‘z faoliyati uchun tanlab olgan ideal obrazi hamda shaxsiy natijalari o‘rtasidagi farq.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlash jarayoni bosqichlarini tahlil qilishda psixologiyada keng qo‘llaniluvchi o‘z-o‘zini rivojlantirish bosqichlari sifatida keng qo‘llaniluvchi tahlil usulidan foydalandik. Unga ko‘ra, pedagoglarning virtual ta’lim muhitida o‘z ustida ishlash o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldirib boruvchi to‘rtta bosqichda amalga oshadi:

Birinchi bosqich – o‘z-o‘zini tahlil va o‘z-o‘zini anglash bosqichi. Bu bosqichda ichki harakat “Men va O‘zga inson” modeli asosida amalga oshadi. Ya’ni bo‘lajak o‘qituvchi o‘z faoliyatini chetdan, o‘zga bir inson sifatida tahlil qiladi, o‘z faoliyatiga hech bir manfaatlarga tayanmasdan, tanqidiy, obyektiv baho beradi. Bunda asosiysi o‘z imkoniyatlari, bilimi, egallagan tajribalari doirasini aniq belgilab oladi.

Ikkinchi bosqich – o‘z-o‘ziga vazifa berish bosqichi. Bu bosqich “Men va Men” modeli asosida amalga oshiriladi. Bu bosqichda pedagog o‘z imkoniyatlari va egallashi lozim bo‘lgan bilim hamda tajribalari doirasini qiyoslashi asosida, jamiyat talablaridan kelib chiqib amalga oshirishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab oladi, o‘z-o‘zini mustaqil ishlash faoliyatiga tayyorlaydi, motivatsiya yaratadi.

Uchinchi bosqich – o‘z-o‘zini rivojlantirish bosqichi. “Men va Men” modeli asosida amalga oshadigan bosqichda pedagog o‘zini takomillashgan tajribalar egasi bo‘lgan pedagog darajasiga ko‘tarish uchun amalga oshadigan harakatlar ketma-ketligini bajarishga kirishadi. Bu asosiy bosqich bo‘lib, aynan shu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchi yoki pedagog mustaqil faoliyatni amalga oshiradi, irodaviy sifatlarni namoyon etadi, tashabbuskorlik ko‘rsatadi. Natijada, u o‘zini “Men” tarzida, ya’ni rivojlanishning yangi, yuqoriroq bosqichiga o‘tganligini anglaydi.

To‘rtinchi bosqich – o‘z-o‘zini baholash bosqichi. Bu bosqich pedagogik o‘z ustida ishlash jarayonining so‘nggi bosqichi bo‘lib “Men va mening idealim” modelida amalga oshadi. Ya’ni bo‘lajak o‘qituvchi yoki pedagog o‘z ustida ishlash jarayoni natijasini o‘z idealidagi o‘qituvchi ko‘rsatkichlari bilan qiyoslaydi va o‘z faoliyatiga baho beradi. O‘z-o‘ziga berilayotgan bahoning obyektivligi o‘z ustida ishlash jarayoni samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ya’ni ushbu baho talabaning yoki pedagogning o‘z ustida ishlash jarayoni davomiyligi, uzluksizligini ta’minlaydi.

Yillar davomida odamlar o‘z mahoratlarini oshirishga, hayotning istalgan sohasida o‘zlarini yaxshilashga moyildirlar. Xuddi shu narsa mehnat faoliyati uchun ham amal qiladi. Agar ish yo‘lining boshida odam kam tajribaga ega bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan u tanlangan biznesda ma’lum bir professionallikka erishish va hamkasblarining tan olinishi uchun uni yaxshilashga intiladi.

Inson mavjudligida mehnat muhim rol o‘ynaydi. Darhaqiqat, ko‘p hollarda uning faoliyatining yarmini oladi. Eng xavflisi shundaki, mehnat insonning jismoniy va hissiy holatiga kuchli ta’sir qiladi.

Mehnat faoliyati, shuningdek, doimiy daromad bo‘lmasa, odam qattiq depressiya, befarqlikni boshdan kechirishi mumkin. Gap shundaki, inson va jamiyatning boshqa vakillari o‘rtasidagi har qanday keskin farq unga yoqimsiz bosim o‘tkazishi mumkin. Inson boshqa odamlar kabi oddiygina ishni qila olmasligidan xavotirlanadi. Yana bir tajriba oziq-ovqat uchun mablag‘ olish muammosi bo‘ladi.

O‘z ustida ishlashning har bir bosqichida bo‘lajak o‘qituvchi g‘olib va mag‘lub bo‘ladi, ma’lumotlarni qabul qiladi yoki rad etadi, rivojlanadi, umumlashmalar qiladi, yangi ma’lumotlarni o‘z tajribasi bilan qiyoslaydi. Natijada, pedagogik faoliyatda ma’lum bir yangi bosqichga ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреев В. И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. – К.: Центр инновац. технологий, 2003. – С.608.

2. Руссо Ж. Ж. Педагогические сочинения: в 2 т. –М.: Педагогика, 1981. Т.1. – С. 653.

3. Песталоцци И. Г. Избранные педагогические сочинения: в 2 т. – М.: Педагогика, 1981. Т. 2., – С.416.

4. Роджерс К. Становление личности. Взгляд на психотерапию. – М.: Прогресс, 1994. – С. 480.

5. Nurullayeva Sh.U. Pedagogik jarayondagi ziddiyatlar va ularning pozitiv jihatlari // Ilm sarchashmalari. № 6. 2021-y. 106-109-betlar.

6. Nurullaeva Sh. Concept and model of the teacher self-development process in a virtual environment. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 11, Issue 6, June 2021. P. 428-434.

Shoxistaxon MELIBOYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

MALAKA OSHIRISH KURSLARIDA PEDAGOG-TARBIYACHILAR KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini oshirishda malaka oshirish kurslarida tashkil etilayotgan o‘quv-tarbiyaviy jarayon, uning vazifalari, ahamiyati haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, pedagog-tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini oshirishdagi pedagogik sharoitlar, kasbiy kompetentlik komponentlari, pedagog-tarbiyachilarda kompetentlikni takomillashtirish shakllari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Pedagog, tarbiyachi, kasbiy kompetentlik, malaka oshirish, ta’lim mazmuni, komponent, ilmiy bilim, texnologiya, shaxsiy sifatlar.

В статье представлена информация об образовательном процессе, его задачах и значении в повышении профессиональной компетентности воспитателей Дошкольной образовательная организация. Также изучаются педагогические условия повышения профессиональной компетентности педагогов, компоненты профессиональной компетентности, формы повышения компетентности педагогов-воспитателей.

Ключевые слова. Воспитатель, педагог, профессиональная компетентность, профессиональное развитие, содержание образования, компонент, научное знание, технология, личностные качества.

The article provides information about the educational process, its tasks and significance in improving the professional competence of preschool teachers. Pedagogical conditions for increasing the professional competence of teachers, components of professional competence, forms of increasing the competence of educators are also studied.

Key words. Educator, teacher, professional competence, professional development, content of education, component, scientific knowledge, technology, personal qualities.

Pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshirish so‘nggi yillarda dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Muntazam ravishda ijtimoiy tajribalar transformatsiyasi ro‘y berib, ta’lim sohasi yangilanib bormoqda, turli xil pedagogik mualliflik dasturlari paydo bo‘lmoqda, zamonaviy mutaxassisga bo‘lgan ijtimoiy talab o‘smoqda.

Malaka oshirish pedagog-tarbiyachilar oldida turgan dolzarb muammolarni yechimini topishda muhim tizim hisoblanib, tinglovchilar uchun imkoniyat yaratishi lozim. ya’ni ularda kasbiy kompetentlik darajasini oshirish, avval o‘zlashtirigan bilimlaridagi bo‘shliqlarni to‘ldirish, mutaxassisligi yo‘nalishida zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlarini ta’minlashi zarur.

Kompetentlik tushunchasining muhim elementlaridan biri bilim hisoblanadi. Bilim intellektual kontekstdan iborat bo‘lib, unda ilmiy dalil va ma’lumotlar, bajariladigan o‘quv topshiriqlari bilan ifodalanadi. Pedagog-tarbiyachi ta’limiy vazifalarini bajarish uchun metod va vositalarni qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim. Ko‘nikmalar juda keng

diapazonda namoyon bo‘ladi, aqliy, axloqiy jihatdan ziyraklik talab etiladi. Shuningdek, maxsus metodlarni amaliyotga tadbiq eta olishi lozim. Qobiliyat aniq vazifalarni bajarishga bo‘lgan layoqat bilan namoyon bo‘ladi. Xulq-atvor stereotipi pedagog-tarbiyachining etikasi, qadriyati, atrof olamga bo‘lgan munosabati va fikrlarida ifodalanadi.

Pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshirishda malaka oshirish kurslarida tashkil etilgan o‘quv-tarbiyaviy jarayon yuqorida keltirilgan tavsiflarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy tarbiyachining pedagogik faoliyatidagi kasbiy sifatlaridan biri, ta’lim jarayonini yangilashga bo‘lgan munosabatni o‘zgarishidir.

Malaka oshirish jarayonida pedagog-tarbiyachilarning faolligini oshirish maqsadida quyidagi pedagogik sharoitlar yaratildi:

1. Kursga tayyorgarlik ko‘rishda shaxsiy uzluksiz ta’lim dasturi va yo‘l xaritasini tayyorlash.
2. Malaka oshirish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni pedagogik faoliyatida qo‘llashni o‘rgatish.
3. Malaka oshirish jarayoni va malaka oshirish kursigacha bo‘lgan davrda pedagog-tarbiyachilar va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro birgalikdagi faoliyat va hamkorlikni amalga oshirish.

Keltirilgan sharoitlar pedagog-tarbiyachilarni malaka oshirish kursida faol bo‘lishlari, ularning ehtiyojlarini qondirishni ta’minlaydi.

Pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi bolalar bilan ishlash jarayonida qulay pedagogik vaziyatlar yaratish, ularning imkoniyatlarini inobatga olish, zamonaviy usullarni tadbiq etish, kasbiy tajriba natijalarini tahlil qilish bilan takomillashib boradi. Kasbiy kompetensiya bilim, ko‘nika va malakalarning tizimli integratsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Malaka oshirish jarayonida pedagog-tarbiyachining kasbiy qadriyati, shaxsiy sifatlari tashkiliy va pedagogik sharoitlarni yaratish orqali samarali rivojlanadi.

Pedagog-tarbiyachining kasbiy kompetentligi maqsadga muvofiq harakat qilish qobiliyati, shuningdek, metodik jihatdan ta’limiy faoliyatni tashkil etish, mustaqil ravishda muammo va vazifalarning yechimini topish, o‘zining pedagogik faoliyati natijalarini baholashdan iborat.

Malaka oshirish jarayonida pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun tashkiliy jihatdan zaruriy va yetarli darajada sharoit yaratish talab etiladi. Buning uchun pedagog-tarbiyachilar o‘zlarining kasbiy kompetentligini tashxis qilishlari, axborot texnologiyalari dasturlarini qo‘llashlari, malaka oshirish mazmuni ularning kasbiy kompetenlik darajasidan kelib chiqib tashkil etilishi, zamonaviy faol ta’lim usul va vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Pedagog-tarbiyachilarining malaka oshirishdagi o‘quv modullarini faol ta’lim metodlari asosida takomillashtirish, malaka oshirish mazmunini modernizatsiyalash, o‘quv jarayonida tinglovchilar o‘rtasida o‘zaro birgalikdagi harakatni ta’minlash zarur. Malaka oshirish jarayonini tashkil etishda pedagog-tarbiyachilarning shaxsiy fikrlari va munosabatini inobatga olish malaka oshirish kursini yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Pedagog-tarbiyachilarda pedagogik faoliyat davomida nafaqat kompetentlik rivojlanadi, balki kengayib, kasbiy va shaxsiy sifatlarida o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Agarda pedagog-tarbiyachida kasbiy o‘sish bo‘lsa, unda kompetentlik hajmi tobora kengayib boradi, mabodo pedagogik faoliyatida yuqori natijalarga erishishni ko‘zda tutmasa avvalgiday qoladi. Kasbiy kompetentlik bu pedagog-tarbiyachining ichki potensiali, psixologik bilimlari (tasavvuri, harakat dasturi (algoritmi) harakati, munosabat va qadriyatlar tizimi) ni tashkil etishdir. Bu esa pedagoglar uchun faoliyatida juda dolzarb

hisoblanadi. Pedagog-tarbiyachi avvalo, shaxs sifatida o‘zini namoyon etadi. Fuqarolik burchi va vazifasini bajaradi, pedagogik faoliyatini takomillashtiradi, o‘zini rivojlantirishi, o‘zini boshqarish, shaxsiy refleksiya va kompetentlik integratsiyasini amalga oshiradi (bilimlarni oshishi, ko‘nikma va malakalarini rivojlanishi).

Pedagog-tarbiyachilarning shaxsiy kompetentligi ijtimoiy muhit va insonlarga munosabatlarida ham namoyon bo‘ladi. Ular jamiyatimizdagi ijtimoiy qatlam, jamoa va do‘stlari, oila a’zolari, kasbdoshlariga nisbatan hurmat bilan qaraydilar. Ularda kommunikativ kompetensiyaning turlari og‘zaki, yozma, dialog, monolog, yozma muloqot, o‘zaro hurmat an’analarini qadrlash kabilar rivojlanib boradi. Pedagog-tarbiyachi bolalarda bilish faoliyatini rivojlantirishi va ta’limiy vaziyatlarni yarata olishi lozim. O‘quv, o‘yin, mehnat, tadqiqotchilik faoliyatini samalari tashkil etishlari bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda zamin yaratadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish kompyuter savodxonligi, elektron resurslar, internet-tizimi bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak. Tarbiyachi kompetentligini shaxsiy sifatlar integratsiyasi ham deyish mumkin. Pedagog-tarbiyachilarning kompetentligi sirasiga ta’limiy savollarni to‘g‘ri bera olish, hodisalarning sabablarini aniqlash, ayrim ta’limiy muammolarni yechimini topish ko‘nikmasiga ega bo‘lish kiradi. Pedagog-tarbiyachilardagi ijodkorlik ilhomlanish, ziddiyatli vaziyatlardan chiqish, keng fikrlash va his qilish, tashxis qila olish, tanqidiy fikrlash va o‘z qarashlarini bildira olish ko‘nikmalari malaka oshirish jarayonida yanada mustahkamlanadi. Ayniqsa, interfaol usulda tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlarida ularda tashkilotchilik sifatlari o‘quv faoliyatini tashkil etish va tushuntira olish, maqsadni to‘g‘ri belgilash va yutuqlarga erishish, ijodiy qobiliyatga ega bo‘lish, refleksiv tafakkur va o‘zini baholash kabi kasbiy sifatlar ham shakllanadi. Kommunikativ sifatlar, kasbdoshlari va bolalar bilan o‘zaro muloqoti, atrof olamdagi obyektlar va ular haqida ma’lumotlar, ma’lumotlarni izlash, o‘zgartirish va uzatish, jamoada turlicha ijtimoiy rollar ijro etish, telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish (elektron pochta, internet) ko‘nikmasiga ega bo‘lish bilan takomillashadi.

Malaka oshirish jarayonida pedagog-tarbiyachilar bolalarda irodaviy-hissiy holatlar, o‘zini anglash va o‘zini harakatini boshqarish qobiliyatini shakllantirish kabi malakalarni egallaydilar. Shaxsiy kompetentlik tarkibiga bag‘rikenglik, atrof olam, oila, jamoadagi o‘rnini topish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish, vatanparvarlik sifatlarini namoyon etish kabilar kiradi.

Pedagog-tarbiyachilarda kasbiy-pedagogik madaniyat kompetentlikni takomillashuvida alohida ahamiyat kasb etadi. Kasbiy-pedagogik madaniyat pedagog shaxsining integral sifatlari bo‘lib, unda kognitiv, innovatsion texnologiyalar, shaxsiy-ijodiy komponentlar, o‘zaro pedagogik faoliyat, ijodiy o‘z-o‘zini namoyon etish kabilardan tashkil topgan.

Kasbiy-pedagogik madaniyatning rivojlanish ko‘rsatkichlari kasbiy faoliyatiga munosabat; kasbiy qadriyatga ega bo‘lish; o‘z-o‘zini takomillashtirish; insonparvarlik sifatlarining ustuvorligi; ta’limiy vaziyatlarni yaratishdagi zaruriy ko‘nikma va malakalar; pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo‘lish; pedagogik hodislarni o‘rganishga oid nazariy-metodik tamoyillardan foydalanishdan iborat.

Pedagog-tarbiyachilar maktabgacha pedagogika va yosh psixologiya, ta’lim texnologiyalarini bilishi, bolalarga ta’lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash darajasi, innovatsion o‘qitish shakllarni qo‘llay olish, didaktik vositalardan foydalanish, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish, kasbiy o‘z-o‘zini anglash va o‘zini namoyon etish, shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirish, ijodiy faol bo‘lish qobiliyatiga ega bo‘lishlari zarur.

Malaka oshirish kursi davrida pedagog-tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning quyidagi komponentlari rivojlantiriladi:

– kognitiv – zaruriy kasbiy bilimlar namoyon bo‘ladi va mustahkamlanadi (bilim darajasi va hajmi kompetentlikning asosiy xususiyati hisoblanadi);

– regulyativ – mavjud bilimlardan foydalanish asosida kasbiy vazifalarni bajarish va yechimini topish malakasi shakllanadi;

– refleksiv – pedagogik obro‘sini saqlagan holda faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;

– kommunikativ – pedagogik faoliyatni amalga oshirishda turlicha muloqotni amalga oshirish malakalari ortadi;

– kreativ – ijodiylik va ta’limiy faoliyatda ijodkorlik qilish ko‘nikma va malakalari mustahkamlanadi;

– perseptiv-bolalarni kayfiyati va ta’limiy vaziyatlarda o‘zini tutishlarini oldindan idrok etish;

– kasbiy qadriyati – kasbiga bo‘lgan motivatsiyani oshirish va insoniylik sifatlarini rivojlantirish;

– tarbiyalanuvchilarni ehtiyojlarini anglash va ularga individual yordam ko‘rsatish.

Pedagog-tarbiyachilarda yuqorida keltirilgan kompetentliklarning har biri o‘z tuzilishiga ega bo‘lib, ular ta’limiy vazifalarning umumiy talablaridan kelib chiqib, rivojlantiriladi.

Yuqorida keltirilgan kasbiy kompetentlik komponentlarini uchtaga ajratish mumkin

1. Kognitiv-bilish va kreativlik.
2. Motivatsion-ehtiyoj va shaxsiy sifatlari.
3. Xulq-atvori ruhiy holati, irodaviy sifatlari.

Kognitiv ta’lim jarayonidagi muammolarni tadqiq etish, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, o‘quv jarayoniga psixologik-pedagogik yondashuv kabi komponentlar kiradi. Pedagog-tarbiyachilar buning uchun maktabgacha ta’lim sohasiga doir yangiliklar, dolzarb muammolarni hamda bolalarning yosh xususiyatlarini puxta bilishlari lozim.

Motivatsion pedagog-tarbiyachilar bolalarning bilimga bo‘lgan ehtiyojlarini anglashlari, ularda shaxsiy sifatlari, “Men” konsepsiyasini rivojlantirishlari zarur. Bu jarayonda tarbiyachining o‘zida faollik va motivatsiya kuchli bo‘lishi taqozo etiladi.

Xulq-atvor muhim o‘rin egallaydi. Chunki pedagog-tarbiyachining hissiy holati va barqarorligi bola ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ularda irodaviy sifatlar mukammal bo‘lishi lozim. Bolalarga shaxsiy namuna bo‘lishilari talab etiladi. Kommunikativ ya’ni muloqotchanlik ko‘nikma va malakalari ham pedagog-tarbiyachi faoliyatining eng zarur vositalaridan biri hisoblanadi. Ularda so‘z boyligi, nutq zaxirasi va intonatsiya, nutq texnikasi rivojlangan bo‘lishi zarur.

Pedagog-tarbiyachiga qo‘yilgan kommunikativ kompetentlik talablarida o‘quv ma’lumotlarini verbal va noverbal shaklda uzatish ko‘nikmasi, suhbatdoshi va o‘zining shaxsiy sifatlarini tashxis qila olish, bolalar bilan o‘zaro harakat qilish texnikasi va taktikasini yarata olish, qo‘yilgan maqsadga erishish uchun hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishi, suhbatdoshi bilan samarali muloqot o‘rnata olishi, suhbatdoshi uni qanday tushunayotganligini anglash kabi malakalarni egallagan bo‘lishi lozim.

Pedagog-tarbiyachilarda kompetentlikni takomillashtirish ta’lim jarayonidagi turlicha o‘qitish shakllari va baholash bilan amalga oshadi. Avvalo, soha bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlarida nazariy bilimlar beriladi va boyitiladi. Nazariy bilimlar “Binar darsi”, “Pedagogik ustaxona”, “Master klass”, ”Bir-birimizga o‘rgatamiz” mavzularini o‘tkazish

kabi amaliy mashg‘ulotlarda mustahkamlanadi. Bulardan tashqari pedagog-tarbiyachilar tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etiladi. Mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshiradilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga doir muammoni tadqiq etishlari mumkin. Bunda pedagog-tarbiyachilar bolalarda uchraydigan muammolar ya’ni injiqlik, qaysarlik yoki ta’limiy faoliyatdagi ishtirokini sutligi, tengdoshlari bilan munosabatlardagi nizolarni bartaraf etish bo‘yicha manbalarni o‘rganadilar va o‘zaro fikr almashadilar.

Pedagog-tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda o‘quv rejadagi mavzular bilan kurs boshida tanishtirish va qaysi mavzu bo‘yicha ularda bo‘shliq borligini aniqlash lozim. Shu asosda tinglovchilar individual yoki guruh shaklida ular uchun juda muhim bo‘lgan muammolarni yechimini topish bo‘yicha ta’lim dasturini tuzadilar. O‘quv mashg‘ulotlari jarayonida har bir tinglovchi aniqlangan muammolarni yechimini topish bo‘yicha shaxsiy pozitsiyalarini bildiradilar. Bunda professor-o‘qituvchi ularning shaxsiy qarashlari va munosabatlarini inobatga olishi ular uchun qulay interfaol muhit yaratishi lozim.

Malaka oshirish jarayonida pedagogik hamkorlik qilish doirasini kengaytirish orqali pedagog-tarbiyachilarning shaxsiy tajribalarini umumlashtirish va boshqalar tajribasini o‘rganish, pedagogik va kasbiy faoliyatidagi muammolar yechimini topish kabi malakalarga ega bo‘ladilar.

Pedagog-tarbiyachilarda ta’limiy faoliyatni tashkil etishda metodik kompetentlik asosiy o‘rinni egallaydi. Uning tarkibiga pedagogik bilim va tajribalarni tahlil qilish, tashxis qilish va tadbiq etish kabi vazifalar kiradi. Pedagogik faoliyat natijalarini baholash ham kompetentlik mezoni hisoblanadi. Bunda pedagogik faoliyat refleksiya qilinadi natijalar tahlil qilinadi.

Tashkilotchilik kompetentligi bolalarni ta’limiy faoliyatga uyushgan holda jalb etish, guruhda barcha tarbiyalanuvchilarni faoliyat bilan mashg‘ul qilish, ularda o‘zaro birgalikdagi harakatni rivojlantirish kabilar amalga oshirishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. O‘RQ-637-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son)

2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. O‘RQ-595-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son)

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-maydagi “Maktabgacha ta’lim tizimi uchun kadrlarni tayyorlashni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 418-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2019 y., 09/19/418/3158-son.

4. Abdullayeva N. SH Maktabgacha ta’limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish Diss.ped.f.n. T; 2019-160-b

Xushruy MAMAJONOVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O'ZBEK XALQ CHOLG'U ASBOBLARI VOSITASIDA MUSIQIY IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni o'zbek xalq cholg'u asboblarini chalishga o'rgatish, musiqa bilan muloqot, ularga o'zbek xalq cholg'u asboblari to'g'risida bilim berish orqali bolalarda musiqiy ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tajriba-sinov tariqasida bolalar bilan tashkil etilgan faoliyatlar natijasida musiqa mashg'uloti va musiqiy-didaktik o'yinlarni tashkil etish uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha yosh, musiqa, cholg'u asbobi, musiqiy faoliyat, musiqiy-didaktik o'yinlar, ijrochilik mahorati, jo'rnavoz, tovush, kuy, cholg'u.

В статье рассматриваются вопросы формирования и развития музыкального творчества у детей путем обучения дошкольников игре на узбекских народных инструментах, общения с музыкой, знакомства с узбекскими народными инструментами. В результате экспериментальной работы с детьми разработаны методические рекомендации по организации занятий музыкой и музыкально-дидактических игр.

Ключевые слова. Дошкольник, музыка, музыкальный инструмент, музыкальная деятельность, музыкально-дидактические игры, исполнительское мастерство, оркестр, звук, мелодия, инструмент.

The article deals with the formation and development of musical creativity in children by teaching preschoolers to play Uzbek folk instruments, communicating with music, and getting to know Uzbek folk instruments. As a result of experimental work with children, methodological recommendations have been developed for organizing music lessons and musical didactic games.

Key words. Preschooler, music, musical instrument, musical activity, musical didactic games, performance skills, orchestra, sound, melody, instrument.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari musiqa mashg'ulotlarida qo'llaydigan o'zbek xalq cholg'u asboblarini bolalarga chalishni o'rgatishning shakl va turlari turli-tumandir. Ularga misol tariqasida yakkama-yakka mashg'ulot olib borish, trio, kvartet, guruhli, ansambl va hokazo. Bu shakllarning har biri didaktik yo'nalganligi, bolalarning mustaqillik darajasi, jamoaviy va yakkama-yakka ish nisbati, pedagogik rahbarlik xususiyatlari bilan shartlangan holda o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Ko'pincha bitta mashg'ulotni amalga oshirishda bolalarning bilishga oid faoliyatlarini tashkillashtirishning bir necha ko'rinishlaridan foydalaniladi. Masalan, umumiy shakl guruh bilan uyg'unlikda yetarlicha samarador va sifatli oliy natijalarni beradi. Maktab-gacha yoshdagilar bilan eksperimental ish quyidagi bosqichlar doirasida olib borildi:

1-bosqich – maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan o'zbek xalq cholg'u asboblarini chalish bilim va malakalarining dastlabki egallanishi;

2-bosqich – bilimlarni nazorat qilish (mustahkamlash);

3-bosqich – maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zbek xalq cholg‘u asboblarida musiqiy faollik jarayoni bilan ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ular egallagan bilimlar asosidagi tajriba, ko‘nikmalarini shakllantirish.

Bu jarayonda maqsadga muvofiq ravishda quyidagi uslubiy tamoyillar tadqiqot ishining tajriba sinov ishlarini tashkil etishda asos sifatida xizmat qildi:

1. Og‘zaki – ertak, hikoya, tushuntirishlar.

2. Ko‘rgazmali – illyustratsiya, tarqatma materiallar, musiqiy cholg‘u asboblar tavsifnomasi.

3. Eshitishga oid – musiqiy asboblarni chalish, musiqiy rahbar ko‘rsatmalari.

4. Rag‘batlantiruvchi – bolalar yoki kattalar oldida chiqishlar qilish.

5. Turli musiqiy asboblarni chalish usullarini mustahkamlash.

6. Amaliy-musiqiy o‘yinchoqlar – cholg‘u asboblar yasash va ulardan foydalanish.

7. Ijodiy-mustaqil – jamoaviy musiqachilik (guruhda tarbiyachi nazorati ostida o‘zbek xalq cholg‘u asboblarida).

Og‘zaki, ko‘rgazmali va eshitishga oid uslubiy tamoyillar ta’limning birinchi bosqichida 3-4 yoshli bolalarda qo‘llanildi. Bolalar balandligi bo‘yicha tovushlarni farqlash (qo‘ng‘iroqcha, safoil, doira, fortepianoning baland va past tovush chiqarishi) ni; doira, safoil, nog‘ora va qutichaning tovushlarini bilish va farqlashni o‘rganishlari zarur. Urib chalinadigan cholg‘u asboblar bilan tanishtirishni sekin-asta mashg‘ulotdan mashg‘ulotgacha topshiriqni murakkablashtirgan holda olib borish ancha natijadorlikka olib keladi. “Men nimani chalyapman?” musiqiy-didaktik o‘yinida bolalar quticha va safoil bilan tanishadilar. Ikki-uch mashg‘ulot o‘tgach, ular eshitib turib, bu cholg‘u asboblarni topadilar. Doira va fortepianoda M. Xuseynlining “Jo‘jalarim” kuyini ijro etib, o‘yin orqali biz bolalarni yuqori va past tovushlarni farqlashga o‘rgatamiz.

Har bir mashg‘ulotda bolalarda musiqa bilan muloqotdan quvnoq kayfiyat yaratishga urindik. Bolalarnikiga masxaraboz (petrushka) mehmonga kelishi va savatida shaqildoqlarni olib kelishi mumkin. Kichkintoylar ularni tomosha qiladi, paypaslab ko‘radi va ular bilan muomala qilishni o‘rganadilar, tovushini chiqaradilar. Faqat shundan keyin masxaraboz ular bilan M. Ikramovning “Shiqildoq” o‘yinini o‘tkazadi. Musiqiy rahbar pesani chaladi, bolalar masxarabozning ko‘rsatmalari bo‘yicha harakatlarni bajaradi. Sokin musiqaga jo‘rovoz bo‘lib shaqildoqni taqillatib, baland musiqa payti yuqoriga ko‘taradi va yengilgina silkitadilar. Bu o‘yin go‘daklarga quvonch baxsh etadi, ularni sokin va baland tovush chiqarishni farqlashga o‘rgatadi. Mashg‘ulotga ko‘pincha qo‘g‘irchoq tashrif buyuradi va bolalar bilan o‘ynashga kirishadi. Demak, tarbiyachi qo‘g‘irchoq Lolajonni zal bo‘ylab olib yuradi, musiqa rahbari esa doiraning siyrak zarbi bilan qo‘g‘irchoqning yurishini ko‘rsatadi. Qo‘g‘irchoq barchani o‘zi bilan yurish va yugurishga taklif qiladi, bunda tarbiyachi bolalarning diqqatini doiraning har xil zarbiga qaratadi. Bolalarning e’tiborini har bir cholg‘u asbob tembrining ifodaliligiga jalb qilish, obrazli solishtirishlar, tavsifnomalar: nozik (qo‘ng‘iroqcha), jarangdor (safoil), aniq, taqillovchi (doira) va h.k.dan foydalanish, bolalar bilan qaysi cholg‘u asbobda yurish, yugurish, raqsga tushishni mashq qilish yaxshiroq ekanini muhokama qilish muhim. Shu tarzda bolalar ritmni his qilish (qadam va yugurish ritmini farqlashga), musiqaning almashinishiga reaksiya qilishni o‘rganadilar.

O‘rta guruhning 4-5 yoshida bolalar kichik guruhda bilib olgan o‘zbek xalq cholg‘u asboblari to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlaydi, ularni yangilari – doira va safoil bilan tanishtirishni davom ettiramiz. Tahsil yangi, ancha murakkab vazifalarni qo‘yadi. Bolalar doirani chalishning amaliy malakalarini egallaydilar. Boshqa urib chalinadigan cholg‘u

asboblar (nog‘ora, quticha, qoshiqchalar) qo‘shiladi. Bolalar nafaqat ritm rasmini, balki musiqiy chiziqni ham yuzaga chiqarishni, umumiy dinamika, tempga amal qilishni, o‘yinni o‘z vaqtida boshlab, o‘z vaqtida tugallashni o‘rganishadi.

Tajriba sinov ishlari natijasi shuni ko‘rsatdiki, bu yoshdagi bolalar ikkita turli doira va nog‘orani tovushi (past va baland jaranglashi) bo‘yicha alohida qiyinchiliksiz farqlaydilar. Shuning uchun kichik guruhda boshlangan bu musiqiy asboblar bilan ishlashni o‘rta guruhda ham davom ettiradi. Biz bu yoshdagi bolalarga cholg‘u asboblar bilan turli-tuman harakatlarni bajarish zavq bag‘ishlashini sezdik. Ular balandligi bo‘yicha tovushlarni farqlashga o‘rgandilar. Sokin va qattiq jaranglashga reaksiya qildilar, musiqaning ikki qismli shakli bilan bog‘liq mashqlarni mustaqil bajaradilar. Bolalar musiqa asboblari (quticha, safoil)ning jaranglashi bo‘yicha kamroq kontrastli tembrlarni farqladilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari yoshiga mos ko‘rgazmali, eshitishga oid turli uslubiy tamoyillarni qo‘llashni taklif qilamiz. Masalan, bolalarga soat tasviri tushirilgan chiroyli illyustratsiyani ko‘rsatamiz. Tarbiyachi hikoya qilyapti: “Devorda qadimiy soat osig‘liq turipti (musiqa rahbari nog‘oraga bir marta uradi). Biroq soat chiqillab yurishi kerak, tik-tak (musiqa rahbari nog‘oraga bir necha bor uradi). Bolalar, biz sizlar bilan nog‘ora cholg‘u asbobida soat qanday yurayotganini eshitdik, qutichada yomg‘ir qanday yog‘ishini eshitish ham mumkin”.

Musiqa rahbari so‘zlaydi: “Zumrad sayrga chiqdi, to‘satdan uning kaftiga yomg‘ir tomchisi tushdi (musiqa rahbari qutichaga urib, tovush chiqaradi). Bulut quyosh yuzini qopladi va qizchaga bir necha yomg‘ir tomchilari tushdi (musiqa rahbari qutichaga bir necha marta uradi). Avvaliga tomchilar siyrak tushdi (musiqa rahbari buni qutichada siyrak zarblar bilan tasvirlaydi), keyin esa yanada ko‘payaverdi. Yomg‘ir kuchaydi (musiqa rahbari tez-tez zarb beradi). Zumrad soyabonini ochdi va yomg‘irning tugashini kutib turdi. Tez orada quyosh mo‘raladi va yomg‘ir tindi”. Keyin tarbiyachi bolalardan qanday yomg‘ir bo‘lganini aniqlashtiradi. Bolalar javob qiladilar: “Kuchli, katta, quyi, kichik”, musiqa rahbari esa cholg‘u asbobga e’tibor qaratadi: “Bolalar, qaranglar: men qaysi musiqa asbobida yomg‘ir tomchilarini yetkazdim? Bu musiqa asbobi quticha deb nomlanadi”. Shunday qilib, cholg‘u asbobning nomini mustahkamlaymiz, bolalarga uni ko‘rib chiqish va tovush chiqarishini yana bir bor tinglashni taklif qilamiz.

Keyingi mashg‘ulotlarda bolalarga musiqiy topishmoqlar taklif qildik. Musiqa rahbari turli ritmik suratlarni tasvirlagancha tayoqcha bilan qutichaga urdi, kichkintoylar esa yomg‘irning qanday – kuchli yoki quyi yog‘ayotganini aniqlashlari kerak bo‘ladi. Har bir o‘yindan keyin cholg‘u asbobning nomini yana bir bor mustahkamlaymiz. Keyinroq quticha bilan musiqiy-didaktik o‘yinlar o‘tkazish mumkin. Bolaning musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirgancha o‘rta guruhda muayyan mazmun va qoidalari bo‘lgan musiqiy-didaktik o‘yinlarni olib boramiz. Kichik guruhdan yaxshi tanish bo‘lgan musiqiy-didaktik o‘yinlarni biz yodga olamiz va bir necha mashg‘ulotda takrorlaymiz. Keyin sekin-asta ularni murakkablashtiramiz va ular yangi shaklni olguncha harakatli o‘yinlar bo‘ladi.

Bolalar “Sehrli chemodan” musiqiy-didaktik o‘yinida cholg‘u asboblarning tovush chiqarishini eshitib, uning nomini topadilar, keyin ularga urib chalinadigan cholg‘u asboblarni chalish taklif qilinadi (past va baland tovush chiqarishi).

O‘rta guruhda musiqiy-didaktik o‘yinlar birmuncha murakkablashtiriladi. Biz yangi: endi nafaqat tovushlarni balandligi bo‘yicha farqlash, balki ularni yuzaga chiqarish vazifasini qo‘yamiz. Demak, “Forte, Piano”da, “Kimning uychasi?” o‘yinida bolalarga mushuk (past tovush) yoki mushukchaning qanday miyovlashi (baland tovush)ni tasvirlash taklif etiladi.

Turli balandlikdagi tovushlarni farqlashga “Ikkita xo‘rozcha” musiqiy-didaktik o‘yini yordamlashadi. Bu o‘yinda biz nog‘oradan foydalandik. Bolalar musiqiy cholg‘u asboblarni chalishni o‘rganishda ritm tuyg‘usini, bolalar tomonidan murakkab bo‘lmagan ritmik suratlarni yetkazish malakasini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Masalan, o‘zbek xalq qo‘shig‘i “Oftobim”ni kuylagancha bolalarga musiqiy quticha yordamida kuy chalishni taklif qildik. Bolalar ritmni yaxshi o‘zlashtirganlaridan keyin ularga doira, safoil, nog‘ora va yog‘och qoshiqchalarni berish va tarbiyachi bilan ansamblda chalishni taklif qilish mumkin. Ritmni rivojlantirish uchun bolalar qoshiqlar bilan mashqlarni ham bajarishlari mumkin. Barchaga qoshiqlar tarqatildi va vagoncha-stulchalarda joylarini egallashlari so‘raldi. Poyezd yurishni boshlaydi – bolalar sekin qoshiqlar bilan uradilar. Musiqa rahbari tezlikni oshiradi, bolalar murakkab bo‘lmagan ritmik suratni tezroq uzatishga intiladilar. Poyezd to‘xtaydi, musiqa ham tinadi, qoshiqlar joyiga qo‘yiladi.

Musiqiy asboblarni chalishni o‘rganish jarayonida katta guruhdagi 5-6 yoshli bolalar oldiga yangi, yanada murakkab vazifalarni qo‘ydik. Tanish xirgoyilarni, qo‘shiqlarni yakkama-yakka, shuningdek, kichik guruhlarda ijro qilishga o‘rgatdik. Bu ulardan muayyan malakalarni talab qildi. Agar o‘rta guruhda urib chalinadigan cholg‘u asboblarni chalish vaqtida ritmik surat va musiqiy chiziqni yuzaga chiqarish talab qilinsa, katta guruhda ular oldiga yangi: umumiy dinamikaga, tezlikka amal qilish, chalishni o‘z vaqtida boshlash va tugatish vazifalari qo‘yiladi.

Katta guruhda dastur asosida bolalarning musiqiy cholg‘u asboblarda yakkama-yakka tarzda va kichik guruhlar bilan chalishlari ko‘zda tutilgan. Bunday ijroga biz bitta tovushga qurilgan oddiy xirgoyilar misolida yondashamiz. Bolalar o‘yinda xirgoyining nafaqat tanish ritmik suratini uzatadilar, balki umumiy tezlikka, chalishni bir vaqtda boshlab, tugallashga amal qiladilar. Ko‘pchilik bolalar nog‘orada bir vaqtda chalishda o‘ziga xos qiyinchilikni his qiladilar, chunki bitta tovushga qurilgan xirgoyi ularga yaxshi tanish. Biroq shunday bolalar borki, ular umumiy tezlikka amal qila olmaydilar. Misol tariqasida Madina va Mubina bir vaqtda chalishni boshladilar, keyin Madina fortepiano kuzatuvchiga quloq tutmasdan dugonasidan o‘zib ketdi. Biz qizchaga ansamblda chalish katta e’tiborni talab qilishini, nafaqat o‘z ijrosini, balki o‘rtog‘inikini, va albatta, pedagogning musiqiy kuzatuvini ham eshitish zarurligini tushuntirdik. Ammo Madina birinchi safar ham, ikkinchi va uchinchi safar ham uddalay olmadi, u umumiy tezlikni his qilmagancha avvalgidek shoshardi. Shunda biz unga urib chalinadigan cholg‘u asboblar guruhidan quticha yoki boshqa cholg‘u asbobda ritmik suratni chalishni taklif qildik. Bir necha bor shug‘ullangach, qizchada ijobiy natijalar ko‘zga tashlandi. Biz dugonalar ijrosini birlashtirishga yana bir bor urindik, musiqiy kuzatuvlarsiz safoilda chalishni, keyin pedagog jo‘rligida takrorladik. Bu gal Madina o‘yin tezligini to‘g‘ri chiqarib berdi.

Tahsilning oxirgi yilida barcha bolalarning musiqiy asboblarni chalish usullari yana ham murakkablashtirildi, repertuarlari kengaytirildi, chalish malakalari mustahkamlandi va takomillashtirildi. Bolalar torli cholg‘u asboblar (dutor, soz, rubob, qonun, tanbur) bilan tanishdilar. Keyingi bosqich – bolalarni tovush qatoriga ega bo‘lgan musiqa asboblarini chalishga o‘rgatishdan iborat bo‘ldi. Ushbu bosqichda dutor, soz, rubob, qonun, tanbur kabi o‘zbek milliy cholg‘u asboblarining transpozitsiya qilingan shakllari tanlandi.

Texnik usullar. Dastavval bolalar to‘g‘ri o‘tirish va cholg‘u asbobni to‘g‘ri tutishga o‘rganadilar. Dutor, soz, tanburda stulning chetida o‘tirgancha, o‘ng oyoqni chap oyoq ustiga qo‘yib chaladilar. Cholg‘u asbobi tanasi o‘ng oyoq ustida va o‘ng qo‘l tirsagi bilan yengil tutib turiladi. Dutordagi tovush tor bo‘ylab o‘ng qo‘l panjasining

pastga-yuqoriga urishi bilan chiqariladi. Ansamblda rubobni o‘tirgan holda chaladilar. Stulning chetiga o‘tirish, tanani erkin va to‘g‘ri tutish zarur. Rubobda mediator bilan tanani gorizontal holda tutgancha chaladilar. Tajriba natijalaridan olingan xulosalar asosida aytish mumkinki, bolalarni o‘zbek xalq milliy cholg‘u asboblari dutor bilan xalq pedagogikasi an’analariga tayangan holda tanishtirish lozim. Multimediadan foydalangancha bolalarga o‘zbek xalq cholg‘u asboblari kamer orkestri “So‘g‘diyona”ning chiqishlarini tomosha qilish va eshitishni tashkil etish kerak. Shundan keyin ularga tanish bo‘lgan xalq cholg‘u asboblari nomini aytsak, bolalarning ilg‘ab olishi va esida saqlashi oson kechadi.

O‘zbek xalq cholg‘u asbobi – dutor xususida tarbiyalanuvchilarga tushuncha berildi. Dastlab, dutor qanday musiqa asbobi, u qanday tovush chiqarishi xususida ma’lumot berildi. Shundan so‘ng, dutorni ushlab ko‘rishlari, torlariga qo‘llari bilan tegishlariga ruxsat berildi.

Dutor so‘zma-so‘z tarjima qilinganda ikkita tor degan ma’noni anglatishi, O‘rta Osiyo xalqlarida an’anaviy ikkita torli, chertib chalinadigan musiqiy asbob ekanligi, u tut daraxtidan tayyorlanishi gapirib berildi. Shundan so‘ng, dutor musiqa asbobida pedagog-tarbiyachilar o‘z amaliyotida keng foydalanadigan o‘zbek xalq qo‘shig‘i “Qarinavo” kuyini chalib, bolalarga doirada jo‘r bo‘lishlari taklif qilindi. Dutordagi chertib chalinadigan torlar avval hayvon ichaklaridan, biroq keyingi davrlarda Buyuk Ipak yo‘lidagi savdo karvonlari sharofati bilan ular ipakdan tayyorlanganligi hamda zamonaviy torlarda ipak yoki neylondan ham foydalanilishi tushuntirib o‘tildi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar faqat o‘ng qo‘lda chalishga o‘rganadilar, qachonki bola torlarga barmoqlari yoki mediator bilan teginganida tovush yuzaga keladi. Qonunni chalishda o‘ng va chap qo‘llarning ko‘rsatkich barmoqlariga kiydiriladigan metall (barmoqdagi angishvona shaklidagi) mediatordan foydalanadilar. Biz maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qonunni chalishda oddiy mediatordan foydalanishni tavsiya qilamiz. Uni uchta – katta, ko‘rsatkich va o‘rta barmoq bilan ushlash kerak. Chalish qulay bo‘lishi uchun qonunni tizzaga yoki stolchaga qo‘yiladi. Musiqa ijrosi vaqtida o‘zaro hamfikrlilik, bir-birini eshitib chalish va o‘rtoqlarining harakatlariga e’tiborli bo‘lish tuyg‘usini rivojlantirish mumkin. Musiqiy fikrlash organizmning harakatli vazifalarini uyg‘unlashtirishga ko‘maklashadi, natijada barcha bolalar faollashadi. Ularda fantaziya va ijodiy qobiliyat, musiqiy didni rivojlantiradi, musiqani tushunish va sevishga o‘rgatadi. O‘zbek xalq musiqa asboblarini chalish jarayonida nota savodxonligini o‘zlashtirish borasida, cholg‘u asboblarni chalish barobarida bolalar musiqiy asboblarning tuzilishini yaxshiroq tushuna boradilar, ularning tovushlarini, tembrini farqlaydilar va o‘zlari uchun yangi bo‘lgan musiqiy alifbosi olamiga kirib boradilar.

Musiqa mashg‘ulotlarida tarbiyalanuvchilarni nota yozuvlari bilan tanishtirishda musiqani eslab qolish maqsadida notalarni belgilash uchun rangli aylanalardan foydalanildi, keyinroq bolalar rangli shipshitishlarsiz, mustaqil uddaladilar. Tarbiyalanuvchilarning musiqa mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishlarini hamda ular tomonidan erishilayotgan muvaffaqiyatlarini monitoring qilish shart deb hisoblaymiz, chunki u nafaqat bolalarning muvaffaqiyatlarini baholashni, balki pedagogning o‘zini va korreksion jarayonning barcha ishtirokchilari faoliyati samaradorligi darajasini tahlil qilish imkonini beradi. Pedagog bo‘lsa, olingan natijalardan kelib chiqib, bolalar, pedagoglar, ota-onalar bilan ishlashda tanlangan usullar, texnologiyalarning to‘g‘riligi yuzasidan xulosa qilish imkoni tug‘iladi va zaruriyat bo‘lganida o‘quv dasturini mukammallashiga erishiladi.

Mashg‘ulotlarning natijasi konsert dasturlaridagi chiqishlar hisoblanadi. Aynan

shunday chiqishlarda bolalar mas’uliyatli, intizomli, e’tiborli bo‘lishga o‘rganadilar. Agar tomoshabinlar nafaqat bolalar, balki yana sevimli ota-onalar bo‘lsa, unda muvaffaqiyatdan quvonch ikki barobarga ortadi. Bu yo‘nalishda birmuncha mahsuldori, bolalar bilan ishlashda maktabgacha ta’lim tashkilotida yuzaga kelgan, jamoaviy musiqachilik sharoitida maxsus musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan qo‘shimcha ta’lim va ijodiy ishlash konsepsiyasi bo‘ldi. Bugungi kunda bu loyihaviy usul maktabgacha ta’lim faoliyatida ta’limning innovatsion usuli hisoblanadi. Bu cholg‘u asboblarni o‘zlashtirib olgach, ijrochilik ko‘nikmalarini egallagach, bolalar klassik va milliy musiqa asarlarini chalish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu mashg‘ulotni faollashtiradi, ularni hissiy jihatdan maftunkor va yorqin qiladi. Musiqiy asarlarni yod olishga urg‘u nafaqat tembr-ritmli komponentga, balki ohangdor, baland tovushga beriladi. Mazkur texnologiyaning maktabgacha pedagogikada mavjud bo‘lgan boshqa texnologiyalardan farqi shundan iborat. Yod olish jarayoni pedagog tomonidan cholg‘u asbobda chalishni ko‘rsatish bilan birga boradigan musiqiy chiziqni tahlil qilish usuli bilan sodir bo‘ladi. Yangi materialni yod olishning guruhli shaklida bunday usulga yo‘l qo‘yiladi.

Tajriba-sinov jarayonida musiqiy (yakkama-yakka, guruhli, ansambl) mashg‘ulotlarda bolalarga nafaqat muayyan repertuarni yod oldirish, balki o‘zbek xalq musiqa asboblarini chalish ko‘nikmalarini o‘rgatish, ularni ifodali imkoniyatlar bilan tanishtirish, ijro qilinayotgan asarlarni improvizatsiya qilishga o‘rgatish orqali yaxshi natijalarga erishildi. Mashg‘ulotlarda bolalarga turli darajadagi murakkab, oddiy tovushga taqlid qilishdan tortib, janri va xarakteri bo‘yicha kuylar yaratish borasida ijodiy topshiriqlar berib borildi. Bolalar musiqiy faollikni rivojlanish darajasi natijalari ijobiy dinamikaga ega bo‘ldi, yaxlit olganda nazorat bosqichida musiqiy faollikning rivojlanish darajasi 24 foizga ortdi. Shubhasiz, faraz tasdiqlandi: o‘zbek xalq musiqiy cholg‘u asboblarini chalishni o‘rgatish musiqiy faollikning rivojlanishida samarali vosita bo‘ldi. Chunki bolalarni o‘zbek xalq musiqa asboblarini chalishga o‘rgatish bo‘yicha mashg‘ulotlar tizimli tarzda olib borildi. O‘quv yili davomida o‘zbek xalq musiqa asboblarini ansamblda chalishga o‘rgatish natijaviyligining ko‘rsatkichlari maktabgacha yoshdagilarning har xil tadbirlar (konsertlar, bayramlar, tomoshalar, konkurslar, festivallar va h.k.) da chiqishlari bo‘lishi mumkin. Tadqiqotning maqsadiga erishildi va vazifalari tugal bajarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ташбаева Д.Х. Эстетические особенности узбекского музыкально-песенного искусства: Дисс. на соиск.канд пед. наук. – Т., 2008. – С.20.

2. Шарабидзе К.Б. Современные проблемы обучения игре на народных музыкальных инструментах: теория и практика (на материале учебно-воспитательной работы в классе домры): Дис. канд. пед. наук. – М.: МГУ. 2012. 156-б.

3. Sharipova G. Musiqa o‘qitish metodikasi. – T., 2006. 180-b.

Munisa RIZAYEVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

"MULOQOT" – MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA ASOSIY TA'LIM-TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanayotgan obyekt-fazoviy muhit maktabgacha ta'lim tashkilotining rivojlanish maydonining barcha tamoyillariga mos kelishi, mazmuni bilan to'yingan, ko'p funksiyali, xavfsiz bo'lishi bilan birga bolaning kommunikativ kompetensiyasini faollashtirishiga xizmat qilishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Kommunikatsiya, ijtimoiy rivoj, maktabgacha ta'lim, musiqa, jismoniy tarbiya, so'zlashuv muhiti, kognitiv

В статье представлена предметно-пространственная среда, развивающаяся в дошкольных образовательных организациях, о ее соответствии всем принципам освоения пространства дошкольной образовательной организации, содержанием многофункциональности, безопасности, служащая активизацием коммуникативной компетентности ребенка.

Ключевые слова. Общение, социальное развитие, дошкольное образование, музыка, физическая культура, речевая среда, познавательная

The article presents the subject-spatial environment that develops in preschool educational organizations, about its compliance with all the principles of mastering the space of a preschool educational organization, the content of multifunctionality, safety, which serves to activate the communicative competence of the child.

Key words. Communication, social development, preschool education, music, physical education, speech environment, cognitive

Hozirgi vaqtda biz turli xil ijtimoiy institutlarning sotsializatsiya deformatsiyasining alohida turini oldini olish va oldini olish muammolarini hal qilishga qaratilgan harakatlarining nomuvofiqligini ta'kidlashimiz va quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin: bolalar avlodining ijtimoiylashuvi jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ommaviy kommunikatsiyalar, internet, kibermakon, qadriyatlarning o'zgarishi davrida O'zbekiston o'tish davrini boshdan kechirmoqda. Bolaning yetarli darajada sotsializatsiyasi – bu shaxs inqiroziga olib keladigan, jamiyatda inqirozli taranglikni keltirib chiqaradigan hodisa. Ushbu hodisani bartaraf etish yoki minimallashtirish jamiyat holatini yaxshilashga, nizolarni kamaytirishga va ijtimoiy rivojlanish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimini insonparvarlashtirish va individuallashtirish tamoyillariga muvofiq takomillashtirish bolalar rivojlanishining psixologik xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishni va bolaning barcha jihatlarini(bolaning shaxsiyati, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi) o'z vaqtida va to'liq rivojlanishiga yordam beradigan shart-sharoitlarni yaratishni o'z

ichiga oladi. Ta’limni modernizatsiya qilish maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanishi kerak, chunki maktabgacha yoshdagi bolalarda samarali faoliyatni shakllantirish uchun asoslar tug‘iladi. Ochiq (doimiy o‘zgaruvchan) tizim “predmetli-fazoviy rivojlantiruvchi muhit” alohida dinamika holatida bo‘lganligi sababli, zamonaviy jamiyatdagi o‘zgarishlar tendensiyalariga muvofiq uning mavjud modellarini to‘ldirish talab etiladi. Biz o‘yin maydonini o‘yin faoliyati to‘plami sifatida tushunamiz, bu, aslida, predmetli-fazoviy rivojlantiruvchi amaliyotdir; Ijtimoiy kompetensiyaning eng yuqori cho‘qqisiga ega bo‘lgan bolaning ijtimoiy va shaxsiy sohasini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan predmetli-fazoviy rivojlantiruvchi muhit (uning predmetli mazmuni, dizayni va maxsus arxitekturasi), shuningdek psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash mazmunining uslubiy mazmuni bolaning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi jarayoni uchun ushbu jarayonning samaradorligining asosiy shartidir. Loyihaviy (yoki dizayn) faoliyat innovatsiya, ijodiy faoliyat toifasiga kiradi, chunki u voqelikni o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi, birlashtirilishi, o‘zlashtirilishi va takomillashtirilishi mumkin bo‘lgan tegishli texnologiya asosida qurilgan. Maktabgacha yoshdagi bolaning yosh rivojlanishining xususiyatlariga muvofiq ishlab chiqilgan predmetli-fazoviy rivojlantiruvchi maydoni modeli.

Bugungi kunda zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi rivojlanayotgan fan-makon muhitini yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy pedagoglar “bugungi kunda hamma narsa tarbiyalaydi”, ya’ni odamlar, kitoblar va tushunchalar deb ta’kidlamoqdalar. Rus pedagogi R. X. Berejnaya ham pedagog sifatida: bolani o‘rab turgan muhit o‘yin maydoni ham tarbiya vositasidir deb ta’kidlamoqda. Ayonki, bolalar kunning ko‘p qismini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkazadilar. Pedagogik mahoratli va kreativ pedagog rivojlanayotgan makonni qurish uchun innovatsion yondashuvlar va tamoyillardan foydalanishga intiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlanayotgan muhitni yaratishning nazariy asoslari Petrovskiy V. A., Klarina L. M., Smyvina L. A., Strelkova L. P. pedagogik qarashlari asosida faollashtirildi.

Predmetni rivojlantiruvchi muhit – bu ijtimoiy ta’minlashga qodir uyushgan yashash maydoni, maktabgacha yoshdagi bolaning madaniy rivojlanishi, hozirgi ehtiyojlarini qondirish va bolaning bevosita ijodiy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan faoliyatlar majmui. Bola atrof-muhitiga ‘‘qoliplash’’ to‘g‘ri kelmaydi, bolani o‘stiruvchi, rivojlantiruvchi muhitgina bolani ehtiyojlari asosida, o‘yin bilan qolipdan chiqaradi. Yashash maydoni shunday bo‘lishi kerakki, ularning qiziqishlari va istaklari bir vaqtning o‘zida turli xil turlari bilan shug‘ullanish uchun erkin bo‘lish: jismoniy tarbiya, musiqa, rasm chizish,matematik o‘yinlar, kuzatishlar, tadqiqotlar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida to‘g‘ri tashkil etilgan rivojlantiruvchi muhit har bir bolaga ma’lum shaxsiy xususiyatlarni egallash uchun turli xil imkoniyatlarni, har tomonlama rivojlanish imkoniyatlarini beradi. Subyektni rivojlantiruvchi muhit elementlaridan biri bu “muloqot” texnologiyasidir. Uning mohiyati shundan iboratki, bola zarur ma’lumotlarni olgan holda, o‘z faoliyati uchun keng tanlovga ega, o‘z xohishiga ko‘ra pedagog tomonidan tayyorlangan axborot resursidan konstruktiv foydalanishi mumkin. ‘‘Rivojlanayotgan muhit’’ texnologiyasi bolalar bog‘chasining obyekt-fazoviy muhitida rivojlanayotgan, interaktiv, sensorli devorlarni o‘z ichiga oladi.

‘‘Muliqot muhiti’’ ning vazifalari:

– bolalarning kognitiv faolligini namoyon qilish uchun sharoit yaratish

– ijodiy o‘zini namoyon qilish uchun sharoit yaratish

– hissiy qulaylik muhitini yaratish

– bolalarga hozirgi vaqtda o‘quv loyihasi mavzusi haqida “aytib berish” ni amalga

oshirish.

“Muloqot” muhiti tufayli pedagog faoliyatda bolalarga kun, hafta, loyiha mavzusi haqida gapirib beradi. Ko‘rgazmali materialning katta qismi va bolalar va ota-onalarning faoliyati natijalari hozirda amalga oshirilayotgan loyiha mavzusiga mos keladi. ‘‘Muloqot’’ muhiti tufayli bolalar xonada nima va qayerda joylashganligini bilishadi, bu ularga o‘zlarini erkin va qulay his qilishlariga yordam beradi, ular o‘zlarining barcha g‘oyalarini mavzuga mos tarzda mujassamlashtira oladilar.

Bolalar bog‘chasida hamma biladi, bolalar ko‘p vaqtlarini o‘tkazadilar. Bu yerda ular muloqot qilishadi, o‘ynashadi va o‘rganishadi. Rivojlanayotgan muhit – bu maktabgacha ta’lim tashkilotlarining guruh xonasini mutlaqo g‘ayrioddiy tarzda, o‘ziga xos jonli holatgao‘zgartirish imkonini beruvchi noyob vositadir. Shu sababli, tashkilotlarda rivojlanayotgan obyekt-fazoviy muhit bolalarning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish, ularga tajriba va bilim olish erkinligini ta’minlaydigan tarzda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. ‘‘Muloqot muhiti’’ ota-onalarga tashkilotda bolalarning hayoti nima bilan to‘ldirilganligini aytadi. Pedagoglarga ‘‘so‘zlashuv muhiti’’ pedagogik mahorat va kreativ g‘oyalarini faoliyat turi va mazmunini maqsaddan natijagacha bo‘lgan jarayonni faollashtiradi. Bu bolalar bilan keyingi muloqotni, shuningdek, ular bilan individual ishlashni samarali rejalashtirishga yordam beradi.

Bunday to‘g‘ri tashkil etilgan, “so‘zlashuv muhiti” bolalarga o‘z makonida o‘zini to‘laqonli usta sifatida his qilish, faollik va tashabbus ko‘rsatish, o‘z ahamiyatini anglash, umumiy ishga shaxsiy hissasini his qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanayotgan obyekt-fazoviy muhit maktabgacha ta’lim tashkilotining rivojlanish maydonining barcha tamoyillariga mos kelishi, mazmuni bilan to‘yingan, rivojlanayotgan, o‘zgaruvchan, ko‘p funksiyali, o‘zgaruvchan, foydalanish mumkin va xavfsiz bo‘lishi bilan birga bolaning kommunikativ kompetensiyasini faollashtirishi lozim. Amaliyot bilan tasdiqlangan ushbu texnologiya bolaning har tomonlama rivojlanishi – umuman jismoniy va ma’naviy rivojlanish muammolarini hal qilishda katta ijobiy natija beradi, bilim qiziqishlari, mehnat ko‘nikmalari, tasavvurlarini shakllantirishda o‘zaro muloqot, fikr va muloqatchanlikni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Grosheva I. V., Yevstafeva L. G., Maxmudova D. T., Nabixanova Sh. B., Pak S. V., Djanpeisova G. E. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun. 2018-y.

2. Вахобова Ф., Зайнутдинова Д. Развивающие игры. ‘‘Бекинмачок плюс’’ 2009 г.

3. Зайнуддиновна Д., Усмонходжаева Г. Подвижные игры в детском саду. Тошкент Янги аср авлоди 2006 г.

Shoiraxon KARIMOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG-TARBIYACHILARI MALAKASINI OSHIRISHNING SAMARALI METOD, SHAKL VA VOSITALARI

Annotatsiya

Maqolada Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilarining kasbiy malakalarini oshirishda samarali metod, shakl va vositalar, ularning ahamiyati haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, pedagog-tarbiyachilarining o‘qitish ishini amalga oshirishga qaratilgan texnologik jarayondagi fasilitatorlik vazifasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Pedagog, tarbiyachi, kasbiy malaka oshirish, ta’lim mazmuni, metod, shakl, vosita, texnologiya, fasilitator.

В статье представлена информация об эффективных методах, формах и средствах повышения квалификации преподавателей Дошкольная образовательная организация, их значении. Также говорится о роли фасилитаторов в технологическом процессе, направленном на осуществление воспитательной работы педагогов.

Ключевые слова. Педагог, воспитатель, повышение квалификации, содержание образования, метод, форма, инструмент, технология, фасилитатор.

The article provides information on effective methods, forms and means of advanced training for teachers of preschool educational organizations, their significance. It also talks about the role of facilitators in the technological process aimed at the implementation of the educational work of teachers.

Key words. Teacher, educator, advanced training, content of education, method, form, tool, technology, facilitator.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risida”gi Nizomni hamda “Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida”gi 929-sonli qarorida maktabgacha ta’lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va joriy etish; o‘qitishning zamonaviy ilg‘or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy etish orqali tarbiyalanuvchilarning har tomonlama kamol topishini ta’minlash; zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, samarali shakllar hamda usullardan foydalanib, shu jumladan, tarbiyalanuvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etishda ular bilan yakka tartibdagi ishlarni ta’minlashga ko‘maklashish kabi vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining eng muhim ijobiy muhiti bolalarda hayotiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayonidir. Bu bolalarning imkoniyatlarini rivojlantiradi, biroq, ularda ijobiy rivojlanishni ta’minlamasligi mumkin. Bu muammo tarbiyachining pedagogik mahorati va kasbiy kompetentligiga bog‘liq. Pedagogik mahorat va kompetentlikni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

taqozo etiladi.

MTT tarbiyachilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish shakllari quyidagilar:

1. MTT da o‘tkaziladigan: o‘quv seminari va treninglar.
2. Onlayn aloqalar (internet forum, telegram-bot kanali).
3. “Yosh tarbiyachilar” maktabi.
4. Malaka oshirish kurslaridagi ta’lim.
5. Mustaqil ta’lim.

Malaka oshirish kurslarigacha bo‘lgan davrda malaka oshirish mazmunini aniqlab olish va rejalarga tuzatishlar kiritish imkonini beruvchi qisqa muddatli seminar va treninglar o‘tkaziladi, ushbu seminarlar tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynadi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida viloyat va tuman maktabgacha ta’lim bo‘limlari bilan hamkorlikda “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi va uni amaliyotga joriy etishdagi muammo va yechimlar” mavzusida qisqa muddatli seminarlar tashkil etildi. Seminarning maqsadi “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash hamda amaliyotdagi mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratildi.

Seminar quyidagi natijalarga erishish imkoniyatini berdi:

1. Talab va takliflarni tahlil qilish asosida tarbiyachilarni malaka oshirish kurslari mazmunini pedagogik mexanizmini ishlab chiqish.
2. Malaka oshirish kurslarida davlat talablarini bajarishga erishish uchun eng qulay va samarali usul va vositalarni tanlash.

Eng asosiysi, tarbiyachilar maktabgacha ta’lim jarayoniga oid o‘zlarini qiziqtirgan savollar va muammolarni hal etish borasidagi maslahatlarni oldilar. Seminarda pedagog-tarbiyachilarga zarur maslahatlar, malaka oshirish kursidagi ta’limga qadar bajarish lozim bo‘lgan topshiriqlar berildi.

Darhaqiqat, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog-tarbiyachilar bolalar kamolotini ta’minlash o‘z oldilaridagi muhim vazifa ekanligini teran his qilishlari lozim. Tarbiyachi-pedagoglar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida turli xil faoliyat va ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etadilar. Bu jarayonda bolalar uchun qulay va shinam interfaol muhit yaratilishi yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda zarur omil bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar faoliyati uchun interfaol muhit tashkil etish negizida insonparvarlik pedagogikasi tamoyillariga tayanish talab etiladi. Birinchi navbatda tarbiyachi bola shaxsiga tahdid qilmasligi zarur. Bunda bola bilan tarbiyachi o‘rtasida o‘zaro do‘stlik, mehr-muhabbat o‘rnatilishi talab etiladi.

Tarbiyachi bolalarning ehtiyojlarini anglashi va ularni inobatga olishi lozim. Mashg‘ulotni tashkil etish va o‘tkazish jarayonida tarbiyachi va bolalar hamkorlikda ishlaydilar. Bu esa bolalarda faollikni, ma’suliyatni, mustaqillikni rivojlantiradi, ayniqsa, ayrim bolalarda shaxsiy ijodkorlik namoyon bo‘ladi. Agarda tarbiyachi guruhda sof psixologik muhit yaratmasa yoki bolalarni shaxs sifatida hurmat qilmasa, ta’lim-tarbiya berishda qo‘yilgan maqsadga erishishda qiyinchiliklar ro‘y beraveradi.

Bolalarning ta’lim olish faoliyatida qulay muhit yaratilsa, ularning psixik va jismoniy jihatdan sog‘lom bo‘lishlari ta’minlanadi. Shuningdek, bolalarda ijobiy hissiy holat ro‘y beradi, ular maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi barcha jarayonlardan qoniqish hosil qiladilar, shundagina “bog‘chaga bormayman” degan harxashani unutadilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari o‘quv-tarbiyaviy faoliyatda ijobiy muhit yaratishlari lozim, ya’ni bolalarni ruhan qo‘llab-quvvatlash, aqliy rivojlantirish

va jismonan sog‘lom qilib tarbiyalash.

Ruhan qo‘llab-quvvatlash bolaning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish va tashkiliy, kommunikativ sharoit bilan bog‘liq ravishda amalga oshirishdir. Bolalar o‘zlarini ruhan erkin va qulay his qilsalar ularda hursandchilik, qoniqish, yuqori kayfiyat yuzaga keladi. Bu holat bevosita ta’lim jarayonidagi muloqot va boshqa subyektiv vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ijobiy hislarning yuzaga kelishida bolaning faoliyat motivatsiyasi, xulq-avtori, atrof-muhit va subyektiv jarayonlar sabab bo‘ladi.

Psixologik qulay muhit yaratishda birinchi galda interfaol muhit vositalari va bolalar o‘rtasida shaxslararo munosabat muhim o‘rin tutadi. “Tarbiyachi-bola” munosabati uchun hamkorlikdagi faoliyat, ya’ni ijobiy hissiy holatlar, ezgulik, bag‘rikenglik asosida muloqot qilish taqozo etiladi. Mana shu jarayonda bola va tarbiyachining bir-birlarini ijobiy qabul qilishlari, o‘zaro bir-birini tushunishi, tinglashi va o‘zaro ishonch asosiy omil bo‘ladi.

Tarbiyachi uchun zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikma bu – bola ruhiyatini his qilish, uning xatti-harakatlarini to‘g‘ri qabul qilish, asosan bolani sevishidir. Tarbiyachi va bola o‘rtasida o‘zaro ta’sir ko‘rsatishdagi psixologik jihatlardan biri – shaxslararo ta’sirdir. Tarbiyachi ta’lim jarayonining boshqaruvchisi va tashkilotchisidir. U shunday vaziyat yaratishi kerakki, bu vaziyat bolalarning kayfiyati, holati va ruhiyatini qo‘llab-quvvatlasin.

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish bevosita maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi jarayonlar qanday tashkil etilganiga bog‘liq bo‘lib, u bolalarning qiziqish va intilishlarini ta’minlashi lozim.

Tarbiyachi ta’lim-tarbiya jarayonining quruvchisi va dizayneri bo‘lib, bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini o‘z ma’suliyatiga olishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qulay muhit yaratishning muhim jihatlaridan biri bolani individual ravishda uning qiziqishi, maqsadi, imkoniyatlariga muvofiq to‘siqlarni yengib o‘tishida qo‘llab-quvvatlashdir. Tarbiyachi yuqori kasbiy mahoratga ega bo‘lsagina, bolani yutuqlarga erishish yoki ijobiy natijalarni qo‘lga kiritish, o‘z-o‘zini boshqarishga, muloqotchanlikka o‘rgata oladi.

Aqliy rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish ta’lim jarayonida bolaning o‘z qobiliyati, qiziqishi, imkoniyatlari va tarbiyachi tomonidan yaratilgan mazmunli pedagogik sharoit orqali yutuqlarga erishishni ta’minlaydi. Intellektual jihatdan bolaning rivojlanishi o‘zining fikrlash faoliyati va natijaga erishganidan qoniqish hosil qilishi bilan namoyon bo‘ladi. Mashg‘ulotlarda bolalar uchun qulaylik yaratish turli faoliyatlarning o‘zaro almashinuvi, natijalarni tahlil qilish, o‘z imkoniyatlariga ishonch hosil qilishga o‘rgatish orqali amalga oshiriladi.

Jismoniy rivojlantirish barcha jarayonda ertalabki badantarbiya, mashg‘ulotlar orasida jismoniy daqiqa o‘tkazish hamda kun davomidagi turli o‘yinlar tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Tarbiyachi ta’lim-tarbiya berishda fasilitator vazifasini ham bajaradi. Ya’ni bolani qo‘llab-quvvatlaydi, yordam ko‘rsatadi. ‘‘Fasilitator’’ termini psixologiyada yengillashtirish, biror shaxsning faoliyatini optimal darajaga olib chiqishda ko‘mak berishdir. Ta’lim jarayonida tarbiyachining fasilitatorlik vazifasi bola bilan ijobiy muloqot o‘rnatish, biron bir faoliyat bilan shug‘ullanayotganida unga yordam berish va ruhan qo‘llab turishdan iborat. Biroq amaliy tajribalarimiz shuni ko‘rsatdiki, tarbiyachilar faol harakatlarni to‘g‘ri tashkil eta olmaydilar, bolalar ruhiyati, qiziqishi va ehtiyojlarini anglay olmaydilar, natijada bolalar bilan ijobiy muloqot o‘rnata olmaydilar, bor imkoniyatlar qo‘ldan boy beriladi. Bola maktabda uning uzluksiz rivojlanishiga imkoniyat tug‘diradigan faoliyat

bilan shug‘ullanadi. Bu faoliyat majoziy ma’noda bir pog‘ona ko‘tarilish imkoniyatini beradi. Chunki rivojlanishdan oldinda borayotgan ta’limgina samaralidir. Ayni shu omil rivojlanishning yaqin hududidagi boshqa funksiyalarning namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. Pedagogika ortga emas, bola rivojlanishining ertangi kuniga qarab yo‘nalish olishi kerak-degan fikr bilan kattalar va bolalar o‘rtasida o‘zaro faol harakatni tashkil etish muhimligini ta’kidlaydi.

Tajriba-sinov ishlari davrida mashg‘ulotlarning muayyan loyihalar asosida tashkil etilishiga ham e’tibor qaratildi.

Har bir texnologiyani o‘tkazishning o‘ziga xos vazifa va bosqichlari mavjud.

1-bosqich. Tanishuv va kutiladigan natijalarni aniqlash bosqichi. Bunda o‘quv xonasida sog‘lom psixologik muhit yaratiladi.

2-bosqich. Tinglovchilarning erkin va faol ishtiroki uchun zarur shart-sharoit yuzaga keltiriladi.

3-bosqich. O‘quv jarayoniga yakun yasash va qayta aloqa o‘rnatish. Malaka oshirish kursi o‘quv jarayonida loyihalash usuli tarbiyachilarning kasbiy kreativligini rivojlantirish va faollashtirishga turtki beradi. Ularning kasbiy kreativligi (ijodkorligi)ni rivojlantirishga o‘quv jarayonini o‘zgartirish, ya’ni o‘quv materialini noan’anaviy shaklda taqdim etish, muammoli savollar tuzishga o‘rgatish, muammo yechimini birgalikda izlash, tinglovchilarning bilishga bo‘lgan faolligi va ijodiy potensialiga stimul (turtki) berish bilan erishiladi. Bunda albatta, professor-o‘qituvchilar tinglovchilarda o‘quv motivlarining ichki va tashqi manbalariga tayanishlari lozim. Bunda tinglovchilarda motivatsiyani shakllantirish talab etiladi. Kreativ yondashuvda tinglovchi mustaqil ijodiy izlanish faoliyatiga kirishadi, guruhning barcha ishtirokchilari o‘zaro munozara yuritadilar, izlanadilar, innovatsion loyihalar tinglovchini chuqur anglashga, ijodiy natijaga erishishga asos bo‘la oladi. Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilari malaka oshirish jarayonida o‘z faoliyatlarini modellashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar hamda mavjud ko‘nikmalarni qayta ishlaydilar. Ularda maqsadga erishish, vazifalarni aniqlash, tahlil etish, tashkil etish, natijaga erishishni oldindan ko‘ra olish malakalari rivojlanadi. Loyihalashtirish usuli faoliyatni asosiy yo‘nalishlarga ajratishga yordam beradi, amalga oshirish jarayoni, imkoniyatlarni tahlil qilish va ulardan foydalanishni rejalashtiradi. Shuningdek, tinglovchilarga o‘z hayotiy faoliyatlarida uchrashi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlarni his etish, muhokama va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Ta’limiy vaziyatlarda qatnashgan har bir tinglovchi hissiy va faoliyatga oid tajribaga ega bo‘ladi, pedagog shaxsida psixologik bilimlar rivojlanadi. Kreativ yondashuv mohiyati shuki, tarbiyachilarda ijodiy potensial izlanish faoliyati orqali rivojlanadi va faollashadi. Ta’lim jarayonida muammoni qo‘yish, turlicha yo‘llar bilan yechish, baholash va natijalarni asoslash malakasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni. 2020-yil 23 -sentyabr. O‘RQ-637-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son)

2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. O‘RQ-595-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son)

Shaxlo XOLLIYEVA,
Qarshi davlat universiteti, "Fiziologiya" kafedrasi o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI SINF XONASIGA QO'YILADIGAN GIGIYENIK TALABLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun quyidagi gigiyenik talablar aks ettirilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga ularning sog'lom va barkamol tarbiya topishlari uchun qanday gigiyenik talablarga rioya qilishlari kerakligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Gigiyena, gigiyenik talablar, sanitariya qoidalari, bolalar salomatligi, xona harorati, xonaninig yorug'lik darajasi, tabiiy yorug'lik, asab hujayralari, jismoniy tarbiya, patologiya, fiziologik jarayonlar.

В данной статье изложены гигиенические требования к учащимся начальной школы. Учащимся начальных классов рассказывают, какие гигиенические требования им необходимо соблюдать, чтобы иметь здоровое и всестороннее воспитание.

Ключевые слова. Гигиена, гигиенические требования, санитарные правила, здоровье детей, температура в помещении, уровень освещенности в помещении, естественное освещение, нервные клетки, физическая культура, патология, физиологические процессы.

This article outlines the hygienic requirements for primary school students of general secondary education. Primary school students were told what hygiene requirements they must comply with in order to have a healthy and comprehensive upbringing.

Key words. Hygiene, hygiene requirements, sanitary rules, children's health, indoor temperature, indoor lighting level, natural lighting, nerve cells, physical culture, pathology, physiological processes.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasiga berilayotgan e'tibor natijalari jahon standartlari talablari darajasida jihozlangan zamonaviy o'quv binolari, ishlab chiqilayotgan o'quv va texnik vositalar kelajak yosh avlodning yaxshi bilim olishi, ham ma'naviy, ham fiziologik jihatdan sog'lom bo'lib yetishishiga qaratilgandir.

O'quv binolarini qurish va jihozlash ishlari tegishli me'yoriy hujjatdagi qoidalarga asosan bajariladi. Ushbu belgilangan me'yoriy qoidalar bu barcha davlat va xususiy ta'lim muassasalari uchun majburiydir. Bu qoidalar tegishli organlar tomonidan tasdiqlangan me'yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak, shu jumladan, maktab binolariga ham. Bu hujjatning maqsadi – bolalar o'qiyotgan bino va binolarda qulay sharoitlarni ta'minlash, xavfsizlik standartlarini o'rnatish bilan bir qatorda bolaning sog'lom o'sib rivojlanishini ham ta'minlashdir. Faqat belgilangan talablarga javob beradigan maktablarda sifatli ta'lim olish mumkin. Shuni ko'zda tutgan holda SanPiNning sinf xonalariga qo'yilgan gigiyenik talablari belgilangan.

Boshlang'ich umumta'lim maktabining o'quvchilari har bir sinfga ajratilgan sinflarda o'qishlari shart.

1-sinf o'quvchilari uchun o'quv xonalari 2-qavatdan, 2-4-sinf o'quvchilari uchun

esa 3-qavatdan baland bo‘lmagan holda joylashtirilishi tavsiya etiladi.

Sinflardagi o‘quvchilarning taxminiy soni bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan maydonni hisoblab mebellarni ushbu sanitariya qoidalariga muvofiq joylashtirish asosida, har bir o‘quvchiga 2 m2 dan kam bo‘lmagan holda belgilanadi. Sinf xonasining pol yuzasi parket linoleum va taxtadan bo‘lishi maqsadga muvofiq hisobanadi. Sinf xonasining pol sathi 62 m2 ga teng bo‘lishi kerak. Buning uchun xonani uzunligi va eni shunga ko‘ra hisobga olinadi.

SanPiN me’yorlarida birinchi marta boshlang‘ich maktab uchun maktab darslarida interfaol doskalardan foydalanishning gigiyenik qoidalari paydo bo‘ldi. Boshlang‘ich maktab uchun yangi SanPiN talablari darslarda o‘quvchilarning interfaol doska bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashning uzluksiz davomiyligi 5 daqiqadan, 5-11-sinflarda – 10 daqiqadan oshmasligi kerakligini belgilaydi. 1-2-sinflarda darslarda interfaol doskadan foydalanishning umumiy davomiyligi 25 daqiqadan, 3-4 va undan katta sinflarda – 30 daqiqadan oshmasligi kerak, darsni gigiyenik jihatdan oqilona tashkil etish (faoliyatni maqbul o‘zgartirish) sharti bilan, darslar zichligi 60-80 foiz, jismoniy tarbiya daqiqalari, oftalmik mashqlar). Shuningdek, bitta dars davomida foydalanish uchun bolalar salomatligi uchun xavfsiz bo‘lgan turli xil kompyuter qurilmalari soni bo‘yicha cheklovlar mavjud edi (10.18-bandga o‘zgartirishlar) – ikki turdagi elektron o‘quv vositalaridan ko‘p bo‘lmagan.

Sinf xonasining gigiyenasi: Sinf xonasining pol sathi 50 m2 bo‘lishi tavsiya etiladi. Odatda, boshlang‘ich va o‘rta sinflarda 40 tagacha o‘quvchi o‘qiydi, har bir o‘quvchiga 1,25 m2 pol sathi to‘g‘ri kelishi kerak, yuqori sinflarda esa 36 o‘quvchi bolib, har bir o‘quvchiga 1,40 m2 pol sathi to‘g‘ri keladi. Sinf xonasining uzunligi 8,2 metrdan oshmasligi kerak, bundan uzun bo‘lsa keyingi partalarda o‘tirgan o‘quvchilar doskadagi yozuvlarni yaxshi ko‘ra olmaydi. Sinf xonasining kengligi 6,2 metrdan oshmasligi lozim bu partalar orasidagi masofani to’g‘ri taqsimlashga yordam beradi bolaning erkin harakatini ham ta’minlaydi. Sinf xonasida harorat +18-20 daraja, nisbiy namlik 40-60 foiz bo‘lishi kerak. Sinf havosi tarkibi xuddi atmosfera havosidek toza bo‘lishi tavsiya etiladi. Havo tarkibidagi karbonat angidrid miqdori 0,1 foizdan oshganda bosh miya nerv hujayralarining faoliyati pasayib, o‘quvchilarda bezovtalanish, esnash, mudrash, o‘zlashtirishning pasayishi kabi bir qator bosh miyada charchash belgilari yuzaga keladi. Dars paytida o‘quvchilar bundan vaziyatlarni oldini olish va o‘zlashtirishini yaxshilash uchun sinf xonasining havosi yangilab turilishi zarur, havo sovuq kunlarda, dars paytida deraza darchasi 2 marta 1-2 minutdan ochilib, sinf havosi yangilanadi. Issiq kunlarida esa deraza darchasi doim ochib qo‘yiladi.

Sinf tabiiy va sun’iy usulda yoritilishi. Tabiiy yoritish derazalar orqali ta’minlanadi, yorug‘lik koeffitsienti 1:4, kamida 1:5 nisbatda, ya’ni sinfdagi hamma derazalarning umumiy sathi, sinfning pol sathini to‘rtdan yoki beshdan bir qismiga teng bo‘lishi lozim. Sinfning tabiiy yorug‘ligi bo‘yoqlarning rangiga ham bog‘liq bo‘lib, qora, ko‘k, to‘q yashil, jigar-rang kabi rangli bo‘yoqlar yorug‘likni kamaytiradi. Gigiyena qoidasiga binoan sinfning devori och sariq yoki och pushti, shift esa oq, deraza va eshik oq yoki havorang, partalar stol usti, yon tomoni va o‘tirg‘ichlari och rangli bo‘yoqlar bilan bo‘yalishi lozim. Deraza tokchasidagi gullar yorug‘likni to‘sib, 20-30 foizgacha kamaytirishi mumkin. Shuning uchun gullarni sinf burchaklaridagi maxsus stolchalarga o‘rnatilgani ma’qul. Sinf derazalariga tutiladigan pardalar ham yorug‘likni to‘sadi. Estetik ko‘rinish maqsadida tutilgan och sariq yoki och pushti rangli uzun pardalar derazaning ikki chetiga surib qo‘yilishi kerak. Faqat yozning issiq kunlari quyosh nurini to‘sish uchun parda

derazaning quyosh tushayotgan tomoniga surib qo‘yiladi. Bundan tashqari maxsus lampalar orqali sinflar sun’iy yoritiladi, ular belgilangan talablarga muvofiq joylashtiriladi. Agar yoruglik to‘g‘ri ta’minlanmasa ko‘rish qobiliyatiga ta’sir etib, ko‘z xiralashishiga olib keladi. Shuning uchun har 10-15 minutda o‘quvchi e’tiborini o‘qituvchiga qaratgan holda, u deraza oynalaridan uzoq masofaga qarab, ko‘zlarini dam oldirishi kerak. Bunda ko‘z qorachig‘i torayib, ko‘z ichidagi bosim ham pasayadi. Shu sababdan derazaga qaragan o‘quvchiga, o‘qituvchi tanbeh bermasligi va aksincha, o‘quvchilarni shunga odatlantirish lozim.

Maktabda sinf jihozlarini tanlash va joylashtirish dars jarayonini takomillashtirishda, o‘quvchilarning yuqori ish qobiliyati va sog‘lig‘ini saqlashda, maktab patologiyasining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan o‘quvchilar stollari, stullar, laboratoriya stoli, kitob, devor va ichki shkaflar doskalar va boshqalar. Sinf xonasida o‘quv partalari, stol-stullarni joylashtirishda o‘quvchilar derazaga nisbatan yoruglikni chap tomondan tushishiga qarab joylashtirilishi kerek. Chunki yozuv vaqtida o‘ng tomondan daftarga soya tushib yoruglik yetarli darajada bo‘lmasligiga olib keladi. Bolaning ko‘rish qobiliyatiga ham ta’sir ko‘rsadi, vaholangki, bola dars jarayonida yorug‘lik yetarli darajada bo‘lmasa yaxshiroq ko‘rish maqsadida yanada yaqinroqdan ko‘ra boshlaydi va ko‘z bosimini oshishiga olib keladi, toliqadi. O‘quv jihozlarini tanlashda quyidagi talablarga javob berish kerak: u bolalar va o‘spirinlarning anatomik va fiziologik imkoniyatlariga mos kelishi shuningdek, bolaning mashg‘ulot paytida qulay holatini ta’minlash, ish faoliyatini saqlab turish va patologiyaning oldini olishi va xavfsiz bo‘lishi va estetik talablarga javob berishi kerak. Maktab jihozlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu o‘quvchilarni sinfga joylashtirish uchun mo‘ljallangan mebeldir. Biroq, hozirgi paytda aksariyat maktablar va boshqa o‘quv muassasalarida asosan o‘quvchilar stollari va stullardan foydalaniladi, bu ularning ishlab chiqarishining nisbatan soddaligi va yuqori samaradorligi bilan bog‘liq. O‘quv mebellari qattiq yog‘ochdan yasalgan bo‘lishi kerak, uning yuzasi juda qo‘pol bo‘lmasligi yoki aksincha, oyna silliq bo‘lishi kerak. Yog‘och to‘qimasini saqlab qolish yoki bo‘yoqni xira ranglar bilan bo‘yashda stol va stul o‘rindiqlarini shaffof lak bilan tugatish mumkin: sariq, och yashil, yashil, kulrang ko‘k, ko‘k, yashil rang, sariq rang bilan 35 dan 50 foizgacha. Sirti yaltiroq bo‘lmasligi kerak, chunki stollarning, shkaflarning va boshqa jihozlarning yaltiroq yuzlari ko‘zning to‘r pardasiga ta’sir qiladi, ko‘rish keskinligining pasayishiga, aniq ko‘rish barqarorligiga va ishlashning pasayishiga olib keladi. Maktab jihozlarini oq rangga bo‘yashga ruxsat berilmaydi, chunki bu xonadagi yorug‘lik va yorqinlikni sezilarli darajada oshiradi.

Sinfdagi psixologik va gigiyenik jihatdan qulay muhit ta’limning muvaffaqiyatli o'tishiga maksimal darajada hissa qo'shadigan tarzda tashkil etilgan; aqliy rivojlanish o‘quvchilarning ta’lim madaniyatini shakllantirish, ular tomonidan fanlar va fan asoslari bo‘yicha puxta bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, bunda o‘qituvchi va o‘quvchilarning salomatligi va xavfsizligini muhofaza qilish talablari to‘liq ta’minlanadi.

Sinfdagi stol ketma-ket, odatda uch qatorda belgilangan masofalarni saqlab, yorug‘lik chap tomondan tushadigan qilib joylashtiriladi. Odatdagi mashg‘ulot xonalarida quyidagi masofa me’yorlari saqlanishi lozim: tashqi devordan birinchi qatorgacha (derazadan hisoblash) kamida 0,6 – 0,7 m, ichki devordan uchinchi qatorgacha – 0,5 m, orqa devordan oxirgi qatorgacha – 0,5 – 0,65 m, doskadan dastlabki qatorgacha – kamida 2 m (tegmaslik 2,4 – 2,7 m), qatorlar orasidagi masofa - 0,6 – 0,7 m. Derazadan stollarning uchinchi qatorigacha bo‘lgan masofa 6 m dan oshmasligi kerak, aks holda bu qatorda o‘tirgan o‘quvchilarning ish joylari tabiiy yorug‘lik bilan yaxshi yoritilmaydi. Orqa

stollar doskadan 8 m dan uzoq bo‘lmagan masofada joylashgan bo‘lishi kerak, chunki ularni olib tashlash to‘quvchilarning ko‘rish va eshitish organlariga haddan tashqari kuchlanishni keltirib chiqaradi.

Sinfga maktab jihozlarini tanlash va joylashtirish o'quv jarayonini takomillashtirishda, o‘quvchilarning yuqori ish qobiliyati va sog‘lig‘ini saqlashda, maktab patologiyasining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Maktabga (o‘quv jihozlariga) quyidagilar kiradi: mebel (o‘quvchilar stollari, stullar, stol, laboratoriya stoli va hk., Kitob, devor va ichki shkaflar va ustunlar); doskalar; o‘quv ustaxonalari va dastgohlari; sport zallari uchun jihozlar; darsliklar, ko‘rgazmali qurollar va ish yuritish materiallari. O‘quv jihozlarini tanlashda quyidagi talablarga javob berish kerak: u bolalar va o‘spirinlarning anatomik va fiziologik imkoniyatlariga mos kelishi kerak, shu bilan bolaning mashg‘ulot paytida qulay holatini ta’minlaydi, ish faoliyatini saqlab turadi va patologiyaning maktab shakllarini rivojlanishining oldini oladi; u xavfsiz bo'lishi kerak, shikastlanishlar va bolalar va o‘spirinlarning kasalliklari paydo bo‘lishini istisno qilish kerak (masalan, mebelda kesish va o‘tkir chiqishlar yo‘qligi, kitoblar va daftarlarni tayyorlashda xavfsiz ranglardan foydalanish va boshqalar); maktab jihozlari estetik talablarga javob berishi kerak, yengil va jozibali rangda, bezatish elementlari bilan. Maktab jihozlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu o‘quvchilarni sinfga joylashtirish uchun mo‘ljallangan mebeldir. 200 dan ortiq turli xil stollarning modellari mavjud, ulardan pedagogik va gigienik nuqtayi nazardan, F. F. Erisman. Biroq, hozirgi paytda aksariyat maktablar va boshqa o‘quv muassasalarida asosan o‘quvchilar stollari va stullardan foydalaniladi, bu ularning ishlab chiqarishining nisbatan soddaligi va yuqori samaradorligi bilan bog‘liq.

Maktab binolari va sinf xonalariga bu tarzda talablarni qo‘yishdan maqsad yosh avlodni sog‘lom, yetuk va ma’nan barkamol bo‘lib o‘sishida ko‘maklashishdan iborat. Ya’ni fiziologik jarayonlarda, qaddi qomatning to‘g‘ri rivojlanishi, ko‘rish qobiliyatidagi o‘zgarishlar, oliy nerv faoliyatini yaxshilash, mushaklar, suyaklar va bir qator ichki organlar ishini yaxshilashdir. Bola organizimini fiziologik va psiologik rivojlanishini bilish har bir pedagog uchun muhim hisoblanadi va dars jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etishga ko‘mak beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Sodikov Q. S. O‘quvchilar fiziologiyasi va gigiyenasi. – T.: O‘qituvchi, 1992-yil.
2. Sodiqov B. A., Qo‘chqorova L. S., Qurbonov Sh. Q. Bolalar va o‘smirlar fiziologiyasi va gigiyenasi. – T., 2006-yil.
3. Леонтьева Н. Н., Маринова К. В. Анатомия и физиология детского организма. – М.: Просвещение, 1980 г.
4. Хрипкова А. Г. и др. Возрастная физиология и школьная гигиена. – М.: Просвещение, 1990 г.
5. Sharipova D. J., Vaxidova R. G. ‘‘O‘quvchilar toliqishini oldini olish’’. – T., Meditsina, 1986-y.

Nigora BOTIROVA,
Buxoro viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti o'qituvchisi

AXBOROT TA'LIM MUHITINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Axborot ta'lim muhitini takomillashtirish ta'lim jarayoni va uning samarali tadbiq etilish amaliyotini yanada kengaytirib, hozirgi zamon ta'limining rivojlanishida asosiy vazifalarni belgilab beruvchi zamonaviy tendensiyalar va mavjud jahon tajribasiga diqqat bilan nazar solish¬ni talab etmoqda. Ta'lim tizimida o'quv multimedia resurslaridan foydalanib darslarni tashkil etish o'quvchilarning bilim va sifat samaradorligi oshishiga olib keladi.

Kalit so'zlar. Dasturiy vositalar, kompyuter, multimedia, test, Ispring, AutoPlay, Edraw Max, Flip PDF, raqamlashtirish, jadval, grafika.

Совершенствование информационной образовательной среды требует более пристального взгляда на современные тенденции и актуальный мировой опыт, что дополнительно определяет ключевые задачи развития современного образования, расширения образовательного процесса и практики его эффективной реализации. В системе образования организация уроков с использованием образовательных мультимедийных ресурсов приводит к повышению эффективности и качества знаний учащихся.

Ключевые слова. Программное обеспечение, компьютер, мультимедиа, тест, Ispring, AutoPlay, Edraw Max, Flip PDF, оцифровка, таблица, графика.

Improving the information learning environment requires a closer look at current trends and current world experience, which further defines the key tasks in the development of modern education, expanding the educational process and the practice of its effective implementation. In the education system, the organization of lessons using educational multimedia resources leads to an increase in the effectiveness of students' knowledge and quality.

Key words. Software, computer, multimedia, test, Ispring, AutoPlay, Edraw Max, Flip PDF, digitization, table, graphics.

Ta'lim tizimida axborot ta'lim muhitini yaratish tuzilmalari turli tuman bo'lib, ta'limga yo'naltirilgan masofaviy ta'limning dasturiy mahsulotlar orasida elektron ta'lim muhitini qo'llab-quvvatlashning bir qator maxsus vositalarini ajratish, ulardan masofali ta'lim jarayonini tashkil etishning texnologik muammosini hal etish uchun foydalanilmoqda.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yor-

damchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

– o‘rgatuvchi dasturlar – o‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi;

– test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;

– mashq qildirgichlar – avval o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

– o‘qituvchi ishtirokidagi axborot ta’lim muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Axborot ta’lim muhitini yaratuvchi bir necha pedagogik dasturiy vositalar va ularning imkoniyatlarini keltirib o‘tamiz:

Ispring dasturi – PDVlarni yaratishga mo‘ljallangan dastur paketi bo‘lib, elektron kitoblar, onlayn kurslar, trenajyor dasturlar, test va so‘rovlar, o‘rgatuvchi vositalarni yaratishga mo‘ljallagan. O‘zbek tiliga lokalizatsiya qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan, 30 kungacha tekin foydalanish mumkin bo‘lgan konstruktiv dastur hisoblanadi. Bu asosida yaratilgan PDVlarni turli CMS tizimlariga, saytlarga, flash dasturlariga va mustaqil ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan dasturlarga integratsiya qilish mumkin. Bu dastur o‘quvchilarga, asosan, yangi bilimlarni berish va mustahkamlash, talabalar bilimlarini baholashda o‘n bir xil turdagi test turlaridan foydalanish, vaqt shkalasi asosida savol-javoblar tuzish kabi elektron resurslarni yaratish uchun xizmat qiladi. O‘qituvchidan maxsus bilim talab qilmaydi.

Hot Potatoes dasturi – asosan o‘quvchilarning bilimlarini aniqlash uchun test va so‘rovlar, topshiriqlarni bajarishga asoslangan PDVlarni yaratishga mo‘ljallangan veb texnologiyaga asoslangan dastur. O‘zbek tiliga lokalizatsiya qilish imkoniyati mavjud emas, tekin foydalanish mumkin bo‘lgan veb ilovali dastur hisoblanadi. Bu asosida yaratilgan PDVlarni turli CMS tizimlariga, saytlarga integratsiya qilish mumkin. Bu dastur o‘quvchilarni bilimini aniqlash uchun xizmat qiladi. O‘qituvchidan maxsus bilim talab qilmaydi.

My TEST dasturi – asosan o‘quvchilarning bilimini aniqlash uchun test va so‘rovlarni bajarishga asoslangan PDVlarni yaratishga mo‘ljallangan klient-server texnologiyasiga asoslangan dastur. O‘zbek tiliga lokalizatsiya qilish imkoniyati mavjud va interfeysi o‘zbek tilida, tekin foydalanish mumkin bo‘lgan windows dasturi hisoblanadi. Bu asosida yaratilgan PDVlarni turli integratsiya qilish imkoniyati mavjud emas. Bu dastur o‘quvchilarning bilimini aniqlash uchun xizmat qiladi. O‘qituvchidan maxsus bilim talab qilmaydi.

Course Lab dasturi – LMS tizimlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, PDVlarni yaratish imkoniyatini beradi. O‘quvchilarga bilim berish, nazorat qilish, bilim va ko‘nikma darajasini aniqlash, elektron kurslarni yaratish va bu o‘quv kursidan foydalanishlar statistikasini olib borish, o‘quvchilarning baholariga qarab tabaqalashgan nazariy materiallarni taqdim qilish, topshiriqlar bazasini yaratish va vazn bo‘yicha uyga vazifa berishga asoslangan PDVlarni yaratishga mo‘ljallangan klient-server texnologiyasiga asoslangan dastur. O‘zbek tiliga lokalizatsiya qilish imkoniyati mavjud, tekin onlayn va oflayn foydalanish mumkin bo‘lgan WYSIWYG texnologiyasiga asoslangan dasturi hisoblanadi. Bu asosida yaratilgan PDVlarni LMS tizimlariga integratsiya qilish imkoniyati mavjud. O‘qituvchidan maxsus bilim talab qilmaydi.

AutoPlay dasturi – mustaqil va avtomatik ishga tushuvchi PDVlarni yaratish imkoniyatini beradi. O‘quvchilarga bilim berish, elektron kurslarni, taqdimot material-

larini, murakkab bo‘lmagan o‘yinli topshiriqlarni yaratish, elektron rasmlar to‘plami, video materiallar to‘plami va qulay ko‘rish dasturi, audio yozuvli elektron resurslarni, interaktiv menyularni yaratib berishga asoslangan dastur. O‘zbek tiliga lokalizatsiya qilish imkoniyati mavjud emas, tekin foydalanish mumkin bo‘lgan muloqot oynali texnologiyaga asoslangan dastur hisoblanadi. Bu asosida yaratilgan PDVlarni integratsiya qilish imkoniyati mavjud emas. O‘qituvchidan maxsus bilim talab qilmaydi.

IT Cracadial dasturi – axborot texnologiyalariga mo‘ljallangan fan sohalari uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan PDV dasturi hisoblanadi. IT sohasida o‘rganuvchilar uchun texnik ishlanmalar va algoritmlarni dasturiy ta’minotlarning mantiqiy axborot almashish modellarini tayyor instrumentlar asosida foydalanish mumkin. O‘quvchilarga kichik loyihalarni amalga oshirishda nazariy bilimlarini amalda qo‘llash, topshiriqlarni bajarishga mo‘ljallangan. O‘zbek tiliga lokalizatsiya qilish imkoniyati yo‘q. 30 kunlik tekin variantlari mavjud. O‘qituvchilar uchun maxsus tayyorgarlikni talab etadi.

Edraw Max dasturi – keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan dasturiy vositalardan biri hisoblanadi. Edraw Max dasturida nafakat tashkiliy sxemalar, tarmoq diagrammalari, blok-sxemalarni, balki UML diagrammalarni, tarmoq diagrammalarini, ma’lumotlar bazasi diagrammalarini, reja diagrammalari hamda ish jarayonlarini yaratish imkoniyati mavjud. Dasturiy vositada bir vaqtning o‘zida bitta oynada bir nechta loyiha bilan ishlash mumkin. 5000 dan ortiq yaratilgan vektorli simvollari ham mavjud, ular yordamida diagramma, grafiklarni chizish juda ham oson va yengil amalga oshiriladi. Dasturdagi mavjud tayyor shablon va misollar asosida turli tipdagi taqdimotlarni yaratish imkoniyatini beradi. Ushbu dasturiy vosita Microsoft Windows oparatsion tizim uchun ishlab chiqarilgan bo‘lib, kompyuterga juda oson o‘rnatiladi. Dastur pullik hisoblanadi, lekin shunga qaramasdan foydalanuvchilar tomonidan uning ko‘plab funksiyalarga egaligi hamda ko‘p miqdordagi uskunalarga ega ekanligi sababli keng foydalanib kelinmoqda.

Yutuqlari:

– juda katta grafik imkoniyatlarga ega. U yordamida turli xildagi blok- xemalar, tashkiliy diagrammalar hamda tarmoq sxemalarini yaratish imkoniyatlari mavjud;

– keng masshtabdagi ranglar, shriftlar, formalar, tasvirlar, matnlar, qoliplar va simvollarga ega;

– aniq vaqt birligida yaratilgan mahsulotni chop qilishdan oldin ko‘rish imkoniyati mavjud;

– yaratilgan sxemalar va boshqa mahsulotlarni dasturiga word, excel, power point, pdf dasturlariga o‘tkazish imkoniyati mavjud;

– jadvallarni yaratish imkoniyati mavjud.

Flip PDF dasturi multimedia muharriri bilan burilishlar yaratish uchun kuchli ko‘p funksiyali vositadir. Ajoyib tayyor andozalar bilan ishlab, videolar, rasmlar, slaydshou va giperhavolalar orqali multimedia materiallarini yaratish imkoniyatini beradi.


Pedagogik dasturiy vositalarning gipermatn hujjatlarini ishlab chiqishda Microsoft Front-Page (HTML-Hyper Text Markup Language), Alliare Home Site (HTML), Microsoft Power Point, Microsoft Word kabi dasturiy vositalardan foydalaniladi.

Ovozli jarayonlarni taqdim etish va ovozni tahrir qilish SonicFoundry SoundForge, Wave Lab, Sound Recorder va boshqa dasturlar yordamida amalga oshiriladi.

Ma’lumotlar bazalarini yaratishda Microsoft Excel, Microsoft Access kabi dasturlar qo‘llaniladi.

Pedagogik dasturiy vositalar yaratishda qo‘llaniladigan dasturiy vositalar tizimining bog‘lanishi aks ettirilgan. 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, matnli protsessorlar va maxsus

dasturlar yordamida pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda, foydalanuvchi undan qisman foydalana olmaslik bilan bog‘liq muammolar tug‘ilishi mumkin. Foydalanuvchi pedagogik dasturiy vositalar yaratilgan dasturiy ta’minotga ega bo‘lishi shart.



1-rasm. Dasturiy vositalar tizimining bog‘lanishi

Yuqorida keltirib o‘tilgan pedagogik dasturiy vositalardan foydalanadigan o‘qituvchilar uchun quyidagi talablarning bajarilishi yetarli deb hisoblaymiz:

– PDVning mustaqil o‘rnatish, sozlash ishlarining bajarishi;

– PDVning ham dasturchi, ham o‘qituvchi darajasida tushunish;

– PDVning uskunalari va unda hal qilinishi mumkin bo‘lgan barcha topshiriqlarga aniq bir masalaning yechimini olgan bo‘lishi;

– OT va PDVning yardo interfeys tillarini bilishi (Rus va Ingliz tillarini);

– fanga, mavzuga, topshiriqqa mos kalit so‘zlar tarjimalari va mos uskunalarni boshqarishni bilish;

– PDVning kichik muammolarni mustaqil hal qilish uchun dasturlashni bilish;

– PDVning barcha OTlarga mos keladigan va yangi versiyalarini ishlatish va

yangilashlarni bilish;

– sichqonchasiz, PDVni tugmalar yordamida boshqarish va funksional tugmalarni bilishi.

PDV uchun imkoniyatlarini kengaytiruvchi kutubxonalarni olish, o‘rnatish, sozlash usullarini bilish. Yuqorida keltirilgan talablar o‘qituvchilarga elektron qurilmalardan foydalanish uchun yuqori malaka talab qiladi. Bu bir-ikki kunda hosil bo‘lmaydi. Bunday talablarni bajarish uchun o‘qituvchi PDVda hal qilinishi mumkin bo‘lgan barcha topshiriqlarni yechib, natijalarini olish zarur.

O‘qituvchilarga bo‘lgan talablardek, o‘quvchilarga ham talablar bor. Chunki o‘quvchilar to‘g‘ridan–to‘g‘ri PDVlarda ishlab topshiriqlarni yechish, o‘zgartirish uchun ko‘nikma va malakalari yetarli bo‘lmaydi. Ularda qandaydir vaqtning o‘zida PDV bilan ishlash ko‘nimalarini o‘rgatish mumkin. Masalan, o‘qituvchining fan bo‘yicha olib boradigan to‘garaklarida fanning tegishli bobi o‘tilmasdan oldin o‘rgatilishi kerak. Sababi o‘quvchilar bu PDVlar bilan ishlash savodxonligini o‘zlashtirib olsa, bobning mavzulari va uning topshiriqlarini ortiqcha savollarsiz bajaradi. Agar ortiqcha savollar bo‘lsa, dars mavzusidan chiqib ketish holati bo‘lishi mumkin. Shuning uchun umumta’lim maktablarining axborot texnologiyalari ta’limiga oid fanlarga yo‘naltirilgan PDVlardan foydalanish uchun o‘quvchilar quyidagi talablar, amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi kerak deb hisoblaymiz.

– o‘quvchilar oldindan PDV muhiti bilan ishlashni bilishi;

– elektron qurilmadan foydalanishni idrok qila olishi (kompyuter, uyali smart telefon, televizor, planshet va boshqalar);

– axborot kirituvchi qurilmalarni boshqarishni bilish (klaviatura, sinchqoncha);

